

МАНДАВИЯТ АСОСЛАРИ

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

B. Karimov, F. Ziyayev

MA'NAVIYAT ASOSLARI

O'quv qo'llanma

Toshkent
«Iqtisod-Moliya»
2013

УДК: 37.017.92(075)

КБК: 87.60

Z-60

Taqrizchilar: f.f.d., prof. S. Mamashokirov,
f.f.d., prof. Z. Davronov

B. Karimov, F. Ziyayev

Z-60 Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, T.: «Iqtisod-Moliya», 2013-y.

Ma'naviyat haqida ko'p gapirish, yozish mumkin. Ammo, ma'naviyat falsafa emas, dunyoni har qancha izohlab, qonun-qoidasini tushuntirib berganingiz bilan siz aqli, bilimdon, mantiqiy fikrlovchi sifatida qadrlanishingiz mumkin, lekin, bular sizni ma'naviy barkamol ekanligingizdan dalolat bermaydi. Yana siz o'ta iste'dodli bo'lishingiz, Vatan, mustaqillik haqida ajoyib qasidalar bitishingiz mumkin. Albatta, iste'dod ham ma'naviyat nishonasi, ammo, ta'rifu tafsiflar bilan Vatan ravnaqi ta'minlanmaydi, mustaqillik mustahkamlanmaydi. Mustaqillik ma'naviyatining bosh mezoni, asosiy poydevori, mas'uliyatdir. Shu bois hamisha mustaqilligimizni asrab-avaylashimiz, mustahkamlashga hissa qo'shishimiz shart.

Qo'lingizdagagi ushbu o'quv qo'llanma iqtisodiy tizimga daxldor bo'lgan Toshkent moliya institutining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiq-qan holda bo'lajak iqtisodchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va ilmiy dunyoqarashlarini boyitish, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy jihatdan yetuk kadrlar tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

УДК: 37.017.92(075)

КБК: 87.60ya73



© «Iqtisod-Moliya», 2013
© B. Karimov, F. Ziyayev, 2013

Muqaddima

Dunyodagi barcha bilim va tajribalar, so‘z, tushuncha, tasavvur hamda xulosalar bevosita va bilvosita inson faoliyati bilan bog‘liq holda vujudga keladi, rivojlanadi, boyib, takomillashib boradi yoxud aksincha – eskirib, umrini o‘tab, zavolga yuz tutadi. Biroq, jahonda shunday bir buyuk hodisa borki, u odamzodning ongли hayoti mavjud ekan, hech qachon zavol ko‘rmaydi. Shuning uchun ham uni o‘ta noyob – fenomenal hodisa deb ataymiz. Bu sog‘lom fikrlaydigan, ezu gu orzu-umidlar bilan yashaydigan inson va jamiyat tomonidan hamma zamonlarda ham qadrlanib kelingan ma’naviyatdir.

Darhaqiqat, bashariyat o‘z aqlini tanigan, ruh va vujudning farqini, hayot ma’nosini, ezzulikning mohiyatini anglagandan buyon ma’naviyat unga hamroh bo‘lib kelmoqda. Inson ma’naviyat orqali tarixini, bugungi kuni va kelajagini tasavvur qilish, baholash va shu tariqa zarur saboq va xulosalar chiqarish imkoniga ega.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yurtimizda inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari oliy qadriyat deb e‘lon qilindi. O‘zbekistonda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etish masalasi qanchalik dolzarb va muhim vazifaga aylangan bo‘lsa, ma’naviyat haqidagi qarashlarni ham butunlay o‘zgartirish, bu borada zamon talab qilayotgan azaliy mezonlarni, bu noyob hodisaning asl ma’nomazmuni, ijtimoiy ahamiyatini tiklash ham o‘tkir zaruratga aylandi. Bunday keng qamrovli masalalar Prezidentimiz Islom Karimovning asarlarida ham nazariy, ham amaliy jihatdan har tomonlama chuqur asoslab berildi. Shu bois, istiqlol yillari biz uchun hayotning barcha sohalarida yangilanish va o‘zgarishlar bilan birga, tom ma’nodagi ma’naviy tiklanish va yuksalish davri bo‘ldi.

Prezidentimiz Islom Karimov 1992-yildayoq, «Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra ma’naviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak, deganlar haq bo‘lmasalar kerak. Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch - qudratidir.»¹ – deb ta’kidlagan edi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллый истиқдол, иқтисад, сиёсат мағкура. Асарлар тўплами. 1-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996. 81-бет.

Shu sababli ma'naviyatni rivojlantirish, xalqimizning buyuk buniyodkorlik ishlarida unga tayanish davlat siyosati darjasiga ko'tarildi. Ayniqsa, Prezidentimizning 1994-yil 23-aprelda Respublikamizda «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tuzish to'g'risida», 1996-yil 9-sentabrda «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida», 1999-yil 3-sentabrda «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmonlari, shuningdek, 1998-yil 24-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ma'naviy va ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi buning isbotidir.

Ana shu farmon va qarorlarga asosan Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1997-yildan boshlab, barcha oliy o'quv yurtlarida «Ma'naviyat va ma'rifat asoslari» maxsus kursini o'qitishni yo'lga qo'ydi.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi ma'ruzasida O'zbekistonning XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarda mamlakatimiz rivojlanishining ustuvor yo'naliishlarini belgilab, «ikkinchi ustuvor yo'naliish – jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat»ligini ta'kidlagan.

E'tirof etish kerakki, mustaqilligimizni mustahkamlashda va milliy o'zlikni anglashimizda ma'naviyat beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u xalqimizning, xususan, yoshlarimizning ruhan baquvvat, o'z vatani va millati manfaatlarining fidoyilari bo'lib yetishishlarida hamda yot mafkuralarga qarshi tura olishlarida juda muhim omil hisoblanadi. Prezidentimiz «Milliy istiqolol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasiga yozgan so'zboshida: «Oldimizga qo'ygan olivjanob maqsad – muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda»¹ deganida ayni haqiqtni aytgan edi.

Chindan ham ma'naviyat qanchalik yuksak bo'lsa, inson qalbida

¹ Миллий истиқолол гояси: асосий тушунча ва тамоилилар. Т.: Ўзбекистон, 2000. 5-бет.

johillik, yovuzlik, xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o‘rin qolmaydi, uning o‘rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik tuyg‘ulari yuksak darajaga ko‘tariladi, o‘zaro munosabatlarda samimiylilik, birdamlik, mehr-oqibat, e’tiqod, iymon, mas’uliyat va boshqa bir qator ijobiliy fazilatlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi sifatida yanada mustahkam o‘rin olib boraveradi.

Ana shu o‘ta muhim vazifalarni hal qilishimiz uchun mustaqillik ma’naviyatini shakllantirish va milliy istiqlol g‘oyasini chinakam moddiy kuchga aylantirish strategik ahamiyatga egadir. Bu o‘z navbatida biz qo‘lga kiritgan istiqlolning ma’no va mazmunini, milliy o‘zligimizni to‘la anglashimizga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularimizni mustahkamlashimizga, Vatan va millat istiqboli uchun har birimiz mas’ul ekanligimizni teran tushunib yetishimizga da’vat etadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asariga asoslanganli. Ushbu fenomenal asarda ma’naviyatning shaxs kamoli, uning inson va jamiyat munosabatlardagi beqiyos ahamiyati, ayniqsa, istiqlol yillarda ma’naviy buлоqlarimiz ko‘zlarining ochilishi, ming-ming yillik ma’naviy obidalarimizning tiklanishi, sayqal berilib, asl holatiga keltirilishi orqali buyuk ajdodlarimiz jahon ilm-fani, ma’naviyati-yu madaniyati xazinasiga beqiyos hissa qo‘sghanliklari ilmiy-amaliy jihatdan to‘la isbotlanishi yorqin bo‘yoqlarda g‘oyatda ta’sirchan, yoritib berilgankim, bularning hammasi yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash, ota-onasi, millati, xalqi va vataniga sadoqat bilan xizmat qilish, ular bilan haqli ravishda faxrlanish, ozod va obod yurt bunyodkori ruhida tarbiyalashdek zamonaviy dolzarb masalalar har birimizning tafakkurimizda, qalbimiz va ongu shuurimizda qo‘ng‘iroq misol yangrab turganligi bilan benihoya qimmatlidir.

Shuningdek, «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asari O‘zbekistonda insonparvar huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini barpo etishda xalqimizni, shu jumladan, yoshlarimizni ezgu va oljanob maqsadlar sari ilhomlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ham Yurtboshimiz tomonidan tarixiy manbalar, aniq dalillar, hayotiy tajribalar-u, ibratli misollar asosida chuqur tahlil qilinib, ma’naviy taraqqiyotimizning strategik tamoyillari ko‘rsatib berilgankim, bularning bari ushbu o‘quv qo‘llanma

mualliflari fikrlari parvoziga qanot sifatida xizmat qilganligi yaqqol aks etib turibdi.

Shu nuqtayi nazardan, qo'lingizdagи «Ma'naviyat asoslari» o'quv qo'llanmasi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talaba hamda o'quvchilar, shuningdek, olimlar, tadqiqotchilar, mutaxassislar uchun mo'ljallangan va u mustaqil fikrga ega bo'lgan, o'zida zamon tabablari darajasidagi bilim va dunyoqarashni shakllantirgan, ma'naviy yetuk kadrlarni tayyorlash yo'lida qo'yilgan xayrli qadamlardan biri deb bilgaysiz.

Mualliflar bildirilgan fikrlar, takliflar va istaklar uchun barcha-barchaga samimiy minnatdorchilik izhor etadilar

I BO'LIM. MA'NAVIYAT VA UNING INSON KAMOLOTIDA TUTGAN O'RNI

**1-mavzu. «Ma'naviyat asoslari» fanining predmeti, maqsad
va vazifalari**

1.1. Ma'naviyat tushunchasining ta'rifi va tarixi

Milliy istiqlol tufayli asriy orzu-armoni ushagan o'zbek xalqi o'zligini anglashga muyassar bo'ldi. Mustaqillik unga o'z tilini, o'z dinini, milliy-madaniy merosi-yu, qadriyatlarini qayta tiklash, rivojlantirish va boyitish imkonini berdi. O'tmishini xolisona baholash, tarixini bo'y-basti ila o'rganish va to'g'ri xulosa chiqarib, o'z kela-jagini belgilashdek baxtga musharraf etdi. Bu esa milliy ma'naviyatning shakllanishi va ravnaq topishida ijtimoiy-siyosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

«Jamiyat taraqqiyotini, degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov, -faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma'naviy barkamolligi, demokratik va inson-parvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog'lik chuqur ildiz otganligi bilan baholaymiz».

Mustaqillik yillarda ma'naviy o'sish tufayli xalqimizning dunyo-qarashi tubdan o'zgargani, demokratik tamoyillar asosida yashashga bo'lgan intilishi kuchaygani, o'zini, o'zligini yorqin namoyon eta boshlagani bu fikrning isbotidir.

Ma'naviyat benihoya keng qamrovli, chuqur mazmun-mohiyatga ega tushuncha. Uning shakllanishida Qur'oni Karim, tasavvuf ta'lomi-yu, islom falsafasining ta'siri beqiyos ahamiyatga ega.

Islom ta'limotining islohotchilari Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubayd «ma'ni» so'zini mohiyat deb ta'riflaganliklari bejiz emas. Chunki ma'naviyat arab tilidagi «ma'ni» so'zidan olinganligi ma'lum. Shu nuqtayi nazardan qaraganda «ma'ni» tabiat va jamiyatdagi barcha narsalarning, voqeja va jarayonlarning mohiyatidir deyish mumkin.

Qadimgi hind falsafasida ma’naviyat ongning barcha ko‘rinishlari – aql, his-tuyg‘u, iroda singarilarning manbayi ekanligi haqidagi fikr ilgari surilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, «ma’naviyat shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqatning inson ongi, hissiyoti hamda irodasidagi mushtarakligidir» degan fikrga to‘xtalish mumkin. Demak, ma’naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni, ma’naviyat insonning mehr-muruvvat, halollik,adolat, sofdillik, or-nomus, vijdon, yurtparvarlik, zavqlanish, nafratlanish, iroda, dovyuraklik kabi qator xislatlari va fazilatlari majmuyidir.

«Ma’naviyat asoslari» fanining vazifasi komil insonni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va targ‘ib etishdan iborat bo‘lib, u madaniy-ma’naviy merosga tayanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Turkiston» gazetasi muxbiri savollariga bergen javobida shunday deydi: «.... endi oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi, bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma’naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o‘z haq-huquqlarini yaxshi taniyidigan, boqimandalikning har qanday ko‘rinishlarini o‘zi uchun or deb biladigan, o‘z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir». ¹

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, Prezidentimiz yetuk insonning ichki va tashqi qiyofasini nazarda tutib, ozod, erkin, o‘z huquqlarini biladigan, munosib yashash uchun o‘zining kuch-qudrati, bilim va tajriba-siga ishongan, o‘z manfaatini jamiyat manfaati bilan mushtarak holda ko‘radigan insonni nazarda tutmoqda. Binobarin, yuksak axloqiy xislat va fazilatlarga ega bo‘lgan kishilarda adolatlilik, mehr-muruvvat, sahovatpeshalik, ezgulik kabi tushunchalar to‘la shakllangan bo‘ladi. Ayniqsa, bu ularning odamiyligida yaqqol ko‘rinib turadi.

Tarixdan ma’lumki, bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga o‘tish jarayoni biron-bir davlatda oson kechmagan. Shubhasizki, moddiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar barobarida ma’naviy yangilanishlar ham ro‘y bergen. Buni O‘zbekiston misolida ham ko‘rish mumkin.

Hammamizga ma’lum bo‘lgan ma’muriy buyruqbozlik tizimiga asoslangan totalitar tuzumdan bozor munosabatlariga asoslangan

¹ Каримов И.А.: Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан курамиз. Асарлар тўплами 7-жилд Т. «Ўзбекистон», 1999, 304-бет

ochiq fuqarolik jamiyatiga o'tish davrida bu jarayon yaqqol ko'rindi. Chunki, bu davrda odamlarning turmush tarzi bilan bir qatorda ularning ongi ham yangilana boradi. Boshqacha aytganda, demokratik tamoyillar hayotga qanchalik chuqurroq kirib borishi odamlarning dunyoqarashi bilan bog'liq. Bunday holatda inson manfaatlari hamma narsadan ustun kela boshlaydi. Masalan, siyosiy jarayonlarni oladigan bo'lsak, ko'ppartiyaviylikka ehtiyoj tug'iladi. Yagona mafkuraviylikka chek qo'yilib, turli maskuralar haqida fikr yuritila boshlanadi. Ya'ni plyuralizm (ko'p fikrlilik) shakllana boshlaydi.

Xususiy mulkchilikning mavqeyi kuchayadi. Ijtimoiy guruuhlar tuzilishi jihatidan ham, xarakteri jihatidan ham o'z mavqeyini o'zgartiradi. Yangi sinf – mulkdorlar sinfi shakllanishi uchun zamin vujudga kela boshlaydi. Jamoat, davlat, xususiy mulk tuzilishi ham makonda, ham zamonda yangicha mazmun kasb etadi.

Jamoat tashkilotlarining nafaqat miqdori, balki ularning vazifalari, sifati ham o'zgaradi. Odamlarning qalbida yangicha yashash kayfiyati kuchayadi. Bu esa, mustaqil fikrlashga undaydi. Inson ongida tabiiy holda o'z qadriyatlarini, ma'naviy merosini asrash va tahlil qilish ishtiyoqi tug'iladi, shuningdek, o'zlikni anglash, kim edigu kim bo'ldik, degan savollarga javob izlay boshlaydi. Vatan, ozodlik, tenglik, birodarlik, kabi tushunchalar o'z mazmuniga ko'ra yanada serjilo, serqirra bo'lib ko'rindi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi xalqimiz qalbini to'l-qinlantirib yubordi. O'z tili, dini, urf-odatlari, qadriyatlar, o'zligi-yu boyliklaridan ajralayotgan xalq qaddini ko'tara boshladi. Bu jarayon-larning barchasi inson manfaati bilan bog'liq bo'lgani uchun ham tub islohotlarni amalga oshirishni taqazo etdi. Ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloq qilishga to'g'ri keldi. Yangi davrda ishlaydigan xodim-larni tarbiyalash, voyaga yetkazish dolzarb masalaga aylandi. Sobiq ittifoq davridagi o'zaro munosabatlar yangicha xarakterga ega bo'la boshladi. Respublika xalqining turmush tarzini qayta qurish uchun jiddiy harakat boshlanib ketdi. Yosh, mustaqil davlat o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi.

Bunday o'zgarishlar Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov nomi bilan bog'liq. «Karimov jamiyat osoyishtaligini buzishga olib keladigan, bilibmi, bilmaymi qilingan har qanday harakatni, ijtimoiy omillarni, kuchlarni payini qirqish bo'yicha juda ham

pishiq-puxta, bir tekis ish ko'rdi...»¹. Ushbu fikrda Islom Karimovning xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashga qaratilgan harakati yorqin ko'rinish turibdi, ma'naviy-ma'rifiy sohalar ham shu harakat bilan bog'liqidir. Mustaqillikning ilk davridayoq Prezidentimizning «Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir»² – deb ta'kidlaganligi bois ham ma'naviyatga e'tibor kuchaydi. Uning aholini tarbiyalashdagi o'rnini belgilash kun tartibiga kiritildi.

«Ma'naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur. Oliy haqiqat nuridir. Shu sababli inson ko'nglini «haqiqat asrorining ganjinası» deydilar. Faqat inson qalbi o'zida haqiqat nurini aks ettira olishi uchun unga sayqal bermoq zarur»³. «Ma'naviyat insonni hayvondan farqlab turadigan oliy qadriyat»⁴. Ko'rib turganimizdek, ma'naviyatga berilgan ta'riflar turlicha shaklda bo'lsa ham ularning barchasi inson faoliyatiga borib taqaladi. Inson faoliyatining turli tomonlarini baholaydi. Insonning ichki va tashqi xatti-harakati, go'zalligi, his-tuyg'u va kechinmalarini aks ettiradi. T.Mahmudov fikricha, «Ma'naviyat – insonning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir»⁵. Yoki boshqa manbalarda shunday ta'riflar bor: «Ma'naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuyidir» («Vatan tuyg'usi» kitobidan), «Inson barcha tirik mavjudotning gultoji, hayot guli deyilganda uning yuksak ma'naviyat egasi ekanligi nazarda tutiladi. Ma'naviyat insoniylikka olib boradigan, insonni inson, millatni millat qiladigan ajoyib xislat va fazilatlarning yig'indisidir»⁶. «Ma'naviyat insonning bilimi, tajribasi va mehnat malakasi, odob-axloqi, iymon va e'tiqodi, mafkuraviy qarashlarining yaxlit tizimidir.»⁷. «Ma'naviy yetuklik shunday bir xazinaki, uni egallagan odam insoniy qadr-qimmatini hamma narsadan ustun qo'ya oladi, o'z manfaatini o'zgalar manfaati bilan qo'sha oladi, hayot-mamot masalalari hal bo'layotgan damlarda

¹ Левитин Л., Ислом Каримов -Янги Ўзбекистон Президенти. Т.: Ўзбекистон, 1996, 10 - бет.

² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Асрлар тўплами, 1-жилд. Т.: Ўзбекистон. 1996, 80-бет.

³ Имомназаров М. Миллий маънавиятиймизнинг такомил боқичлари. Т.: «Маънавият» 1996, 6-бет.

⁴ Айзамов Э. Юксак пофона. Маънавиятнинг ойдин йўли. Т., «Маънавият», 1996, 32-бет.

⁵ Махмудов Т. Мустакиллик ва маънавият Т.: Ўзбекистон, 2001, 9-бет.

⁶ Эркасев А. Эзгулил сари йўналтирилган иродা. «Тафakkur», 1997 йил, 3-сон, 14-бет.

⁷ Гофуров З., Тошев С. Маънавият сабоклари, Қарши «Насаф» 1998 йил, 11-бет.

aql-idrok doirasidan chiqmaydi».¹ Bizningcha, ma'naviyat insonda yuqori darajada takomil topgan insonparvarlik xislatlarining yig'indisidir. Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ma'naviyat benihoya ko'p qirrali, chuqur mazmun va mohiyatga ega bo'lgan falsafiy tushunchadir. Ma'naviyat keng qamrovli bo'lganligi tufayli tor va keng ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda ma'naviyat insonning ichki ruhiy olamini ifodalovchi tushuncha sifatida ishlatsila, keng ma'noda esa inson unga amal qilish jarayonlari tushuniladi.

Yuqoridagi ta'riflarda insoniy fazilatlarga e'tibor qaratilgan bo'lsada, yuksak ma'naviy jihatlarni nihoyatda noyob xislat ekanligini Islom Karimovning «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida atroflicha aks etganligini ko'ramiz. «Ma'naviyat deganda, – deydi Yurtboshimiz, - avvalambor, odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchni tasavvur qilaman».²

Haqiqatdan ham, ma'naviyat deganda insonlarda shu xislatga oid jarayonlarning mujassamlashganligini e'tirof etibgina qolmasdan, balki insonlarni ruhan poklanishga, turli nojo'ya xususiyatlardan uzoq bo'lishga yordam beradigan xislatlarni ham tushunish kerak. Binobarin, har bir inson nafaqat jismonan ulg'ayishi balki, uning qalbidagi insoniylik xislatlari o'sib-ulg'ayishi, kengaya borishi, sermazmun bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki, insonning ichki dunyosi ham bir ummondir. Bu ummondagisi ijobjiy sohalar kuchliroq, baquvvaturoq bo'lgandagina u yuksak ma'naviyatli bo'la oladi. Yuksak ma'naviyatli odamlar qanchalik ko'p bo'lsa, bu o'z navbatida qurilayotgan yangi jamiyat poydevorining mustahkam bo'lishiga yordam beradi. Demak, yuksak ma'naviyat bu - Prezidentimiz aytganidek, iymon-e'tiqodni butun qiladigan insonparvarlik, jamiyatparvarlik, vijdonni kuchli qiladigan fazilatlardir.

Har bir insonni qamrab olgan ma'naviyat oddiyilikdan murakkablikka qarab borishi, ya'ni yuksak ma'naviyatlilikni mujassamlash-tirishi lozim. Inson yashashining mohiyati yuksak ma'naviyatlilikdadir. Yuksak ma'naviyatlilikning qirralari ko'p va sermazmundir. Yuksak ma'naviyatni hali yo'rgakdagi go'dakdan talab qilinmasada

¹ Эшонқулов А. Маннавият тарбияси. Мулокот, 1997, 1-сон, 20-бет.

² Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан курамиз. Асарлар тўплами. 7-жилд. Т.: Узбекистон, 1999, 302-303 бетлар.

uni shunga tayyorlash, insoniylik xislatlarini shakllantirish o'ta dolzarbdir. Shu sababli ham «go'dak ma'naviyati» degan ibora xalqimiz o'rtasida yo'q. «Go'dak odobi» haqida fikr yuritiladi. Demak, odobli bo'lishning o'zi yuksak ma'naviyatli bo'lish uchun kifo-ya bo'la olmaydi. Ammo insonda yuksak ma'naviyatning shakllanishida odob-axloqning o'miga teng keladigan jarayon yo'q. Odobli, axloqli bolalar yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lishga intiladilar. Bola shaxsga aylanishi uchun u o'zini chuqur taniy bilishi «men»ligini ko'rsatishi kerak. Bu «men»lik asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Bola o'zini tanishi, ya'ni inson bo'lishi uchun avvalo o'z ona tili, millati, millatining an'analarini, qadriyatlarini bilan tanisha borib, o'tmish, ijodiyot, tarix, iqtisodiyot, ijtimoiy faoliyat, madaniy-ma'naviy turmush tarzi bilan o'z «men»ligini boyitib borish orqali yuksak ma'naviyatli bo'lishga zamin hozirlaydi.

Inson ma'naviyatining mohiyati dialektik xarakterdadir. Uning turli tomonlari bir-biri bilan bog'langan. Shu sababli ma'naviyatning mohiyatini Prezidentimiz Islom Karimov quyidagicha izohlaydi: «Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni o'lchab ham, poyoniga yetib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir Olam. Yer, oila, ota-onasi, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sa-doqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma'naviyatning ma'nosi ana shunday keng. Inson uni Inson darajasiga ko'taradigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tom ma'noda qamray olmaydi. Inson o'zini xalqning bir zarrasi, deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi. Bizning odamlarimiz Vatandan uzoqlashganda juda iztirob chekdilar, chunki ularning ma'naviyat chashmasi go'yo uzoqlashib ketganday bo'ladi. Shuning uchun ham xalq Vatandan yiroqlikni og'ir qabul qiladi, chunki unda har bir qadrdon kishi uchun qayg'uradigan umumiy qalb bor»¹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonning ichki va tashqi ola-mini namoyon etuvchi murakkab jarayon va his-tuyg'ular yig'indisi ma'naviyatdir. Lekin bu hali to'liq ma'naviyat emas. To'liq ma'naviyat yuksak ma'naviyatni inson tomonidan qanchalik singdirilganligiga bog'liq. Yuksak ma'naviyat insonning, millatning aqliy salohi-

¹ Каримов И. А. «Ўзбекистон: миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мағкура» Асарлар тўплами. 1-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996, 80 – бет.

yatini o'zlashtirganligi bilan o'lchanadi. Yuksak ma'naviyat insonda namoyon bo'lishi uning tabiatlashuvi, jamiyatlashuvi, insonlashuvi kabilarni taqozo etishi kerak. Bu jarayon insonning ma'rifatlashuviga, ilmiyiliga bog'liq. Ilmdan to'g'ri foydalanish, undan to'g'ri xulosa chiqarish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ba'zilar o'zlar bilgan, e'tiqod etgan ilmdan o'zgalarni bahramand etmaydilar. Yuksak ma'naviyatli bo'lish ma'rifiy sohalarni ham qamrab oladi. Insoniy fazilatlarning aksariyat qismi bilimdonlikka bog'liq. Bilimdonlik esa ma'rifatilik demakdir.

Yuksak ma'naviyatli bo'lish ilm va ma'rifatga ham bog'liq. Yuksak ma'naviyat ilm orqali ham shakllanar ekan, bilim ham o'z xususiyatlariga ega. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega»ligi bejiz qonunan mustahkamlab qo'yilmagan.

Rasululloh sollalohu alayhi vasallam aytganlar: «Olloh taolo menga yuborgan hidoyat (Olloh taolo bandalariga ko'rsatgan to'g'ri yo'l, yo'llanma) singari ilm ham ko'p yoqqan yomg'irga o'xshaydir: ba'zi yer sof, unumdar bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradirda, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradir va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'zida to'playdir, undan Olloh taolo bandalarini foydalantirgaydir. Odamlar suvdan ichgaydirlar, hayvonlarni va ekinlarni sug'orgaydirlar. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir. Bularni quyidagicha muqoyasa qilish mumkindir: bir kishi Olloh ilmini (islomni) teran o'rganadir, teran tushunadir va undan ma'rifatlanadir va Olloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinchchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmaydir. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir. Bularidan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir». Bu sermazmun hadislarni o'rganish ham ma'rifatga borib taqaladi. Demak, ma'naviyat tushunchasi ma'rifat bilan hamohangdir (yoki bu tushuncha ma'rifat tushunchasi bilan uzviy bog'langan). Shu tufayli ma'rifat, ma'naviyat tushunchalari bir-birini to'ldiruvchilardir deyish mumkin. Ular dialektik bog'langan. «Ma'rifat» so'zi yakka va ko'plik ma'noda ishlataladi. Bu so'z arab tilidan olingen bo'lib, «bilish», «bilim», «tanish» kabi ma'nolarni bildiradi. Ko'plik ma'noda maorif, ta'lim jarayonlarini eslatadi. Ma'rifat «ma'ruf» so'ziga hamohang va

yaqindir. «Ma'ruf» so'zi oliyhimmat, yaxshilik qiluvchi ma'nolarini anglatadi. Bu so'z Yevropada birinchi marta atoqli nemis faylasufi I. Kantning «Ma'rifat nima?» nomli maqolasi bosilib chiqqandan so'ng keng qo'llanila boshlangan. Ma'rifat insonning bilim darajasi va unga aloqador bo'lgan jihatlarni aks ettiruvchi tushunchadir. «Ma'rifatli inson» so'zi ishlatilsa, demak, u yoki bu inson bilimli, bilimdon, o'qimishli, ko'p narsani mushohada qiladigan inson sifatida gavdalanadi. «Ma'rifat»siz, deganda shu jarayonlardan xabarsiz kishi tushuniladi.

Demak, ma'rifat deb, insonning umumiy ma'naviy madaniyatni, saviyasini yuksaltirishga qaratilgan ta'lim va tarbiyaviy bilimlarga aytildi.

Ma'rifatli inson bilimlidir. Bilim insonning fazilatini ulug'lovchi xususiyatlardan biridir. Bilim olish ma'rifatli bo'lish, turli sohalarda ma'naviy va moddiy g'alaba qilish uchun zarur. Bilimsiz, ma'rifatsiz kishi himoyasizdir. Ma'rifat orqali inson o'z ongini boyitadi va barcha moddiy, ma'naviy boyliklardan bahramand bo'ladi. «Ma'rifatning maqsadi xarakterni tarbiyalashdan iborat» degan edi ingлиз faylasufi Gerbert Spenser. Ayniqsa, bozor munosabatlariiga o'tish jarayonlarida insonlar ma'rifatli bo'lmas ekanlar, ular hayot qiyinchiliklariga bardosh bera olmay, qiynaladilar.

Bilimli, ma'rifatli kishilarning ko'payishi jamiyat boyligidir. Baxtiyor kelajak bilim bilan yaratiladi. Istiqbolning kafolati bilimli kishilardadir. Ma'naviyatni yuksaltirish ham ma'rifatga bog'liq. Milliy qadriyatlarni, uning tarixini, kelajagini anglash ma'rifat orqali amalga oshadi. Buning uchun bilim bilan quronlanmoq kerak. Yaxshi yashash, baxtli bo'lmoq ham bilim orqali amalga oshadi. Inson qanchalik ko'p bilsa, uning kuch-qudrati shunchalik oshaveradi. Tevarak-atrofni bilish, jamiyat taraqqiyotini tushunish, hodisalarga baho berish ham bilim va ma'rifat orqali amalga oshadi. Mashhur faylasuf F. Bekon fikricha, «Bilim-kuch, kuch esa bilimdir». A.Rudakiy aytadiki: «Bilim barcha kulfatlarga qalqon». Ilmi va ma'rifatli bo'lish cheksizdir. Buyuk faylasuf Per Laplasning fikricha, «Bilganlarimizning cheki bor, bilmagan narsalarimizning esa hadcheгараси yo'q». Yoki alloma A. Firdavsiy ta'biricha:

Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.

Inson bilim orqali dunyon qanchalik ko'p bilib borsa, o'z faoliyatini ham shunchalik yaxshi anglay boradi. Umrning ziynati,

mazmuni ham insonning o‘z bilimi orqali yuqoriga qarab intilishi-dadir. Bilim olish uchun vaqtini ayamaslik, vaqtidan foydalanish lozim. Xulosa qilib aytganda inson ma‘rifat va bilim orqali yuksak ma‘naviyatlilik cho‘qqilarini egallaydi, barkamol, komil inson bo‘lib etishadi. Shu sababli «Ma‘naviyat asoslari» fani komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Bu vazifa ma‘naviyat qirralaridan tashkil topadi. «Ma‘naviyat asoslari»ning bahs yuritadigan sohalari ham shu qirralardan iborat. Bularga quyidagilar kiradi: axloq va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, insonparvarlik, diniy e‘tiqod, ota-onasi va farzand o‘rtasidagi munosabat, mustaqillikni mustahkamlash tafakkuri, bilimdonlik, do‘stlik, rostgo‘ylik,adolat-parvarlik, poklik, halollik, iymon-diyonat, mehr-shafqat, komil inson, barkamol avlod, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy ma‘naviyat, ma‘naviy madaniyat, mehr-muhabbat, yovuzlik, zolimlik, shuhratparastlik, laganbardorlik, xayolparastlik, poraxo‘rlik, xasislik, urf-odatlar, yolg‘onchilik, qo‘rroqlik, botirlik, mardlik, odoblilik va odobsizlik, kamarinlik, samimiylilik, haqgo‘ylik, do‘stlik, soddalik, halollik, or-nomuslilik, insoniylik, baynalmilallik, mehnatsevarlik, baxt-saodatlilik, sovuqqonlik, tuhmat va maqtov, donolik, olimlik, erkinlik, vijdonlik, insoniylik, oilaviy munosabatlar, sevgi va rashk, irodalilik, sabr-toqatlilik, ichkilikbozlik, ikkiyuzlamachilik, takabburlik, ayyorlik, yoshlik, keksalik, maqtanchoqlik, milliy g‘urur, minnatdorlik, mansabparastlik, g‘arazgo‘ylik, beodoblik, qadr-qimmat, suhbatlashish madaniyati, ezm Malik, jur‘atsizlik, dimog‘dorlik, aqlilik, bekorchilik, o‘git-nasihatlar va boshqalar.

To‘g‘ri, ma‘naviyatning qirralari bitmas-tuganmasdir. Biz bu yerda inson ma‘naviyatiga tegishli ba’zi bir faoliyatlarni keltirdik, xolos. Ma‘naviyat fani mavzulariga kiritilgan bu tushunchalar asosiy mavzularni to‘ldirishga yordam beradi. Mazkur tushunchalar «Ma‘naviyat asoslari» fanining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu tushunchalardan asosiy mavzular tanlab olinib, ma‘naviyatning tarkibiy qismlari shakllantiriladi va shular orqali «Ma‘naviyat asoslari» o‘rgatiladi.

1.2. «Ma’naviyat asoslari» fanining kategoriyalari, qonuniyatatlari

Jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etadigan ma’naviy mezonlar va tamoyillarni, shu sohaga xos narsa va hodisalar, voqeа va jarayonlarni aks ettiradigan eng muhim va umumiy tushunchalar tizimi. Ma’naviyatning mazmun-mohiyatini, uning boshqa sohalardan farqini, o’ziga xos xususiyatlari va namoyon bo‘lish shakllarini ifoda etadi. Ular shu sohadagi narsa va hodisalarning ayrim, alohida jihatlarini emas, balki umuman, insonning ma’naviy va ruhiy olamiga, g‘oya, axloq, ma’rifat, madaniyat, din va boshqa umumiy belgilar, aloqalar va munosabatlarni ham aks ettiradi. Ma’naviyat kategoriyalari ma’naviy hayotni chuqur va mukammal ifodalashi, uning barcha sohalarida amal qilishi bilan bu boradagi oddiy tushunchalardan farq qiladi. Shu tufayli ushbu sohaga aloqador har bir aniq tushunchaning xususiyati va belgilarini anglashda ma’naviyat kategoriyalariga asos va mezon sifatida murojaat etiladi. Kategoriyalarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushunish va ularni tasniflash, har bir fan, qolaversa, insoniyat hayoti va ijtimoiy tafakkur rivoji uchun nihoyatda muhim bilimlari va fan yutuqlarining amaliyotga mosligi - haqiqat, inson huquqlarining oliv ifodalari - erkinlik va tenglik; siyosatning to‘g‘riliqi - adolat, odamlar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar - do‘stlik; eng hokisor va beg‘araz tuyg‘ular asosidagi qalblarning bog‘langanligi - muhabbat, orzu-umidlarga erishganlik – baxt-saodat, o‘z yurtini sevmoq va ardoqlash - vatanparvarlik va h.k. Ushbu ideal-kategoriyalar va ularga nisbatan teskari ma’noni anglatadigan yomonlik, jaholat, yolg‘on, erksizlik, tengsizlik, adolatsizlik, dushmanlik, nafrat, xiyonat va boshqalar hayotda muayyan tarzda namoyon bo‘ladi.

Ma’naviyat kategoriyalari tizimini ta’riflashda axloq, madaniyat, g‘oya, mafkura, ma’rifat va din bilan bog‘liq boshqa ko‘plab xususiy tushunchalarni ham nazardan qochirmaslik lozim. Ular ma’naviyat kategoriyalari tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, ma’naviyat kategoriyalari ushbu tushunchalar uchun umumiy mezon vazifasini bajaradi. Ma’naviyat kategoriyalari bir tomonidan, inson tafakkuri mahsuli, ikkinchi tomonidan, ma’naviy voqeа va hodisalarning inson ongida aks etish natijasi, uchinchidan esa inson ongini voqelikka yaqinlashishi va dunyoni bilish vositasidir. Ma’naviyat kategoriyalari

ma'naviy hayat hodisalarini anglashda nazariy va metodologik ahamiyat kasb etadi. Bunda ma'naviyat kategoriyalari birinchidan, insonning jamiyatdagi hodisalar mohiyati va mazmunini, ularga xos qonuniyatlarni anglash jarayonida erishgan bilimlarining natijasi, ikkinchidan, hayotni yana ham chuqurroq bilish va uning sirlari hamda qonuniyatlarini ochishda qo'llaniladigan muhim ilmiy vositalar hisoblanadi. Ularni bir-biridan ajratib yoki mutlaqlashtirib yuborish noto'g'ri. Chunki ma'naviyatning o'zi bir butun, yaxlit va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lganidek, ma'naviyat kategoriyalari ham o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Ilm-fanning vazifasi ularni bir-biridan farqlay olish hamda umumiy aloqadorlik va bir butunlikda tadqiq etib, ma'naviyatning xususiyat va belgilarini ochish, amaliyotda uning imkoniyatlaridan ijodiy foydalanishga ko'maklashishdan iborat. Ilmiy-nazariy va metodologik nuqtayi nazaridan olganda, ma'naviyat kategoriyalari obyektiv ahamiyatiga ega. Ma'lumki, kategoriyalarni tarixda birinchi bo'lib, Aristotel ta'riflab bergen va bu ijtimoiy fikr taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. O'sha davrdan boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategoriya va tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Bu masalaga ko'plab mutafakkirlar va atoqli faylasuflar ham katta ahamiyat bergenlar. Masalan, Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobida insonga xos xislat va fazilatlarni «Yaxshi xulqlar» va «Yomon xulqlar»ga ajratgan, ularni milliy pedagogika nuqtayi nazaridan ta'riflagan.

Ammo, ma'naviyatshunoslik hozirgacha alohida fanga aylanmagan uchun unga xos qonun va kategoriylar, tushuncha va tamoyillar umumiy tizimga keltirilmagan edi. Hozirgi zamon ilm-fanida bu masala Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asari mazmun-mohiyati bilan hal etildi. Mazkur asarga tayangan holda ma'naviyat kategoriylarining ma'nosi, namoyon bo'lish xususiyatlari va shakllarini muayyan tizim sifatida tavsiflash uchun nazariy-metodologik asoslar yaratildi. Asardagi fikrmulohazalarni umumlashtirib aytganda, ma'naviyat kategoriylarining har biri uzoq tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan va insoniyat hayoti hamda jamiyat tarraqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etgan keng ma'noli tushunchalardir. Ma'naviyat, ^{ta'rif} oya, mafkura, madaniyat, ma'rifat, din, axloq, nafosat bu sohadagi asosiy kategoriylar tizimini tashkil qiladi. Shuningdek, insonga vos ruhiyat,

uning qalbi va ongi, ma'naviy qiyofasi, his-tuyg'ulari va kechinmalari majmuyi ham ana shu tizim doirasiga kiradi. Ushbu kategoriyalar insoniyat tarixi va jamiyat taraqqiyoti jarayonida bordaniga va bir yo'la shakllanib qolmagan. Shubhasiz, insoniyat uzoq davom etgan tarixiy jarayonda ma'naviy hodisa va narsalarga xos xususiyatlar va belgilarni chuqurroq anglab, ulardagi juz'iy va umumiy tomonlarni muttasil o'rganib borgan. Ana shu asosda ezgulik, yaxshilik,adolat, do'stlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, sadoqat, vafo, e'tiqod, iymon kabi ko'plab tushunchalar shakllangan. Ular inson kamoloti, jamiyatning ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib boravergan. Shu ma'noda ma'naviyat kategoriyalari insonning hayot hodisalari va ular bilan bog'liq voqelikning mohiyatini, umrning mazmuni va ma'nosini, o'zining jamiyatdagi o'rni va qadr-qimmatini muttasil anglab borishi natijasida shakllangan tushunchalardir.

Ma'naviyat kategoriyalarining namoyon bo'lish shakllari orasida o'z ahamiyatini, ijobjiylik hamda foydalilik xususiyatlarini doimo saqlab qoladiganlari ham bor: inson vujudining tirikligi, uning umri va hayoti, sihat-salomatligi, sog'lom nasl va avlodlar vorisligi, ijtimoiy faoliyati va munosabatlari, mehnati, bilimi, muomalasi va boshqalar shular jumlasidandir. Bular inson va jamiyat bor ekan, o'zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolaveradi, ularning qarama-qarshisi bo'lgan o'lim, kasallik, ma'nosiz hayot kechirish, bilimsizlik va boshqalar. ham tarixiy jarayonlarning doimiy hamrohidir. Tarraqiyotga intilish bor ekan, tanazzul va boshqa illatlar insoniyatni doimo ta'qib qiladi. Yuqoridagi ijobjiy kategoriyalarning ahamiyati ham ularga teskari bo'lgan jihatlarga nisbatan solishtirib, aniqlanadi. Ma'naviyat kategoriyalarining eng oliv shakllariga ideal kategoriyalar sifatida qaraladi. Jamiyat tarixining xamma davrlarida odamlar ezgu ideallarga intilib, ularga erishishni orzu qilib yashaydilar. Kundalik hayotda va ilmiy adabiyotlarda eng oliv ideal kategoriyalarga nisbatan bir qator ibora va tushunchalar keng qo'llaniladi: ma'naviy va axloqiy poklikning umumiy belgisi - yaxshilik; nafosat belgisi - go'zallik mazmunga ega bo'-lib, ma'naviy hodisalar va jarayonlar tufayli ro'yobga chiqadi, namoyon bo'ladi, hayotning o'ziga xos xususiyatlari, tomonlari, belgilarini ifodalovchi voqelik sifatida inson tafakkurida shakllanadi. Ularning har biri ma'naviyat yo'nalishidagi barcha fanlar uchun ilmiy-metodologik ahamiyatga ega bo'lgan umumiy kategoriyalar hisoblanadi.

Xullas, ma'naviyat kategoriyalari moddiy olamdan, uning tushunchalaridan tubdan farq qiladi. Ko'p hollarda ularning bahosi va qiymatini aniq raqamlarda ifodalash qiyin, ularga xos xususiyat va qadrli jihatlarni muayyan foizlar va ko'rsatkichlar bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu borada ushbu tushunchalarning qadri, inson va jamiyatga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Aslini olganda ma'naviyat kategoriyalaring aniq formulasi, timsolini topish qiyin, ularning mazmun-mohiyati, qadri va ahamiyatini ko'proq qiyoslash va taqqoslash orqali bilib olish mumkin. Shu ma'noda ma'naviyat kategoriyalari inson hayotining ajralmas qismi, jamiyatda amalga oshayotgan o'zgarishlar va jarayonlarning inson ongidagi in'ikosi, haqiqiy mezoni, bashariyat doimo intilib yashaydigan maqsad va ideallar majmuyi, hamma zamonlar uchun ularning mazmun-mohiyatini belgilaydigan eng muhim umuminsoniy qadriyatlarning ifodasi bo'lib qolaveradi.

Ma'naviyat qonuniyatları - ma'naviy sohaga xos voqeа va hodisalar, jarayonlar o'rtasidagi doimiy va takrorlanib turuvchi uzviy aloqadorlikni, insonning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, hayotning ma'no-mazmunini belgilab beruvchi yo'l-yo'riqlar, qonun va qoidalar majmuyini anglatuvchi tushuncha. Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida har tomonlama asoslab berilgan mazkur qonunlar xilma-xil tarzda, turli shakllarda namoyon bo'lsada, jamiyatdagi talablar, yashashning qonun-qoidalari, inson umrining mazmuni va hayot mezoni sifatidagi ahamiyatini saqlab qolaveradi. Bu borada ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi, ma'naviyatning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi, ma'naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi haqidagi qonunlar muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi qonuning mazmun-mohiyati va namoyon bo'lish xususiyatlariga «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida alohida e'tibor berilgan. Kitobda moddiy va ma'naviy olamning uyg'unligi bamisol parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslanib, jamiyatdagi har qanday taraqqiyot, o'sish va o'zgarishlarning zaminida ana shu ikki omilning uzviy aloqadorligi nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi misol va dalillar asosida ko'rsatib berilgan. Ma'lumki, inson va jamiyat hayotida moddiy va ma'naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o'rin tutishi, ularning

qaysi biri ustuvorligi to‘g‘risida xilma-xil qarashlar va yondashuvlar mavjud. Qadimgi yunon faylasuflaridan hozirgacha ba‘zi faylasuflar ruhiy olamni, ma’naviyatni birlamchi deb bilsalar, boshqalar esa moddiylikni asosiy o‘ringa qo‘yadilar va shu asosda materializm va idealizm kabi oqimlar ham shakllangan. Aclida moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yish, ularning birini ustun deb bilish, boshqasini e’tiborga olmaslik masalaga bir yoqlama qarashning yaqqol ifodasidir. Bunday bir yoqlama yondashuv hayot talabiga javob bermaydi, albatta. Ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi qonuni esa bundan farq qiladi, u biz yashayotgan hayotni yagona va yaxlit voqelik sifatida tushunish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi asarda ma’naviyatning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi qonuni ham asoslab berilgan. Ushbu qonun muayyan millat, jamiyat va davlat har bir taraqqiyot bosqichida shu davrga xos iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy rivojlantirish tamoyillari singari o‘ziga mos keladigan ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy tartiblar hamda tamoyillar tizimiga ham ega bo‘lishining tarixiy zarurat ekanini ifodalaydi. Haqiqatan ham inson va jamiyat hayotini ma’naviyatsiz tasavvur etib bo‘limgani kabi, ma’naviyatni ham inson va jamiyatdan ajratib bo‘lmaydi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar muqarrar ravishda ma’naviyatga, ma’naviyatdagi o‘zgarishlar esa jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazishi shubhasiz. Insoniyat tarixi va taraqqiyotiga mazkur qonun nuqtayi nazaridan qarash har bir davrning tuzilishiga muayyan ma’naviy qadriyatlar tizimi mos kelishini va bu tizim ijtimoiy voqeahodisalar bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. G‘oyaviy, axloqiy, madaniy, ma’rifiy va boshqa sohalarga aloqador tushuncha va tamoyillar ham ushbu tizimda o‘ziga xos o‘rinni egallaydi, ular orasidagi farq, tafovut va munosabatlar esa tizimdagι umumiyo‘zgarishlarga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqligi qonuni hodisaning o‘tmishdan kelajakka tomon rivojlantirish jarayonidagi tarixiylik va zamonaviylik, inkorni-inkor, vorislik va yangilanishning uzlusizligi va davomiyligi bilan bog‘liq tamoyillarning mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Mazkur qonuniyat Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida quyidagicha asoslab berilgan: «...ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig‘indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzlusiz jarayon bo‘lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma’naviy hayot

oldiga qo‘yiladigan talablar ham muttasil paydo bo‘laveradi».¹ Ushbu qonuniyatga ko‘ra, taraqqiyot jarayonida bir bosqichdan boshqasiga o‘tilganida iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda o‘zgarish bo‘lgani singari, ma’naviyat sohasida ham yangilanish ro‘y beradi. Bunda barcha ma’naviy mezonlar butunlay yo‘qolib ketmaydi, balki yangi davrning ijtimoiy tuzilishiga va zamon talablariga mos keladigan, eskisidan farq qiladigan yangi ma’naviyat tizimi shakllanishi zaruratga aylanadi. Bunday holatlarning uzlusiz takrorlanishi esa ma’naviyatning ijtimoiy voqelik va taraqqiyot bilan bog‘liqligini ifodalaydigan quyidagi muhim xulosaga kelish imkonini beradi: muayyan ijtimoiy vokelikka (ya’ni insoniyat taraqqiyotining biron-bir davriga, jamiyatning rivojlanish bosqichiga yoki davlat shakliga) muayyan ma’naviy tushuncha va tamoyillar tizimi mos kelganidek, o‘zgargan ijtimoiy voqelikka ham o‘zgacha ma’naviyat tizimi mos keladi. Ijtimoiy voqelik yoki ma’naviy hayotdagi o‘zgarishlar bir-biridan qisman ilgarilab ketishi yoki orqada qolishi ham mumkin, ammo bu mazkur qoidaning butunlay buzilishi degani emas. Ana shu qoida ma’naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liqlik qonunining asosiy mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, ma’naviy hayotning g‘oya, mafkura, axloq, madaniyat, ma’rifat bilan bog‘liq qonun va tamoyillari ham bor. Ular yuqorida ko‘rsatilgan qonunlar bilan birga ma’naviyatga xos qonun-qoidalar tizimini tashkil qiladi hamda shu sohadagi narsa va hodisalar, voqeа va jarayonlar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimni hozirgi zamondagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ayniqsa, hozirgi davrda jahonda, shuningdek, O‘zbekistonda ham ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning ma’naviyat sohasidagi xususiyatlarini bilib olish, ilmiy dalillarni tajribada qo‘llash, mazkur yo‘nalishdagi vazifalarni aniqlash, zarur chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

1.3. Ma’naviyat asoslari fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, uning maqsad va vazifalari

Ma’naviyat asoslari fani dunyoda o‘qitilayotgan 2000 dan ortiq fanlar va maxsus kurslarning barchasi bilan aloqada, desak xato bo‘lmaydi.

¹ Каримов И.А. Юксак мънавият – енгилмас куч. Т.: «Мънавият» 2008. 171-бет.

Ma'naviyat asoslari falsafa fani bilan bog'langan bo'lib, falsafaning kategoriya yoki tushunchalaridan, qonunlaridan foydalanadi. Falsafa bergen umumiy xulosalar Ma'naviyat asoslari uchun juda muhim hisoblanadi.

Falsafada o'qitiladigan ijtimoiy ong shakllari – san'at; madaniyat, axloq, estetika, din kabi sohalarsiz insonda yuksak ma'naviyatni shakllantirib bo'lmaydi. Bu sohalarda falsafa bergen umumiy, nazariy fikrlar «ma'naviyat asoslari» uchun mushohada obyektlaridir. Shuningdek, Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish jarayonida «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar», dinshunoslik, tarix, siyosatshunoslik, adabiyot, ona tili, iqtisodiyot nazariyasi, odobnoma, mantiq, etika, psixologiya, axloqshunoslik, sotsiologiya, ekologiya va boshqa fanlarga ham murojaat qilinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu Ma'naviyat asoslari fani tabiiy fanlar bilan bog'liq emas, degan fikrni bildirmaydi. Binobarin, tabiiy fanlardagi o'zgarishlar, kashfiyotlar ham inson ma'naviyati bilan aloqadorligini unutmasligimiz kerak. Kashfiyot qiluvchi olimlarning faoliyati ma'rifat bilan bog'langan. Ma'rifat esa ma'naviyatning tarkibiy qismidir. Demak, «Ma'naviyat asoslari» fani tushuncha va qonuniyatlarni rivojlantirish uchun tabiiy fanlarga ham suyanadi.

Ma'naviyat asoslari fani tushunchalari xilma-xildir. Ularning ba'zi bir xarakter va xususiyatlari ham falsafiy, ham ma'naviyidir. Ular o'zaro bog'langan. Shunday bo'lishidan qat'iy nazar, «Ma'naviyat asoslari» fanining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini quyidagicha aks ettirish mumkin: jamiyat, jamoa, shaxs va millat ma'naviyatlarini yuksaltirish.

Bular ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar bilan bog'liq qonuniyatlaridir. Bu sohalarni har biriga o'zgacha maxsus yondashish yo'llari va uslublari, jarayonlari bor. Mazkur ma'naviy yuksalishlarga umumiy holda yondashib bo'lmaydi. Lekin ularning o'zaro aloqadorligini unutmasligimiz talab etiladi. Yuksak ma'naviyatli insonni shakllantirish qonuniyatlaridan tashqari milliy va umuminsoniy ma'naviyat qonuniyatları ham mavjud, jumladan: a) turli ijtimoiy guruuhlar ma'naviyatining yuksalish qonuniyatları; b) millatlar o'rtasidagi ma'naviyat xislatlari uyg'unlashuvi yuksalish qonuniyatları; v) umuminsoniy urf-odatlar, qadriyatlarning yaqinlashish qonuniyatları va hokazolar.

Bu ko'rsatilgan qonuniyatlar ham o'zlarining xususiy jihatlariga ega bo'lib, ba'zi sohalar chuqur tahlilni talab etadi.

«Ma'naviyat asoslari» fani ko'proq insonning his-tuyg'usi, ichki kechinmalari, o'zaro insoniy munosabatlari, insonning tabiat va jamiyatga bo'lgan ixtiyoriy tuyg'ulari bilan bog'langan. Bu jarayonlarning har biri inson ongiga mukammal singdirilishi «Ma'naviyat asoslari» fani bilan bog'liq bo'ladi. Axloqshunoslik fanidagi tushunchalar «Ma'naviyat asoslari» fani tushunchalari bilan uzviy aloqada. «Ma'naviyat asoslari» ayniqsa, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bilan ham yaqindan aloqada va bog'lanishdadir. Ma'lumki, «Milliy istiqlol g'oyasi» fanida g'oya va mafkura tushunchalari, ularning insoniyat tarixi va taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatgani, hozirgi davrning mafkuraviy manzarasi, dunyonи bo'lib olish uchun kurash, yosh g'oyalarning mintaqasi va mamlakatimiz aholisiga ta'siri, mamlakatda barpo etilayotgan jamiyat va bu jarayonda milliy va umuminsoniy g'oyalarning qay tarzda ahamiyat kasb etishi o'z aksini topgan. Zikr etilgan sohalar insonning ruhiyati va ma'naviyati bilan bog'liq. Yuzaki qaraganda bu fanlar nisbatan bir-biridan uzoq tuyulsada aslida chambarchas bog'langandir. Bu fanlarni o'zaro bog'langan holda tahlil qilinsa, ularning ta'sirchanligi oshadi. O'quvchi tomonidan yengilroq qabul qilinadi. Masalan, milliy istiqlol g'oyasi avvalo ma'rifat orqali singdiriladi. Ma'rifatsiz milliy istiqlol g'oyasining keng qirralari tushunilmaydi. Shu bilan birga milliy istiqlol g'oyasidagi Vatan ravnaqi, komil inson faoliyati, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, xalq farovonligini ta'minlashdagi omillar haqida so'z borganda, bu sohalarni yuksak ma'naviyatli kishilarda aks etishi haqida fikr yuritiladi. Zero, istiqlol g'oyasining oliy maqsadi ezgu g'oyalarga tayangan holda xalqning o'z buyuk kelajagini bunyod etishga safarbar etishdan iboratdir. O'zbekiston aholisini hozirgi hayot talablariga javob beradigan g'oya asosida mustahkam irodali, yuksak e'tiqodli, vatanparvar va insonparvar qilib tarbiyalash yuksak ma'naviyat bilan bog'langan. Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kishilar yuqoridaagi jarayonlarga xalq manfaati nuqtayi nazaridan yondashadi.

Ikkala fanda ham insonlarda ezgu niyatlarni tarkib toptirgan g'oya mujassam. Milliy istiqlol g'oyasi fani fuqarolarda mustaqillik dunyoqarashini va erkin fikr yuritish, mustaqil tafakkurga ega bo'lish,

sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishga yordam bersa, «Ma'naviyat asoslari» mazkur fan uchun zamin tayyorlaydi va ushbu yo'naliishda barchani tarbiyalashga ko'maklashadi. Istiqlol g'oyasi jamiyatni yot va begona g'oyalar ta'siridan himoya qilish, fuqarolarimizda masifikuraviy immunitetni shakllantirishga harakat qilsa, «Ma'naviyat asoslari» fani insonlarda Vatan tuyg'usi, mehnatsevarlik, insonparvarlik, sahovat, yaxshilik, poklik, halollik kabi yuksak ma'naviy tuyg'ular nazariyalarini ishlab chiqadi va milliy istiqlol g'oyasini yoshlarga singdirishni tezlashtiradi. Bu fanlar o'rtaqidagi munosabat va aloqadorlik nisbiy bo'lsada, ikkala fanning bahs mavzulari turlichadir. Yuqorida ta'kidlanganidek, axloqshunoslik fani tushunchalarining ba'zilari bilan yaqin aloqadadir. Insonning ichki va tashqi go'zalligi, axloqiy xislatlari donishmandlar hikmatlari, rivoyatlar axloqshunoslik fanida ham o'rganiladi. Ammo bunda ularning tarixiy kelib chiqishi, mansublik doiralari chuqurroq o'rganilsa, ma'naviyat asoslarda esa bularga amal qilish natijalariga ko'proq e'tibor qaratildi. Yoki siyosatshunoslik fanini olsak, u ham ma'naviyat asoslari bilan aloqadadir. Sababi, siyosat bilan shug'ullanuvchilarning ma'naviyati «Ma'naviyat asoslari» fanida muhokama qilinadi. Shu bilan birga, siyosatning o'zi ma'naviyat bilan aloqada bo'lib, jamiyat ruhiy holatining shakllanishida bu ikkala soha muhim o'rinni egallaydi. Jamiyat siyosatini to'laligicha qabul qilmagan va o'z ma'naviyatini siyosatdan ustun qo'ygan shaxslar kam emas.

Siyosatda talablar o'ziga xos xususiyatga ega. Shaxsiy intilishlar davlat va jamiyat manfaatlariga mos tushmasligi mumkin. Shu jihatdan haqiqiy siyosatdonlar ma'naviyat asoslari e'tibor qaratib, undan o'z maqsadlarida foydalanishi zarur. Oqilona siyosat yuritish uchun yuksak ma'naviyatlilik talab etiladi.

«Ma'naviyat asoslari» fani «Dinshunoslik» fani bilan ham yaqindan aloqada. Dinshunoslikdagi iymon, e'tiqod, halollik, insonparvarlik, ilm, mehnatsevarlik, yaxshilik va boshqalar to'g'risidagi sohalar «Ma'naviyat asoslari» fanida tahlil qilinadi va bu sohalar jamiyatning ma'naviy muhiti bilan bog'lanadi. Ma'naviy, diniy sohalar o'zaro munosabatda ekanligi, ularning aksariyat qismi mujassam bo'lgan shaxslar jamiyatning kelajagi «Ma'naviyat asoslari» fanida ta'kidlanadi. Yoki pedagogika fanini oladigan bo'lsak, bu fan ta'limtarbiyaning nazariy asoslarini hal etib bersa, bu nazariyalarning

amaliyotdagи tasdiqlari «Ma'naviyat asoslari» fanida o'z aksini topadi va hokazolar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu fanlar shaklan har xil bo'lsada, mazmunan bir-birini boyitadi va to'ldiradi.

O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchilar yuksak ma'naviyatga ega bo'lmoqliklari zaruriyatdir. Zero, ulardan avvalo, aqlli, odobli, mehnatsevar, bilimli, siyosatdon, milliy g'ururli, vatanparvar, insonparvar, halol, qo'rmas, baynalmilal, sofdir bo'lishlari talab etiladi. Bu xislatlarni har bir shaxsda shakllantirish mazkur fanning maqsadidir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan Prezident Islom Karimovning ulkan sa'y-harakatlari yordamida, dunyoviy bilimlarni rivojlantirgan ajdodlarimizning hurmatini o'rniga qo'yish, ilm-ma'rifat, ma'naviyatning yuksakligini tarannum etgan buyuk bobokalonlarimiz hayoti va faoliyati haqida yoshlarga keng qamrovli ma'lumot berish imkoniyati yaratildi. Bu ezgu ishda «Ma'naviyat asoslari» fani kamarbasta bo'lmoqda.

Xalqimiz milliy g'ururini ko'tarish jamiyatning ma'naviy qiyofasini o'zgartirishga olib keladi. Ma'naviyat asoslari fani ana shu dolzarb muammoni ham o'rtaga qo'yadi va uni hayotga tatbiq etadi. O'zbek xalqining qadimiy tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari haqida hozirgi avlod ko'proq bilishni istaydi. Bu borada ularga «Ma'naviyat asoslari» fani eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda mamlakatimizda Vatani va xalqiga jonkuyar, mustaqil fikrlaydigan, respublika muammolarini ongli ravishda mas'uliyat bilan hal eta oladigan ijodkor, yangilikka intiluvchan, istiqlol g'oyalari va mafkurasiga sadoqatli avlodni voyaga yetkazish vazifasi «Ma'naviyat asoslari» fanining diqqat markazida.

Barcha islohotlarning taqdiri va ularning samarasini uchun javob beradigan, mamlakatimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoiy insonlarni tarbiyalash borasida ustuvor davlat siyosati yuritilmoqda. Shu sababli «Ma'naviyat asoslari» fani dasturida ko'zda tutilgan mavzular mohiyat jihatidan ulkan maqsad va vazifalarni ko'zlaydi. Bu fan mavjud intellektual imkoniyatlarni ishga solishga, milliy istiqlol mafkurasini g'oyasini tushuntirishga, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashga, oliyanoblik tuyg'ularini chuqurlashtirishga, bu-yuk o'tmishtga hurmat va porloq kelajakka ishonch tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu fan qadimgi O'rta Osiyo xalqlari ma'naviyati shakllangan jarayonlarni, islam dinidagi yuksak jamiyat ma'naviyati va shaxs ma'naviyatini, O'rta asrlardagi O'rta Osiyo falsafiy tafakkuri ma'naviy muammolarini, Amir Temur va temuriylar sulolasi davridagi ma'naviyatni, jadidchilik davridagi ma'naviyat va ma'rifatparvarlikni, mustamlakachilik va qaramlik yillaridagi ma'naviyat masalalarini tahlil qilibgina qolmasdan, ularning nazariy, amaliy jihatlarini ham o'rtaga qo'yadi.

Barkamol inson haqida so'z yuritganda avvalo, «Ma'naviyat asoslari» fani uning qirralarini ochib berishini aytish lozim. Shu bilan birga bu fan barkamol inson tushunchasi orqali Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi aloqadorlikni o'rtaga qo'yadi, tahlil qiladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarining chambarchas bog'liqligi va farqlarini tushuntirishda «Ma'naviyat asoslari» fanidan foydalaniladi. Ma'naviyat asoslari insonlardagi iymon, diyonat,adolat, mehr-shafqat, poklik, halollik va vafodorlik, mehnatsevarlik xislatlarining o'ziga xos xususiyatlarini, milliy o'zligini anglash va uni mustahkamlash, baynalmililik jarayonlarining shaxs faoliyatidagi o'rnini, huquqiy jarayonlarining ma'naviyatga ta'sirini, umuman, shaxsni barkamollik cho'qqilariga chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi fandir.

«Ma'naviyat asoslari» fani asosan, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng paydo bo'ldi. Uning ta'lomi qadimiy bo'lsa-da, o'zi navqiron. U muammolarni o'rtaga qo'yibgina qolmaydi, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yangi zamonaviy sohalarining paydo bo'layotganligini ko'rsatib ham beradi. To'g'ri, XX asr – texnika taraqqiyotining olg'a qarab borishini ta'minlagan bo'lsa, XXI asr ham shunday bo'ladi. Insoniyat qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Texnika taraqqiyoti esa insonning ma'naviy va axloqiy muhitiga ta-sir etadi. Kompyuter, raketa, videotelefon, kimyoviy dori-darmonlar, asab sistemalarining o'zgarishi, ekologik jarayonlar, televide niye, kosmosning o'zlashtirilishi kabilar shular jumlasidandir. Ma'lumki, odamlar texnika yordamida boshqa sayyoralar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lmoqdalar. Demak, insonlar tafakkuri o'zgarayotir. Tafakkur va ma'naviyat esa bir-biri bilan chambarchasdir. Shu sababli, aytish mumkinki, ma'naviyat fanining maqsad va vazifalari yanada kengayib boradi, jiddiy tus ola boshlaydi. Uning muammolari ijtimoiy hodisa sifatida inson faoliyatining barcha qirralarini qamrab oladi.

Olamning salbiy yoki ijobiy tomonga o‘zgarishi inson faoliyati bilan bog‘liq. Bu faoliyat esa ma’naviyatsiz amalga oshmaydi. Tabiat va jamiyatning o‘zgarishi inson ruhiyati bilan ham bog‘likdir. Ruhiyat o‘z navbatida yashash sharoitlari, insonning turmush tarzi bilan doimiy aloqada. Shu sharoitlarni insonga mos qilib yaratish jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq. Binobarin, jamiyatning ma’naviy yuksalishi shu jamiyat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Ana shu jihatlar «Ma’naviyat asoslari» fanining maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

*Bilim, ma'rifat yaxshi
axloq bilan bezanmog'i lozim.*

Abu Nasr Farobiy

2-mavzu. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi, uning milliy mustaqillikni mustahkamlashdagi ahamiyati

2.1. Milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning nazariy hamda amaliy ahamiyati

Mamlakatning milliy taraqqiyoti unga rahbarlik qiluvchi yetakchiga bog'liq. Chunki u mamlakatning qaysi yo'lidan borishi, qanday maqsadlarni ko'zlashi va rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirishning strategiyasini belgilab beradi, uni real hayotga tatbiq etish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, rahbar o'zi tanlagan yo'lning aniq mo'ljalini, uning kelajakda mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan imkoniyatlarini aniq bilishi muhim. Bundan tashqari, u o'zi belgilab bergen vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakat aholisini o'z orqasidan ergashtirish salohiyatiga ham ega bo'lishi lozim.

Shuningdek, mamlakatga rahbarlik qilmoqchi bo'lgan yetakchi uni taraqqiy ettirishga xizmat qila oladigan taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishning imkoniyatlarini belgilab berishi talab etiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov yuqorida ko'rsatilgan barcha xususiyatlar va salohiyatni o'zida mujassamlashtirgan rahbar bo'lganligi uchun ham mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik vazifalarini aniq belgilab berdi va uni amalga oshirishning yo'naliishlari, uslublari hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqara oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili sifatida milliy-ma'naviy tiklanish jarayoni ustuvor o'rinni egalladi. Chunki ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, milliy kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi, mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib ham xizmat qiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik jamiyat qurishning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish milliy-ma’naviy tiklanish bilan uyg‘un holda bo‘lishi kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. Mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirishi jihatidan mukammal, fundamental dastur bo‘lgan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» nomli asarida u mustaqillikdan keyin O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy sohadagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi. Umuman, bu asar O‘zbekistonda yangi jamiyat qurishning ilmiga asoslangan dasturi hisoblanadi. Chunki unda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan barcha g‘oyalar o‘tgan qisqa davrda o‘zining ifodasini topdi va jamiyatimizni tubdan yangi bosqichga ko‘tardi.

Prezidentimiz ushbu asarida mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlarini ko‘rsatib berar ekan, «O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o‘z yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik¹, -deya ta’kidlaydi.

Asarda ana shu negizlarning mohiyati ham ochib berilgan. Jumladan, Prezidentimiz Islom Karimov shunday yozadi:

«Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbayi – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil qo‘snnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir».²

Muallif xalqimizning ma’naviy ildizlari chuqur ekanligini alohida ta’kidlaydi, ularni qayta tiklash va yangi mazmun bilan boyitish

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон. Миллый истиқол, иктисад, сиёсат, мағкура. Аспарлар тўлими I-жинд 1 «Ўзбекистон», 1996, 76-бет.

² Ўша асар, 76-77 бетлар.

zarurligini strategik vazifa sifatida belgilaydi. Bu masalaga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlayotganimizga asosiy sabab shuki, Prezidentimiz keyingi asarlarida ham ma'naviy mero simizni qayta tiklash g'oyasini ijodiy rivojlantiradi va uning millatimiz ma'naviy taraqqiyoti uchun asosiy yo'nalish bo'lishini asoslab beradi.

Islom Karimov xalqimizning buyuk fazilatlari haqida to'xtalib insonparvarlikning o'zbeklarga xos qirralarini ko'rsatib berishga e'tiborni qaratdi. Jumladan, «Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yotdir»¹. deydi.

Asarda ma'naviyatning xalqimiz ma'naviy ruhiyatini mustahkamlash va rivojlantirishdagi o'rni shunday asoslab berilgan: «Xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan»².

Ma'naviyatning milliy taraqqiyotdagi o'rni va uni o'zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan.

«Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi»³.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ana shu konseptual g'oyalar bugungi kunda milliy ma'naviyatni rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida xizmat qilib kelmoqda.

«Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'yash kerak, deydiganlar haq bo'lmasalar kerak. Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarini beradi»⁴, deydi davlatimiz rahbari.

Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan bu konseptual g'oya ning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, birinchidan, bu bilan mu-

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон. Миллий истиқтол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Асарлар тўплами. 1-жилд. Т.: «Ўзбекистон», 1996, 77-бет.

² Ўша асар, 80-бет.

³ Ўша асар, 80-бет.

⁴ Ўша асар, 81-бет.

allif sobiq sho'rolar davrida ma'naviyatni rivojlantirishga uchinchiligi darajali omil sifatida qaralishining, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy inqiroz sabablarini ham ko'rsatib beradi. Ikkinchidan, ma'naviyatni rivojlantirmsandan, shaxsning ma'naviy ruhiyatini o'zgartirmasdan turib jamiyatda ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligini ilmiy asoslab beradi.

Prezidentimizning yana bir muhim konseptual g'oyasi ma'naviyat shaxs -(ma'naviy barkamolligi)ning eng muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o'z-o'zini anglatuvchi va o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqartiruvchi ulkan omil ekanligining ilmiy asoslaganligidir.

Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlik shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligi ko'rsatib berilgan Haqiqatdan ham o'z vatanini sevmagan, uning har qarich yeri uchun mas'ulligini his etmagan inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi.

Shu o'rinda muhim bir masalaga aniqlik kiritish kerakkim, u ham bo'lsa, «milliy taraqqiyot» va «milliy tiklanish» tushunchalarining mohiyati, mazmuni va mezoni masalasidir. Tarixiy xotirasi va zaminlari mustahkam millatlar uchun bu tushunchalarning o'zaro uyg'un holatigina milliy taraqqiyotni ta'minlaydi. Lekin falsafiy kategoriya (tushuncha) sifatida va o'lchamlari (mezonlari) jihatidan ular bir-birlaridan farq qiladilar.

Milliy taraqqiyot evolyutsion xarakterga ega. U pastdan yuqoriga tomon ko'tarilishdan iborat bo'lgan jarayondir. U millatning shakllanishi, takomillashuvi va yuksalishi kabi uzlusiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy tiklanish esa, millatimiz taraqqiyoti tarixining ma'lum bir bosqichida, ma'lum bir obyektiv va subyektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qaytadan ushbu taraqqiyotga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan jarayondir.

Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, milliy tiklanish – u yoki bu millat hayotida sodir etiladigan, zo'ravonlik yo'li bilan uning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlardan mahrum qilingan, tarixiy xotirasi toptalgan, milliy o'zligini anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, huquqlari poymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichiga kelib esa

o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasida milliy rivojlanish borasida boy berilgan imkoniyatlarni istiqlol tufayli qo‘lga kiritib, yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni milliy rivojlanishga yo‘naltirishga qaratilgan umuminsoniy faoliyat hisoblanadi.

Prezidentimiz milliy-ma’naviy tiklanish vazifasini amalga oshirishga bag‘ishlangan konsepsiyalarini keyingi asarlarida ham ijodiy rivojlantirgan, yangi mazmun bilan boyitgan, taraqqiyotimizning yangi bosqichida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish ehtiyojlariga mos ravishda uning yangi yo‘nalishlarini belgilab bergan. Bu Yurtboshimizning «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz», «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Barkamol-avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», «Olloh qalbimizda, yuragimizda», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili», «Fan ravnaqisiz buyuk davlat qurib bo‘lmaydi», «Yuksak ma’naviyatsiz kelajak yo‘q», «Zamonaviy kadrlar-taraqqiyotimizning muhim omilidir», «Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono, va albatta baxtli bo‘lishlari shart», «Ma’naviy yuksalish yo‘lida», «Milliy istiqlol mafkurasi –xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir», «Tarixiy xotira va inson omili –buyuk kelajagimiz garovidir», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz», «Milliy mafkura – kelajak poydevori», «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman», «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kabi asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Prezidentimizning yuqoridagi asarlarida ilgari surilgan konseptual g‘oyalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- ma’naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirish, millatimizning o‘z-o‘zini anglashiga erishish, milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini izchillik bilan mustahkamlash;
- mustaqillik sharoitida milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish;
- jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni voyaga yetkazish;

- milliy-ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika – texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyat tizimi rivojiga hissa qo'shish;

- yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- insoniyat asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarni milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir.

Tarixiy xotira, Prezident Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo'lishi, eslanishi, qadrlanishini ifodalaydi. Inson o'zining tarixiy xotirasiga ega bo'lmasdan turib, hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunib yetolmaydi, o'z kelajagini tasavvur qila olmaydi. Shu sababli ham «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q».

Tarixiy xotira yuksak ma'naviyat tamoyillarining shakllanishi va rivojlanishi uchun asosiy manba vazifasini bajaradi. Xuddi shuning uchun ham hamma zamonlarda xalqning, millatning Tarixiy xotirasini mustahkamlash yurtning buyuk allomalari, davlat arboblari diqqat-e'tiborida bo'lgan.

Insoniyat avlodlarining o'zaro aloqadorligi natijasida vujudga kelgan qadriyatlar, ya'ni ajdodlar va avlodlarning ma'naviy merosi umuminsoniy madaniy meros xazinasiga qo'shiladi va asta-sekin Tarixiy xotiraga aylanadi.

Shuning uchun ham insonning ma'naviy yetukligi uning Tarixiy xotirasi bilan bog'lanadi, ya'ni tarix inson uchun buyuk xotira vazifasini bajaradi.

Prezidentimizning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asari bu borada asosiy ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur asarda o'zligini bilishga intilgan, kelajakka umid bilan qaragan odam, albatta, o'z tarixini va o'zining kimlarning nasli va avlodlari ekanini bilishiga qiziqishi to'g'risida shunday deyilgan edi: «Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va aminmanki to'g'ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir.

Kim bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olishish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi»¹.

Tarixiy xotiraning muhim vazifasi kishilarda o‘zlikni anglash tuyg‘usini tarbiyalash natijasida milliy g‘urur va iftixorni vujudga keltirishidadir. Milliy g‘urur va iftixor Tarixiy xotira asosida shakllanar ekan, u ajdodlardan qolgan moddiy va ma’naviy merosning boshqalar oldida nechog‘lik ulkan ahamiyat kasb etishini anglashdan kelib chiqadi va kishida faxr tuyg‘usini paydo qiladi, ajdodlardan, ularning insoniyat tarixidagi xizmatlaridan g‘ururlanadi.

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o‘tishi, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoyilik va ilhom manbayi hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz «Hozirgi O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabbarruk tuproqdan bu-yuk allomalar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan». «Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan bu nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish davri keldi»² deb ta’kidlaydi. Uning «O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixidan judo, bo‘lish hayotdan judo bo‘lish demakdir»³, degan g‘oyalarida har bir vatandoshimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganishi zarurligi milliy-ma’naviy tiklanishimizning bosh vazifasi ekanligini tushunib yetishga qaratilgandir.

I. Karimov: «Milliy mafkura vositasida el-yurt birlashadi, o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yadi va ularni ado etishga qodir bo‘ladi»⁴, deya milliy g‘oyaning vazifalarini aniq belgilab berdi: «... milliy g‘oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilish oliyjanob ishlarimizda madadkor bo‘lishi zarur»⁵ligini belgilab berdi.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.: Ўзбекистон 1998. 137-бет.

² Уша асар, 133-бет.

³ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз кўлнимиз билан курамиз. Асарлар тўплами. 7-жилд. Т.: Ўзбекистон 1999. 137-бет.

⁴ Уша асар, 92-бет.

⁵ Уша асар, 92-бет.

Jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishi, boz ustiga zo‘ravonlik asosida qurilgan jamiyatdan ma’rifatli, inson manfaatlari, shaxs erkinligi va kamolotiga xizmat qiluvchi demokratik jamiyatga qadam qo‘yishi oson kechmaydi, chunki eski tuzum illatlari hali saqlanib turadi, o‘z umrini uzaytirish uchun jon-jahdi bilan qarshilik ko‘rsatadigan kuchlar ham mavjud bo‘ladi. Yangi jamiyat esa qisqa muddatda qurilmaydi, balki ma’lum vaqtini, unda yashayotgan barcha insonlarning fidoiylik bilan mehnat qilishlarini talab qiladi. Xuddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma’naviy e’tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat tafakkurini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda ana shu muammolarni hal etish jarayonlari izchil olib borilmoqda. Ularni muvaffaqiyatli hal etishda ertangi kunimiz davomchilar bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz zarur. Shuning uchun ham Prezidentimiz og‘ir iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonlari qiyinchilik bilan kechayotganiga qaramasdan kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilish va hayotga tatbiq etish masalasini asosiy vazifa sifatida belgilab berdi hamda uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga rahbarlik qildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasidagi ma’ruzasida bu dasturning ahamiyatini shunday ta’kidlaydi: «Lo‘nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz».¹

Prezidentimizning milliy-ma’naviy tiklanishni amalga oshirishga xizmat qiluvchi yana bir konseptual g‘oyasi sog‘lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish zaruriyatining ilmiy asoslaganligidir. Uning sog‘lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan va ruhan baquvvat, yuksak bilimli, ma’naviyatli, tafakkurli, fidoiy va vatanparvar bo‘lishi kabi talablarga javob beradigan avlod nazarda tutiladi.

¹ Каримов И.А. Хафсизлик ва баркарор тараққиёт йўлида. Асарлар тўплами. 6-жилд. Т.: Ўзбекистон. 1998. 325-бет.

Jahoning rivojlangan mamlakatlari tajribalari ko'rsatib turib-diki, qaysi mamlakat yoshlari jismonan sog' bo'lib, zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qo'shadigan hissalari shunchalik samarali bo'ladi, ma'naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi.

Milliy taraqqiyotning yana bir qonuniyati jahonda erishilgan yutuqlardan va tajribalardan foydalanishga harakat qilmagan millat to'laqonli rivojlanmaydi va umumjahon sivilizatsiyasiga o'zining hissasini qo'sha olmaydi.

Shu ma'noda Prezidentimiz o'z asardarida milliy-ma'naviy taraqqiyotimizning muhim omili sifatida jahon xalqlarining ma'naviy taraqqiyotida erishgan yutuqlaridan keng foydalanishimiz, ularni keng o'zlashtirishimiz zururligini ilmiy asoslab bergan.

Alovida ta'kidlash lozimki, mazkur asarda milliy istiqlol g'oyasi va u asosida shakllangan umummafkuraviy tushuncha hamda tamoyillarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Mafkuraning inson, jamiyat va davlatlar tarixidagi o'rni hamda ular taraqqiyotidagi ta'siri jahon va O'zbekistonga oid misol hamda dalillar asosida tahlil qilingan. Mazkur asar ushbu qo'llanma uchun nazariy metodologik manba bo'lib hisoblanadi.

Prezidentimizning «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz» nomli asarida mustaqillik mafkurasi, milliy g'oya, milliy g'urur, ma'naviyat masalalariga e'tiborni qaratish bilan birga, yosh-larga xavf solishi mumkin bo'lgan qator mafkuraviy tahdidlarga, yovuz intilishlarga aslo yo'l qo'ymaslik zarurligi uqtirildi. Bugun dunyo bemalel yangi tahdid – diniy ekstremizm va fundamentalizm bilan yuzlashmoqda. Bu xavfning ko'lami uning insoniyat maqsad-manfaatlariga zid ekanligi bilan belgilanadi. Diniy mutaasiblik bilan kurash odamzod uchun hayot-mamot masalasi ekanini anglash vaqt yetdi.

«Xalqiga suyanmagan rahbar hech zamonda biron natijaga erisha olmagan. Axir, har bir fuqaroning jamiyatda o'z o'rni, o'z burchi va mas'uliyati bor. Lekin ularni ulug' va oliyjanob maqsadlar yo'lida ruhiy, ma'naviy jihatdan birlashtiradigan yo'lboshchining maydonga chiqishi tarixiy taraqqiyot taqozosidir».

Yurtboshimiz xalqimizning milliy qadriyatlarini, an'analari va madaniyatini tiklashning tashabbuskori bo'ldi. Zero, har bir avlod milliy ma'naviyatini butunlay yangitdan yaratmaydi, balki ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni qabul qilib oladi va takomillashtiradi. Asarda tarixiy vorislik – jamiyat va uning madaniyati ravnaqining asosiy sharti ekani asoslab berilgan.

Islom Karimov «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasiga yozgan so'z boshisida «.... men milliy istiqlol g'oyasi bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday ajdoddalarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga, bu boylikni asrabavaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur, deb bilaman»¹, degan g'oyani ta'kidladi. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida odamzod uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatimizning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlarini keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etgan. Unda istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroficha fikr yuritilgan.

Asarda bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, unda ma'naviyat sohasidagi dolzarb muammolar va vazifalar teran tahlil etilib, xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmay yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar qilish, hamda bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

Asarda yer yuzida turli millatlar, elatlari, xalqlar, davlatlar bo'lganiga kabi, insonlarning tabiatini va xususiyatini ham turlichaligi, ularning bir-biridan farqli hayot tarzi, urf-odat va an'analari, madaniyati

¹ Каримов И.А. Ватан равиқи учун ҳар биримиз масъулмиз. Асарлар тўплами. 9-жилд. Т.: Ўзбекистон, 2001. 222-223-бетлар.

borligi va ularning barchasi rang-barang ma'naviyatlarni shakllantirishga xizmat qilishi hayotiy misollar orqali tahlil etilgan. Bu dunyoda hayot bor ekan, turli xil odamlar, ularning ongu tafakkuri-dagi o'zaro tafovut va ziddiyatlar saqlanib qolaverishi, turli dunyo-qarashlar, oqim va yo'nalishlar mavjudligini tabiiy bir hol deb qabul qilish kerakligiga e'tibor qaratilgan.

Muallif ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezon bo'lgan ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklarning o'rni va ahamiyati, inson va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblangan ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi, aynan ushbu tamoyillar bir-birini inkor etmasligi, aksincha, bir-birini to'ldirishi hamda mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo'lib xizmat qilishini asoslab bergen.

Ayni paytda asarda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi g'oyat dolzarb ahamiyatga ega ekan, globallashuv jarayoni, uning mazmun-mohiyati, ijobiy va salbiy jihatlari fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashishning ahamiyati, hozirgi dunyoning geopolitik, iqtisodiy-ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzara-sidagi o'zgarishlar chuqur tahlil etilgan.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanishning ilmiy-nazariy konsepsiyasining amaliy ahamiyati shundaki, u bugun milliy va jahon ma'naviyati taraqqiyoti ehtiyojlarini to'la ifoda ettirgan bu g'oyada milliy va umuminsoniy ma'naviyat uyg'un holda asoslangan. Shuning uchun ham milliy-ma'naviy tiklanishimiz barqaror jarayon sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Bu o'z navbatida Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining hayotiyligini tasdiqlaydi.

2.2. Islom Karimovning ma'naviyat tushunchasiga ta'rifi, uning nazariy va metodologik ahamiyati

Ma'naviyatning inson va millat kamolotidagi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniq bilib olish hamda shu asosda uni rivojlan-tirish mohiyati mazmunini ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi. Chunki ma'naviyatning mohiyati va mazmunini bilib olmasdan turib, uning inson, millat, xalq va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sir imkoniyatlarini ham aniq tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma’naviyatni shaxs, millat, davlat va jamiyatning qudratlari kuchi sifatida hamda shaklan va mazmunan uyg‘un holatda o‘rganish faqat mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingina boshlandi. Uni bu shaklda o‘rganish esa mustaqillik sharoitida milliy tafakkur taraqqiyotimizda yangi yo‘nalishdir. Bu yo‘nalishning paydo bo‘lishi va uning konseptual g‘oyalarini nazariy jihatdan ishlab chiqish Prezidentimiz Islom Karimov nomi bilan bog‘liq. Uning asarlari, risolalari, ma’ruzalarida ma’naviyat tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Bu ma’naviyatni mustaqil omil sifatida o‘rganish uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki har qanday ilgari surilayotgan g‘oyalarning mohiyati ochib berilmas ekan, uning jamiyat taraqqiyotida millat va shaxs kamolotidagi rolini belgilash oson bo‘lmaydi.

Prezidentimiz milliy taraqqiyotimizning dasturi darajasiga aylangan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida ma’naviyatning inson hayotidagi ahamiyatini ochib berib, shunday yozgan edi: «Ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagи sayyoh har doim buloqdan chanqog‘ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchilik bilan ma’naviyat chashmasini izlaydi».¹

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar va ularning vazifalarini belgilab berishda Prezidentimiz yana ma’naviyatni rivojlantirish masalasiga qaytib shunday deydi: «Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar – o‘z yo‘liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta’minotini ham amallab turish mumkin, ammo ma’naviy islohotlar qullik, mutelik iskanjasidan ozod bo‘lish, qaddini baland tutish, ota-bobolarmizning udumlarini tiklab, ularga voris bo‘lish – bundan og‘irroq va bundan sharafliroq vazifa yo‘q, bu dunyoda».² Bunda Prezidentimiz o‘tkazilayotgan islohotlarning asosini milliy-ma’naviy tiklanish jarayoni tashkil etishini nazarda tutmoqda. Demak, qullik, mutelik iskanjasidan ozod bo‘lgan, o‘zining kimligini anglagan, millatining o‘zligini tarannum etgan insongina mamlakatning taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллый истиқбол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Асарлар тўплами, 1-жилд. Т. Ўзбекистон, 1996. 202-бет.

² Ўша асар, 80,81-бетлар.

Prezidentimiz ma'naviyat tushunchasi mazmunini olib berar ekan: «Yer, oila, ota-on, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik –ma'naviyatning ma'nosi ana shunday keng»¹-deb ta'kidlaydi.

Ma'naviyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. U, avvalo, har bir insonning ichki ma'naviy salohiyatini shakllantirish yo'lida barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish, Vatan va millat manfaatlari yo'lida fidoyilik bilan halol mehnat qilish jarayonida shakllanadi. Shu ma'noda ham Prezidentimiz «Ma'naviyat taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak»²ligini uqtiradi.

Prezidentimiz asarlarini qunt bilan o'rganar ekanmiz, ularda oldingi asarlarda ilgari surilgan g'oyalari keyingilarida ijodiy rivojlan tilgan, mazmunan va mohiyatan boyitilganligini ko'ramiz. Eng asosiy shundaki, ana shu boyitilgan jarayonda jamiyat va millatimiz taraqqiyotida sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda yuzaga kelgan yangi muammolarni hal etishning nazariy asoslari o'z ifodasini topgan. Jumladan, u Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» ma'rzasida ma'naviyat tushunchasiga quyidagi fundamental ta'rifni beradi: «Ma'naviyat... insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning imyon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch... »³ dir.

Bu tarif mazmun-mohiyati bilan ma'naviyat tushunchasini o'zida to'la aks ettirgan. Unda insonning ichki ruhiy olamini ifodalovchi barcha komponentlar o'z ifodasini topgan va uning inson barkamolligini ta'minlashda katta kuch ekanligi belgilab berilgan. Shu munosabat bilan ma'naviyatimizning jamiyatni rivojlantirishdag'i roli haqida Prezidentimiz tomonidan keltirilgan quyidagi fikrlarning mohiyatini tushunib olib, uni bevosita har birimiz o'zimizning kundalik vazifamizga aylantirishimiz millatimiz va mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlash uchun muhim amaliy ahamiyatga ega: «Bar-

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқтол, иктисад, сиёсат, мағкура. Асарлар тўплами, 1-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996. 80,81-бетлар.

² Ўша асар, 81-бет.

³ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Асарлар тўплами. 7-жилд. Т.: Ўзбекистон 1999. 81-бет.

chamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning barcha sohalidagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lif rivoji bilan uzviy bog'liqidir.¹

Haqiqatdan ham ma'naviy qashshoqlik bilan hech qachon millat iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy taraqqiyotga erisha olmaydi. Ma'naviyat har qanday taraqqiyot uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki ma'naviyat qancha yuksak bo'lsa, qilinadigan ishlarning samaradorligi va unumi ham shu darajada yuksak bo'ladi. Ma'naviyat orqali inson va millat qilinayotgan ishlarning mazmuni va mohiyatini aniq tushunib yetadi, o'z mehnatini quvonch hamda taraqqiyot olamiga aylantirishga erishadi.

Prezidentimiz ma'naviyatning mohiyatini ochib berish bilan birga bu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlarning strategik yo'nalishlarini ham belgilab berdi. Shu jumladan, «Fidokor», gazetasi muxbir savollariga bergen javoblarida quyidagilarni ta'kidlaydi: «... avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-babolarning muqaddas qadriyatlarini asrabavaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirish, ularning men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixon bilan yashashga erishishdir».²

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan ana shu vazifalarning amalga oshirilayotganligi milliy-ma'naviy rivojlanish borasida katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishimiz uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash lozim bo'ladiki, Prezidentimiz ishlab chiqqan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiysi bugungi davr uchun yana ham katta amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki taraqqiyotimizning bugungi bosqichi ma'naviyatni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yana ham oshirib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining juda katta nazariy va metodologik ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Bu ahamiyat quyidagilardan iborat:

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз кўлмиз билан курамиз. Асарлар тўплами. 7-жилд. Т.: Ўзбекистон 1999. 381-бет.

² Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон хаёт – пировард максадимиз. Асарлар тўплами. 8-жилд. Т.: Ўзбекистон 2000. 494-бет.

- birinchidan, bu konsepsiya sobiq sho'rolarning totalitar tuzumi sharoitida boy milliy-ma'naviy madaniyatimizning inqirozga yuz tutganligini va uning sabablarini tushunish;

- ikkinchidan, sobiq sho'rolarning o'tkazgan zo'ravonligi, zulmi va jinoyatkorona xatti-harakatlariga qaramasdan milliy-ma'naviy merosimizning ildizlari mustahkam bo'lganligi uchun bu zo'ravonliklarga bardosh berib, o'z salohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganligini, shuningdek, ana shu omil mustaqilligimiz sharoitida kuch-qudrat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularimiz uchun manba bo'layotganligini tushunib yetish;

- uchinchidan, har bir millat, u son jihatdan kichikmi yoki kattami, qat'iy nazar, mustaqillik ularning har biri uchun havo va suv-dek zarur ekanligini, faqat mustaqillik millatning milliy-ma'naviyatini saqlab qolishga, uni rivojlantirishga va keyingi avlodga yetkazish baxtiga muyassar etadigan asosiy omil ekanligini tushunishiga, bu esa har bir millatdoshimiz va vatandoshimizning mustaqillikdek ulug'ne'matni saqlab qolishi uchun fidoiylik ko'rsatishi ma'naviyatning yuksak belgisi ekanligini qalban his etishga imkon berish;

- to'rtinchidan, milliy-ma'naviy tiklanishning mohiyatini, «ma'naviyat» tushunchasi, uning shaxs, millat kamoloti, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rmini belgilab olishga, uni rivojlantirish uchun merosimizni chuqur o'zlashtirish, tinmay izlanish, ma'rifat, fan, texnika va texnologiya yutuqlarini sabot bilan o'zlashtirish hamda Prezidentimizning bugungi taraqqiyotimizni ta'minlaydigan «Kuch-bilim va tafakkurda»degan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan konseptual g'oyasiga izchillik bilan amal qilishimiz;

- beshinchidan, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash va islo-hotlarni amalga oshirish jarayonida milliy-ma'naviy tiklanishimiz oldida turgan vazifalar ko'lamini bilib olishga va uni amalga oshirishda umummiliy safarbarlik harakatini avj oldirishda fidoiylik ko'rsatish zarurligini anglashimiz;

- oltinchidan, talaba-yoshlarning milliy-ma'naviy tiklanish bora-sida ular oldida turgan vazifalarni bilib olishiga, milliy g'urur, iftixor, fidoyilik, vatanparvarlik, insoniylik kabi oliyjanob vazifalarni shakllantirish – mustaqilligimizni mustahkamlash va taraqqiyotimizning asosiy sharti ekanligini tushunib yetishimiz;

- yettingchidan, milliy istiqlol g‘oyasining ma’no va mazmunini chuqur anglashimizga, mustaqillikni mustahkamlash jarayonida ma’naviy yangilanishimiz borasidagi strategik vazifalarimizning asosiy yo‘nalishlarini va ko‘lamini chuqur bilib olishimiz hamda ularni amalga oshirishda tashabbuskorlik ko‘rsatishimizning ahamiyatini tuşunib yetishimiz zarurligi va boshqalar.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati faqat yuqorida ko‘rsatilganlar bilan chegaralanmaydi. Uning xalqaro ahamiyati ham nihoyatda katta. Qo‘yilgan har bir qadam bugungi kunda totalitarizmdan qutulib, demokratik jamiyat qurish tomon borayotgan bir qator mamlakatlarda ham milliy-ma’naviy tiklanish uchun katta amaliy ahamiyatga molik.

2.3. Milliy ma’naviyatning tiklanishi va rivojlanishida Islom Karimovning xizmatlari

O‘zbek xalqi salkam bir arim asr mustamlakachilik zulmi ostida azob tortdi. Buning ikki asosiy sababi mavjud.

Birinchisi, xonliklar sultanati bosqinchi davlatlar ko‘z o‘ngida ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib bordi. Buni diqqat bilan kuzatib bora-yotgan chor Rossiyasi aynan ular o‘rtasiga nizo, nifoq urug‘larini yanada ko‘proq sochib, bu siyosatni o‘ta mahorat bilan amalga oshirib bordi.

Xonliklardagi siyosiy arboblar tashqi siyosat masalalari, davlat xavfsizligini ta’minlash, jahon siyosatining yo‘nalishi Turkiston sari burilayotganligiga, shu bilan ertami indin bu siyosat bosqinchilik urushiga o‘z o‘rnini bo‘shatib berishini anglashdek mas’uliyatdan uzoq edilar. Ularning mana shu xatolari bois bir yarim asr mobaynida millatning g‘ururi toptalib, milliy qadriyatlari oyoq osti qilinib, millat uchun g‘am chekkan ma’rifat egalari qatl etildi yoki o‘zga yurtlarga umrbod surgun qilindi. Birinchi sabab shu tariqa ikkinchi sababga yo‘l ochib berar ekan, bosqinchilar Turkistonni egallab oladilar. Boshqaruvning to‘laqonli zo‘rlik va qonli jabr-zulm usuli joriy qilindi. Mustamlakachilik tizimining asosiy xususiyati va shiori adolatsizlik, bo‘ysunuvchi xalqlarni xoru zorlik botqog‘iga uloqtirish edi.

Xalqimizning ma’naviy-axloqiy merosi, buyuk tarbiya vositasi –

Qur’oni Karim va Hadisi shariflar bilan xalqimiz o’rtasida tikanli maydon hosil qilindi va bu maydon kommunistik mafkuraning xudosizlikka asoslangan devori bilan to’sildi. Xudosizlik ruhida tarbiyalangan qalbning insoniylik harorati yo‘qolib, yovvoyilik hislari shakllanadi, botiniylik o‘la boradi. Sobiq sovet davlati islomiy iymone’tiqodi, axloqi barq urgan ne-ne ulug‘ allomalarni yetishtirgan vatanimiz hududini mafkuraviy eksperiment, ya’ni tajriba maydoniga aylantirmoqchi bo‘ldilar. Bu mudhishlikni sezib qolgan millatimiz faxrlari- vatanparvarlarimizga «dindor», «millatchi» tamg‘asi bosilib, qatl qilindilar. Bunday adolatsizlik, nohaqlik zo‘ravonliklarning cheki bo‘Imagan. Aksincha, uning ijodkori bo‘lgan tuzum millatni ham, uning milliy-ma’naviy hayotini ham shafqatsiz davlat terroriga mubtalo qildi. Ularning bu qabohatlaridan dunyo larzaga keldi. Mustamlakachi tuzumni tarix va zamon rad qildi. Uning xarobalari o‘rnida milliy ozodlik va milliy tiklanish bayrog‘i ko‘tarildi.

Mustaqil Respublikamizning birinchi Prezidenti bo‘lgan I.Karimov zimmasiga og‘ir va haddan tashqari murakkab vazifalar tushdi. Uzoq mustamlakachilik siyosati tufayli iqtisodiy va siyosiy tanazzul botqog‘iga botirilgan, ma’naviyati yemirilgan xalqni, Vatanni ozod va farovonlikka olib chiqish, milliy tiklanishga yetakchilik qilish, demokratiyaga asoslangan davlat qurish, uni chuqur islohot va yangilanish jarayoniga tortish kabi ulug‘vor ishlarga yo‘lboshchilik qilish yaratganning nazari tushgan davlat arbobicagina nasib etadi.

Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingi-yillar davomida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik vujudga keltirildi, bozor munosabatlariga o‘tilib, milliy-ma’naviy poklanish va tiklanishimizning murakkab vazifalari vazminlik bilan amalga oshirila boshlandi.

Istiqlol yillarida xalqimizning o‘tmishiga, boy tarixiy merosiga, ma’naviy qadriyat va an’analalariga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgaridi. Prezidentimizning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida ta’riflanganidek, insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga choralaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan, beqiyos kuch – ma’naviyatga eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratildi.

Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ul-

kan hissa qo'shgan bobokalonlarimizning ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat va xalqaro miqyosida keng nishonlanmoqda.

Chunonchi, Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi, Mahmud az Zamaxshariyning 920 yilligi, Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, Imom Moturudiy tavalludining 1130 yilligi, Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi, Xo'ja Axror Valiying 600 yilligi, Alisher Navoiyning 550 yilligi, Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi, Najmuddin Kubro tavalludining 850 yilligi keng nishonlandi, 1998-yilda imom al-Buxoriy hazratlarining 1225 yilligi, Ahmad al Farg'oniyning 1200 yilligi nishonlandi.

Mustaqillik yillari Qur'oni Karim o'zbek tiliga tarjima qilinib, ko'p nusxada chop etildi. Imom al-Buxoriyning to'rt jildlik Hadislari, Xoja Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» to'plami, Qur'oni Karim sharxlariga oid ko'plab kitoblar chop etildi va ulardan xalqimiz bahramand bo'layotir. Iydi Ramazon va Qurban hayat kunlari umum-xalq bayrami sifatida xalqimiz hayotidan mustahkam o'rinni oldi. Haryili 3000 dan ortiq vatandoshlarimiz muborak haj safarlarini ado etmoqdalar. Ko'plab masjid va madrasalar qurildi va ta'mirlandi. Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo larning nomlari qayta tiklandi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Mirzo Ulug'bekning esa 600 yilligi keng nishonlandi va shu munosabat bilan yurtimizda beqiyos ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirildi. Milliy istiqlolimiz kurashchilar Munavvarqori, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir va boshqalarning nomlari oqlanib, asarlari chop etildi.

Qatag'on yillarda millatimiz mustaqilligini ta'minlash yo'lida qurban bo'lgan xalqimizning ana shu sevikli farzandlarining muborak nomlarini abadiylashtirish maqsadida vatanimiz poytaxti Toshkent shahrida Shahidlar xiyoboni barpo etildi. Bu o'zlikni anglashning, tarix bilan uyg'ongan millat tarjimai holining mustaqillik ko'zgusida namoyon bo'lishining bir qirrasidir.

Uzoq va boy tariximiz hamda madaniyatimiz, shuningdek, ma'naviyatimizning ildizi qadimga borib taqalishidan guvohlik beruvchi Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik to'yining o'tkazilishi jahon shaharsozlik madaniyati tarixining ibtidosi sifatida ham e'tirof etilgan edi. 2002-yilda Shahrizabz, Termiz shaharlarining 2500

yilligi, 2006-yilda Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi, «Algomish» eposining 1000 yilligi, Qarshi shahrining 2700 yilligi, Samarqand shahrining 2750 yilligi, Marg'ilon shahrining 2000 yilligi va Toshkent shahrining 2200 yilligi jahon miqyosida nishonlanishi «Avesto» yoshining 3 ming yilga yaqinlashgani ma'naviyatimiz tomirlari naqadar qadimiyligi va baquvvatligining dalillaridir.

O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish bilan davlat idoralarida ish yuritish, shaharlarda ko'chalar va joylarning nomlanishida tarixiy haqiqat qaror topdi. Ma'naviy merosimiz sanalgan ko'plab asarlar o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda. O'zbek tilining xalq va davlat hayotidagi asosiy ahamiyati va o'rnni tiklash borasida sezilatli ishlar amalga oshirildi. Shu tariqa millatning, davlatimizning qadr-qimmati mustahkamlandi. Maktablar va oliv o'quv yurtlarida rusiyabon yoshlarning o'zbek tilini o'rganishi uchun ham katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Davlatimiz rahbari eng avvalo, ishni ta'lif sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarni yaratib berishdan boshladi. Bu boradagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 2-iyulda «Ta'lif to'g'risida»gi qonunning tasdiqlanishi buning yaqqol misolidir.

Prezidentimiz Islom Karimov 1996-1997-yillarga kelib, ta'lif-tarbiya tizimidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish va bu sohani tubdan isloh etish bo'yicha muhim dasturiy hujjatlar qabul qilish lozimligini kun tartibiga qo'ydi. Shu boisdan ham «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ni tuzish komissiyasi tashkil etilib, unga yurtboshimiz bevosita rahbarlik qildi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning O'zbekistonga xos eng muhim xususiyati – yangi turdag'i 3 yillik o'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirildi.

Zamonaviy o'quv va ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlangan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etildi, yangi ta'lif standartlari va axborot texnologiyalari, interaktiv usullar o'quv jarayoniga tatbiq etildi.

Oliy ta'limda bakalavriat va magistratura tizimi joriy qilindi. Juhon standartlariga xos bu tizim oliy ta'lif sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» AQShdan so'ng dun-

yoda ikkinchi bor faqat O'zbekistonda qabul qilindi va bugungi kunda turli mamlakatlar bizning bu boradagi tajribalarimizni katta qiziqish bilan o'rganmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning amalga oshirilishi nati-jasida 8500dan ziyod mакtabda qurilish, rekonstruktsiya va ta'mirlash ishlari, bajarildi, yangi tipdagи 1537 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'-limi muassasasi qurilib, yoshlarimiz eng zamонавиy talablar asosida o'qitilyapti.

2012-yilning 16-17-fevral kunlari Toshkentda Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy etti-rish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusida xal-qaro konferensiya bo'lib o'tdi. Anjumanda ko'plab yirik tashkilotlar va moliya institatlari, jumladan, BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki vakillari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi dunyoning 48 ta davlatidan ta'lim tizimi rahbarlari, olimlar, hamda mutaxassislar ishtirok etib, uzlusiz ta'lim sohasini rivojlantirish va yosh avlodni barkamol tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O'zbekiston tajribasini o'rgandilar.

Bugungi kunda mamlakatimizning eng iqtidorli yoshlari rivojlangan xorijiy mamlakatlarning oliv o'quv yurtlarida ta'lim olmoqda. «Mahalla», «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun», «Nuroniy», «Ulug'-bek», «Umid», «Ustoz» kabi jamg'armalar ham Prezidentimiz tashabbusi bilan vujudga keldi.

«Umid» jamg'armasi, «Ustoz» jamg'armalari 2003-yil 1-iyulda birlashtirilib, ular negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi tashkil topdi. «Iste'dod» jamg'armasi orqali republikamiz oliv o'quv yurtlari AQSh, Angliya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Finlandiya, Italiya, Gretsya, Xitoy, Janubiy Koreya, Belgiya, Misr, Malayziya, Isroil kabi davlatlarning oliv o'quv yurtlari bilan ta'lim, ilmiy, ilmiy-uslubiy sohalarda tajriba orttirish uchun talabalar, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar almashuvi bo'yicha hamkorlikda ish olib borilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar oliv o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari respublikamizning universitet va institutlarida dars berish uchun taklif qilnmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi haqida alohida to’xtalib, kishilik jamiyatining ming yillar davomida bahs-munozalariga sabab bo‘lib kelayotgan o‘ta muhim muammoni ijobiy hal qilib bergenligining guvohi bo‘lib turibmiz.

Prezidentimiz bu bahsli muammoga atroflicha o‘z fikr-mulohazarini bildirar ekan, qadimgi hind, xitoy yoki yunon faylasuflarini, Sharq va G‘arb Uyg‘onish davri namoyondalarini, islom olami mutafakkirlarining ilmiy merosini tahlil qilib, ularning ayrimlari ruhiy olamni birlamchi deb bilsa, ba’zilari esa moddiy olamni asosiy o‘ringa qo‘yganligini, keyinchalik materializm va idealizm kabi ta’limotlar maydonga chiqqanligini aytadi.

«Ushbu masalalarga chuqurroq va atroflicha nazar tashlaydigan bo‘lsak, avvalo shuni aytish kerakki, bu ko‘hna dunyo biz yashayotgan hayot yagona, yaxlit bir voqelikdir. Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yish ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir bir yoqlama qarash ifodasi, deb aysak xato bo‘lmaydi.

Qolaversa, bu masalaga bunday keskin yondashuv, xususan, odamning ruhiy dunyosini mensimaslik, uni ikkilamchi o‘ringa qo‘yish oxir-oqibatda jamiyat hayotini inqirozga olib kelishi muqarrar ekanini tarix ko‘p marotaba isbotlagan.

Bir so‘z bilan aytganda, inson o‘z timsolida ham moddiy, ham ma’naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etgan noyob xilqat, Yaratganning buyuk va sirli mo‘jisadir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi unga ato etgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o‘zi o‘ta murakkab bir masala.

Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisol parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o‘ylaymanki, o‘rinli bo‘ladi.

Qachonki ana shu ikki muhim omil o‘zaro uyg‘unlashsa, tom ma’nodagi qo‘sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o‘sish-o‘zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo‘ladi¹, degan ilmiy-nazariy jihatdan mukammal ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ta nozik muammo o‘z yechimini topadi.

¹ Каримов И.А Юксак маънавият –енгилмас куч. Т. Маънавият 2008., 66-67 –бетлар.

Shu bilan bir qatorda oldimizda milliy-ma'naviy tiklanish, millatimiz tarixi va merosini chuqur o'rghanish borasida amalga oshirishimiz zarur bo'lgan ko'lami jihatdan juda katta vazifalar turibdi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz». ¹

Milliy-ma'naviy tiklanishimiz borasida Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilgan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar ilmiy jihatdan yangi nazariy konsepsiya yaratdi. Ular;

a) milliy-ma'naviy tiklanishimizning ilmiy-nazariy konsepsiyasini ishlab chiqilganligi va istiqbolda ma'naviy taraqqiyotimizning XXI asrdagi vazifalarini belgilab berilganligi;

b) milliy-ma'naviy tiklanish mamlakatimizning totalitarizmdan demokratik jamiyatga o'tish sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab bergenligida va uning faqat milliy, ijtimoiy-ma'naviy tafakkurimizda emas, shu bilan birga umumijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida yangi yo'nalish boshlab bergenligida ham namoyon bo'ldi.

Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan barcha ishlar xalqimizning o'zligini anglashga va mamlakatimizning rivojlanishiga, millatimiz abadiyligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz ishlab chiqqan konseptual g'oyalarni chuqur o'zlashtirish va uni real hayotimizga tatbiq qilishda fidoyilik ko'rsatish, mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini, ma'naviyatini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан курамиз. Асарлар тўплами. 7-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1999. 144-бет.

3-mavzu. Ma’naviyatning tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro munosabatlari

3.1. Ma’naviyat va ma’rifat, ularning o‘zaro bog‘liqligi

Ma’naviyat ham boshqa tushunchalarga o‘xshagan o‘zining mustaqil tarkibiy qismlariga ega. Uning asosini ma’naviy meros, madaniyat, mafkura va qadriyat kabilalar tashkil qiladi. Aslini olganda, ma’naviyat va madaniyat bir-biriga yaqin tushunchalardir. Ammo ularning biri ikkinchisidan farq qiladi. Shuning bilan birga ular bir-birini to‘ldirib turadi.

Madaniy va ma’naviy meros haqida ham shunday deyish mumkin. Shu sababdan avvalo, madaniyat va uning turlarini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki madaniyatni, xususan ma’naviy madaniyatni bilmasdan, o‘rganmasdan turib, ma’naviy meros to‘g‘risida gapirish ancha mushkul, chunki ma’naviy meros ma’naviy madaniyat doirasiga kiradi.

Madaniyat atamasi keng ma’noda qo‘llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy-ma’naviy hayotida qo‘lga kiritilgan yutuqlarini, muayyan xalq yoki ijtimoiy guruhning ma’lum davrda erishgan natijalari, o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik va ma’rifatlilik hamda turmushning inson ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlar majmuyini ifodalaydi.

Inson faoliyati ikki asosiy tur – moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalari hamda ularning har birida erishilgan natijalar – mehnat qurollari, turar-joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ma’naviy madaniyatga aqliy va ma’naviy yaratuvchanlik sohalari – bilim, odob-axloq, ta’lim-tarbiya, huquq, falsafa, din, fan, san‘at, adabiyot va shu kabilalar kiradi. Uyg‘onish va ma’rifatparvarlik davrlarida madaniyat yetukligi deganda inson va jamiyat hayotida insonparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari ustuvor o‘rin tutganligi tushuniladi.

Ma'naviy meros ma'naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo'lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o'sishi, olamni bilish va o'zlashtirish borasidagi sa'y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuyini ifodalaydi. Ma'naviy meros ajdodlar tajribasi, qoldirilgan ma'naviy boyliklarning kelgusi avlodlarda amaliy faoliyat, tafakkur tarzida qanday ahamiyat kasb etishiga ko'ra, yakka shaxs, alohida guruh yoki muayyan millat vakillariga tegishli bo'lishi mumkin. Ular ma'lum milliy tilda yaratilgani, milliy madaniy-ma'naviy an'analar, qarashlarni aks ettirishiga ko'ra millatga, ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi turli millatlarni qamrab olishi xususiyatiga ko'ra jamiyatga, ma'lum bir davlat hokimiyati amal qilib turgan davrda yaratilganiga ko'ra davlatga, insoniyat tarixida tutgan yuksak o'rniغا ko'ra sivilizatsiyaga xos bo'lishi ham mumkin.

Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida ta'kidlanganidek: «**Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi**¹. Shuningdek, ma'naviy meros bir vaqtning o'zida millat, davlat, mintaqa va butun insoniyatga tegishli bo'lishi ham mumkin. Masalan, Imom Buxoriy va Imom Termiziyning diniy-ma'rifiy merosi, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid yoki Mirzo Ulugbekning astronomiyaga doir kashfiyotlari nafaqat millatimiz va mintaqamizda istiqomat qilayotgan xalqlar, balki jahon sivilizatsiyasi, madaniyatidan o'rin olgan bebaho ma'naviy meros hisoblanadi.

Ma'naviy meros moddiy merosdan farqli ravishda olamda va insonning ichki dunyosida ro'y bergan, berayotgan yoki berishi mumkin bo'lgan intellektual va psixologik holatlar, xatti-harakatlar amaliy faoliyat va uning natijalarini anglashga keng imkoniyatlar yaratishi bilan qadrlidir. Shu bilan birlgilikda, ma'naviy merosni moddiy merosga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Chunki bizgacha yetib kelgan moddiy meros insonning ongiga ta'siri nuqtayi nazaridan ayni vaqtida ma'naviy merosga aylanishi ham mumkin. Masalan, uzoq

¹ Каримов И.А. Юксак мавнавият-енгилмас куч. Т.: «Мавнавият» 2008. 29-30 бетлар.

o'tmishda yaratilgan va bizga qadar yetib kelgan tarixiy obidalar moddiy merosga mansub bo'lsada, ulardag'i muhandislik, bezak ishlari, qurilish tarixi va unga oid ashyolarning tayyorlanishi, bunyodkorlari va boshqa jihatlariga ko'ra ma'naviy merosga aylanadi. Xuddi shuningdek, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish texnologiyalari va uskunalari moddiy merosga mansub bo'lsada, bu boradagi an'analarning ajdodlardan avlodlarga o'tishi ma'naviy meros tarzida amalga oshadi.

Shu jihatdan olib qaralganda, insoniyatning yozma manbalarda aks etmagan ko'plab tabiiy ko'nikmalari ma'naviy meros tarzida ajdodlardan avlodlarga o'tib keladi. Yozuvning paydo bo'lishi ma'naviy merosni saqlash va boyitish yo'lidagi insoniyat erishgan eng katta yutuq hisoblanadi. Yozuv tufayli hozir ilm-fanda inson taraqqiyoti, jumladan, ma'naviy merosining besh ming yildan ortiq tarixi, yer va koinot jismlarining bir necha million yillik davri haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Kishilar ongi, ichki dunyosi, tafakkur tarzi, his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularni boyitish, rivojlantirish, yangi g'oyaviy yo'naliishlarga boshlashi ma'naviy merosning asl mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, bugungi kunda ma'naviy merosning odamlar hayot tarziga chuqur ta'sir etadigan qadriyat sifatidagi ahamiyati ham tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

I.A. Karimovning «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asarida ta'kidlanganidek, «Sharq olamida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi. Shu ma'noda xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

Misol uchun, tilimizdag'i mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan xususiyatlarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo.

Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyo-qarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu

Shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning, ma'naviy merosning amaliy ifodasidir.

Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy lidzlari borligini ko'rish mumkin. Bu avvalo, insonning inson bilan, qo'shnining qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araaz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi.¹

Demak, bunday qadriyatlar asrlardan asrlarga ma'naviy meros sifatida o'tib kelayotir. Shu jihatdan olib qaraganda, jamiyat tafakkuridagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar, dunyoqarash, urf-odatlar, an'analar va munosabatlar kelajak avlodning ma'naviy merosini belgilaydi. Madaniy qadriyatlar va ma'naviy meros ming yillar mobaynida xalqimiz uchun qudratli ma'naviyat manbayi sifatida xizmat qilib kelgan.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan oq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebafo ma'naviy va madaniy merosni qayta tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal toptan.

Milodgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku fayzini, mahobatini yo'qotmagan osoriatiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimiy toshyozuvlар, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika,

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: «Маънавият» 2008. 7-9 бетлар.

fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir.

Xalqimizning haqiqiy ma'naviy merosi bo'lmish ijmon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, meh-mondo'stlik, yurtga va xalqqa sadoqat kabi fazilatlarini asrab-avay-lab, kelajak avlodning qon-qoniga singdirish jamiyat kundalik hayotida doimo ustuvorlik kasb etishi to'g'risida so'z ketar ekan, avvalambor, dindorlar, din peshvolari bilan yaqindan hamkorlikda, hamjihatlikda ish olib borish zaruriyati hisobga olinishi kerak bo'ladi.

Insonning ruhiy poklanishi, axloqiy tarbiyasi, el-yurt tinchligini o'ylashi, osoyishta faoliyat yuritishi va millatlar totuvligini saqlashi bilan bog'liq qadriyatlarni ifodalovchi ma'naviy merosni o'zlashtirishda din bilmidonlarining o'rni o'ziga xosdir.

Bundan tashqari, diyorimiz xalqi qadim zamonlardan o'zlariga ma'lum bo'lgan insoniyat bilan hamfikr bo'lib keldilar, yaqindan aloqa bog'lab yashadilar. Bunga ko'plab misollar bor. Osiyoning qa'ridan Yaqin Sharqqa, Yevropa va Afrikaga olib boradigan Buyuk Ipak yo'li, butun madaniy olamga taniqli olimlar va mutafakkirlar, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva singari davlat va shaharlar yaratuvchilari bo'lmish ulug' ajdodlarimizning ijodiyoti o'zining ulug'verligi va go'zalligi bilan hozirgacha dunyoni lol qoldirgan ma'naviy meroslardir.

Prezident Islom Karimov ajdodlarimizning ruhi poklari va urfatlari, bizning eng yaxshi an'analarimiz, ma'naviy merosning qayta tiklanishi, islohotlarning muvaffaqiyatga erishishi, mamlakatimiz taraqqiyotining muhim omillari ekanini alohida ta'kidlagan. Ma'lumki, asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islam dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. O'z navbatida, bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi. Bugun yaratilayotgan ma'naviy merosimiz ana shu falsafaga uyg'un holda Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim. O'zbekiston xalqi minglab-yillar davomida barpo etilgan ulkan ma'naviy me'ros bilan faxrlanadi. Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz,

Fermizning noyob tarixiy yodgorliklari, Buyuk Sharq mutafakkirlari U-Buxoriy, at-Termiziyy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Nisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Bobur acarlari milliy- ma'naviy nerosgina emas butun bashariyatning bebahohi mulki hamdir.

Shunday qilib, madaniyat, ma'naviy meros, sivilizatsiyalar yutuq'i jamiyat va inson ma'naviyatining rivojlanishida, ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq o'tmishdan qolgan ma'naviy meroslarimizni tiklashga qat'ian kirishildi. Mustaqilligimizning o'tgan yillari davomida ana shu boy merosimizni o'zlash-tirish orqali chinakam milliy tiklanishga erishdik. Millatimiz o'zining haqiqiy ma'naviy qiyofasiga ega bo'ldi. Ammo bu borada hali oldimizda amalga oshirilishi lozim bo'lgan juda katta vazifalar turibdi. Ana shulardan biri hozircha bizga noma'lum, ammo dunyoning turli mamlakatlarida saqlanayotgan, jahon sivilizatsiyasida munosib o'rinnegallab kelgan juda ko'p moddiy va ma'naviy merosimizni o'z Vatanimizga keltirishimiz, ularni o'rganishimiz, dunyoqarashimiz va ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozimligidir.

3.2. Ma'naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati

Qadriyat – inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, bo'lib, olamdag'i voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlataladi.

Qadriyat madaniyatshunoslikning eng asosiy kategoriysi. Bu kategoriya o'zida qadriyat asosining nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyati, falsafiy-aksiologik mazmuni, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi. Aksiologlar undan har qanday narsa, shu jumladan, insonning ijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiyy va universal kategoriya sifatida foydalanadilar.

Odamlar garchand, bitta jamiyatda, bir davrda va o'xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadrini turlicha anglaydilar va talqin qiladilar. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvuri, qarashlari o'z-

garadi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir.

Turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil etadi. Ijobiyligi va salbiyliги, baholanishi va ahamiyatiga ko'ra bir-biriga mutlaqo zid ko'rindigan «yaxshilik» va «yomonlik», «haqiqat» va «haqsizlik», «baxt-saodat» va «g'am-kulfat», «tadrijiylik» va «inqilobiylik», «taraqqiyot» va «tanazzul», «borliq» va «yo'qlik» kabi tushunchalar hayotning bir-biri bilan qarama-qarshi bog'langan jihatlarini ifodalaydi.

Qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahmiyat kasb etadi, tarixiy zaruratga mos ravishda gohida qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onasiga chiqadi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqarorlashtirishga nisbatan intilish kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganda – ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida – istiqlol, urush davrida – tinchlik, tutqinlikda – erkinlik, xastalik va bemorlik paytlarida – sihat-salomatlilikning qadri ortadi, ularga intilish kuchayadi.

Qadriyatlarni moddiy va ma'naviy, umumbashariy va umuminsoniy turlarga bo'lish mumkin. Bizning maqsadimiz talaba-yoshlariga ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini yanada teranroq anglatishga qaratilgan.

Ma'naviy qadriyatlар – Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida har tomonlama va chuqur ta'riflab berilgan.

Inson ma'naviyati va axloqiy qiyofasiga daxldor bo'lib, jamiyat a'zolarini tarbiyalashga, ularning ma'naviy barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladigan qadriyatlар tizimini ifodalovchi tushuncha ma'naviy qadriyatlар hisoblanadi (masalan, urf-odatlar, an'analar, Vatanni sevish, o'z xalqi va millatini hurmat qilish, ota-onasini e'zozlash, tinchlik va totuvlikni saqlash va h.k.). Ma'naviy qadriyatlар muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu ma'noda milliy muhit ularni yaratish hamda saralashning asosiy manbayidir. Ma'naviy qadriyatlarni anglash kishining o'z millati, yurti, eliga tegishli qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qiladi, o'ziga ishonch va hurmatni mustahkamlaydi, Vatan istiqboliga katta umid bilan qarashga undaydi. Muayyan millat ma'naviy qadriyatlarni qanchalik asrab-avaylasa, uning taraqqiyotida ma'naviy va moddiy omillar uyg'unligi shun-

chalik mustahkam va barqaror bo‘ladi. Fanda ma’naviy qadriyatlar ning qator funksiyalari o‘rganiladi. Ular avvalo, jamiyat a’zolarini o‘zini o‘zi tarbiyalashga, ajdodlardan meros qolgan qadriyatlar va ideallarga munosib bo‘lishga undaydi. Bu jarayonda ikki xil holat kuzatiladi. Birinchisida ma’naviy qadriyatlar jamiyat a’zolari tomonidan ongli tarzda yaratiladi, ya’ni odamlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan ma’naviy me’yorlar va mezonlar haqidagi tushunchalar asosida ularga mos keladigan qadriyat va ideallarni yaratadi. Bunday sa'y-harakatlar jamiyat a’zolarining ma’naviy faolligini oshiradi, izlash, izlanish va yaratuvchanlikka chorlaydi. Ikkinci holatda esa, jamiyat a’zolari tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, turli urf-odatlar yoki boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida olingen taassurotlar ham ma’naviy qadriyatlarning takomillashuviga xizmat qiladi. Ma’naviy qadriyatlarning shakllanishida har ikki holatning ta’siri kuzatiladi. Ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan madaniy, ma’rifiy, axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy va boshqa turlarga bo‘linadi. Ular insonning aqli, kamoloti, dunyoni bilish maqsadi, bilimlarining haqiqatga moc kelish darajasini aniqlash mezoni yoki biror ideal tarzida ham namoyon bo‘ladi. Ma’naviy qadriyatlarning inson tarbiyasi va jamiyatdagi o‘rniga doir asosiy funksiyasi ham ana shular bilan bog‘liq. Ma’naviy qadriyatlarning yana bir muhim jihat shuki, ularning ba’zilari insoniyat tarixi davomida asta-sekin shakllanadi va takomillashib boradi. Ularning miqdori va sifatining ortishi jamiyat a’zolarining tafakkur darajasining yuksalishi hamda insoniyat taraqqiyoti qanchalik ilgarilab ketganining ko‘rsatkichi hamdir. Masalan, uzoq o‘tmishda ba’zi qadriyatlar, gazeta, radio, televidiniye to‘g‘risida umuman tasavvur bo‘lgan emas. Bunday yangi ma’naviy qadriyatlar asrlar davomida shakllanib, takomillashib, boyib borgan. Ma’naviy qadriyatlar va qadriyat mezonlari millat ma’naviyati va unga mansub kishilarning xulq-atvorini tartibga solish va to‘g‘ri yo‘naltirish funksiyasini ham bajaradi. Bunday o‘ziga xos ma’naviy boshqarishning samaradorligiga erishish nihoyatda muhim. Zero, ma’naviy qadriyatları bo‘limgan millat yo‘q, millat ma’naviy qadriyatlarning sohibi, bonyodkori va asrab-avaylab saqlab turuvchisidir. Agar har bir millat o‘z ma’naviy qadriyatlarini asramasa, bu qadriyatlarning saqlanib qolishi qiyin. Millatning tanazzuli ma’naviy qadriyatlarni unu-

tishdir, ma'naviy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, buguni, kelajagi, urf-odat va an'analar, uni tashkil etgan avlodlar tafakkuri, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til hamda milliy madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Zero, ma'naviy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning irodasini mustahkam qiladigan, unga kuch bag'ishlaydigan asosiy omillardan biridir. Xalqimizning asrlardan asrlarga meros bo'lib kelayotgan ma'naviy qadriyatları uzoq tarixiy jarayonda shakllanib, rivojlanib kelgan. Aniqrog'i, uch ming yildan ziyodroq davrni qamragan xalqimiz tarixi davomida yaratilgan. Bizning ma'naviy qadriyatlarimiz ana shu taraqqiyotga uzviy bog'liq bo'lib, ular millatimiz shakllangan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabi ko'plab tushunchalarda ifodalangan. Ma'naviy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar ko'plab uchraydi. Sobiq tuzum sharoitida ma'naviy qadriyatlar masalasi ko'p hollarda e'tibordan chetda qolib ketgan edi. Mustaqillik tufayli haqiqiy ma'naviy qadriyatlarimizni, ularning jamiyat ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotidagi o'rni va ahamiyatini anglash, ulug' ajdodlarimizning ma'naviy, ilmiy merosini o'zlashtirish, farzandlarimizni ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalab voyaga yetkazish, ana shu bebaho boylikni asrab-avaylash va boyitgan holda kelgusi avlodlarga bekamu ko'st yetkazish imkoniyati yaratildi. Bu esa ma'naviy qadriyatlar boqiyligi va davomiyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'naviy o'zlikni anglash. Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga bel bog'lagan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismi, tarixiy xotirani tiklash, o'tmish avlodlarga munosib bo'lish, ular qoldirgan ma'naviy merosni asrab-avaylash va takomillashtirish omili ta'riflab berilgan. Ma'naviy o'zlikni anglash jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirish va yangilash, yangi tafakkurni shakllantirishning asosiy vositalaridan biridir. Ma'lumki, shaxsda ko'plab ijtimoiy-insoniy fazilatlar bilan birga ma'naviy o'zlikni anglash xususiyati ham mujassamdir. Bu g'oyat ko'p qirrali,

murakkab, ayni paytda, ziddiyatli ijtimoiy hodisa bo‘lgani uchun unga kompleks yondashish talab etiladi. Avvalo, ma’naviy o‘zlikni anglash keng ma’nodagi milliy o‘zlikni anglashning tarkibiy qismidir. Shuning uchun ma’naviy o‘zlikni anglash milliy taraqqiyotning nafaqat belgisi, shuningdek, maqsadi hamdir. Demak, ma’naviy o‘zlikni anglash ijtimoiy fenomen sifatida milliy taraqqiyot maqsadi bilan uyg‘unlikda talqin etilishi zarur. Ma’naviy o‘zlikni anglash subyekt (shaxs, millat, xalq)ning borliqda o‘zining tarixiy-madaniy, ijtimoiy-axloqiy, diniy-ruhiy, badiiy-estetik qadriyatlariga, borliqni bilishda gnoseologik¹ tajribalariga ega ekanini idrok etishidir. Ma’naviy o‘zlikni anglashda «xalq ruhi», «xalq qalbi» degan tushunchalar ham muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham ma’naviyat muammolarini tadqiq etgan mutaxassislar «ruh», «qalb» kategoriylariga murojaat qiladilar. Ma’naviy o‘zlikni anglash avvalo, kishining o‘z ruhi va qalbini idrok etishi bo‘lib, ijtimoiy darajada u xalqning o‘ziga xos ruhiy-ma’naviy birligini ifoda etadi. Milliy o‘zlikni anglashga taalluqli hodisa sifatida esa ma’naviy o‘zlikni anglash ma’lum bir millat vakillarining qalbiga, ruhiga yaqin umumiyoq boyliklar, qadriyatlar, tasavvurlar, an’analar, ruhiy-ma’naviy holatlar asosida kishilarni xalq, millat sifatida birlashtiradi, ularga xos umumiyoq belgilari baxsh etadi. Shu o‘rinda Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan «Shu aziz Vatan barchamizniki» g‘oyasi nafaqat mamlakatimizda yashovchi har bir kishini, balki butun millat, etatlarni birgalikda ozod va obod Vatan barpo etish yo‘lida hamkorlik va hamjihatlikka undaydi. Odamlar har doim ma’lum bir g‘oyalar atrofida birlashib, yirik ijtimoiy kuchga, harakatga aylangan. Inson o‘zini ma’naviy-ijtimoiy kuch ekanligini ma’lum bir qarashlar, g‘oyalar atrofida birlashib namoyon qilishi mumkinligini qadimdayoq anglab yetgan. Ma’naviy o‘zlikni anglash qanchalik keng, serqirra, inson va jamiyat hayotining barcha sohalari bilan bog‘liq bo‘lmashin, u milliy g‘oyaga asoslanadi. Demak, milliy g‘oya ma’naviy o‘zlikni anglashning o‘zagidir.

Ma’naviy o‘zlikni anglash xalqqa, millatga oid belgilari orqali ham o‘z xususiyatini namoyon etadi. Dunyoda o‘zining ma’lum bir belgilariiga ega bo‘limgan xalq, millat yo‘q. Aynan shu belgilari kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ulardagi mushtaraklikni yorqin

¹ Гнозологик – илмий билиш манбалари, имкониятлари ва воситалари хакидаги таълимот.

namoyon etadi. Ma'naviy o'zlikni anglashni axloq, odob, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda ma'naviy o'zlikni anglash tushunchasi ma'naviyat bilan uzviy bog'liqidir. Ma'naviyatning bosh xususiyati va vazifasi shaxsda axloqiylikni, insonparvarlikni shakllantirishdir. Ma'naviy o'zlikni anglash shaxsning ma'naviy dunyosi va shakllanishi kabi murakkab, goho ziddiyatli kechadigan, har doim ham bir mezon, me'yorlar bilan o'lchanavermaydigan hodisa. Uning namoyon bo'lishi va shakllanishi har doim ham shaxsning, hatto muhitning ham ixtiyorida bo'lavermaydi. Ularga ko'zga ko'rinas ijtimoiy munosabatlar, umumiylar, axloqiy normalar, tarixan shakllangan an'analar, urf-odatlar, xalqaro vaziyat, axborotlar oqimi kabi omillar ham ta'sir etadi. Ma'naviy o'zlikni anglash ma'naviyatning shakllanish jarayoni kabi shaxsning butun umri davomida kechishi mumkin. Ammo bu ma'naviyatda ham, ma'naviy o'zlikni anglashda ham, shaxsning ma'lum bir xalqqa, millatga taalluqli ekanini anglatuvchi muhim xususiyat, belgilar yo'q ekanini anglatmaydi. Xalqni xalq, millatni millat qilib turgan belgilar uning asrlar davomida shakllangan muqim, barqaror tarixiy-madaniy qadriyatları (tili, turmush tarzi, an'analarini va b.) bilan mushtaraklikda namoyon bo'ladi. Ma'naviy o'zlikni anglashning o'zgarishi ana shu barqaror milliy-madaniy asosning nisbiy o'zgarishi ifodasidir. Milliy-madaniy asoslar ma'naviyatda, milliy o'zlikni anglashda muqim saqlanib qoladi, aks holda shaxs ham, millat ham o'zligini, o'z xususiyatlarini yo'qotadi. Xalq, millatning shakllanishi bilan birga ma'naviy o'zlikni anglash ham shakllanib boradi. Millatsiz ma'naviy o'zlikni anglash yo'q, ma'naviy o'zlikni anglashsiz esa millatning bo'lishi dargumon. Ular o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ochib berish maxsus sotsial-psixologik yoki etnopsixologik tadqiqotlar o'tkazishni taqozo qiladi. Bu o'rinda biz shuni aytishimiz mumkinki, xalqning, millatning barqaror ijtimoiy etnik birlik sifatida tarix sahnasidan joy olishi ularning ma'naviy o'zlikni anglashiga va tarixiy-madaniy jarayonlarda uni namoyon etishiga bog'liqidir. Ma'naviy o'zlikni anglash uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida ko'p avlodlarning ma'naviy, ilmiy, ijodiy izlanishlari mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Millat shakllangan sayin, u aniq ko'rinishga, ma'lum bir tamoyillar, me'yorlar, modellar, qadriyatlar shakliga o'tib, milliy madaniyatning o'zak qismiga

aylanadi. Masalan, o'zbek xalqi ma'naviy o'zlikni anglashni «Avesto»dan boshlab, buyuk ajdodlarimiz merosidagi umuminsoniy qadriyatlardan izlashi bejiz emas. Chunki ushbu bebahो merosda xalqimizning orzu-umidlari, axloq, odob, ezhgulik, adolat, porloq hayot haqidagi g'oyalari mujassamlashgan. Aynan ushbu qadriyatlar bugun o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi, ma'naviy madaniyatining o'zagi sifatida o'rganilmoqda. Ma'naviy o'zlikni anglash negizida ma'naviy kamolotga yetishga intilish yotadi. Ma'naviy kamolotni nazarda tutgan kishi tinmay o'z ustida ishlaydi, mukammallikka intiladi, ma'lum bir idealga yetishni maqsad qilib qo'yadi.

3.3. Ma'naviyat va mafkura, ularning jamiyat va inson hayotida tutgan o'rni

Ma'naviyat va mafkura bir-biri bilan mustahkam bog'langan bo'lib, ma'naviyat insonning ruhiyati, o'zini-o'zi anglashi, yuksaklikka intilishdagi salohiyati bo'lsa, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasida ko'rsatilganidek: «Mafkura muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalari tizimidir».¹

Mafkuraning ma'naviyatda tutgan o'rni shundaki, u inson, jamiyat yoxud millat yoki guruhlarning intilishlari, ruhiyatları va kayfiyatlarını o'zida mujassamlashtiradi. Ma'naviyat singari mafkuraning ham davlat va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda katta. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan».²

Mafkura jamiyat taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajaradi: birinchidan, davlat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va

¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар. Т.: Ўзбекистон 2000. 9-бет.

² Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишонч. Т.: Ўзбекистон. 2000. 5-6 бетлар.

ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi vazifalarini o'zida birlashtiradi; ikkinchidan, bir davlat, bir mamlakat miqyosida barcha fuqarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlarni bir g'oya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi; uchinchidan, davlat olib boradigan ichki va tashqi siyosat g'oyalarini o'zida mujassamlashtirib, uni fuqarolarga targ'ib etadi; to'rtinchidan, davlat doirasida yashayotgan fuqarolarni yaratuvchanlik, buniyodkorlik, ijodkorlik faoliyatlarini tezlashtiradi va ularni jamiyat maqsadlariga yo'naltiradi; beshinchidan, xalqning orzu-umidlarini o'zida ifoda etadi, jamiyatda mavjud bo'lган muammolarni hal qilish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltiradi, oltinchidan, mafkura jamiyatda ma'lum siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlarni shakllantiradi.

Milliy istiqlol mafkurasi millat va davlatning mustaqil rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi. Milliy g'oya O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu ideallarini, oliyanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi. Xalqimiz asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelgan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash O'zbekistonidagi har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Buning uchun barcha bir yoqadan bosh chiqarib, muqaddas ona Vatanning hayotiy manfaatlarini yurakdan his etgan holda ularni ro'yobga chiqarish uchun faol harakat qilishi, kurashishi zarur. Bu jarayon xalqimizning manfaatlarini, ularni o'zida mujassam etadigan milliy g'oyani anglash bilan bog'liq holda kechadi. Vatan manfaati har bir fuqaro manfaatlari bilan uzviy bog'langan. Chunki Vatan obodligi xalqning farovonligiga bog'liq. Fuqarosi badavlat mamlakatgina moddiy va ma'naviy to'kis bo'ladi.

Shunday ekan, milliy g'oyaning muhim tamoyillaridan biri inson qadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishdan iborat. Bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolaring hamjihatligi va birdamligini mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa esa milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini tashkil etadi. Milliy istiqlol mafkurasi har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burchi va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir.

Milliy istiqlol mafkurasi quyidagi umumbashariy qadriyatlarni

e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi: qonun ustuvorligi; inson haq-huquqlari va hurfikrlik; turli millat vakillariga hurmat va ular bilan ham-jihat yashash; diniy bag'rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik; o'zga xalqlarning ilg'or tajribasi va madaniyatini o'rganish.

Milliy istiqlol mafkurasining nazariy asoslari Prezident Islom Karimovning asarlarida atroflicha yoritib berilgan. Milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonning mustaqillikka erishishi haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, falsafiy, tarixiy qarashlar majmuyi, xalqni kelajakka ishonch, e'tiqod ruhida tarbiyalovchi g'oyaviy quroq, barcha toifa kishilarini shu maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyat qudratli ma'naviy omil hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonning mustaqillikka erishishini tarixiy muqarrar jarayonligi ko'rsatilib, Konstitutsiyamizdaadolatli huquqiy – demokratik fuqarolik jamiyatiga haqida ilmiy-nazariy qoidalar ishlab chiqilgan.

Sho'rolar zamonda mafkura faqat sinfiy bo'ladi, u milliy bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlanar, milliy mafkura xususida so'z ham yuritilmas edi. Buning natijasida o'zbek millatining milliy ongi, dunyoqarashi, milliy g'ururi, iftixori anchagina sustlashtirib yuborilgandi. Milliy mustaqillikka erishilgach, O'zbekiston hukumati tomonidan milliy istiqlol mafkurasining nazariy jihatdan ishlab chiqilishi, uni xalq orasida keng targ'ib qilish, har bir fuqaro ongiga mustaqillik mafkurasining mazmun-mohiyatini singdirish, istiqlol yo'liga mos va xos o'z milliy mafkurasini ilmiy asosda yaratish kabi o'ta muhim va sharafli masalalar paydo bo'ldi. Milliy istiqlol mafkurasi (yurtimizda yashovchi har bir fuqaro) xalqimizning yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalarini xalqimizning ishonch-e'tiqodini aks ettiradi. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Millati va dinidan qat'iy nazar, fuqarolarimizning qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillari quyidagilarda

namoyon bo‘ladi: mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta’minlashga yordam berish; qonun ustuvorligi, demokratiya va o‘z-o‘zini boshqarishning hayotda mustahkam o‘rin egallayotganiga asoslanganlik; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayanish; xalqaro huquq qoidalariiga mos kelish. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy sifatlari uning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari hamda namoyon bo‘lish xususiyatlarida o‘z aksini topadi.

O‘zaro uzviy aloqadorlikda namoyon bo‘ladigan bu talablar quyidagilardan iborat: tarixiy xotirani uyg‘otish, o‘tmishdan saboq chiqarish va o‘zlikni anglash mezoni bo‘lish; xalqimizning tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi g‘oyaviy bayroq vazifasini o‘tash; inson qalbi va ongiga ijobjiy ta’sir etadigan tushuncha va tuyg‘ular, go‘zal va hayotiy g‘oyalar tizimini o‘zida mujassam etish; har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqarishiga imkon beradigan eng maqbul yo‘lni ko‘rsata olish; millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e’tiqod manbayi bo‘lish; O‘zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taalluqli bo‘lish; mamlakatimiz aholisi ongi va qalbida «O‘zbekiston - yagona Vatan» degan tuyg‘uni yuksak darajada shakllantirishga xizmat qilish; turli millat, qatlam, din vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruqlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen - ijtimoiy hodisa mazmuniga ega bo‘lish; biron-bir dunyoqarashni mutlaqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo‘lida siyosiy quroqla aylanmaslik; har qanday ilg‘or g‘oyani o‘ziga singdirish va har qanday yovuz g‘oyaga qarshi javob bera olish; subyektivizm¹, volyuntarizm² kabi illatlardan xoli va jamoatchilikning xolis fikriga tayanuvchi obyektiv mafkura bo‘lish; so‘z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olish; davr o‘zgarishlariga qarab, o‘zi ifodalaydigan g‘oya, manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olish, ya’ni yangicha vaziyatga tez moslashadigan hozirjavob va ijodiy bo‘lish.

Milliy istiqlol mafkurasi ana shu qayd etilgan sifatlarga ega bo‘lgan taqdirdagina jamiyat hayotida yetakchi ma’naviy-ma’rifiy

¹ Субъективизм – дунёни инсон онгига боғлиқ бўлмаган ҳолда, объектив рейтингини инкор этувчи идеалистик оқим.

² Волонтизм – бекийликтининг негизи иродадир деб, даъво килувчи реакцион идеалистик фалсафий оқим.

milga aylanishi va kutilayotgan muhim vazifalarni bajara olishi mumkin. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillari - uning amal lishi jarayonida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bunda uning mafkura sifatidagi umumiy va xususiy tamoyillarini ko'rsatish mumkin. Milliy istiqlol mafkurasining, umuman mafkura tushunchasiga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, amal qilish tamoyillari bo'lishi tabiiy. Bu borada unga ijtimoiy voqelikning in'ikosi ekani, jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichiga mos kelish, hayot hodisalarini aks ettirish, amalga oshiriladigan targ'ibot va tashviqot tilzimi sifatida namoyon bo'lish kabi umumiy tamoyillar xos. Shu bilan birga, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonda ozod Vatan, erkin va farovon hayot yaratishga qaratilgan umummilliyl hodisa sifatida quyidagi bir qator o'ziga xos amal qilish tamoyillariga ham ega: mamlakatning mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilish; davlatmizning hududiy yaxlitligi va sarhadlari daxlsizligini ta'minlashda yordam berish; qonun ustuvorligini ta'minlash; demokratiya va o'zini o'zi boshqarishning hayotda mustahkam o'r'in egallashiga asoslanish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanish; xalqaro huquq qoidalariaga mos kelish; ko'p mulklilik va xilma-xil mulkchilikning erkin shakllanishini ta'minlash; davlatning bosh islohotchi ekani va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligiga tayanish; vijdon erkinligi va pluralizm muhitini shakllantirish; o'tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi jarayonlariga xizmat qilishi. Mazkur tamoyillarning barchasi bir-biri bilan chambarchas aloqada va bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida, ularning respublikamizda yashovchi barcha millat va elat vakillarining umumiy manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, oliyjanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etishi bilan belgilanadi.

Milliy istiqlol mafkurasi jamiyat a'zolarini aniq maqsad sari safbar qiluvchi, ularni bu yo'lda uyuştiruvchi ma'naviy omil sifatida mohiyatga ega ekanini ifodalaydi; jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Bu oliyjanob maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, o'zimizning burchimizni qay darajada anglashimiz, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizga ko'p jihatdan bog'liqdir; millati va

dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalilariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Bu qoida har bir fuqaro ongiga Vatanning muqaddasligini singdirishga xizmat qiladi; jamoatchilik qalbi va ongi-ga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi kabi demokratik tamoyillarga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi. Shu tarzda milliy mafkuramiz bunyodkor g'oyaga aylanadi.

Ushbu g'oyalarning mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlari Prezident Islom Karimov asarlarida o'z ifodasini topgan. Bular quyidagilardir: Vatan ravnaqi; yurt tinchligi; xalq farovonligi; komil inson; ijtimoiy hamkorlik; millatlararo hamjihatlik; diniy bag'rikenglik. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari ma'rifatli dunyoda e'tirof etilgan umumiy qonun-qoidalar va xalqaro andozalar, umuminsoniy tamoyillar va qadriyatlarning ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay amal qilish, demokratiya va gumanizm kabi tamoyillarning talablariga to'la-to'kis mos keladi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh va asosiy g'oyalari - turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruuhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen, ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir g'oya mutlaqlashtirilmaydi yoki mavjud hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning - butun xalqning umumiy manfaatlarini ifodalaydi. O'zbekiston xalqining milliy tarraqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi, har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasida ozodlik tushunchasi ustuvor va yetakchi o'rinda, vatan mustaqilligi barcha orzu-intilishlar, amaliy faoliyat va yorug' kelajak asosi ekanligidan dalolat beradi. Vatan ravnaqiga xizmat qilmaydigan g'oya hech qachon milliy g'oya bo'lolmaydi. Jamiyatda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalq madaniyati boyib, ilm-fan salohiyati yuksalayotgani vatan ravnaqining asosi bo'ladi. Vatan ravnaqi, avvalo uning

farzandlari kamoliga bog‘liq. Bu esa har bir shaxsni o‘zining ma’naviy kamoloti uchun yuksak mas’uliyatni his etishga, o‘z manfaatlarni shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi: yurt tinchligi - bebaho ne’mat, ulug‘ saodatdir, u barqaror taraqqiyot garovi.

Tinchlikka qarshi kuchlar o‘zlarining g‘arazli maqsadlari, nafs balosi yo‘lida bashariyatni hamisha nizo-adovat, urush va qirg‘inlar domiga tortib kelgan. Milliy istiqlol mafkurasining bosh va asosiy g‘oyasining maqsadi komil insonni har tomonlama tarbiyalashdir. Komil inson esa chuqur bilimli, ozod, erkin fikrlovchi kishi; ijtimoiy hamkorlik xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo‘lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligini ta’minlaydi.

Natijada jamiyatda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolati vujudga keladi. Jamiyatni sun’iy ravishda bo‘lib, turli qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradigan ta’limotlardan farqli o‘laroq, ijtimoiy hamkorlik g‘oyasi bu tabiiy rang-baranglikni milliy taraqqiyot manfaatlariiga bo‘ysundiradi; millatlararo totuvlik g‘oyasi - umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Bu g‘oya bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, do‘slik va hamjihatlikning ma’naviy asosidir; dinlararo bag‘rikenglik (tolerantlik) g‘oyasi – xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, oljanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi. Qadim-qadimdan din aksariyat ma’naviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etib keladi. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g‘oyalariiga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do‘slik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik, poklik, mehr-shafqat, o‘zaro bir-birini anglash, bag‘rikenglikka da’vat etadi. Hozirgi zamonda bu g‘oya ezgulik yo‘lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a’zolarining hamkorligini nazarda tutadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi Prezidentimiz Islom Karimovning asarlarida asoslab berilgan bo‘lib, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi. Ular «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida quyida-

gicha ta'riflangan: «O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, buniyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan mustaqillik, ozodlik, vatan obodligi, shaxsning erkinligi va farovon hayot tushunchalari, yuksak qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Milliy istiqlol mafkurasi bosh g'oyasida ozodlik so'zining ustuvor va yetakchi o'rinda turishi mustaqillik barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi uzviy ravishchda uning ma'no-mohiyatini to'ldiradigan, xalqimiz, jamiyatimiz hayotida haqiqiy bayroq bo'lishiga xizmat qiladigan, jamiyatimizning bugungi taqdiri va kelajagiga bog'liq bo'lgan tub manfaatlarimizni aks ettiradigan bir qancha g'oyalarni taqozo qiladi. Milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari - mamlakatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, hayotning barcha sohalaridagi islohotlar bilan uzviy bog'liqdir. Bu mafkura oila va fuqaroning munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayotga erishishga chorlaydi; har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasin, o'z manfaatini xalq va Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'rishga da'vat etadi; «mulkdor odamlar jamiyat ichida, xalq orasida faqat boyligi bilan emas, balki yuksak ma'naviy fazilatlari bilan ham ajralib turishi zarurligi, shaxsiy va oilaviy farovonlikka erishish imkoniyati har kimning o'z qo'lida», degan hayot haqiqatini zamonaviy dunyoqarash sifatida shakllantiradi; «har bir fuqaroning farovonligi - butun jamiyatning farovonligi» g'oyasini ilgari suradi.

Bulardan tashqari, mulkning xilma-xilligi, iqtisodiy hayotni erkinlashtirish, bu sohadagi plyuralizmni va sog'lom raqobatni yanada yuksak darajada rivojlantirish ham milliy istiqlol mafkurasi ijtimoiy iqtisodiy asoslari qatoriga kiradi. Shu bilan birga, milliy istiqlol mafkurasi bu sohalarda ana shu tamoyillarning qadrlanishi va mustahkamlanishi hamda fuqarolarimiz hayotining mazmuniga aylanishi uchun xizmat qiladi. Milliy istiqlol mafkurasining maqsad va vazifalari - har qanday mafkura muayyan maqsadlarga xizmat qiladi, bu yo'lda xilma-xil vazifalarni bajaradi. Bu maqsad va vazifa-

lar pirovard natijaga erishishning yo'llari, vosita va usullarini belgilaydi. Ma'lumki, mafkuraning asosiy maqsad va vazifalari quyida-gilarda namoyon bo'ladi: odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish; shu g'oya atrofida uyuşhtirish; g'oyani amalga oshirish uchun safar-bar etish; kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantirish; g'oyaviy tarbiyalash; g'oyaviy immunitetni shakllantirish; harakat dasturi bo'lish.

Ana shu umumiyligi jihatlardan tashqari, milliy istiqlol mafkrasining mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan o'ziga xos maqsad va vazifalari ham bor. Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebafo merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir». Ushbu maqsad bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladigan bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Bu vazifalarning eng asosiyalaridan biri mustaqil va erkin tafakkurni shakllantirishdir. Milliy istiqlol mafkurasining yana bir vazifasi jamiyatda sog'lom ma'naviy muhit yaratishdan iborat. Bu esa o'z navbatida, hurfikrli, mutelik va jur'atsizlikdan xoli insonni tarbiyalash vazifasi bilan bog'liq. Faqat hurfikrli, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insongina mutelik va jur'atsizliqdan xoli bo'ladi. Ana shunday insongina ozod va obod vatanni barpo etadi, erkin va farovon hayotni yarata oladi. Milliy istiqlol mafkurasining umumbashariy tamoyillari - uning umuminsoniy mazmunidan kelib chiqadi.

Prezidentimiz Islom Karimov asarlari asosida tayyorlangan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida mafkuramiz tayanadigan quyidagi umumbashariy tamoyil va qoidalar ko'rsatilgan: qonun ustuvorligi; inson haq-huquqlari va hurfikrlik; turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash; diniy bag'rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik; o'zga

¹ Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Асарлар тўплами. 9-жилд. Т.: Ўзбекистон 2001. 222-бет.

xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish va h.k. Ushbu qadriyatlar asosida shakllangan istiqlol mafkurasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillariga mos keladi, ularni milliy darajada namoyon bo‘lishi uchun imkon yaratadi. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, din va qatlam vakillarining umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi, xalqimiz o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydi, uning azaliy orzu-istiklarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mazkur mafkuraning jahondagi demokratik jarayonlar, tinchlik va barqarorlik, inson huquqlari va vijdon erkinligi kabi umumbashariy qadriyatlar mazmuniga mosligini ko‘rsatadi.

3.4. Ta’lim-tarbiyaning shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi roli

Ma’naviy tarbiya muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalaydi. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta’minlaydigan qadimgi va abadiy qadriyatdir.

Ma’naviy tarbiya masalasida hushyorlik va sezgirlik, qat’iyat va mas’uliyat yo‘qotilsa, bu o‘ta muhim ish o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan minglab yillik milliy-etnik asoslarga ega millat ma’naviyati va tarixiy xotirasidan ayrilib, oxir-oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishi mumkin. O‘zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma’naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o‘lmas merosni chuqur o‘rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho‘qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan.

Chunki ertaga kattalar o‘rnini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdirdagina komil insonlar bo‘lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma’naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydi-

gan qadriyatlar ma'naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi.

Ma'naviy tarbiya atamasi keng ma'noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda ma'naviy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye, ommaviy axborot vositalari va boshqa faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi ma'naviy tarbiya tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, ma'naviy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunday ma'naviy tarbiya oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari doirasida amalga oshiriladi.

Har qanday ma'naviy tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois otabobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifikat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar.

Prezidentimiz ta'kidlagani kabi «Ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'y-lanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir»¹.

«Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir» degan chuqr ma'noli so'zlarini eslayman.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Т.: «Маънавият» 2008. 61-бет.

Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtida ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi»¹.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ma'naviy tarbiyani amalga oshiradigan o'quv muassasalari va umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish eng muhim va jiddiy masalaga aylandi.

«Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi bo'lmish 2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummiliy Davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu dasturga muvofiq, yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi-yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlарimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak hech qanday xato bo'lmaydi»².

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinish turibdiki, ma'naviy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki uning o'sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o'z ajodalardidan yuqori darajaga ko'tarilmog'i darkor. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida ma'naviy tarbiya turlichcha izohlab keltingan.

Sobiq ittifoq davrida hukmron mafkura ma'naviy tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan, bu jarayonda milliy xususiyatlar deyarli hisobga olinmagan edi. O'zbekiston istiqlolga erishgach, ma'naviy tarbiyaga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom tafakkurga tayangan holda qarash qaror topa boshladи. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – сингилмас куч. Т.: «Маънавият» 2008. 62-бет.

² Ўша асар, 64-бет.

kechildi. Ma'naviy tarbiyaning milliy va umuminsoniy asoslariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bugungi O'zbekiston uchun umummilliylar, umum-davlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalgalashirilayotgan ishlarni izchillik va qat'iylik bilan davom ettirish mazkur sohadagi asosiy mezonga aylandi.

Bu borada jamiyatni doimiy harakatga keltirib turadigan kuch-milliy g'oya, milliy manfaatga xizmat qiladigan qadriyatlarni, ilg'or demokratik qoida va tushunchalarni aniq-ravshan tasavvur etish, ularni o'rganish, borini asrab-avaylash, boyitish, rivojlantirish, xalqni, avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodni ana shu bilim va ko'nikmalar bilan tarbiyalash - ma'naviy tarbiya sohasidagi eng ustuvor vazifa hisoblanadi.

Masalani bu tarzda qo'yilishining asosiy sababi shundaki, bugungi yoshlar nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio, televide niye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqdalar. Yoshlarga Internetdan, axborotlardan foydalanish, axborot iste'moli madaniyatini o'rgatishda dunyoning qaysi burchagidan qanday ma'lumot kelmasin, qanday ma'naviy tajovuz tahdid solmasin, har qanday holatda ham ma'naviy-ruhiy jihatdan ogoh va hushyor turadigan, turli axborot xurujlaridan o'zlarini yo'qtib qo'ymaydigan barkamol shaxslarni shakllantirish bu sohadagi ma'naviy tarbiyaning asosiy mezoni bo'lmog'i lozim.

Shu boisdan ham o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy tarbiyasiga javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi doimo oila, mahalla, mактаб va ta'lim muassasalari, umuman, barchaning diqqat markazida turmog'i lozim. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalashda zamonaviy tibbiyot, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har bir oilada joriy qilish ayniqsa, zarur. Har bir oila, ota-onasi, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko'rishi, uning uchun shaxsga tegishli barcha huquq va erkinliklarni ta'minlashi borasida o'zining mas'ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim. Istiqlol yillarda kamdan-kam mamlakatda mavjud bo'lgan noyob idora - mahalla ham milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashda, el-yurt tinchligi va osoyishtaligini mustahkmalashda, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoxqda.

Dunyoning pastu balandini ko'rgan mahalla oqsoqollari, ulug' yoshli onaxonlar o'zlarining hayot tajribasi bilan yoshlarga ma'naviy tarbiya va saboq berib, xalq an'analari davomiyligini asrab-avaylab kelayotgani ibratlidir. Bunda mahallaga xos hayot tarzi va turmush madaniyati, qo'ni-ko'shni va mahalla-ko'y o'rtasidagi munosabatlarning ta'siri katta. Xullas, ma'naviy tarbiyaning qirralari juda ko'p. Ma'naviy tarbiyada milliy g'oya, milliy g'ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri - katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, buyuk ajodolar tavallud sanalarini nishonlash ham ma'naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o'tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadi, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o'tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g'ururlanish tuyg'ulari singdiriladi. Umuman olganda, ma'naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o'z aqli, tafakkuri, mehnati, mas'uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi.

Ma'naviyat nisbatan umumiy bo'lgan ijtimoiy baholar, me'yorlar, mo'ljallar, ideallar majmuyi sifatida, urf-odat va qabul qilingan rasm-rusumlar hamda kishilar o'rtasidagi mafkuraviy munosabatlar, ya'ni ma'naviy madaniyat va ma'naviy muhit sifatida boshqa ijtimoiy munosabatlarga, alohida shaxslar va guruhlar xulq-atvoriga, faoliyatiga cheklash yoki rag'batlash, undash orqali ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviyat eng avvalo, millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. U ijtimoiy-madaniy filtr vazifasini bajaradi va milliy an'analarga yot, milliylikka putur yetkazuvchi, millatning axloqiy, estetik, falsafiy qarashlariga, iymon-e'tiqodiga,adolat va haqiqat to'g'risidagi tasavvurlariga mos kelmaydigan narsalarni qabul qilmaslikka, aksincha, ularni siqib chiqarishga harakat qiladi hamda milliy rivojlanish uchun zarur bo'lgan o'zga xalqlarning yutuklarini, tajribasini o'zlashtirishga intiladi. Milliy turmush tarzini muhofaza qilishga va rivojlantirishga kuchi yetmasa, inqirozga uchraydi.

Demak, ma'naviyat millat ichki dunyosining, qarashlarining va qadriyatlarining voqeligi bo'libgina qolmasdan, ularning yashovchanlik darjasini, o'z-o'zini muhofaza qila olish va rivojlanish kuchini namoyon etadi.

Shu boisdan ma'naviyat madaniy merosga, tarixiy an'analarga, diniy va fuqaroviylar urf-odatlarga nihoyatda g'amxo'rlik bilan yondashadi,

ularning unutilishiga yo'l qo'ymaydi. Moddiy foydalilik yuksak ma'naviyat uchun birinchi darajali emas. Ushbu ma'noda ma'naviyat hayotga, turmushga, ijtimoiy munosabatlarga va muammolarga, o'tmish va kelajakka oid hodisalarga keng miqyosda ijtimoiymadaniy mo'ljallar nuqtayi nazaridan baho beradi hamda bu baholarning mezonlari va me'yorlarini belgilaydi.

Ma'naviyat shunday me'yoriy (normativ) xossaga egaki, unga mos ravishda jamiyatda narsa va hodisalarga, ijtimoiy aloqalarga nisbatan muayyan munosabat shakllanadi. Bu me'yorlarga mos keladigan hodisalarga, xatti-harakatlarga biz ijobiy munosabatda bo'lamiz, ularni ma'qullaymiz, imkon topilsa, amalda qo'llab-quvvatlaymiz. Va aksincha, ma'naviyatimizga mos kelmaydigan hodisalarni, xatti-harakatlarni qoralaymiz va h.k.

Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi»¹.

Ma'naviyatning me'yoriy xarakteri bizning u yoki bu hayotiy pozitsiyani egallahimizni anglatadi. Ma'naviyat qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning me'yoriylik xossalari ham shunchalik erkin, boy va rang-baranglik kasb etadi. Boy ma'naviyat turlicha fikrlarni, qarashlarni, yondashuvlarni taqozo etadi, ammo ulardagi farqlardan qat'iy nazar, albatta, ijtimoiy faollikni bildiradi. Ma'naviyat qancha qashshoq bo'lsa, u shunchalik fanatizmga moyil, o'zgacha qarashlarga va yondashuvlarga murosasiz, kazarmacha bir xillikni qaror toptirishga harakat qiladi.

Millatning ma'naviyati hech bir shaxs, hech bir ijtimoiy guruh tomonidan to'laligicha o'zlashtirilmaydi, Kishilarning va guruhlarining amaliy faoliyatida ma'naviyatning faqat o'zlashtirilgan qismigina ro'yobga chiqadi. O'zlashtirilmagan ma'naviyat, tabiiyki, o'zing me'yoriy va boshqa xislatlarini yuzaga chiqara olmaydi.

Ma'naviyatning me'yoriy xarakteri birinchi navbatda cheklashda emas, balki muayyan faoliyatga, ya'ni ijodkorlikka, yaratuvchilikka undashda namoyon bo'ladi. Ma'naviyati boy xalqning rag'batisi o'zini tiyishga, kamsuqum bo'lib turg'unlikka intilishga emas, balki ijodkorlikka, turmushni yangilashga, yanada ilg'or yutuqlarni qo'lga kiri-

¹ Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: «Маънавият», 2008 й., 29-6.

tishga qaratilganligidadir. Boshqacha qilib aytganda, taraqqiyotga rag‘bat asl ma’naviyatning me’yori, ijtimoiy mo‘ljalidir.

Ma’naviyat o‘zining muhofaza qilish, tanlash, cheklash, baholash, undash kabi me’yorlash xossalardan kelib chiqib, har qanday alohida olingen qadriyatlarning, shu jumladan chetdan qabul qilingan yutuqlardan ham muayyan tarzda foydalanishni taqozo etadi va jamiyat a’zolarining ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi.

Ma’naviyatning ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) millatni muhofaza qilish;
- b) o‘tmishga, bugunga va kelajakka oid hodisalarga baho berish, bu baholarning mezonlari va me’yorlarini belgilash (aksiologik vazifa);
- v) jamiyatni va alohida shaxslarni muayyan hayotiy pozitsiyani egallashga undash;
- g) millatni taraqqiyotga, alohida shaxsni takomillashishga rag‘batlantirish;
- d) insonning o‘z shaxsiyati bilan ayniyatda yashashini, inson tabiatini rivojlanishi, takomillashishini ta’minalash;
- e) kishilar, ijtimoiy guruuhlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish (axloqiy va huquqiy me’yorlar orqali);
- j) insonning tabiat va jamiyat bilan uyg‘unligini ta’minalash.

4-mavzu. Ma’naviyat, iqtisod va ularning o‘zaro bog‘liqligi

4.1. Ma’naviylik va moddiylikning uyg‘unligi

Inson jamiyat hayoti va faoliyatida moddiy hamda ma’naviy asoslarining bir-biriga nisbatan mosligi, o‘zaro aloqadorligi va bog‘-liqligini ifodalaydi. Islom Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida bu borada fikr yuritib, odamlarning hayotida ma’naviy va moddiy asoslar qanday o‘rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba’zan ziddiyatli qarashlar mavjud bo‘lgani, bunday tushunchalar hozirgacha davom etayotganini ta’kidlaydi.

«Misol uchun, deb yozadi muallif, - qadimiy hind, xitoy yoki yunon faylasuflarini olasizmi, o‘rta asrlardagi Sharq va G‘arb Uyg‘onish davri namoyondalarini olasizmi, islom olamida nom qozongan mutafakkir zotlarni olasizmi – ularning ilmiy merosida moddiy va ma’naviy olam o‘rtasidagi munosbatlarga keng o‘rin berilganini ko‘rish mumkin».¹

Antik davr faylasuflari bo‘lmish Suqrot va Platon, Epikur, Demokrit, xitoy donishmandi Konfutsiy kabi allomalarining fiklari falsafa tarixidan ma’lum. Ularning ayrimlari ruhiy olamni birlamchi deb bilsa, ba’zilari moddiy olamni asosiy o‘ringa qo‘yan. Ana shunday tushuncha va tasavvurlar asosida keyinchalik materializm va idealizm kabi ta’limotlar maydonga chiqdi.

«Bunday falsafiy yondashuvlarning har biri o‘z davridagi mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukmron mafkura, jamiyatning huquqiy-madaniy saviyasi, turli sotsial guruh va toifalarning qarashlarini ifoda etishga xizmat qildi».²

«Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida bunday sof nazariy masala doirasidan chiqib, ma’lum bir tuzum yoki davlatning rasmiy

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: «Маънавият» 2008. 65-бет.

² Ўша асар, 66-бет

mafkurasi maqomini ham oldi. O'rta asrlarda idealizm ustun qo'yilgan bo'lsa, sovet davrida materialistik qarash ustun qo'yildi. Natijada materiya birlamchi, ong esa ikkilamchi, degan tamoyil hukmron dunyoqarash darajasiga ko'tarildi. Oqibatda insonning ma'naviy qadriyatlari, milliy va diniy tuyg'ulariga bepisand qaraldi, toptaldi, bunday biryoqlamalik jamiyat davlatlarining inqiroziga olib keldi». ¹

«Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'laymanki, o'rinli bo'ladi». ²

Ko'rinib turibdiki, moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi. «Bularning barchasi ma'naviy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizdan oziqlangan iqtisodiy taraqqiyot yo'limiz jamiyatimiz hayotiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatayotganining yorqin ifodasidir. Eng muhimi, yurtimizda moddiy va ma'naviy jarayonlarning o'zaro mutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo'lib xizmat qilmoqda». ³

Iqtisodiy munosabatlardan shaxslar o'rtasidagi o'zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag'rikenglik, ishonch-lilik kabi fazilatlarning amal qilishini anglatadi. Ma'lumki, iqtisodiyotning o'ziga xos obyektiv qonun-qoidalari, sir-asrорлари borki, ular bilan hisoblashmaslik mumkin emas. Ularni mensimaslik nafaqat iqtisodiy salohiyatning yetishmasligi, balki ma'naviy qashshoqlik belgisi hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarda ma'naviyat masalalari, xususan, insoniylik talablari va me'yordi yetarlicha hisobga olinmasa, texnokratik qarashlar ustunlik qilsa, ishlab chiqarishning o'sishi, iqtisodiy rivojlantirish bo'lishiga qaramay, jamiyatda axloqiy munosabatlardan inqirozga uchraydi, o'zaro ishonchsizlik kuchayadi. Bu esa

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-инглий мас куч. Т.: «Маънавият» 2008. 66-бет

² Ўша асар, 67-бет.

³ Ўша асар, 70-бет.

oxir-oqibatda ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulga olib kelishi mumkin. Ayrim kishilar erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy qadriyatlar qadrsizlanadi, madaniyat va ma'naviyat ikkinchi darajali narsaga aylanadi, ma'naviy qashshoqlik avj oladi, deb da'vo qiladi. Yerkin bozor iqtisodiyoti bilan ma'naviyatni bunday qarama-qarshi qo'yish mutlaqo o'rinsiz, aksincha, yuqorida aytganimizdek, ular bir-birlarini to'ldiradi, chunki faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina iqtisodiy islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda iqtisodiyot va ma'naviyatning o'zaro dialektik bog'liqligi va bir-biriga ta'siri qonuniyatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy va ma'naviy hayotning uyg'un holda rivojlanib borishiga alohida ahamiyat berilmoqda. «Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, - deb ta'kidlaydi. Prezident I.A. Karimov, - biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un ravishda rivojlanib borishini doimo davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markaziga qo'yib kelmoqdamiz».¹ Istiqlol davrida iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarning o'zaro mutanosib tarzda rivojlanishiga erishilayotgani mamlakatimizda siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo'lib xizmat qilmoqda. Demak, ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi.

Hozirgi kunda yurtimizda iqtisodiy islohotlarning yangi, yuqori bosqichiga o'tayotgan ekanmiz, bu fan, madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ularni amalga oshirish borasidagi ishlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Iqtisod, ma'naviyat va ma'rifatning o'zaro chambarchas bog'liq ekanini ota-bobolarimiz teran tushunib yetgan. Shunga tayangan holda ular ma'naviyati yuksak, komil inson haqida butun bir ma'naviy talablar majmuasini ishlab chiqqanlar. Ma'naviyati yuksak kishi birovning haqiga, davlat, jamoa mulkiga xiyonat qilmaydi, el-yurtiga, oilasiga sadoqatli bo'la-di, vatani, xalqi uchun hatto jonini ham ayamaydi. Buning aksi o'la-roq, ma'naviyati qashshoq kishilar nopol, firibgar, poraxo'r, o'g'ri, qallob, vatan va millat manfaatlariga befarq qaraydi. O'zbekiston yuksak darajada rivojlangan iqtisodiyoti bilangina emas, balki bilim-

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-сигилмас куч. Т.: «Маънавият» 2008. 69-бет.

don, ma'naviyati yetuk farzandlari bilan ham jahonni hayratga solishi mamlakatimizdagi islohotlarning asosiy maqsadidir. Bunga esa iqtisod va ma'naviyat, ma'rifatni birga, o'zaro mutanosib, mushtarak rivojlantirishga ahamiyat berilganidagina erishish mumkin. Sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari faqat yuksak ma'naviyat va ma'rifat, axloqiylik va vatanparvarlik negizida buniyod etilishi mumkin. Bu borada hammamiz mas'ul ekanimizni chuqur anglashimiz lozim. Negaki, ma'naviyatli va ma'rifatli, iymonli kishilargina halol mehnati bilan boylik yaratadi. Izlanuvchan, insofli, mehnatsevar, tadbirkor, el-yurt dardiga malham bo'ladijan haqiqiy vatanparvarga aylanadi. Shunday fuqarolarga ega bo'lgan mamlakat va jamiyat iqtisodiy taraqqiyot pog'onalaridan uzlusiz yuqoriga ko'tarilib boradi.

4.2. Taraqqiyotning «o'zbek modeli» tushunchasi

Insoniyat XX asr davomida ilm-fanda, ijtimoiy taraqqiyotda misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Ammo aynan shu asrda ikki marta jahon urushini, bir qancha inqiloblarni, bolshevizm va fashizm balolarini, kurrai zaminga, tiriklikka xavf solgan ikki qarama-qarshi siyosiy tuzumlar o'rtasidagi harbiy-yadroviy raqobatni boshidan kechirdi.

XX asrning o'ziga xos qiyofasini, insoniyat tarixidagi ahamiyatini belgilovchi xususiyatlaridan biri bu mustamlakachilik tuzumining kapitalistik va sotsialistik ko'rinishlarining yemirilishidir.

Mustaqillikka erishgan mamlakatlarning hammasi ham bir xil sur'atlarda rivojlanayotgani yo'q. Ularning ayrimlari ijtimoiy taraqqiyotning qudratli oqimiga tushib oldi, ko'pchiligi turli iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda, ba'zi birlari haligacha qashshoqlikdan chiqa olmayapti. Yuksak sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlarning xoh u sobiq mustabid, xoh sobiq mustamlaka mamlakat bo'lsin, tajribasi o'rganilganda, ularning har biri taraqqiyotning o'z milliy modelini yaratganini ko'ramiz. Bugun «shved modeli», «yapon modeli», «Janubiy Koreya modeli» va shu kabi atamalarni uchratish mumkin.

Sobiq sovet mustabidligidan xalos bo'lgan mamlakatlar ham mustaqil taraqqiyotning o'zlariga ma'qul shakllarini izlab topishga harakat qilmoqdalar. Sobiq sovet respublikalarining ijtimoiy-siyosiy,

İqtisodiy vaziyati, rivojlanish sur'atlari, tabiiyki bir xil emas. Buning albatta, har xil sabablari bor. Ularning barchasida deyarli ko'pmulk-chilikka tayangan bozor iqtisodiyotini joriy qilish, huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish asosiy maqsad, deb e'lon qilingan bo'lsada, bu maqsadga erishishning nazariy konsepsiyalari, amaliy yo'llari turlicha tushunilmoqda. Binobarin, milliy rivojlanish uchun tanlangan yo'l, usullar, omillar, vositalar ham har xil. Shunday ekan, har qaysi mustaqil mamlakat o'zi uchun rivojlanishning samarali «milliy modeli»ni yaratishga intilishi tabiiy.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston shunday modelni yarata olgan mamlakat hisoblanadi.

Buni jahonda 2008-yilda yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sinovi ham tasdiqladi.

Milliy taraqqiyot u yoki bu darajada milliy g'oya bilan bog'liq. Milliy g'oyasi aniq ifodalanganmagan, ya'ni o'zining eng oliy maqsadi va ijtimoiy idealini belgilay olmagan xalq ularga erishish mexanizmini (taraqqiyot modelini) ham yarata olmaydi. Bunday xalqning taraqqiyoti ko'p jihatdan stixiyali, umumiy oqimdag'i barcha tasodiflar va tebranishlar ta'sirida kechadi.

Aksincha, milliy g'oya nechog'li aniq ifodalangan va omma ongiga singgan bo'lsa, u milliy taraqqiyot modelining davlat siyosatini belgilovchilar tomonidan shunchalik aniq shakllantirilishiga va ongli ravishda qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir, shuningdek, keng ommaning mazkur modelga ijobiy hissiy va aqliy munosabatda bo'lishida, unga ixlos bilan qarashida, uni tashabbus bilan qabul qilishida, amalda qo'llab-quvvatlashida namoyon bo'ladi.

Aholini, birinchi galda yosh avlodni milliy g'oya, vatanparvarlik, O'zbekiston bilan faxrlanish, milliy va umumbashariy qadriyat-larga sodiqlik ruhida tarbiyalashda taraqqiyotning o'zbek modeli mazmunini, uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, targ'ib etish muhim ahamiyatga ega. Bu bugungi hayotimizga, erishayotgan yutuqlarimizga, Prezidentimizning nazariy va amaliy ijodkorligiga munosib baho berish, ularning qadriga yetish uchun ham kerak. Bundan tashqari, o'zbek modeli to'g'risida mulohaza yuritish, tadqiqot olib borish unga o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda xalaqit berayotgan turli omillarni aniqlashga, ularning ta'sirini kamayish choralarini ko'rishga yordam beradi.

Jahonda davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida sobiq sovet respublikalari orasida O'zbekiston o'zining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va iqtisodiyotining rivojlanishi bilan ajralib turibdi. Endilikda chet ellardagi nufuzli iqtisodiy va siyosiy nashrlarda, olimlar va ekspertlarning maxsus taddiqot va ma'ruzalarida, siyosiy arboblar nutqlarida «Taraqqiyotning o'zbek modeli» iborasi tez-tez uchray boshladi.

O'zbek modelining nazariy konseptual asoslari Prezident Islom Karimov asarlarida o'z aksini topgan. O'zbek modelining ko'pchilik boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati shuki, u faqat iqtisodiy rivojlanish modeligina emas, balki keng ma'noda milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modeli hamdir. Shu sababdan u iqtisodiyot bilan bir qatorda davlat va jamiyat qurilishi, ijtimoiy hayot va ma'naviyatni ham qamrab oladi.

O'zbek modeli tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi (davlat siyosati deganda hokimiyatning bo'g'ini faoliyati nazarda tutilmoxda).

Demak, taraqqiyot modeli o'zining nazariy va amaliy asoslariga ega. Taraqqiyot modelining nazariy tomoni mamlakatning yuzaga chiqqan va potensial imkoniyatlari, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, infratuzilmasi holati, tabiiy boyliklari, demografik vaziyati, aholining ongi, bilimi, kasbiy salohiyati va hokazolar hisobga olingan holda rivojlanish konsepsiyasini, oddiy til bilan aytganda, ushbu mamlakatga mos va xos yo'lni asoslaydi. U bir necha nisbatan mustaqil yo'nalishlardan iborat: iqtisodiy siyosat tamoyillari va makroiqtisodiy nazariya; davlat qurilishi va jamiyatni demokratlashtirish tamoyillari, me'yordari, baholari; mulkdorlar sinfini shakllantirish va ijtimoiy stratifikatsiyani (jamiyatning ijtimoiy-sinfiy, tabaqaviy tuzilmasini) takomillashtirish tamoyillari; milliy g'oya, milliy mafkura konsepsiysi va ma'naviy-madaniy rivojlanish masalalari; tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tamoyillari va hokazo.

Modelning amaliy tomoni ham bir necha yo'nalishlarga ega:

– islohotlarning huquqiy bazasini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati;

– nazariy xulosalarni, mo‘ljallarni amalga oshirish yuzasidan hukumatning tashkilotchilik ishlari va aniq mexanizmini o‘zida aks ettirgan farmonlar, qarorlar, maqsadli dasturlar (shu jumladan, sanoatni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqa dasturlar) qabul qilishi;

– bevosita ularning hayotga tatbiq etilishi; ya’ni amaldagi investitsiya siyosati; soliq siyosati; moliya-kredit siyosati; iqtisodiy-tuzilmaviy siyosat; fond bozorini, qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish; iste’mol bozoriga ta’sir ko‘rsatish va sh. k;

– farmonlar, hukumat qarorlarining to‘g‘riligiga odamlarni ishontirish, ularni birlashtirish, ularda eski tuzum inertsiyasini engib o‘ta oladigan iroda hosil qilish borasidagi targ‘ibiy-tashviqiy va tarbiyaviy ishlar.

Nazariy jihatdan puxta va to‘g‘ri asoslanmagan siyosat xatolaridan xoli bo‘lmaydi, jamiyatning hamma tomonlari nisbatan uyg‘un rivojlanishini ta‘minlay olmaydi. Bunday holda rivojlanishning busbutun shakllangan milliy modeli vujudga kelmaydi, va aksincha, puxta va qat’iy amaliy siyosat bilan mustahkamlanmagan nazariy xulosalar va mo‘ljallar esa ma‘rifiylik, targ‘ibot darajasida qolib ketaveradi. Bunday holda ham model vujudga kelmaydi.

Xo‘sh, o‘zbek modelining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisodiy taraqqiyot masalalari bilan bir vaqtning o‘zida milliy davlatchiligini va madaniy-ma‘naviy merosini tiklash, rivojlantirish, jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasini takomillashtirish va mustaqil rivojlanish talab qiladigan yangi kadrlar korpusini shakllantirish masalalarini hal qilishi lozim bo‘ldi.

Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Xitoy modellari ko‘proq iqtisodiy modellar edi. Bu modellarda siyosiy, ijtimoiy va ma‘naviy jihatlar alohida ajralib turgan emas. Chunki mazkur mamlakatlarning birortasida milliy davlatchilikni, madaniy merosni va ona tilini tanitish masalasi qun tartibida dolzarb qilib qo‘ylgani yo‘q (faqat Janubiy Koreyada davlat qurilishi dolzarb bo‘lgan).

Shunday qilib, o'zbek modeli iqtisodiy jihatlar bilan bir qatorda davlat qurilishi, jamiyatni demokratlashtirish; mulkdorlar sinfi va o'rta sinfni shakllantirish, ijtimoiy-sinfiy tuzilmani takomillashtirish va kadrlar tayyorlash; madaniy meros va umuman, ma'naviyat bilan bog'liq jihatlarni qamrab oladi. Bu uning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bordaniga taraqqiyot konsepsiyasini va modelini yaratishga kirishdi, o'z tarixiy an'analariga, xalq xo'jaligining mavjud darajasiga hamda potensial imkoniyatlariga, salohiyatiga xos va mos yo'lni izlay boshladи. Shu bois o'zbek modeli o'tish davriga xos vazifalarni, ya'ni mustaqillikni mustahkamlash, mustaqillik bilan bog'liq ayrim siyosiy va ijtimoiy institutlarni yaratish va takomillashtirish, mulknı xususiylashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish kabi «dastlabki» masalalarni hal qilish vazifalarini bajardi va endi faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilishni davom ettirmoqda.

Siyosiy mustaqillik, ya'ni davlat mustaqilligi milliy mustaqillikning ilk shaklidir. Shu bilan bir qatorda, siyosiy mustaqillik milliy mustaqillikning boshqa shakllariga erishishda zaruriy shart-sharoit va bosh omildir. Faqat davlat mustaqilligiga erishilib, milliy mahsulot, milliy daromad qo'lga kiritilgandagina, milliy manfaatlarga mos iqtisodiy va ijtimoiy siyosat olib borish, milliy manfaatlarni ko'z-lovchi huquq tizimini shakllantirish, milliy qadriyatlarga, madaniy merosga munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirish, ish yuritishni ona tiliga ko'chirish mumkin bo'ladi. Shunday imkoniyat vujudga kelsada, ammo muammolar o'z-o'zidan hal bo'lib qolavermaydi. Buning uchun keng ma'nodagi milliy davlat barpo etilishi lozim. Chunki mustamlaka davlatda hokimiyat organlari to'liq bo'lmaydi, borlari esa mustaqil faoliyat ko'rsatishga moslashmagan. Masalan, sobiq sovet davrida O'zbekistonda milliy armiya yo'q edi, diplomatlar korpusi shakllanmagan, emissiya bilan shug'ullanadigan banki yo'q edi. O'zbekiston xalqaro munosabatlarning mustaqil subyekti emas edi. Davlat idoralari va amaldorlar mustaqil faoliyat yuritishga emas, balki Moskva ko'rsatmalarini bajarishga moslashgan edilar. Shu bois o'zbek modeli davlat qurilishi masalalarini o'z ichiga olmasdan iloji yo'q edi.

O'zbekistonda iqtisodiy-ijtimoiy masalalar bilan bir vaqtida

mas'uliyatni zimmasiga olib, mustaqil qaror qabul qila oladigan, xalqaro munosabatlarda mustaqil ishtirok etib, mamlakatimiz manfaatlarini himoya qila oladigan davlat idoralari shakllantirila boshlandi. Bu jarayon ham, tabiiyki, bosqichma-bosqich rivojlanadirildi. Davlat qurilishi bilan bog'liq kadrlar masalasini hal qilish uchun O'zbekiston Prezidenti huzurida Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, qator yangi oliy o'quv yurtlari, harbiy akademiyalar ochildi. Ko'plab kadrlar chet ellarga malaka oshirishga va o'qishga yuborildi.

Davlat qurilishi ilgari mayjud qonunlarni, boshqaruv tizimini shunchaki takomillashtirishga emas, balki tubdan yangi milliy davlatni barpo etishga qaratilgan. Aynan milliy davlat «o'zbek modeli» samarali faoliyat ko'rsatishini har tomonlama ta'minlovchi (huquqiy jihatdan ham, tashkilotchilik jihatdan ham va h. k.) omildir.

O'zbek modelida ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy jihatlar juda katta ahamiyatga ega bo'lsada, iqtisodiy soha asos va yetakchi hisoblanadi. Modelning iqtisodiy qismi o'tish davrida quyidagi strategik yo'nalishlarni qamrab oldi:

- mulkchilikning turli shakllarini qaror toptirish; ularning teng huquqlilagini va o'zaro muvozanatini ta'minlash;
- xalq xo'jaligida tuzilmaviy o'zgarishlar qilish; uni xomashyo yetkazib berishdan ko'proq tayyor mahsulot chiqaruvchi tuzilmaga aylantirish;
- milliy valyutani barqarorlashtirish va oqibatda uning to'liq konvertatsiyasini ta'minlash;
- bozor infratuzilmasini va munosabatlarini to'liq vujudga keltirish;
- tashkiliy va bunyodkorlik vazifalarini amalga oshirish uchun oqilona miqyosda chet el investitsiyalarini jalb etish;
- xususiy mulkchilik rivojlanishi jarayonida investitsiyalarning asosiy qismi davlat zimmasidan korxonalar va xususiy kapital zimmasiga o'tishi uchun shart-sharoit yaratish;
- jahon iqtisodiyotiga to'la huquqli integratsiya bo'lish; buning uchun transport va kommunikatsiya masalalarini hal qilish.

O'zbek modelining ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiy islohotlarga muvofiq ravishda jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasini rivojlandirish va kadrlar tayyorlash masalasidir.

Respublikada ishlab chiqarishning biz uchun butunlay yangi tarmoqlari vujudga kelyapti, mavjudlari kengayib, qayta jihozlanib, zamonaviy texnologiyalarga ko‘chirilmoqda. Bu korxonalar uchun yuksak malakali ishchilar, injenerlar, menejerlar zarur. Sobiq Ittifoq davrida O‘zbekistonga yangi qurilayotgan zavod va fabrikalar uchun ko‘plab ishchi va mutaxassislar ko‘chirib kelinar edi. O‘zbeklar orasida zamonaviy sanoat bilan bog‘liq ishchilar va mutaxassislar salmog‘i aholi tarkibidagi o‘zbeklar ulushiga nisbatan kam edi. Mustaqillik sharoitida yuksak texnologik ishlab chiqarishga mahalliy aholini maksimal darajada jalb qilish, mamlakatimizning ilmiy-texnikaviy saviyasini ko‘tarish boshlandi. Bu borada puxta o‘ylangan siyosat amalga oshirilmoqda. Misol uchun, mamlakatimizda barpo etilgan avtomobilsozlik zavodlarida, «Sho‘rtangazkimyo» majmua-sida va boshqa zamonaviy korxonalarda ishlaydiganlar zarur malaka olishlari uchun chet ellarga amaliy stajyorlikka va o‘qishga borib keldilar. Bugun bu korxonalarda deyarli to‘liq mahalliy aholi ishla-moqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko‘ra, yangi tipdag‘i kasb-hunar kollejlari tizimi paydo bo‘lgani masalani strategik jihatdan hal qilish namunasidir. Ishchilar sifat jihatdan o‘smoqda, chunki tarkibida yuksak malakali mutaxassislar qatlami kengaymoqda. Aynan shu qatlam mamlakatimiz xalq xo‘jaligiga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini olib kirishni ta‘minlaydi. Bu - birinchidan. Ikkinchidan, jamiyatda ko‘pmulkchilik rivojlanmoqda. Demak, mulk shakllariga muvofiq, mulkdorlar sinfi shakllanadi. Mamlakatimizda mulkdorlar sinfi vujudga kelishi ko‘plab avlodlarning tadbirkorlik tufayli sarmoyasining tabiiy-tarixiy to‘planishi negizida emas, balki bir avlod umri davomida davlat mulkining taqsimlanishi va shaxsiy tadbirkorlik rivojlanishi negizida yuz bermoqda. Mulkdorlar sinfi mamlakatimizda bir avlod umri davomida asosan shakllanib bo‘lishi lozim. Chunki biz o‘tish davrini 50-60-yil davomida o‘tkaza olmaymiz. Shu bois mulkdorlar sinfi vujudga kelishi va rivojlanishi jarayoniga ta’sir ko‘rsatish o‘zbek modelining asosiy xususiyatlaridan va vazifalaridan biridir.

Davlat o‘ziga qarashli korxonalarni xususiylashtirish, yiriklarini aksiyalashtirish, tadbirkorlikning, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning oyoqqa turishi uchun turli imtiyozlar tizimini yaratish orqali mulkdorlar sinfi, xususan o‘rta sinf vujudga kelishini tezlashtirmoqda.

Nafaqat kichik tadbirkorlik va tijorat bilan shug‘ullanuvchilar,

fermerlar, dehqonlar, shuningdek, turli korxonalarning aksiyalarini sotib olgan kishilar, yuksak malakali ishchilar, ziyolilar daromadlari va jamiyatdagi mavqelariga ko'ra o'rta sinfga mansub bo'lishlari lozim. Rivojlangan mamlakatlarda o'rta sinf son jihatdan eng katta qatlamdir. Bizda ham shunday bo'lishi kerak.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, aynan o'rta sinf jamiyat barqarorligining, demokratiya va fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchidir.

Milliy davlatchilikni tiklash, ko'pmulkchilikka asoslangan va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qaror toptirish, kadrlar tayyorlash, jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasini rivojlantirish, o'tish davrida aholining nochor qatlamlari ijtimoiy muhofazasini ta'minlash zarurati o'zbek modelida davlatning yetakchi o'r'in tutishini taqozo etadi. Bu ham uning boshqa modellardan farq qiladigan xususiyatlaridan biridir.

O'zbek modelining ma'naviy jihatlari shundaki, agar xalqning ongi qoloq bo'lsa, u o'z milliy manfaatlarini yaxshi anglay olmasa, siyosiy guruhbozlik va urug'-aymoqchilik tufayli bo'linib yotgan bo'lsa, turli-tuman iqtisodiy va ijtimoiy, huquqiy chora-tadbirlar kutilgan samara bermaydi.

Shunday ekan, o'zbek modelining ma'naviy jihatni, eng avvalo, jamiyatda yangicha ong, tafakkur, yangicha dunyoqarash va ijtimoiy psixologiya shakllanishini taqozo etadi. Chunki yangicha ijtimoiy ongni shakllantirish jarayonida mehnatga munosabat, eng avvalo, industrial mehnatga munosabat takomillashadi. Yangi avlodda muttasil malakasini oshirishga ehtiyoj, agar zarurat tug'ilsa, kasb-korini almashtirishga, mehnat bozori talablariga moslashishga tayyor turish psixologiyasi qaror topadi. Xalqimiz asta-sekin raqobat sharoitida mehnat qilish va yashashni o'rganadi, uning ijtimoiy safarbarligi va siyosiy faolligi yuksaladi.

O'zbek modelining ma'naviy jihatni, shuningdek, madaniy merosni, jumladan, diniy merosni qayta baholashni va ayrim soxta qadriyatlardan voz kechib, aholi keng qatlamlarini o'tmish madaniyati asl durdonalaridan bahramand etishni, vatanparvarlikni, milliy g'oyaga, milliy mafkuraga sodiqlikni, har bir fuqaroda milliy mushtaraklik tuyg'usini tarbiyalashni qamrab oladi. Umumtaraqqiyot barchanining va har bir shaxsning manfaatini ko'zlashi va buni fuqarolar yaxshi tushunishlari kerak. Qolaversa, aholi Yevroosiyo konfederatsiyasi, Buyuk Turon, Buyuk Xuroson, Islom xalifaligi kabi

sun’iy yoki anaxronik (tarixan o‘z umrini o‘tab bo‘lgan) g‘oyalarga, inson huquqlarini va soxta demokratiyani niqob qilib olgan, aslida buyuk davlatlarning geostrategik maqsadlariga xizmat qiladigan aldovlarga chalg‘imasligi, uchmasligi zarur. Taraqqiyot modelining samaradorligi bevosita milliy mushtaraklik tuyg‘usi, milliy iroda, milliy ongning yetukligi, sog‘lom milliy g‘ururning mavjudligi bilan bog‘liq.

Mustaqillik har bir shaxsdan va butun millatdan o‘zidagi mutelik va loqaydlik psixologiyasini engishni talab qiladi. «Bersang – yeymen, ursang - o‘laman» qabilida ijtimoiy jarayonning befarq kuzatuvchisi bo‘lib turishi bilan yoki o‘z kuchiga, aql-zakovatiga ishonmasdan, chetdan «katta og‘a» axtarib, uning moddiy, ilmiy-texnikaviy himmati, harbiy-siyosiy otalig‘i yordamida o‘zining muammolarini yechishga urinadigan xalqning milliy taraqqiyot modeli bo‘lmaydi. «Katta og‘a», «homiy» millat topishga intilgan xalq o‘z milliy manfaatlarini, haq-huquqini qisman cheklaydi, ichki va tashqi siyosat yuritishda «katta og‘a»ning xohish-irodasini, yo‘rig‘ini hisobga oladi. Shu boisdan mustaqillikka erishgan xalq, millat o‘zligini anglay olmasa, o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘ya bilmasa, milliy g‘oyasini ishlab chiqa olmaydi.

Siyosiy mustaqilligini yo‘qotmagan yoki mustaqillikka erishganiga 20-25-yil bo‘lgandan keyin milliy modelini yaratgan xalqlar bundan qisman istisno bo‘lishi, ya’ni milliy g‘oyasini aniq ifodalamasdan, iqtisodiy taraqqiyot modelini yaratishi mumkindir. Lekin, bizning sharoitimizda milliy g‘oya va taraqqiyotning milliy modeli yo birgalikda shakllanadi yo umuman shakllanmaydi. Shunday qilib, «o‘zbek modeli»ning ma’naviy tomoni juda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston - ko‘p millatli davlat. Ba’zi kishilarda o‘zbek modeli yurtimizda yashovchi boshqa xalqlarga qay darajada aloqador, degan savol paydo bo‘lishi mumkin. Chunki milliylikni aksariyat kishilar an’anaviy tor tushunishga, ya’ni biror-bir etnosga mansublik deb hisoblashga o‘rganib qolishgan. Aslida «millat» va «milliy» tushunchalari ikki mazmunda ishlataladi. Birinchisi tarixan odatiy tushunish bo‘lgan etnik mansublik. Bunda bir tilda so‘zlovchi, bir hududda yashovchi, umumiyligi iqtisodiy hayot orqali birlashgan, madaniyati va urf-odatlari, psixologiyasi mushtarak yoki yaqin bo‘lgan kishilarning tarixiy birligi (millat), unga taalluqli hodisalar nazardautiladi. Masalan, milliy til, milliy raqs, milliy san’at, milliy

taomlar, milliy kurash, milliy adabiyot kabi atamalar muayyan xalqqa mansublikni bildiradi.

Ikkinchisi, «millat» tushunchasi etnik kelib chiqishidan qat’iy nazar, muayyan mamlakatning barcha fuqarolarini (Amerika millati) yoki davlatning o’zini bildiradi (BMT-Birlashgan Millatlar Tashkiloti aslida xalqlarning emas, balki davlatlarning tashkilotidir). Keng ma’noda «milliy» tushunchasi muayyan etnosga emas, muayyan mamlakatga, davlatga mansublikni anglatadi. Bizda ham atamani shunday keng ma’noda qo’llash tobora izchil tus olib bormoqda: milliy daromad, milliy byudjet, milliy yalpi mahsulot, milliy bayroq, milliy xavfsizlik, milliy taraqqiyot va hokazolar. Bu tushunchalarining barchasida aniqlovchi so’z «milliy» mamlakatga oidlikni ifodalaydi.

Milliy mustaqillik deganda faqat etnik mustaqillik emas, ya’ni O’zbekistonda faqat o’zbeklarning, Qozog’istonda faqat qozoqlarning, Ukrainada faqat ukrainlarning mustaqilligi emas, balki muayyan davlatning, unda yashovchi barcha xalqlarning umumiy mustaqilligi, o’z taraqqiyot yo’lini o’zi belgilashi tushuniladi.

O’zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi ham yurtimizda yashovchi barcha xalqlarni, millatidan, dinidan, tilidan, ijtimoiy holatidan qat’iy nazar, umumiylar maqsad, umumiylar ravnaq va mustaqil taraqqiyot yo’lida jipslashtiruvchi, uyuştiruvchi, safarbar etuvchi umumiylar g’oyalar, me’yorlar, ideallarni (omillarni) ifodalaydi. Milliy g’oya, milliy mafkura tushunchasi barcha xalq uchun umumiylar qadriyat ekanligini Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javobida va keyingi ma’ruzalarida, chiqishlarida teran va har tomonlama ochib bergen. Milliy g’oya va milliy mafkura O’zbekistonning buyuk maqsadini ifodalab, ozod va obod kelajakka olib boruvchi yo’lni asoslashga, yoritishga, xalqning bu yo’ldan adashmay borishiga undashga qaratilgan. Taraqqiyot modeli esa o’sha buyuk maqsadga borish mexanizmidir.

4.3. «O’zbek modeli» tamoyillarining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jihatlari

Milliy g’oya va milliy mafkura millatchilik, irqchilik ruhiga, ma’naviy izolyatsionizmga chaqiriq sifatida tushunilmaydi. U milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg’unlashtirishga, jahon xalqlarining ilm-fan, madaniyat, san’at, sport va boshqa sohalarda erishgan yutuqlarini qabul qilib, milliy tajribaga payvand qilishga qaratilgan.

Shunga o'xshab, o'zbek modeli ham jahon xalqlarining iqtisodiyotni rivojlantirish, turli muammolarni hal qilishda topgan, qo'llagan yutuqlarini, yangicha yondashuvlarini, nostonart ijodiy yechimlarini tanqidiy o'rganib, qabul kiladi, boyitadi va o'zi ham takomillashadi.

O'zbek modeli ochiq va rivojlanuvchi modeldir. U na texnologik, na savdo almashuv, na umumiy, na iqtisodiy, na ijtimoiymadaniy, na ma'naviy-mafkuraviy masalalarda mahdud emas.

O'zbek modelining nazariy poydevorini Islom Karimov olg'a surgan besh tamoyil tashkil etadi:

- 1) iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va mafkuradan xoliligi;
- 2) davlat bosh islohotchi ekanligi;
- 3) qonunning ustuvorligi va barchaga birdayligi;
- 4) kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish;
- 5) islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Yana bir bor ta'kidlamoqchimizki, islohotlar deganda faqat iqtisodiyot sohasini qayta qurishgina emas, balki butun jamiyatni tubdan yangilash, ijtimoiy soha, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash, ommaviy axborot tizimi, ijtimoiy institutlar va ijtimoiy ongni, dunyoqarashni, jamiyat ma'naviyatini o'zgartirishni ham nazarda tutilmoqda. Islohotlar jamiyatning o'zgarishi mumkin bo'lган hamma sohasini qamrab oladi. Binobarin, o'zbek modeli islohotlarni ro'yobga chiqaruvchi konseptual va amaliy choratadbirlarning chambarchas mushtarak majmuyi, bus-butunligi sifatida jamiyat hayotining barcha sohalari rivojlanishida namoyon bo'ladi.

O'zbek modelining takomillashuvi davom etmoqda. Taraqqiyot modeli bordaniga tayyor holda vujudga kelmaydi. Ayrim tamoyillarni, nazariy farazlarni va taxminlarni amaliyot tahrir qilishi, o'zgartirishi tabiiydir. Ba'zilarini esa qayta ko'rib chiqish yoki boshqacha talqin qilish lozim bo'ladi. Amaliy choratadbirlar esa doimo o'zgarib, takomillashib, boyib boradi. Ammo asosiy strategik vazifalar o'zgarmaydi. Bu vazifalar - «demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishidir».¹

¹ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: Узбекистон, 2005 й., 34-б.

Bir so‘z bilan aytganda, taraqqiyot modeli qotib qolgan andoza, bichim emas, u asta-sekin shakllanadi, takomillashadi, rivojlanib, yetuk, mustahkam mexanizmga aylanadi. Uning yaratuvchilik salohiyati yildan yilga o‘sib boraveradi.

Taraqqiyotning yetuk modeli vujudga kelishi uchun faqat yaxshiniyat va xohish-irodaning o‘zi kamlik qiladi, jamiyatda muayyan obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit hamda iqtisodiy munosabatlari subyektlarining minimal darajada tayyorgarligi, bilim saviyasi talab qilinadi.

O‘tish davrida taraqqiyot modeli rivojlanishi, takomillashi-shidagi qiyinchiliklar, ziddiyatlar ikki sababga borib taqaladi. Birinchisi - obyektiv sabablar majmuasi. Bunga mulk shakllarining noyetukligi, xo‘jalik yuritishning turli shakllari o‘rtasida dinamik muvozanatning yo‘qligi, bozor infratuzilmasi unsurlari, umuman, bozor munosabatlari hali to‘liq qaror topib ulgurmaganligi kiradi. Bu qonunchilik tizimiga ham taalluqli. O‘tish davridagi moliya-kredit tizimining takomillashmagani, milliy valyutaning konvertatsiyasidagi qiyinchiliklar, inflyatsiya darajasining nisbatan balandligi kabi muammolar ham obyektiv sabablarga kiradi.

Ikkinchisi - subyektiv sabablar: xo‘jalik yurituvchilarda egalik hissi yetishmasligi, rahbar va mutaxassislarning aksariyati ma’muriy-buyruqbozlik tizimida tarbiya topganligi, iqtisodiy usullarni yaxshi bilmasliklari natijasida boshqaruvdagi kamchiliklar va hokazo. Ular iqtisodiy usullar yordamida ishni tashkil etishni va boshqarishni yetaricha bilmaydilar. Natijada o‘zları o‘rgangan ma’muriy-buyruqbozlik usulini faoliyatlarida iqtisodiy usullarga nisbatan, ayniqsa, dastlabki-yillarda, ko‘proq qo’llaydilar. Shu bois ko‘pchilik korxonalar aksiyadorlik jamiyatiga yoki mulkchilikning boshqa shakllariga aylanganlariga qaramay, ularda ishni tashkil qilish va boshqarishda eski sarqitlar uchrab turadi.

Yuqoridagi ikki sababga ko‘ra yaqin-yaqingacha xo‘jalik yurituvchilar o‘rtasida shartnomalar ancha sayoz, ba’zan rasmiyatçilik uchun tuzilar edi. Shartnomalarga rioya qilishda haligacha ko‘p qiyinchiliklar bor. Ishlab chiqarilgan mahsulot o‘zimniki emas, davlatniki, degan tushuncha korxonalar rahbarlari, mutaxassislarida, ayniqsa, ishchilarida to‘liq yo‘qolmagan. Natijada iste’molchilarning to‘lov qobiliyatları yaxshi o‘rganilmasdan, mahsulotlarni tekinga berib

yuborish hollari mavjud, qarzlarni undirishda faollik ko'rsatilmayotir. Bu debitor va kreditor qarzlarning o'sishiga olib kelmoqda. O'zaro to'lovlardagi kamchiliklar taraqqiyot modeli imkoniyatlarini pasaytirib yubormoqda.

Aksariyat tarmoq rahbarlariga yangicha iqtisodiy tafakkur yetishmayotir. Ular ba'zan sovet davridagidek, telefon huquqidan foydalanib, mahsulotni bir ishonch qog'ozi bo'yicha berib yuborishga korxonalarni majbur qiladilar. Umuman, iqtisodiy va ayrim yuridik qonunlarga, Prezident farmonlari va hukumat qarorlariga rioxqa qilish ma'lum darajada oqsamoqda.

Tarraqqiyot modeli imkoniyatlarini ro'yobga chiqarmayotgan subyektiv sabablardan yana biri – korrupsiya va poraxo'rlik illatidirki, u tadbirkorlikning, ayniqsa, kichik biznesning yo'lida g'ov bo'lmoqda.

Obyektiv shart-sharoitlar asosan amaliy bunyodkorlik jarayonida yaratilsa, salbiy subyektiv omillar ko'proq dunyoqarashni va tafakkurni boyitish, yangi bilimlar berish, o'qitish, rahbar, mutaxassis va keng ommani yangi omillar, qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali bartaraf etiladi. Ya'ni ma'naviy-ma'rifiy ishlar o'zbek modelining shakllanishi va salohiyatini yuzaga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi.

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi o'zbek modelining bosh, markaziy o'zagidir. U nafaqat mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning mazmun-mohiyati ni aks ettiradi, shuningdek, mamlakat iqtisodiy hayotining yangiliklarga, ilg'or tajribaga, dadil tashabbuslarga ochiqligini ham ko'rsatadi. Siyosiy yoki mafkuraviy mulohazalar islohotlarimizga yangiliklar, yutuqlar kirib kelishi yo'lida to'siq bo'lishi mumkin emas.

Mamlakatda qabul qilinadigan iqtisodiyotga oid qarorlar, qonunlar qaysidir siyosiy guruhlarning manfaatini ko'zlab, siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun emas, balki obyektiv iqtisodiy zaruratlardan kelib chiqib, qabul qilinishi kerak.

Chet el mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar ham siyosiy maqsadga muvofiqlik asosida emas, balki o'zaro manfaatdorlik asosida olib borilishi lozim.

Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish iqtisodiy munosabatlarni to'g'ri tushunish va tashkil qilishning omilidir. U obyektiv iqtisodiy qonunlarni tan olishga, mulkchilik shakllariga, taqsimotga nisbatan

subyektiv munosabatdan qutulishga ma'naviy shart-sharoit yaratadi. «Mafkuraviy aqidalarni bartaraf etish xo'jalik yuritishning turli ijtimoiy shakllariga nisbatan xayrixoh bo'lgan ijtimoiy fikrning, bozor munosabatlariga mos bo'lgan psixologiyaning va shunga xos iqtisodiy tafakkurning idrok etilishiga ko'maklashadi».

Mazkur tamoyil iqtisodiy rivojlanishda ma'naviy ahamiyatdan nozik, ko'zdan yashirin qirrasini ochib beradi.

Sobiq sovet iqtisodiyotining pirovard qulashi, o'ta mafkuralashgan ba'zi xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotining tanazzuli va qiyinchiliklari (Shimoliy Koreya, Kuba, ko'pchilik musulmon mamlakatlari) obyektiv iqtisodiy qonunlarning mafkura tazyiqida har doim ham tan olinmasligi natijasidir. Aksincha, iqtisodiyoti mafkuradan xoli mamlakatlar iqtisodiy o'sishda yuksak sur'atlarga erishmoqda.

Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish zarurligini ayrim xorijiy musulmon mamlakatlarining mustamlakachilikdan qutulgandan keyingi tajribasi yaqqol ko'rsatib turibdi. Ular iqtisodiyotlarini islom mafkurasi talablari negizida qayta qurishga urindilar.

Yuqorida keltirilgan dalillardan o'zbek modeli nazariy tamoyillardan birinchisining qay darajada teran mazmunga egaligi, unda xalqimiz va boshqa xalqlar boshidan kechirgan tajriba hisobga olingani ma'lum bo'ladi.

2. Davlat - bosh islohotchi. Totalitar tuzumdan voz kechilgandan keyin birdaniga o'zini-o'zi nisbatan tartibga soladigan yetuk rivojlangan iqtisodiy mexanizm vujudga kelib qolmaydi. Shu boisdan ma'muriy-buyruqbozlikka, markazlashgan iqtisodiyotga asoslangan tuzum qoldiqlarini yemirish, bartaraf etish, turli ziddiyatlarni, qarshiliklarni yengish, yangi munosabatlarni qaror toptirish uchun muayyan o'tish davri kerak. Ziddiyatlarga boy o'tish davri sharoitida iqtisodiyotni, islohotlarni o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi.

O'zbek modelining mazkur tamoyilini ilmiy asoslar ekan, Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «O'tish davrida davlat xalq xo'jaligining, ayniqsa, uning asosini, tizimini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi, soliq solish va qarz berishda imtiyozlar yaratishi, shuningdek, bevosita yordam ko'rsatish yo'li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishi lozim». ¹

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миёллий истиқсол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Асарлар тўплами. I-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996. 302-б.

Islom Karimovning bu so‘zlari davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifasi nimadan iborat ekanligini ochib beradi va ayni paytda turli ijtimoiy guruhlarning, nodavlat va jamoat tashkilotlarining, alohida shaxslarning islohotchilik tashabbuslari va faoliyatları cheklamasligini, aksincha, davlat ularga yordam berishini bildiradi.

Sotsializm davrida hamma narsa - nafaqat boshqaruv, hatto mulk ham davlatlashtirilgan edi. Davlat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qattiq yalpi nazoratga olgan edi. Ijtimoiy hayotning yalpi nazorat qilinishi va aholining ongi to‘liq boshqarilishi totalitarizm deyiladi.

Lekin, o‘zbek modelida davlat bosh islohotchi bo‘lishi uning sotsializm davridagidek, boshqaruvni yuz foiz qo‘lga olib yalpi nazorat o‘rnatishini yoki rejali markazlashgan iqtisodiyot tamoyillarini, usullarini saqlab qolishini bildirmaydi. Balki ishlab chiqarish korxonalari ichki faoliyatiga davlat aralashmasdan, mahsulotga buyurtma berish, soliq imtiyozlar, investitsiyalar va shu kabi usullar orqali ular faoliyatini rag‘batlantiradi va hokazo.

Ma’lumki, hamma ishni birdaniga bajarib bo‘lmaydi. Jumladan, barcha katta-kichik sohalarda bir vaqtning o‘zida bir xil sur’atlarda islohotlar o‘tkazish mumkin emas. Shu bois davlat har bir muayyan davr uchun islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. Bunga jamiyatning moliyaviy, moddiy, intellektual - aqliy va kadrlar resurslarini safarbar etadi. Boshqalarning islohotchilik tashabbuslarini rag‘batlantiradi. Davlatning bosh islohotchi bo‘lishiga yana bir sabab o‘tish davrida, ayniqsa, uning dastlabki yillarida iqtisodiyotda tuzilmaviy o‘zgarishlar qilishga qaratilgan investitsiya siyosati ko‘proq byudjet hisobidan yoki davlatning kafolatlari asosida chetdan olingan qarz hisobidan moliyalashtiriladi.

Xususiy mulkning kamquvvatligi, ortiqcha mablag‘ning yo‘qligi bois investitsiya yukini davlat o‘z zimmasiga olishiga to‘g‘ri keladi. Bunday sharoitda davlat bosh islohotchi bo‘lmasa, investitsiya uchun ajratilgan mablag‘ o‘z manziliga yetib bormasligi va boshqa maqsadlarda o‘zlashtirib yuborilishi yoki ochiqchasiga o‘g‘irlanishi ehtimoldan xoli emas. Buni ko‘plab mamlakatlar tajribasi tasdiqlab turibdi. O‘zbekistonda esa investitsiya amaliyotida davlat ishtirokining yuqoriligini ko‘rish mumkin.

O‘tish davrida davlatning bosh islohotchi va asosiy investor bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Chunki moliyaviy va moddiy mab-

lag‘lar yetishmaydi, muayyan sohalarni isloh qilib, yangilik yaratishga qodir mutaxassislar ham ko‘p emas, ularni o‘qitish, tayyorlash kerak. Eng asosiysi aholining manfaatlarini himoyalash, ijtimoiy muhofazaning puxta o‘ylangan tizimini ham o‘tish davrida jamoat tashkilotlari va hali qattiq oyoqqa turib olmagan xususiy biznes emas, davlat vujudga keltirishi mumkin. Davlat bu borada xususiy tadbirkorlar, jamoat tashkilotlari kuchlarini, imkoniyatlarini uyushtiradi. Bunday sharoitda umummiliy manfaatni ko‘zlaydigan davlatning bosh islohotchi bo‘lishi nafaqat maqsadga muvofiq, balki yagona to‘g‘ri yo‘ldir.

Misol uchun Rossiya Federativ Respublikasini olib ko‘raylik. Mablag‘lar talon-toroj qilindi, o‘g‘irlandi. Siyosiy partiyalar hamda o‘zlarining tor iqtisodiy manfaatlari tufayli birlashgan korchalonlar guruhlari aravani har qaysisi o‘zi tomon tortishga harakat qildi.

Jamiyatning real tayyorgarligini hisobga olmasdan, dastlabki-yillarda iqtisodiyotni haddan tashqari erkinlashtirib yuborish Rossiyada islohotlar jilovining davlat qo‘lidan chiqib ketishiga sabab bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, og‘ir iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelayotgan suiiste molchiliklarni keltirib chiqardi. Hattoki, ishlab chiqarishni rivojlantirishga va byudjet sohasi xodimlariga oylik maosh sifatida yo‘naltirilgan mablag‘lar, shu jumladan, chetdan olinayotgan investitsiyalardan qanday foydalanilayotganini davlat nazorat qila olmay qoldi. Rossiyada xalq xo‘jaligini qayta qurish nihoyatda ziddiyatli va stixiyali ravishda kechdi.

O‘zbekistonda davlat bosh islohotchi sifatida islohotlarning bir tomonidan, huquqiy bazasini izchil rivojlantirmoqda, bu borada jahoning ilg‘or tajribasini hisobga olmoqda, ikkinchi tomonidan - ustuvor yo‘nalishlarni belgilab, asosiy resurslarni ularga yo‘naltirmoqda. Bu islohotlarni amalga oshirishda turli boshboshdoqliklarning oldini olishga, jamiyatning izchil yangilanishini ta’minlashga imkon bermoqda.

O‘zbek modeli jamiyat tayyorgarligini hisobga olib, iqtisodiyotni ham, davlat qurilishini va siyosiy hayotini ham erkinlashtirishga intilmoqda. Bu borada Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida olg‘a surilgan g‘oyalar diqqatga sazovordir. Iqtisodiyot sohasini erkinlashtirishning maqsadini Prezidentimiz quyidagicha belgilagan: «birinchi navbatda davlatning boshqaru-

rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqeyi va huquqlarini mustahkamlash»...¹

Shunday qilib, o'zbek modeli qotib qolgan, o'zgarmas tamoyil-larga emas, balki hayot talablariga moslashuvchan, qayishqoq tamoyillarga asoslangan.

Davlatning bosh islohotchi bo'lishi turli davlat idoralari ustidan jamoat nazoratini kuchaytirishni taqozo etadi. Chunki agar ijroiya va sud hokimiyati idoralari haddan ortiq byurokratlashib ketsa, ularda ta'magirlilik va korrupsiya kuchaysa, bu islohotlar yo'lida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Afsuski, bunday holdan hech bir davlat sug'urtalangan emas.

Davlat bosh islohotchi vazifasini muvaffaqiyatli ado etishi uchun o'zi ham uzlusiz takomillashib borishi zarur. O'zbekistonda davlat hokimiyatining har uchala bo'g'ini isloh qilinib borilmoqda. Mamlakat Parlamenti uchinchi chaqiriqdan boshlab ikki Palata - Qonunchilik palatasi va Senat tizimida faoliyat olib bormoqda.

Senatga Prezident vakolatlarining bir qismi berildi. Ijroiya hokimiyatdan markazning ayrim vakolatlari mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilmoqda. Ayni paytda o'zini-o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiylar va fuqarolik institutlari roli oshirilmoqda.

Qonun hujjatlari bilan davlat va ho'jalik boshqaruvi organlari o'rtaсидаги vakolatlar aniq chegaralab qo'yilgan.

Davlat hokimiyatining uchinchi tarmog'i sud-huquq tizimi isloh qilinayotir va liberallashtirilmoqda. Jinoiy, fuqarolik, xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan alohida sudlar paydo bo'ldi. O'zbekiston davlat qurilishi va jamiyatni demokratlashtirish borasida o'z yo'lidan bormoqda. Chunki Islom Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek: «demokratiyani va turli «ochiq jamiyat modellari»ni eksport qilib bo'lma-ganidek, davlat qurilishining universal loyihasini ham tashqaridan import qilish yoki tiqishtirish mumkin emas».²

3. Qonunning ustuvorligi va barchaga birdayligi. Kishilik jamiyat tarixida ushbu tamoyilga qaysi mamlakat qaysi davrda amal

¹ Каримов И.А. Узбекистон XXI асрга интилоқда. Т.: Узбекистон, 1999 й., 17-б.

² Каримов И. А. Бизнинг боз максалимиз - жамиятни демократлашириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишлар. Т.: Узбекистон, 2005 й., 42-43-б.

qilgan yoxud shunga intilgan bo'lsa, o'sha mamlakat yuksak rivoj-lanishga erishgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda Afina, yangi era arafasi va birinchi asrlarida Rim, IX-XI asrlarda qator Sharq mamlakatlarida ma'lum darajada qonun ustuvorligini va taraqqiyotning yuksak sur'atlarini kuzatamiz. Albatta, u davrlar uchun qonun ustuvorligi bugungi kundagidek tushunilmagan, ancha nisbiy xarakterga ega bo'lgan.

Qadimgi Yunoniston va Rimda qonunning barchaga barobarligi faqat erkin fuqarolarga taalluqli bo'lgan, qullar huquqsiz, boshqa joydan ko'chib kelganlarning huquqi cheklangan.

Sharq mamlakatlarida IX-XII asrlarda shariat me'yordi oldida hamma birday teng bo'lgan va birday ularga bo'ysungan.

Har qanday jamiyatda, har bir davrda byurokratiya ayrim qonunlarni chetlab o'tishga, o'z foydasiga talqin qilishga urinadi. O'tmishda ham bunday hollar uchrab turgan. Oqibatda na yunonlarda, na rimliklarda, na sharq mamlakatlarida mazkur tamoyil mustahkamlanib, ustuvorligini saqlab qololmagan. Jamiyat ijtimoiy safarbarligini, dinamizmini susaytirgani sayin amaldorlar, byurokratiya qonundan ustunlik qilib keldi, chunki ular ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyatni o'ziga bo'ysundirdilar. Jamiyatning kiborlari, amaldorlari qonundan ustun bo'lib oldilar, boshqalarning huquqlarini, adolatni mensimay qo'ydilar. Sobiq SSSRda ham biz aynan shunday holning guvohi bo'ldik.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti huquqiy boshboshdoqlik, adolatsizlik sharoitida kechishi mumkin emas. Qonunning ustuvorligi va barchaga birdayligi tamoyili jamiyat hayotining hamma sohalarida adolat qaror topishi uchun xizmat qiladi.

Birinchidan, mazkur tamoyil mulkchilikning turli shakllari teng huquqli asosda rivojlanishini ta'minlaydi. Mulk shakllari va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlar, raqobat qat'iy huquqiy me'yordi bilan tartibga solinadi. Iqtisodiyotni boshqarishda o'zboshimchalik va subyektivizmning, turli iqtisodiy zo'ravonliklarning oldi olinishi uchun huquqiy shart-sharoit vujudga keladi. Ikkinchidan, demokratiya rivojlanadi, aholining siyosiy madaniyati va faolligi oshadi. Turli fikrlar, qarashlar rivojlanishi, mafkuraviy plyuralizm qaror topishi uchun huquqiy kafolat paydo bo'ladi. Inson huquqlari ta'minlanadi. Noqonuniy imtiyozlarga yoki aksincha,

kamsitilishlarga chek qo'yiladi. Uchinchidan, alohida shaxsning, barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlari to'laroq hisobga olinadi va ularning yaratuvchilik imkoniyatlari, ijobiy salohiyati va roli-yil sayin oshib boradi. Qonun doirasida jamoat tashkilotlari faol harakat qilishiga sharoit vujudga keladi. Fuqarolik jamiyat shakllanadi. Demak, qonunning ustuvorligi va barchaga birdayligi tamoyili keng ma'noda O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotga, jamiyat yangilanishiiga, inson shaxsining yuksalishiga xizmat qiladi. Shu bois mazkur tamoyil o'zbek modelining tamal toshlaridan biri bo'lishi tabiiy.

O'zbek modelining mazkur tamoyili o'zidan avvalgi tamoyil bilan chambarchas bog'liq. Zero, davlat bosh islohotchi sifatida nafaqat qonun chiqaradi, ijroiya ishlari va nazorat bilan shug'ullanadi, shuningdek, u ijtimoiy barqarorlikning, qonuniylik va huquq-tartibot ta'minlanishining asosiy kafili bo'ladi. Agar davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli iqtisodiy va siyosiy hayot erkinlashishi jarayonida pasayib borsa, davlatning qonun chiqarish va huquq-tartibotni ta'minlashdagi roli doimo yuksakligicha qoladi.

Qonun ustuvorligi ta'minlanmagan joyda nafaqat tartibsizlik hukm surib, inson huquqlari buziladi, shuningdek, iqtisodiy rivojlanish ham nihoyatda ziddiyatli bo'ladi, iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy inqiroz og'ir kechadi. Qonun ustuvorligisiz iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazib bo'lmasanidek, iqtisodiy rivojlanishga erishmasdan turib, qonun ustuvorligini ta'minlab bo'lmaydi. Bu ikki jarayonni bir-biridan ajratish mutlaqo mumkin emas.

Iqtisodiy yetishmovchilik keng tarqalgan joyda suiiste'molchiliklar hech qachon barham topmaydi. Mehnat munosib takdirlanmasa, daromadlarni stixiyali qayta taqsimlashga urinish davom etaveradi. Oddiy qilib aytganda, iqtisodiy qoloqlik, o'g'irlik, korrupsiya, poroxo'rlik, qo'shib yozish, tashmachilik kabi illatlarni, iqtisodiy jinoyatlarni keltirib chiqaraveradi. Natijada jamiyatning iqtisodiy hayotida, odamlarning moddiy munosabatlarda qonun ustuvorligi tamoyili ikkinchi o'ringa chekinadi.

Hattoki, barqaror rivojlanish davomida ham ushbu tamoyil birdaniga to'liq qaror topib qolmay, u nisbatan uzoq muddat talab qiladigan, bosqichma-bosqich va doimiy rivojlanadigan jarayon. Uning to'liq qaror topishi uchun o'zaro mushtarak uch narsaning amalga oshishi talab qilinadi:

- jamiyatning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan puxta va qayishqoq qonunlar majmuasi vujudga kelishi va u doimiy takomillashib borishi;
- jamiyat a'zolarining huquqiy savodxonlik darajasi va qonunga itoatgo'yligi yuksak bo'lishi;
- mavjud qonunlarni hayotda amalga oshirishning yetarlicha iqtisodiy shart-sharoiti, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy mexanizmi yaratilishi.

4. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borilishi va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish. Davlat mulkini xususiylashtirish va yangi mulk shakllarining vujudga kelishi, xalq xo'jaligida tuzilmaviy o'zgarishlar sodir bo'lishi, bozor munosabatlarning qaror topishi nihoyatda og'ir va ziddiyatli jarayon. U o'tish davrida aholining ish bilan bandligini va real daromadlarini muayyan darajada pasaytiradi. Xalq xo'jaligi va iqtisodiy munosabatlarni tubdan qayta qurishning ijtimoiy larzalarsiz o'tishi uchun o'zbek modeli kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, aholining kam ta'minlangan qatlamlari - nogironlar, nafaqadagilar, ko'p bolali oilalar, talabalar va shu kabilarni ijtimoiy himoya qilish tamoyiliga asoslandi. Chunki aholining demografik tarkibi shundayki, bir boquvchiga oilada uch-to'rt boqimanda to'g'ri keladi. 18 yoshgacha bo'lgan bolalar aholining deyarli yarmini tashkil etadi. Mehnatga layoqatli kishilar o'rtasida, ayniqsa, qishloq xotin-qizlari o'rtasida band bo'limganlar miqdori salmoqli. Ular va umuman kam ta'minlanganlar, nogironlar moddiy qo'llab-quvvatlanmasa, maishiy, kommunal xizmat va ayrim ijtimoiy sohalarda ularga imtiyoz berilmasa, aholining bu qismi qiynalib qoladi. Natijada ijtimoiy noroziliklar vujudga kelishi mumkin.

Kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlari va yo'nalishlari ko'p. Ular ijtimoiy ta'minot, yangi ish o'rirlari yaratish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat, sport va jismoniy tarbiya sohalari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash va isloh qilishdan tortib, to jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni ta'minlashgacha qamrab oladi.

Bundan tashqari, islohotlar jarayonida ijtimoiy muhofaza shakllari va manbalari o'zgarib boradi. Bozor munosabatlariiga o'tishning dastlabki davrlarida ijtimoiy himoyalash choralar kompensatsiya

to‘lash shaklida bo‘lsa, endilikda u shunday himoyalarga muhtoj bo‘lganlarga maqsadli yordam ko‘rsatish shaklida qo‘llanilmoqda. Eng asosiysi, kam ta‘minlangan oilalar va aholi qatlamlari uchun yangi ish o‘rnlari, shu jumladan, kasanachilik va boshqa barqaror daromad manbalari yaratilmoqda. Ijtimoiy himoyalashda nafaqat davlat, shuningdek, jamoat tashkilotlari va turli xayriya jamg‘armalari qatnashmoqda. Respublikamizning qishloq aholisi uchun yuz minglab gektar serhosil suvli yerlar tomorqa sifatida ajratib berildi. Bugungi kunda ular negizida yuridik maqomga ega bo‘lgan dehqon xo‘jaliklari tashkil etilmoqda. Oilaviy va xususiy tadbirkorlik rivojlantirilmoqda, ularga kreditlar, jumladan, mikrokreditlar ajratish yo‘lga qo‘yildi. Dehqon xo‘jaliklari yuridik shaxs maqomini olishi, iqtisodiy jihatdan tiklanib, oyoqqa turishi uchun ularga turli amaliy yordamlar, soliq va to‘lovlardan imtiyozlar va kreditlar berilmoqda, texnik va agrotexnik xizmat ko‘rsatish tuzilmalari vujudga keltirilmoqda.

Fermerlik harakatining keng quloch yoyishi ham faqatgina iqtisodiy islohotlarga misol emas, shuningdek, kuchli ijtimoiy siyosatga aloqador dalildir.

Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish o‘zbek modelining insonparvarlik mohiyatini belgilovchi tamoyillardan biridir. Kuchli ijtimoiy siyosat ko‘p jihatlari bilan O‘zbekistonda yangi jamiyat qurishning barqarorligini ta‘minlabgina qolmay, tub islohotlarga aholining asosiy qatlamlarida ijobjiy munosabat pasaymasligiga, turli nosog‘lom muxolifat va o‘tmishni qo‘msash kayfiyatlarining keng tarqalmasligiga sabab bo‘ldi.

5. Islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish. Ma’muriy buyruqbozlikka, fondlarni (xomashyo, moliyaviy mablag‘lar, tayyor mahsulotlarni) yuqorida taqsimlashga asoslangan xo‘jalik yuritishning samaradorligi mahsulot sifatiga va foyda olishga emas, balki mahsulot hajmi ko‘rsatkichlariga qarab baholanadigan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga «inqilobiy sakrash», «falaj terapiysi» orqali o‘tish O‘zbekiston sharoitida mumkin emas edi. Chunki rejali iqtisodiyotda, birinchidan, bozorning tegishli infratzilmalari bo‘lmaydi, aholining iqtisodiy tafakkuri va psixologiyasi ham bozor munosabatlariga mos kelmaydi. Ikkinchidan, O‘zbekistonda bandlik darajasi va ishlovchiga to‘g‘ri keladigan boqimandalarning ko‘pligi «falaj terapiya»si usullarini inkor qilar edi. Shu bois o‘zbek

modeli obyektiv iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqib radikal, inqilobiy usulni qo'lllamadi. Mazkur tamoyilni olg'a surishda O'zbekistonning o'tish davridagi iqtisodiy ahvoli va imkoniyatlari, demografik vaziyati, aholining mentaliteti hisobga olindi. Obyektiv talablar eng avvalo xalq xo'jaligining eng muhim ustuvor tarmoqlarini, bazis sohalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Bu ish islohotlarning huquqiy asoslari va kafolatlarini vujudga keltirish, aholini ijtimoiy himoyalash va uning yangicha iqtisodiy tafakkurini shakllantirish bilan birga olib borilishi lozim. «Faqat farmonlar, farmoyishlar chiqarish bilan bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. U uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasi bo'lib, tegishli infrastrukturani va huquqiy asosni yaratishnigina emas, shu bilan birga qadriyatlar tizimida chuqur o'zgarishlarni, xo'jalik faoliyati va amaliy muno-sabatlarni asoslashni ham ko'zda tutadi».¹

O'zbekistonda aynan ana shunday yo'l tutildi. Bunday siyosat yuritish nafaqat mablag'lardan samarali foydalanish imkonini berdi, shuningdek, odamlarning safarbarligini oshirdi, ijtimoiy larzalarning oldini oldi, mulkchilik shakllarini bosqichma-bosqich rivojlantirmoqda. Xususiy lashtirish jarayonida korxonalarning mulk shaklini o'zgartirishga tayyorgarligi, ishlab chiqarish xususiyatlari, xalq xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati, moliyaviy ahvoli kabilar hisobga olindi. Shunga qarab korxonalar bosqichma-bosqich davlat tasarrufidan chiqarildi, ba'zi muhim korxonalarda davlat mulkinining ma'lum ulushi saqlab qolindi, ba'zilari esa to'liq jamoaga berildi, ko'pchilik korxonalar ochiq yoki yopiq yoxud mas'uliyati cheklangan hissadorlik jamiyatiga aylantirildi va hokazolar. Ayrim korxonalarning mulk shakli bir necha bosqichda o'zgartirildi, davlat ulushi muttasil kamayib bordi. Davlat ulushi aksiyalari paketi xususiy tadbirkorlarga sotildi, hattoki bepul berildi. Korxonalar aksiyalarining bir qismi chet elliklarga ham sotildi va sotilmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalari to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Bugungi kunda ularning mulki negizida fermer va dehqon xo'jaliklari tuzildi. Dastlab fermer xo'jaliklari orasida yiriklari kam, ko'pchiligi 20-25 ga yer maydoniga ega edi. Asta-sekin ular orasidan

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқдол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Асарлар тўплами 1-жилд, Т.: Ўзбекистон, 1996 й., 315-6.

ishbilarmonlari ajralib chiqqa boshladi. Bu fermer xo'jaliklarining birlashib, yiriklashishiga olib kelmoqda.

Nafaqat mulkchilik shakllari bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda, shuningdek, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ustuvorlik xalq xo'jaligining poydevorini va harakatlantiruvchi kuchini tashkil etuvchi sohalarga hamda qishloq xo'jaligi va qayta ishslash sanoatiga berilgan.

Ilgari bizning qaram iqtisodiyot ko'proq arzon xomashyo yetkazib berishga mo'ljallangan edi. Endi uni ko'proq tayyor mahsulot ishlab chiqarishga moslashtirish, unda tuzilmaviy, tarkibiy o'zgarishlar qilish, ilgari mavjud bo'limgan ishlab chiqarish turlarini vujudga keltirish lozim. Ammo, buning uchun avvalo iqtisodiyotning bazis sohalarini rivojlantirish zarur. Bazis sohalari - bu energetika (neft-gaz va elektr energetikasi), konchilik va xomashyo sanoati, transport va aloqa tarmoqlaridir. Tollimarjonda yirik issiqlik elektr stantsiyasi barpo etildi. Qashqadaryoning yangi neft va gaz konlariga chet elning zamonaviy asbob-uskunalarini o'rnatib, qazib chiqarish ko'paytirildi, Qorovulbozorda yuksak texnologiyalarga asoslangan neftni qayta ishslash zavodi qurilib, ishga tushirildi, Farg'on'a va Oltiariqdagi zavodlar qayta rekonstruksiya qilindi. Bular O'zbekistonning energiya mustaqilligini ta'minlab, iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, yangi qurilajak ishlab chiqarish quvvatlarini energiya bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Mustaqillikning dastlabki yillarda faqat neft mahsulotlari olish uchun 600 ming tonna paxta tolasini sarflar edik. Transport borasida nafaqat mamlakat ichkarisida yirik ishlar qilindi («Uchquduq-Qo'ng'iroq», «Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on» temir yo'llari, qator avtomobil yo'llari, xalqaro havo yo'nalishlari), shuningdek, O'zbekiston Buyuk Ipak yo'lini zamonaviy sharoitda tiklash bo'yicha qator tashabbuslar bilan chiqib, xalqaro miqyosda ham ma'lum ishlarni amalga oshirmoqda.

Yangi konlarning ishga tushirilishi yoki Qo'ng'iroq soda zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi kabi ulkan korxonalar mamlakat bozorini yangi mahsulot turlari bilan ta'minlashga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ishlab chiqarishga yuksak texnologiyalarni olib kiruvchi sohalar - avtomobilsozlik, elektronika, asbobsozlik va hokazolar rivojlanishi, ayrimlarining ilk bor mamlakatimiz xalq xo'jaligida vujudga kelishi tuzilmaviy o'zgarishlarga misoldir. Bu o'rinda Asaka, Samarqand avtomobil zavodlari, yangi yengil sanoat korxonalari va o'nlab boshqa katta-kichik korxonalarni

eslash kifoya. Traktorsozlik, samolyotsozlik, boshqa tarmoqlar, chet el kompaniyalari bilan turli shakldagi texnologik va iqtisodiy aloqalar rivojlanmoqda.

Ishchi va mutaxassislarimiz orasida yangi malakalarni egallaganlar paydo bo‘lyapti, millatning texnik saviyasi yuksalmoqda, dunyoqarashi kengaymoqda. Har bir viloyatda paxta tolasini qayta ishlab, tayyor mahsulot darajasiga olib boradigan korxonalar barpo etilishi, tayyor mahsulotlar, xalq iste’mol mollari ishlab chiqaradigan yuzlab, minglab katta-kichik korxonalarining yildan yilga ko‘payib borayotgani iqtisodiy mustaqilligimiz mustahkamlanib borayotganidan, o‘zbek modeli evolyutsion rivojlanish yo‘lini tanlaganligi to‘g‘riligidan dalolat beradi. Shu bois davlatimiz rahbari «...biz, avvalgidek, davlat va jamiyatni isloh etish hamda modernizatsiya qilishda o‘zbek modelining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan bosqichma-bosqichlik tamoyiliga bundan buyon ham qat‘iy amal qilamiz»¹, - deb ta‘kidladi.

Islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish o‘zidan oldingi tamoyillardan kelib chiqadi va ularni to‘ldiradi. Umuman, besh tamoyilni bir-biridan ajratish mumkin emas. Mazkur besh tamoyil o‘zbek modelining nazariy konseptual o‘zagini tashkil etadi. Modelning o‘zi esa, tabiiyki, ancha murakkab tuzilishdan, turli aspektlardan va ayni paytda yaxlit tizimdan iborat.

4.4. Jamiat taraqqiyotida rahbar ma'naviyatining o'rni

Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat, davlat, xalq manfaati nuqtayi nazaridan ish tutadi, umumiy manfaatni o‘z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan ustun qo‘yadi. Rahbar va rahbarlikka da’vogar shaxs alohida xulq-atvorga, ma’naviyat va madaniyatga ega bo‘lishi, uni doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim. Buning uchun siyosiy hayotdan xabardor bo‘lish yoki iqtisodiy va kasbiy bilimlarni o‘zlash-tirishning o‘zigina kifoya qilmaydi. Ular jahon tajribalari asosida shakllangan ilg‘or boshqaruv malakalarini ham o‘zlashtirgan bo‘lish-lari kerak. Bugungi rahbar bunga zimmasidagi vazifalarga yuksak mas’uliyat bilan yondashish, o‘ziga nisbatan talabchanlik orqali

¹ Каримов И.А. Бизнинг баш максадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш. мөмлуккотин модернизация ва ислоҳ этицидир. Т.: Ўзбекистон, 2005 й., 34-б.

erishadi. Masalan, u har kuni gazeta-jurnallar o'qishi, radio va oynai jahon yangiliklaridan xabardor bo'lish orqali ham ma'lum darajada bilim olishi mumkin. Siyosat, iqtisod va ma'naviyatga daxldor kitoblar, mumtoz adabiyot, tarixiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish ham uning dunyoqarashini kengaytiradi. Agar aql-zakovati, tafakkuri, ma'naviy kamoloti, madaniyati bilan rahbar mustaqil fikrlashdan, mushohada qilishdan, kundalik voqeа-hodisalarни teran tahlil etib borishdan uzoqlashsa, rahbarlik talab etgan ma'naviyatdan uzoqlashib boradi. Rahbar o'zining ma'naviy faoliyatini fikrlash orqali shakllantirib boradi. Aql esa mushohadadan quvvat oladi. Amerikalik mashhur olim va ixtirochi Tomas Edisson «Taraqqiyotning buyuk vazifasi odamni fikrlashga o'rgatishdir», degan edi. Vujud yalqovligi fikrlash yalqovligidan boshlanadi, fikrlash to'xtagan joyda rahbarning ma'naviyati ham, madaniyati ham zaiflashib boradi. Rahbar ma'naviyat va madaniyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanishi, boshqaruв tizimidagi ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlik g'oyalari asosida rivojlantirib borishi darkor. Rahbarning tanqidi odamlarga katta va asosiy ta'sir ko'rsatuvchi vositadir. Shuning uchun ham uni kerakli vaziyatda nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan ishlatishi kerak. Zero, rahbarlik uslubi boshqarish madaniyatining ma'lum elementlariga ega bo'lishni taqozo etadi. Boshqarish madaniyatining ko'rinishlari tegishli me'yorlar bilan belgilanadigan madaniyat qoidalarini o'z ichiga oladi. Rahbarlar bilan oddiy odamlar o'rtasidagi munosabatlar madaniyatatlilik qoidalariga asoslanmog'i kerak. Bu qoidalar ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, kishilar o'rtasida insonparvarlik munosabatlari, o'zaro hurmat, hamjihatlik va birodarlik kabilardan iborat. Rahbarlik madaniyatini takomillashtirish uning barcha elementlariga e'tiborni kuchaytirish demakdir. Bularning barchasi rahbar madaniy saviyasining o'sib borishiga va siyosiy madaniyatining takomillashuviga katta yordam beradi. Chunki cheklangan tafakkur, chala bilim, past madaniyat bilan dunyoda ro'y berayottan murakkab jarayonlarni teran anglamay turib, mas'uliyatli vazifa va mansabni egallab bo'lmaydi. Binobarin, demokratik asosda shakllanib borayotgan jamiyatimizning talabi shuki, siyosiy yetuk, aqlan va ma'nан barkamol, puxta bilimga ega bo'lgan, teran tafakkurli kishilargina rahbar bo'lishga haqlidir.

Rahbar mas'uliyati – rahbar madaniyatining asosiy belgilardan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini ifoda etadi. U alohida shaxs, xodim mas'uliyatidan farq qilib, ko'lami kengligi bilan ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iyemoni, qolaversa, jamoa, jamiyat, vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas'uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg'usidir. Mas'uliyatlari rahbar, eng avvalo, o'ziga, o'zgalarga nisbatan talabchan bo'ladi. Rahbar faoliyatidagi barcha salbiy hodisalar mas'uliyat hissining sustligidan kelib chiqadi. Mas'uliyatsizlikning eng salbiy ko'rinishi siyosiy mas'uliyatsizlidir. Siyosiy mas'uliyatsizlik - siyosiy kaltabinlik, safsatabozlik, nayrangbozlik, qalloblik kabi salbiy illatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Binobarin, rahbarlik lavozimidagi kishidan yuksak ong va tafakkur, hushyor idrok talab etiladi. Tarixiy tafakkur va siyosiy ongning qay darajada shakllanishi esa, avvalo, jamiyat taraqqiyoti, undagi ichki va tashqi shart-sharoitlarga bog'liq holda kechadi. Bugungi kunda rahbar kadrlar oldiga qo'yilayotgan, qolaversa, hayot taqozo etayotgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat.

- Rahbar ko'ngli ochiq, qalbi toza, aql-zakovat sohibi, ma'naviy shakllangan bo'lishi kerak.
- Rahbar o'zini tarbiya qilgan, ishonch bildirib, yuksak marta-baga munosib ko'rgan el-yurtiga halol xizmat qilishi, zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his etib yashamog'i lozim.
- Rahbar aqlli, tajribali, o'z ishining bilimdoni bo'lgan mutaxassislarga tayanmog'i, ularning fikriga qulq solmog'i, shunga asoslanib, xulosa chiqarmog'i kerak. Uning quyi pog'onadagi rahbar kadrlarni to'g'ri tanlash va tarbiyalashi juda muhim.
- Rahbarning barcha ishlari xalq hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmog'i shart. Kimlargadir yaxshi ko'rinish, maqtanish uchun qilingan ish rahbarning kelgusidagi faoliyatida salbiy iz qoldirishi mumkin.
- Rahbarda xalqi va Vataniga fidoyilik, tashabbuskorlik, qat'i-yat va talabchanlik bo'lmosh'i shart. Talabchanlikni zo'ravonlikka, qat'i-yatni manmanlikka aylantirish o'ta kaltabinlikdir. Manmanlik, zo'ravonlik, o'zgalar fikriga qulq solmaslik rahbar kadrlarni yaxshi mutaxassislar, mehnatkash, sodda va samimiy odamlardan uzoqlash-tirib qo'yadi. Rahbarning qo'l ostidagi xodim va mutaxassislarini

ko‘pchilik oldida shaxsiga tegib, haqoratlashi uning ojizligi, o‘z vazifasiga noloyiqligi alomatidir.

• Rahbar hech qachon mayda gaplar, fisqu fasod, maishatbozlikka berilmasligi kerak.

• Katta rahbarlarning kichik rahbarlarni mahalliychilik, oshnalog‘aynichilik, shaxsiy sadoqatiga qarab tanlashi ham to‘g‘ri emas. Ayniqsa, yangi rahbar o‘zidan oldin faoliyat ko‘rsatgan rahbar davrida ishlagan yaxshi mutaxassislarini ishdan bo‘shtishi, ularni o‘ziga raqib bilishi achinarli hol bo‘lib, bu umumdavlat manfaatiga jiddiy zarar yetkazadi.

• Rahbar maqtovdan boshi aylanib, «dohiy»lik kasaliga chalinib qolmasligi kerak. Bunday rahbarlar atrofida faqat o‘z manfaatini o‘ylovchi «maslahatgo‘ylar», amalparast, laganbardor, poraxo‘r, oddiy odamlarga zug‘um o‘tkazuvchi kimsalar to‘planib qoladi. Buning oqibatida esa xalq va davlat manfaatlariga jiddiy ziyon yetadi.

• Rahbar nafs balosiga qarshi turmog‘i, o‘zidan kichik rahbarlarni ham bu balodan asramog‘i kerak.

• Rahbar adolatsizlikka aslo yo‘l qo‘ymasligi lozim.

• Rahbar o‘z shaxsiy hayoti, turmush kechirishida ham boshqalarga o‘rnak bo‘lmog‘i kerak.

• Rahbarning barcha ishlari ochiq va oshkora bo‘lishi lozim. Vaqtı-vaqtı bilan xalq oldida hisobot berib turishi ularga obro‘keltiradi.

• Rahbar o‘z g‘oyasi, fikri, harakat dasturiga ega bo‘lishi bilan birga, barchani yurt taraqqiyoti, xalq tinch-totuvligi, farovonligi yo‘lida yagona g‘oya atrofida jipslashtirishi shart. Rahbarlik aql-farosat, kuch-g‘ayrat, izlanish va topqirlikni, o‘z ustida tinmay ishlashni, tadbirkorlikni talab qiladi.

«Rahbar» tushunchasining quyidagi jihatlari ahamiyatlidir:

1) rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlan-tiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxs;

2) rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilar-monlik faoliyati maqsadlarini belgilaydi;

3) rahbar o‘z sohasiga yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi tadbirkor shaxs hisoblanadi;

4) rahbar mehnati, ayni vaqtida, tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyatdir.

Unga sarflangan kuch, mablag‘ ba’zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirishi, bunda jamoa foyda o‘rniga zarar ham ko‘rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko‘ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo‘lganda faoliyatini qayta boshlashi, o‘zida bunga kuch-g‘ayrat topa bilishi lozim. Ushbu jihatlar rahbarlik faoliyatining ma‘lum jihatlarini namoyon etadi. Masalaning ikkinchi tomoni rahbarlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kishining shaxsi bilan bog‘liq yuksak insoniy fazilatlardan iborat. Rahbar halol-pok, vijdonli, iymonli, qattiqxo‘l, diyonatli, mehr-shafqatli bo‘lishi kerak. Rahbarlikka egri yo‘l, egri qo‘l, egri maqsad bilan erishib bo‘lmaydi. Fe‘l-atvorida egrilik bor kishi rahbarlik lavozimida uzoq faoliyat yurita olmaydi. Rahbar mustaqil bo‘lishi, ijtimoiy faoliyatning qonuniy taqiqlanmagan hamma sohasi bilan shug‘ullana olishi lozim. Shu bilan birga, u o‘zi boshqarayotgan jamoa orasida obro‘-e‘tiborga ega bo‘lishi zarur. Rahbar faol bo‘lmasa, jamiyatda ijtimoiy faollik shakllanmaydi. Kattami, kichikmi, qanday mansabda bo‘lishidan qat‘iy nazar, har bir rahbar oldida «o‘z ishimga talab darajasida yondashishim uchun nimalarni bilishim, qanday fazilatlarga ega bo‘lishim kerak?» degan savol hamisha ko‘ndalang turadi. Boshqaruvda tajriba, ko‘nikma, mahorat, bilim, aql va idrokning roli katta. Ammo eng avvalo, boshqaruv - san’at, aniqroq aytganda, ijoddir. Rahbarlikka ham san’atkor uchun zarur bo‘lganidek, iqtidor va iste’dod lozim. Ko‘rinadiki, har kimdan san’atkor chiqmaganidek, istagan odamdan ham yaxshi rahbar chiqavermaydi. Rahbar o‘z qobiliyati, iste’dodini ishga solib izlanadi, shu maqsadda hayotni, odamlarni chuqr o‘rganadi. Natijada to‘plagan bilimlari, tajribalarini boshqaruvning umumiyligini qonuniyatlarini asosida shakllantirib, o‘zining rahbarlik usulini yaratadi. U o‘z boshqaruv usullarini shakllantirishda mutlaqo erkin shaxsdir, ammo uning rahbarlik usuli ijobiy natija berishi kerak. Rahbarlik faoliyatining samaradorligi rahbar shaxsning tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog‘liq. Tafakkur rahbarga keng va chuqr fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkonini beradi. Bu

hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar rahbarda mazkur xislatlar shakllangan bo'lsa, bunday rahbar boshqaruvning sir-asrorlarini mukammal egallab oladi, o'z jamoasi o'rtasida obro' va ishonch qozonadi. Demak, har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deyish mumkin. Rahbardagi o'ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas'uliyat jamoa a'zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo'ladi. Malakali rahbar kadrlar tizimini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ijtimoiy psixologiya, rahbar psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi kabi fanlarni yaxshi o'zlash-tirishi kerak. Rahbarlik lavozimini egallaydigan har bir rahbar ma'naviy barkamol bo'lmog'i, o'z yurti va millati bilan g'ururlanmog'i, yuksak axloqiylik, ma'naviy yetuklik bilan uyg'unlashmog'i darkor. Ana shunday rahbar jamiyat, Vatan oldidagi mas'uliyatini, burchini teran his qiladi, ijtimoiy hayotda inson manfaatlarining ustuvorligini hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi¹.

Rahbar ma'naviyati rahbarning shakllangan (ichki) ruhiy quvvati. Uning ma'naviy-psixologik madaniyati ajodolar ibratiga asoslanib, qadriyat darajasida qadrlanadigan, shaxs ma'naviy olamini tartibga soladigan, ko'nikma darajasiga yetgan hissiy bilimlar majmuyidir. Rahbar o'z rahbarlik salohiyatini takomillashtirishi uchun ma'naviy olamini boyituvchi bilimlarni egallashi, tashabbuskorlik qobiliyatini oshirishi zarur. Rahbarning ma'naviy mulkiga aylangan bilim unga xohish-istiklarini chegaralay bilish, o'zini tashqi tazyiq va ta'sirlardan himoya qilishga vosita bo'ladi. Ya'ni ma'naviy jihatdan barkamol rahbar bo'lish har qanday ijtimoiy-psixologik muhitda o'zini tuta bilib, o'zi rahbarlik qilayotgan jamoada hamda keng jamoatchilik orasida sog'lom muhit yaratish va insonlarga samimi yunosabatda bo'lishdan qoniqib yashaydi. Ma'naviyati yuksak rahbar jamiyatdagi yomonlik,adolatsizlik, qonunbuzarlik, Vatan manfaatlariga zid harakatlarga qarshi kurashda iroda, shijoat va faollik ko'rsata oladi.

Rahbarlarni ma'naviy-psixologik madaniyati darajasi nuqtayi nazaridan bir necha toifaga bo'lish mumkin:¹

¹ Маънавиятшунослик Асосий тушунчалар изохли луғати. Т.: «Фоур Ғулом», 2009, 487-бет.

¹ Ўша асар, 489-бет.

1. Ma'naviy saviyasi nisbatan past shakllangan rahbarlar. Bunday rahbarlar oddiy axloqiy-ruhiy fazilatlardan mahrum, jamiyat ma'naviy me'yorlarini tushunib yetmaydigan va ularni mensimaydigan shaxslardir.

2. Ma'naviy madaniyati, axloqiy darajasi past bo'lishi bilan birga, jamoat fikri, oila, xalq an'analari va boshqa qadriyatlar bilan bog'liq psixologik muhitni buzuvchi rahbarlar.

3. Axloqiy me'yorlarni hayotiy zarurat sifatida ichki ishonch va tuyg'u bilan o'zlashtirmay, ularni ko'r-ko'rona qabul qiluvchi rahbarlar. Bunday rahbarlar nazariy jihatdan yuqori bilimga ega bo'ladi, amalda esa bu bilimlarni qo'llay olmaydi yoki ularda tashkilotchilik qobiliyati yetishmaydi.

4. Ruhan zaif, ma'naviy madaniyati ancha yuqori bo'lsada, adolatsizlikni o'tkir hissiyot bilan qabul qiladigan rahbarlar. Ularda axloqiy bilimlar yetarli, ammo ularni namoyon qilish uchun tashabbuskorlik, mustaqillik va shijoat etishmaydi.

5. Ma'naviy madaniyat va siyosiy-psixologik bilimlarni yetarli darajada egallagan, tashabbuskor, shijoatli rahbarlar.

Ular chuqur bilim, teran tafakkur va o'tkir mushohada, ma'naviy hissiyotlarga boy bo'ladi. Psixologik bilimlarni atroficha o'zlashtirgan rahbar o'zida yuqori darajadagi madaniyat, xulq, axloq me'yorlarini mujassamlashtiradi. Bu esa rahbar o'zida individual va intellektual saviyani har tomonlama takomillashtirib borishini taqozo qiladi. Rahbarlarning shaxsiy e'tiqodi va ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirishga mustaqil taraqqiyot yo'lida to'plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi o'zbek modeli deya e'tirof etgan o'zimizga xos va mos taraqqiyot yo'li, kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarishlar va yangilanishlar katta yordam beradi. O'zining rahbarlik faoliyatida oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, kelajak uchun qayg'uradigan rahbar hech bir davrda milliy g'oya va ma'naviy masifikurasiz kamol topishi mumkin emas. Ma'naviy qiyofasi, ma'naviy masifikurasi bo'limgan har qanday rahbar o'z yo'lidan adashadi. Qaysi jamiyat ma'naviy barkamol rahbarga ko'proq ega bo'lsa, ana shu jamiyatdagi tarixiy taraqqiyot, tiklanish keskin siyosiy «larzalar»siz, ijtimoiy «og'riqlar»siz va iqtisodiy «o'pirilishlar»siz kechadi. Ma'naviy nuqtayi nazardan yuksak, ongi tiyrak rahbar uchun kadrlar bilan katta

yo'lga chiqish, xalq, millat oldida turgan barcha muammolarni ijobiy hal etish oson kechadi. Rahbar ma'naviyatining shakllanishi va rivoji odatda, uch tarkibiy bo'g'inda namoyon bo'ladi. Mafkura ko'rinishidagi birinchi bo'g'in - ma'lumot, axborot toplash, asosan so'z, mulohaza, ibrat, g'oya va nazariyalar darajasida ifodalanadi. Rahbar ma'naviy meros, qadriyatlar bilan tanishadi, ularni o'zlashtiradi, yangilikni dunyoqarashiga singdiradi. Bu ishonch bo'g'inidir. Ikkinchchi bo'g'in insonga yoshligidan singdirilgan madaniy-ma'naviy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, an'analar, diniyruhiy tuyg'ular. Bu bo'g'inda oilasi, qarindosh-urug'lari, mahallasi, millati bilan birligini his etadi. Natijada uning ongi va qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi. Bu bo'g'in - iymon bo'g'ini. Shu boisdan ham ajdodlarimiz «Vatanni sevmoq iymondandir» g'oyasini ilgari surganlar. Uchinchi bo'g'in bilim, ijodiy izlanish, fahm-farosat bilan ifodalanadi. U tafakkurimizda ma'rifat, dunyoviy ma'naviyat timsolida namoyon bo'ladi. Buyuk allomalarimiz ana shu dunyoviy ma'naviyatni ilohiy ma'naviyat bilan uzviylikda kamolga yetkazganlar. Agar birinchi bo'g'in yangiliklarni qabul qilish, ikkinchisi qadriyatlarga, ajdodlar ruhiga tayanish bo'lsa, uchinchi bo'g'in yangiliklarning ijodiy ravnaqidir. U ajdodlar merosiga haqiqiy voris bo'lib, ularning qadriyatga aylangan qismini ijodiy rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu borada Islom Karimovning milliy qadriyatlarni tiklash, bobolar qoldirgan ma'naviyatni ulug'lash, undan ibrat olish, o'zlikni anglash lozimligi haqidagi fikrlari muhimdir. Zero, ma'naviyati qashshoq, o'zining mustaqil dunyoqarashi, fikriga ega bo'lmanan odamga har qanday vayronkor g'oya o'z ta'sirini o'tkaza oladi. O'zbekistonimizning ertangi kuni ma'naviy-madaniy barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonasining ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga mos kasb-hunar mahoratini o'zida mujassam etgan, g'ururi baland, iymoni butun, irodasi baquvvat, chinakam vatanparvar, insofli va oriyatli insonlar qo'lidadir.

5-mavzu. Ma'naviyatda milliylik va umuminsoniylik

5.1. Shaxs ma'naviyati va uning fazilatlari

Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar, millatlar o'rtasidagi ma'naviy munosabat, aloqalar rivojlanib boraveradi. Ma'naviyatni to'rt guruhga bo'lish mumkin. Ya'ni:

1. Shaxs ma'naviyati.
2. Milliy ma'naviyat.
3. Mintaqaviy ma'naviyat.
4. Umuminsoniy ma'naviyat.

Shaxs ma'naviyati – har bir shaxsga tegishli bo'lib, uning ichki ruhiy olami, xatti-harakatlari, munosabatlari va boshqa qirralarini o'z ichiga oladi.

Milliy ma'naviyat – muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir.

Mintaqaviy ma'naviyat – muayyan jug'rofiy mintaqaga millatlariga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining yoki Yevropa xalqlarining ma'naviyatidagi umumiylilik tomonlarini ko'rish mumkin.

Mintaqaviy ma'naviyatda turli elatlarning umumiyligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlari namoyon bo'ladi.

Umuminsoniy ma'naviyat – butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy-axloqiy boyliklardir.

Individual ma'naviyat shakllari.

Shaxs ma'naviyatini o'rganish ikki yo'nalishda bo'lishi mumkin. Birinchisi, muayyan shaxs ma'naviyatini o'rganish, ikkinchisi, ushbu hodisaning umumiyligi jihatlarini tasnif va tadqiq etish. Imkon nuqtayi nazaridan, birinchi yo'nalishda faqat ayrim hodisalarni, masalan, o'tmisht va bugunning umummiliy ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk shaxslarni ma'naviy dunyosini o'rganish mumkin

bo'lib, mohiyatan bu ish millat ma'naviyatining tarkibiy qismlarini o'rganish demakdir. Chunki millat ma'naviyati tom ma'noda olganda ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdag'i barcha shaxslar ma'naviyatining majmuyidan iborat.

Har bir shaxs, o'zi buni chuqur idrok qiladimi, yo'qmi qat'iy nazar, biror elat yo millatga mansub bo'lmay iloji yo'q, hech bir inson eldan butkul ajralib yashamaydi. Har bir inson o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqida o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi. Buning ma'nosи, shaxs ma'naviyati voqelikda millat ma'naviyatidan ayni, undan tashqarida bo'lmaydi. Shunday ekan, mavjud ahvolni to'g'ri idrok etadigan bo'lsak, millat ma'naviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmay turib, alohida shaxs ma'naviyatini ham o'rganish imkondan tashqari.

Ma'naviyatning individual shakllari - har bir insonning qadri, haq-huquqlari, erkinligi, burchi, mas'uliyati, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi o'rmini, uning jamiyat, atrof-muhit va boshqa kishilarga ta'siri, hayotdagi mavqeyi, axloqiy qiyofasi, qiziqishlari, talab va ehtiyojlari bilan bog'liq ma'naviyat shakllarining shaxsiy (alohida, yakka) darajada namoyon bo'lish xususiyatlarini ifodalaydigan tushuncha muayyan kishi ma'naviyatining individual shakllari qator ko'rinishlarda va xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Bu avvalo, uning tabiatga, tashqi olamda ro'y berayotgan jarayonlarga nisbatan munosabati, ushbu jarayonlardagi o'rni va faoliyatida, turli irq, millat, ijtimoiy qatlamlarga mansub bo'lgan, rang-barang maqsadlar va ma'naviyatga intiladigan kishilarga munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'naviyatning individual shakllari har bir shaxsning o'ziga, oila, turmush, jamoa va jamiyatdagi o'rniga nisbatan munosabatida, jamiyatda moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayoniga qo'shayotgan hissasida ham ko'zga tashlanadi.

Shu bilan birga shaxsning siyosiy o'zgarishlar, jamiyatni demokratlashtirishda qatnashishi, qanday ezgu maqsadlarni ko'zlayotganligi bilan bog'liq faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi davrdagi yuksak texnologiyalar, ishlab chiqarish va boshqarish vositalarining zamонавиј талабларга hozirjavobligi, bu boradagi shaxs malakasi, qobiliyati va ko'nikmalarini takomillashtirishga intilishi ham ma'naviyatning individual shakllarining asosiy ko'rsatkich-

laridir. Insonga xos tabiiy barkamollik, jismonan sog‘lomlik, iqtisodiy talab va ehtiyojlarni axloqiy kamoloti va amaliy faoliyatni bilan uyg‘unlashtira olishi, nafosati, bilimi, qobiliyati, iste’dodi, iqtidori va ulardan qanday maqsadlarda foydalanayotgani ham ma’naviyatning individual shakllari darajasini belgilaydi.

Ma’naviyatning individual shakllari tizimida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- a) har bir insonning tabiiy-tarixiy qadriyatlari;
- b) axloqiy qiyofasi, nafosati va go‘zalligi;
- d) mehnati va iqtisodiy madaniyati;
- e) individual kamoloti va ijtimoiy mavqeyi;
- f) qibiliyati va iste’dodi;
- j) dini, e’tiqodi, his-tuyg‘ulari.

Inson ma’naviyatining tabiiy-tarixiy jihatni uning biologik jonzot, tirik vujud sifatidagi yashashi, sihat-salomatligi, hayot kechirish davrlari, bolalik, o’smirlik, yetuklik, keksaligi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bunday tabiiylik har bir tirik vujud kabi odam zotining har qanday avlodi, qavmi, millat va elatiga tegishlidir. Insonning axloqiy qiyofasi, nafosati va go‘zalligi bilan bog‘liq ma’naviyat shakllari o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi, ular umuminsoniylikning shaxs qiyofasi bilan bog‘liq individual darajasini ifodalaydi. Axloqiy qiyofa, nafosat va go‘zallik bilan bog‘liq shaxsiy ma’naviyatning har bir shakli, kishilarning jamiyatdagi biror tipini ajratib ko‘rsatish uchun asos bo‘lishi mumkin. Bu shakllar esa nihoyatda xilma-xil bo‘lib, ular quyidagilarda ko‘rinadi: shaxs umri va hayotining ma’nosisi, ya’ni yashashdan maqsad, xotira, meros, vorislik, orzu-umid, baxt-saodat va boshqa shaxsning atrof-muhit, vatan, davr, oila va turmushi, sevgi-muhabbati, ota-onasi va farzandlari, turmush go‘zalligi va boshqalar bilan bog‘liq ma’naviyat shakllari; shaxsning erkinligi, ozodlik, tenglik, e’tiqod, axborot olish, mulkka egalik qilish, yashash, daxlsizligi bilan bog‘liq ma’naviyat; shaxsiy mas’uliyat, ya’ni ijtimoiy zaruriyatni anglashi, unga amal qilishi, tartib-intizomi, or-nomusi, burchi, vijdoni, qadr-qimmati va boshqa shaxsning nafosati, ma’naviy go‘zalligi, estetik tuyg‘usi, didi, madaniyati, o‘ziga, o‘zgalarga, tabiat va tashqi muhitga nisbatan munosabatiga aloqador ma’naviyat shakllari. Ma’naviyatning shaxsiy darajada namoyon bo‘lishi nisbiy xususiyatga ega bo‘lsada, ammo u

alohida kishilar, ularning hayoti, faoliyati, jamiyatdagi mavqeyi va o'rnini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxs ma'naviyati – har bir kishining o'zini insoniyat farzandi, millat vakili, davlat fuqarosi deb bilgani holda o'z Vatani tuprog'i, suvi, havosi jamiki boyliklarini asrash, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, izzatini joyiga qo'yish, yo'lida chin dilidan, iymon, e'tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg'arazlik, hurmat, fidoyilik va aqliy teranlik bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmuyini anglatuvchi tushuncha.

Shaxs ma'naviyati jamiyatda, ijtimoiy hayotda shaxsning baxtli yashashi uchun to'g'ri fikrlash, so'z va amalning birligi, rost so'zlash, halol mehnat qilish, xush axloqqa ega bo'lishidan iborat.

Shaxs ma'naviyati darajasi uning kishilik jamiyatining yuksak axloqiy qadriyatlariga qay darajada rioya qilib yashashi bilan belgilanadi. Axloq inson ma'naviyatining muhim mezonlaridan biri bo'lgani bois shaxs ma'naviyati deganda, avvalambor, uning axloqan barkamolligi, o'z faoliyatida ma'naviy qadriyatlarga, chunonchi, adolat, go'zallik va ezgulik g'oyalariga tayanib ish ko'rishi nazarda tutiladi. U insonni bunyodkorlik faoliyatiga, ezgu amallarga yetaklaydi, jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarini o'zida to'liq mujassam etadigan kuch sifatida ko'rindi.

Shaxs ma'naviyati deganda xalqimizning uzoq tarixi davomida turli sinovlardan o'tgan, sayqal topib kelayotgan va faqat ijobjiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tushuniladi. Shaxs ma'naviyati xalqimizning turmush tarzi, urfodatlari hamda an'analariga, uning boy og'zaki va yozma ijodi, mumtoz adabiyoti va san'atiga singib ketgan bo'lib, inson ma'naviy takomilida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

«Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin»;

«Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l»;

«O'zingga ravo ko'rmaganni boshqaga ham ravo ko'rma»,
«Yomon o'z g'amida, yaxshi – el g'amida» singari hikmatlarda ham ajdodlarimiz ardoqlab kelgan yuksak ma'naviy fazilatlar ifodalangan.

5.2. Milliy ma'naviyat va uning xususiyatlari

Milliy ma'naviyat – muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlantirish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, u yashayotgan hudud, madaniy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat tarixi, o'tmishi, turmushi va yashash tarzi, hayotining tartib-qoidalari hamda bu bilan bog'liq milliy xususiyatlar majmuyini ifodalaydigan tushuncha. U umuminsoniy qadriyatlar tizimida millatga xos eng umumiy jihatlarni aks ettiradi. Bu masalaning mazmun-mohiyati «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida batafsil tahlil etilgan.

Ushbu kitobga tayangan holda, milliy ma'naviyat tizimining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Millatning genofondi, tabiiy betakrorligi, o'ziga xosligi, tarixiy o'zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi.
2. Millat tarixi, o'tmishi, kelajagi va ma'naviy merosi.
3. Milliy hudud, jamiyat va undagi jarayonlar, moddiy va madaniy yashash sharoitlari, iqtisodiy asos va ijtimoiy ustqurma bilan bog'liq jihatlar.
4. Urf-odatlar, an'analar, marosimlar, turmush tarzi va boshqa milliylik, ular bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar.
5. Milliy til, milliy madaniyat va ma'naviyat, milliy ong va milliy ruh, milliy tuyg'ular va g'oyalar.

Bu qadriyatlar muayyan millat kishilari uchun umumiy bo'lib hisoblanadi. Milliy ma'naviyat muayyan millatga mansub qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi halqalardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda o'z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy ma'naviyat bilan bog'liq jihatlarni nazarda tutadi. Millat - har qanday milliy ma'naviyatning egasi, milliy ma'naviyat tizimi tayanadigan ijtimoiy asosdir. Millatning tanazzuli - milliy ma'naviyatning tanazzulidir! Insoniyat tarixida Bobil, Vizantiya, Mayya imperiyalarini vujudga keltirgan xalqlar bo'lgani ma'lum, «buyuk sivilizatsiyalar» deb yuritiladigan bu etnoslar keyinchalik turli xalqlar, millatlar, elatlar bilan qorishib, o'zlarining umumiy-tarixiy birligini yo'qotgan yoki tarixiy tanazzul jarayonlari, urush va nizolar oqibatida qirilib ketgan. Amazonka bo'yłari va Meksika o'rmonlarida hozirgacha

vayronalari saqlanib qolgan mayya xalqi to‘g‘risida shunday xulosa qilish mumkin. Qadimgi davrning eng buyuk madaniyatlardan birini yaratgan bu xalq tanazzulga uchragan, uning yozuvi unutilgan, 100 ga yaqin shaharlari vayronaga aylangan va shu tariqa buyuk sivilizatsiya markazlaridan birining chirog‘i so‘ngan.

Har bir millat o‘z qadriyatlarining yaratuvchisigina emas, balki uni asrab-avaylovchi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o‘zi mas’uldir. Hatto biror imperiya yoki davlatga qaram bo‘lgan millatning milliy ma’naviyatini saqlash tuyg‘usi yo‘qolib ketmaydi. Millatni milliy ma’naviyatning obyekti va subyekti sifatida tushunish u bilan bog‘liq milliy ma’naviyat tizimini ilmiy tahlil qilishga ijtimoiy qadriyat sifatida qarash imkonini beradi. Bu esa milliy ma’naviyatning namoyon bo‘lishi, uning tarixiy rivojlanish jarayonida o‘tmishdan kelajakka tomon harakatini tahlil qilishga imkon yaratadi. milliy ma’naviyat kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’mindaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi, kishining ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta’sir qiladi.

Milliy ma’naviyat kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatida ko‘zga tashlanadi hamda ana shu munosabat faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma’naviy asos bo‘ladi. Milliy ma’naviyat va ularning aloqadorligi ifodasi bo‘lgan qadriyatlar tizimi, millatning o‘zi bilan birga tarix silsilasi, zamona zayli, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Bu qadriyatlar ko‘proq millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog‘liq. Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-etnik qadriyatları ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etadi. Milliy ma’naviyat, o‘z tabiatiga ko‘ra, turmush jarayonida muttasil yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatları yutuqlari bilan boyib boradi.

Umuminsoniylik tuyg‘usi faqat o‘z xalqi qadriyatini ardoqlash, targ‘ib-tashviq etish bilan cheklanmaydi, balki u har bir xalq, elat, urug‘ qadriyatlarini qanday holatda bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishni taqozo etadi. Har bir millatning o‘zi qadrlaydigan madaniyati, tili an’analari, urf-odatlari, marosimlari va odob me’yorlari bor. Dunyoda aholisi son jihatidan ko‘p yoki kamroq xalq bo‘lishi mumkin, ammo madaniy va ma’naviy sohada bir-biridan

kam yoki ortiq millat yo‘q. Har bir millatning o‘ziga xos o‘tmishi, madaniy va ma’naviy qadriyatlari, milliy qahramonlari bor.

Bir millatning o‘zga millat faoliyatini baholovchi hakam bo‘lishga haqqi yo‘q. Biror-bir ta’limot davlat shakli yoki yashash usulini qabul qila olmagani uchun muayyan millatni ayblab bo‘lmaydi. Shu ma’noda, umuminsoniylik tuyg‘usi faqat bir millat qadriyatlarini butun olamga yoyish yo‘li bilan emas, balki barcha millat va elatlar qadriyatlarini asrab-avaylash, hurmat qilish va olamdagi milliy rang-baranglikning tabiiy rang-baranglik bilan uzviy aloqada ekanligini anglash yo‘li orqali boyib boradi.

Milliy ma’naviyat millatning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o‘tmishi, kelajagi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqa bilan uzviy bog‘langan. Ular xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi, o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar - qon-qardoshlik, madaniy-ma’naviy yaqinlik, o‘tmish va ma’naviy meros, ona yurt tuyg‘usi kabi tushunchalarni ko‘rish mumkin.

Millatning o‘ziga xosligi, betakrorligi, rang-barangligi va ijtimoiy jarayonda o‘zgarib borishi bilan bog‘liq eng asosiy qadriyati uning genofondidir. Genofond - faqat irlisyat orqali o‘tadigan tabiiy o‘ziga xoslik emas, balki tarixiy belgilari, xususiyatlar, rang-baranglik va o‘zgaruvchanlikni ham o‘zida ifodalaydi. Shuning uchun biror xalq, millat, elatni yo‘qotish uchun qilingan tajovuz «genotsid» deyiladi. Millatning genofondi uning asosiy tarixiy, milliy ma’naviyatidan biridir. Bu tushuncha muayyan tabiiy tarixiy yoki biologik birlikning ma’lum bir hududda uzoq yashashi natijasida shakllangan va ajdodlardan avlodlarga o‘tadigan tabiiy, biologik xususiyatlari hamda jihatlarining yig‘indisini ifodalaydi. «Genofond» tushunchasi ayniqsa, qon-qarindosh millatlardan tarkib topgan xalqlarning tarixiy birligi sifatida ijtimoiy taraqqiyotning nisbatan uzoq davrida mavjud bo‘lishi mumkinligini aks ettiradi.

Millat tarixiy o‘zgarishlar, urush va qirg‘inlar natijasida astasekin o‘zgarishi, kamayib ketishi mumkin. Ammo uning genofondi o‘zgarishi millatning nihoyatda tez o‘zgarishiga, avlodlaridan meros qolgan tabiiy-tarixiy xislatlarining tez yo‘qolib ketishiga olib keladi.

Sobiq Ittifoq davrida millatlarning genofondini saqlash muammolari to‘g‘risidagi masala bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilmadi. Bu davrda «sotsialistik eksperiment»lar jarayonida odamlar boshiga tushgan turli xil qatag‘onlar, urushlar, butun-butun millatlarning o‘z tarixiy vatanidan ko‘chirib yuborilishi, soxta shiorlar bilan «yuz mingchilar», «sakson mingchilar» va boshqa harakatlar natijasida aholi katta qismining ko‘chib yurishi, ekologik tangliklar boshqa mamlakatdagi xalqlar, millat va elatlarning genofondiga salbiy ta’sir qilmay qolmadı.

O‘zbekistonda hozirgi davrga kelib bu masalaga alohida jiddiy e’tibor berilayotgani, sog‘lom avlodni tarbiyalash, millat genofondini sog‘lomlashtirish umum davlat miqyosidagi vazifaga aylangani bejiz emas. Chunki millatning genofondi uning betakrorligini anglatadi, bu betakrorlik esa ushbu millat tarixiy rivojlanishning muayyan davrlari bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi. Bu betakrorlikni umuminsoniylik jihatidan baholash - o‘z millati qadriyatlarini xolisona targ‘ib qilish, o‘zga millatning qadriyatlariga putur yetkazmaslikka asoslanadi.

Milliy makon va ma’naviyat. Milliy ma’naviyat kishilarning yashash joylari, turmush sharoitlari bilan bog‘liqliqda shakllanadi. Ana shunday ma’naviy qadriyatlarning eng asosiysi tug‘ilgan Vatan va ona yurtini sevish tuyg‘usidir. Vatanni sevish tuyg‘usi - inson tug‘ilib voyaga yetgan, u mansub bo‘lgan tarixiy birlikning o‘tmishi bilan bog‘langan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy muhitga va hududga nisbatan bo‘lgan muhabbatdir. Bu butun insoniyatga xos umumiyy tuyg‘udir. Vatan tuyg‘usi kishilarning o‘zi mansub bo‘lgan tarixiy birlik shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hududga nisbatan ma’naviy qarzdorligi, burch va mas’uliyati bilan bog‘liq ijtimoiy tuyg‘ularida namoyon bo‘ladi.

Milliy til va ma’naviyat. Milliy ma’naviyatning asosiy belgilardan biri – millat uchun umumiyy muomala vositasi bo‘lgan milliy tildir. Mutaxassislar jahonda 5000 ga yaqin til borligini qayd etadi, ularni 15 ta katta oilaga bo‘lib o‘rganadi, tillarning takomillashuvini bilan birga, ular tarqalgan hududning maydoni ham o‘zgarib borishini ta’kidlaydi. Masalan, VII asrgacha Arabiston yarim orolining bir qismida tarqalgan arab tili, undan keyingi bir necha asr mobaynida Afrika va Osiyoning boshqa hududlariga ham tarqaladi. Xuddi shunday turkiy tillar ham Kichik Osiyodan Sharqiy Sibirgacha

bo‘lgan keng hududda tarqalgan. Shu bilan birga, qadimda Osiyoda keng tarqalgan xettlar tili esa butunlay yo‘qolib ketgan. Turkiy xalqlarning tili biz uchun umummilliy qadriyatdir.

Milliy ma’naviyat va qadriyatlar. Millatlarning ma’naviy merosi, an’analari, urf-odatlari, milliy adabiyoti, san’ati umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo‘lish shartlari bilan bog‘langan. Ularning asosida har bir millat, xalq yoki elatning tarixiy rivojlanish jarayonida avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan madaniy xususiyatlari va jihatlari yotadi. Millat faqat muayyan hududda yashaydigan va bir xil tilda so‘zlashadigan kishilardangina iborat emas, balki umumiyl madaniy-ma’naviy jihat va xususiyatlar asosida mavjud bo‘lib turgan tarixiy-ijtimoiy birlik hamdir.

Madaniy-ma’naviy soha bilan bog‘liq milliy ma’naviyatlarning amal qilishida uchta jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- a) kishilarning ijtimoiy ongi bilan bog‘liqlik;
- b) kishilarning munosabati va faoliyati orqali amalga oshishi;
- d) moddiy va ma’naviy sohada biror natija, yutuq, boylik va boshqa tarzda namoyon bo‘lishi.

Milliy ma’naviyat makon va zamonda madaniy sohadagi biror kashfiyot, yutuq, natija yoki ma’naviy boylik tarzida namoyon bo‘lishi mumkin. Xalqning dahosi, ma’naviy-aqliy yetukligi, bilimlari, ilm-fanda erishgan yutuqlari ana shu natijalarda namoyon bo‘ladi (masalan, Misr ehromlari, Buyuk Xitoy devori, Rim va Afina, Samarqand va Buxorodagi yodgorliklar, alloma va mutafakkirlarning kashfiyotlari va h.k.).

Har qanday millat kabi xalqimiz ham o‘ziga xos, betakror milliy ma’naviyatni yaratadi. Milliy ma’naviyatning egasi sifatida xalqimiz o‘z qadriyatlarini asrab-avaylab, rivojlantirib va takomillashtirib kelmoqda. Bu borada respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik faoliyati Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida ko‘plab dalil va misollar orqali yaqqol ko‘rsatib berilgan.

Milliy ma’naviyat tarixi millatning ma’naviy takomillashuv jarayoni bilan bog‘liq, unda ba’zan asrlar kunlarga, kunlar asrlarga teng bo‘lishi mumkin. Milliy ma’naviy kamoloti zamonda, ya’ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi. Insoniyat tarixiy jarayoni uchun bir narsa ayonki, tarix hodisalarini, shaxslar, voqeular

o'tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi, ammo ma'naviyati yuksalib, boyib, tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyat qismi ma'naviyat tanazzulga yuz tutgan fojiaviy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lami va mazmuni jihatdan o'zi yetishgan kamolot bosqichini to'xtatmaydi, uni yo'qotish uchun (shu jumladan, umuman, milliy ma'naviyatni ham) ajdodlar yaratgan barcha ma'naviy merosni mahv etish, insonlar xotirasini tamomila o'chirib tashlash, ulardan hatto irsiy xotirani ham barbod qilib manqurtga aylantirish kerak bo'ladi.

Ko'rindaniki, milliy ma'naviyat hodisasi ham tarixiy, ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko'p o'lchamli voqelikdir. Inson ma'naviy olami o'lchamlari cheksiz bo'lib, uni hech bir narsa bilan o'lhash, qiyoslash mumkin emas. Milliy ma'naviyat avvalo, milliy ongda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan buyon milliy ongni rivojlantirishni tarbiyaviy ishning muhim bo'g'ini sifatida qaramoqdamiz. Milliy ongning rivojlanishi pirovard o'zlikni anglash sari yetaklaydi.

Milliy ma'naviyatimizning asosiy belgisi va o'zagi milliy axloq sanaladi. Bizning milliy axloqimizdagи belgilari boshqa xalqlar axloqiy qarashlarida muayyan tarzda namoyon bo'ladi.

Milliy ma'naviyatimizda – milliy his, tuyg'u, ruhiyat ham muhim o'rin egallaydi. Chunonchi, zamona taqozosi bilan boshqa yurtga safarga borgudek bo'lsak va o'sha yerda milliy kuy, qo'shiqni eshitgudek bo'lsak, bizning vujudimizni ajib bir his, tuyg'u qamrab oladi va undan ruhiy huzur olamiz, qanoat hosil qilamiz, ya'ni ma'naviy oziqlanamiz.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatimizning davomi bo'lib, ularga do'stlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tad-birkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, hayolilik, ozodalik, xushchaqchaqlik, mardlik, samimiylik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbat, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, oru nomuslilik, to'g'rilik, poklik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-onasi va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy-ma'naviy – axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan, uning ma'naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib keladi. O'zbeklarning milliy ma'naviyati, erkak va ayol-larning o'ziga xos sharqona axloqiy fazilatlari, ota-onas, farzandlar, qo'nishnilar, mahalla-kuy aloqalari, halollik, vijdon bilan bog'liq ma'naviyati faqat o'tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir.

O'zga millatlarning ma'naviy qadriyatlari qanchalik ta'sir ko'rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iy-mon, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy-ma'naviy fazilatlarimiz barqaror. Chunki bu ma'naviy xislatlar avloddan avlodga o'tib, qon-qonimizga singib ketgan.

«Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus, nafosat bobida, oila, qarindosh-urug'larga nisbatan munosabat masalasida sharqona, o'zbekona fazilatlarini tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma'naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

Odatda kishilar ko'pincha ikki ishda katta xatoga yo'l qo'yadilar. Birinchisi – yoshlarni hali yosh deb, ularga ishon-maganida, ikkinchisi – keksalarni qariya deb chetga surib qo'yganida. Yoshlarda kelajakka intilish bilan bog'liq bo'lgan katta tashabbus, kuch va g'ayrat bo'ladi. Keksalar esa hayot yo'lida ko'p issiq va sovuq kunlarni boshidan kechirib, boy tajriba orttirgani uchun ularda uzoqni o'ylab, bosilqik bilan ish qilish, etti o'Ichab bir kesish singari ma'naviy boylik va yetuk tafakkur salohiyati bor. O'zbeklarning «qari bilganni pari bilmas» degan hikmatida ko'p ma'no bor. Yoshlarning tashabbusi, kuchi g'ayrati keksalarning boy hayotiy tajribasi bilan bog'langandagina yaxshi ijobiy samara beradi. Keksa avlodning biliyi, hayot tajribasi yoshlar uchun ma'naviy kamolot va ibrat maktabidir.

Sovet-totalitar tuzumi sharoitida ma'naviy-axloqiy fazilatlarning milliy jihatlari, an'nanalarini inkor etish yoki kamsitish kuchaydi. Ularni ma'naviy qoloqlik ifodasi sifatida talqin etildi. Sharq xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining ming yillik ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan hadislar, shariat hukmlari diniy xurofot sifatida qoralandi.

Xalqimizning axloq, andisha, sharmu hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlariiga zid bo'lgan Yevropacha an'analar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu tufayli ma'naviy tubanlik yuzaga keldi. Abdulla

Avloniy va boshqa ma'rifatparvar fidoyilar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqiy yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd etgan edilar. «Tarbiya – degan edi Abdulla Avloniy, bizlar uchun yo hayot yo momot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».

Sovet totalitar tuzumi barbod bo'lishi, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi jamiyatimiz ma'naviyatida chuqurlashib borayotgan inqirozning oldini olish uchun tangrining inoyati, xalqimizning baxti bo'ldi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda, milliy-ma'naviyatda poklanish, o'nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi.

Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruvida tarbiyalash, ularda milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kundagi milliy-ma'naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir.

Milliy tarbiya – u yoki bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyati, merosini, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning subyektidir.

5.3. Umuminsoniy ma'naviyat va uning zaminlari

Umuminsoniy ma'naviyat har bir inson, jamiyat va barcha toifadagi kishilar uchun eng oliv qadriyat sifatida e'zozlanadigan va umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy hodisalar, madaniy boyliklar, adabiyot, fan, san'at yutuqlari, din, siyosat, huquq sohasidagi natijalarni anglashdagi tushuncha. Umuminsoniy ma'naviyatning mazmun-mohiyati Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida alohida o'rinn egallagan.

Ma'naviy mazmun kasb etadigan narsa va hodisalarga nisbatan ishlatiladigan umuminsoniy ma'naviyat har qanday xalq, jamiyat va davlat hayot tarzining asosiy mezoni bo'lib hisoblanadi. «Umuminsoniy ma'naviyat» tushunchasida ma'naviyatni tirik tabiatning bir qismi bo'lgan odamzotning hayoti va kamoloti hamda tarixiy, siyosiy va boshqa birliklar (ijtimoiy subyektlar) uchun ahamiyati ham o'z

aksini topadi. Umuminsoniy ma'naviyatning namoyon bo'lish shakllari orasida o'z ahamiyatini ijobiliy hamda foydalilik xususiyatlarini doimo saqlab keladiganlari ham bor, ularga inson vujudining tirikligi, uning ijtimoiyligi, inson umri va hayoti, sihat-salomatligi, ijtimoiy faoliyati va munosabatlar, mehnati, bilimi, muomalasi va shu kabilar kiradi. Ular inson va jamiyat bor ekan, o'zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qoladi, ularga qarama-qarshi bo'lgan o'lim, kasallik, ma'nosiz hayat kechirish, bilimsizlik va boshqalar ham tarixiy jarayonlarning doimiy hamrohidir.

Umuminsoniy ma'naviyatning eng oliy shakllariga ma'naviy ideal sifatida qaraldi. Jamiyat tarixining hamma davrlarida odamlar ana shu ideallarga intilib, ularga erishishni orzu qilib yashaydilar, kundalik hayatda va ilmiy adabiyotda eng oliy ideallar bir qator ibora va tushunchalar orqali ifodalanadi. Masalan:

- Ma'naviy va axloqiy poklikning umumiyligi – yaxshilik.
- Nafosat belgisi – go'zallik.
- Bilimlarimiz va fan yutuqlarining amaliyotga mosligi – haqiqat.
- Inson huquqlarining oliy ifodasi – erkinlik va tenglik.
- Siyosatning to'g'riligi – adolat.
- Odamlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar – do'stlik.
- Eng hokisor va beg'araz tuyg'ular asosidagi qalblarning mushtarakligi – muhabbat.
- Orzu-umidlarga erishish – baxt-saodat.
- O'z yurtini sevish va ardoqlash-vatanparvarlik va shu kabilardir.

Vaqelikda ushbu ideallar bilan birga, yomonlik, xunuklik, yolg'on, erksizlik, tengsizlik,adolatsizlik, dushmanlik, nafrat, xiyonat kabilar ham muayyan tarzda namoyon bo'ladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniy ma'naviyatni barqarorlashtirish yo'llari va usullarining bu boradagi maqsadlar bilan uyg'unlashtirilishi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirish davrida nihoyatda qat'iy ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda uch asosiy jihatga e'tibor berish lozim.

1. Kishilarning umuminsoniy ma'naviy va ularga erishish yo'llari haqidagi qarashlarida o'tmish avlodlardan meros qolgan orzu-

umidlar, tasavvurlarning ham ahamiyati beqiyosdir. Zero, har bir avlod umuminsoniy ma'naviyatni barqarorlashtirish va oliv maqsadlarga erishish borasida o'tmish avlodlarning tasavvur va xulosalarini meros qilib oladi, o'z faoliyati, zamonasidagi o'zgarish va jarayonlarga ham ana shunday nuqtayi nazardan yondashadi.

2. Har bir avlodning o'tmishdoshlaridan meros bo'lib kelgan umuminsoniy ma'naviyat to'g'risidagi tasavvur va orzu-umidlardan tashqari, o'zi to'plagan tajriba, ana shu tajriba asosida vujudga kelgan qarashlar ham bor. Demak, har qanday davrda ma'naviy idealga erishish yo'lida harakatlar boshlanganda, ularni amalga oshirishning reja va dasturlari tuzilayotganda, kishilarning ruhiy-ma'naviy tayyorgarligi bu boradagi maqsad, qiziqish, ehtiyoj va talablarini hisobga olish zarur.

3. Umuminsoniy ma'naviyat to'g'risidagi tasavvurlar ehtiyojlar, intilishlar asosida vujudga kelgan turli reja va dasturlarda ko'proq bu boradagi faoliyatning nazariy, umumiyligi jihatlariga e'tibor beriladi. Bu hol ayniqsa, jamiyat taraqqiyotida tub burilish va chuqur o'zgarishlar yuz berayotgan davrda yaqqol namoyon bo'ladi.

Ammo bu boradagi rejallardan amaliyatga o'tilganda, tajribada maqsadlarga erishish uchun bevosita harakat boshlanganda kutilmagan holatlar yuzaga chiqqa boshlaydi. Bular esa o'z navbatida, bosh maqsadga erishish borasidagi kundalik faoliyatda turli xil yo'llar, usullardan foydalanishni talab qiladi. Umuminsoniy ma'naviyatning ba'zi shakllari bilan bog'liq yana bir masala bor: ularning hayotda qaror topishi muayyan to'siq va qiyinchiliklar orqali kechadi. Natijada, ideal mutlaq to'la-to'kis amalga oshmaydi, uning ba'zi bir jihatlari hayotga tatbiq etiladi, boshqalari esa keljak avlodlarga meros bo'lib qoladi. Odamzod esa idealsiz, unga intilmasdan, keljakka umid ko'zlarini tikmasdan yashay olmaydi.

Inson hayotda faqat ideallar, ularga erishish to'g'risidagi orzular bilan qanoatlanib qolmaydi. U o'z ideallariga erishish, ularni barqaror qilish yo'lida boshqa ehtiyoj, talab va qiziqishlarini qondirishi, o'zga kishilar bilan munosabatda bo'lishi, jamiyat talablarini bajarilishi, o'z burchini ado etish va boshqa sohalarda faoliyat yuritishi lozim. Shu ma'noda kishilar doimo idealga intilib, real hayotdagi vazifalarni bajarib, orzu-umidlар bilan real voqelik orasida umr o'tkazadilar. Ideallarga intilish orzusi bilan real hayotda yashash

zarurati o'rtasidagi muayyan ziddiyat odamzotni yashashga undaydigan, umrining eng qiyin, murakkab davrlarda ham umid uchqunlari saqlanib qolishi uchun asos bo'ladigan umrguzaronlikning asosiy tamal toshi, inson hayotining mazmuni, ma'nosi va qadrini belgilaydigan obyektiv jarayondir.

Umuminsoniy ma'naviyat omilkor faoliyatga chorlovchi optimistik g'oyalar, shiorlar rolini o'ynashi ham mumkin. Bunday holda ular kishini amaliy ishlar qilishga undaydigan, uning faoliyatiga ma'no va mazmun bag'ishlaydigan, maqsadini aniqlash imkonini beradigan, biror jarayonga, jamiyatda amalga oshirilayotgan vazifalarga nisbatan shaxs yoki ijtimoiy subyektlarning qanday munosabatda bo'layoutganini oydinlashtirish imkonini beradigan ma'naviy mezonga aylanadi.

Insonning yashash joyi, o'tmish avlodlarining hoki yashiringan zamin, o'zi tug'ilgan yurt bilan bog'liq umuminsoniyatga xos bokira tuyg'ulari bor. Bu tuyg'ular tug'ilgan uyidan, mahalla, qishloq, shahar ko'chasida tarbiyalana boshlaydi, kishi mansub bo'lgan tarixiy birlik, uning o'tmishi bilan bog'langan ijtimoiy hududga nisbatan munosabatda namoyon bo'ladi. Har bir kishi Yer sayyorasining farzandi ekanligini, o'zi uchun suyukli hudud, sayyoraning tarkibiy qismi bo'lgan Vatanning talabiga mos keladigan inson bo'lishiga intiladi. Sayyoramiz kishilariga xos umuminsoniy ma'naviyatning shakllanishi va takomillashuvi uchun Yer yuzida tiriklikning vujudga kelishi, rivojlanishi, odam zotining ongli faoliyati, mehnati, madaniyat va ma'naviy kamolotga erishish bosqichlari, tabiat va jamiyatda amalga oshirilgan ishlari bilan bog'liq jarayonlarni ifodalaydigan tarix ham katta ahamiyatga ega.

Globallashuv (lot. *globus* shar, Yer sayyorasi) – XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miy-yosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha. «Globallashuv» atamasi dastlab amerikalik olim T. Levittning 1983-yili «Garvard biznesrevyu» jurnalida chop

etilgan maqolasida tilga olingan edi (u yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini globallashuv deb atagan). 1985-yilda esa taniqli amerikalik olim R.Robertson «*Globalization*» iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushunchani «odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi»ni aks ettirib, «dunyoning birlashuvi va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishini» ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi. Mazkur atamaning mazmun-mohiyati xususida bahs-munozara hamon davom etayotgan hamda bu borada yagona umumiy qarash shakllanmagan, yaxlit konsepsiya yaratilmagan bo'lsada, gumanitar ilmning turli sohalarida, chunonchi, ijtimoiy fanlarda ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, namoyon bo'lish shakllari har tomonlama o'rganilmoqda. Jumladan, iqtisodiyot fanida diqqat-e'tibor asosan moliyaviy globallashuv, global transmilliy korporatsiyalarning (TMK) shakllanishi, iqtisodiyotning mintaqaviylashuvi, jahon miqyosida savdoning jadallahuvi kabi masalalarga qaratilgan. Tarixiy asarlarda esa globallashuv jarayoni insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyot bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi. Siyosatshunoslikda transmilliylashuv jarayonining tezlashuvi, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ishtirokida yangi umumsayyoraviy tartibning shakllanishi tadqiq etilmoqda. Sotsiologiya sohasi mutaxassislari madaniyatning universallashuvi ta'sirida turli mamlakat va mintaqa xalqlari turmush tarzining yaqinlashuvi hamda bixillashuvini tasdiqlaydigan dalillarni izlamoqda. Ba'zi faylasuflar XXI asrda dunyoda yagona axloq, umumiy ma'naviyat, global madaniyat qaror topishini bashorat qilmoqdalar. Boshqalari esa, Kantning yaxlit abadiy dunyo hamda umumdunyoviy hukumat haqidagi g'oyasiga tayanib, turli millat va xalqlar qadriyatlarining uyg'unlashuvini asoslashga intilmoqda. Keyingi-yillarda ilmiy adabiyotlarda turli fan yutuqlarini uyg'unlash-tirish asosida hamda insoniyatning birlashuvi, ijtimoiy voqelikning universallashuvi va kishilar dunyoqarashining kengayishi tendensiylariga tayanib, globallashuv jarayonining umumiy nazariyasini yaratish borasida intilishlar ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birgalikda, globallashuv jarayonining turli davlatlar va xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga salbiy

ta'sirini ilmiy tadqiq etishga e'tibor kuchayib bormoqda. Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida globallashuv mazmun-mohiyati quyidagicha tavsiflanadi: «...global lashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda».¹

«Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari», globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinalining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari ning, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarniig umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi - tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoque».²

Mazkur xulosaga tayangan holda globallashuv jarayonining quyidagi umumiyl jihatlariga e'tibor qaratish mumkin:

a) globallashuv insoniyat tamadduni rivojining ichki ehtiyojlarini ifoda etadigan obyektiv, tabiiy-tarixiy jarayon;

b) globallashuv - ijtimoiy aloqalarning kengayishi va murakkab-lashuvi oqibatida sayyoramiz miqyosida iqtisodiyot, texnika va texnologiya, axborot-kommunikatsiya, siyosat, huquq, boshqaruv va boshqa sohalardagi integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi oqibatida vujudga kelgan, o'ziga xos tuzilma va institatlarga tayangan holda faoliyat yuritadigan murakkab tizim;

d) globallashuv jarayonining tobora keng ko'lamda namoyon bo'lishi jamiyat hayoti, kishilar turmush tarzi va mentalitetiga (yangi

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият -енгилмас куч. Т.: «Маънавият», 111-бет.

² Ўша асар, 111-112 бетлар.

ehtiyojlarning, kommunikatsiya shart-sharoitlari va shakllari, qadriyatlarning paydo bo‘lishi, ommaviy madaniyat namunalarini singdirish orqali) jiddiy ta’sir ko’rsatadi;

e) globallashuvning zamonaviy tadrijiy rivojining yuqori bosqichi sifatida madaniyat bilan o‘ziga xos munosabatlar tizimi shakllanib bormoqda (bir tomondan, madaniy faoliyatning yangi shakl va usullari, uning botiniy mohiyatida tub o‘zgarishlar ro‘y bersa, ikkinchi tomondan, madaniyatning globallashuv jarayoniga ta’siri kuchayadi).

Hozirgi davrda O‘zbekistonda, bir tomondan, globallashuv jarayonining afzalliklaridan (jumladan, iqtisodiyotning barcha sohalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida jihozlash, investitsiyalarni keng jalb etish, jahon bozoriga integratsiyalashuv) oqilona foydalanish, ikkinchi tomondan, uning salbiy ta’sirini (dunyoning yetakchi davlatlari va transmilliy korporatsiyalarning tabiiy zaxiralarga egalik qilishga intilishi, demokratiyani siljitish strategiyasining amalga oshirilishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, terrorizm va ekstremizmning global tus olishi) bartaraf etish borasida pishiq-puxta o‘ylangan izchil siyosat olib borilmoqda. Islom Karimov ta’kidlaganidek, «...hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariiga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar». ¹ Shu bois globallashuv jarayonining ijobiy jihatlarini e’tiborga olgan holda uning g‘oyaviy-mafkuraviy ta’siridan ogoh bo‘lish, ayniqsa, yoshlarimizni bunday xurujlardan asrab-avaylash g‘oyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

5.4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida millatlararo madaniy-ma’naviy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi

Iqtisodiyotning ma’naviy qirralari – iqtisodiy munosabatlar jarayonida shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag‘rikenglik, ishonchliklilik kabi fazilatlarning amal qilishini anglatadigan tushuncha. Iqtisodiyotning o‘ziga xos obyektiv qonun-qoidalari, sir-asrorlari borki, ular bilan hisoblashmaslik

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: «Маънавият», 2008. 113 бет.

mumkin emas. Ularni mensimaslik nafaqat iqtisodiy salohiyatning yetishmasligi, balki ma'naviy qashshoqlik belgisi hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarda ma'naviy masalalar, xususan, insoniylik talablari va me'yorlari yetarlicha hisobga olinmasa, texnokratik qarashlar ustunlik qilsa, ishlab chiqarishning o'sishi, iqtisodiy rivojlanish bo'lishiga qaramay, jamiyatda axloqiy munosabatlar tanazzulga uchraydi, o'zaro ishonchsizlik kuchayadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida ko'p millatli davlatlar uchun milliy siyosatni to'g'ri, aniq ko'zlangan maqsad asosida olib borish juda muhim. Bu esa taraqqiyotning jadallahuviga yordam beradi. Millatlar va ular madaniyatining bir-biriga ta'sir ko'rsatishi ko'p millatli davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma'naviy-axloqiy boyishi uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qilib kelgan.

Millatlararo totuvlik – millatlararo ahillik, xalqaro do'stlik; milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri: muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha. Yer yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan 200 ga yaqini o'z davlatchiligidiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o'rganib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e'tiborga olish zarur. Jahon tajribasi millatlararo totuvlikni ta'minlashga bирyoqlama, yuzaki yondashuv jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, davlatga o'z nomini bergen millat bilan o'sha joyda yashaydigan boshqa millatlar o'rtasidagi munosabatlar jiddiy e'tiborni talab qiladi. Aks holda, jamiyat hayotidagi tinchlik va barqarorlik izdan chiqishi mumkin.

Bu masala bizning mamlakatimiz uchun ham juda muhim. O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaldan bag'rikengligini ko'rsatadi. Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Millatlararo totuvlik g'oyasi umum-bashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagि tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bugungi

kunda yer yuzida 7 milliarddan ortiq aholi mavjud. O'zbekiston hududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda. Har bir millat yaratganning mo'jizasi bo'lib, o'z tili, dini, maslagi, qadriyatlari, an'analariga ega. Shu bois mazkur ma'naviy omillarning amal qilishi millatlararo totuvlik shartlaridan sanaladi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'liqidir. Butun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabat bo'lmasa, ulardan hech biri o'zining porloq istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamog'imiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Bu g'oya-bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi. Mamlakatimizda ushbu g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan avlodga o'tib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Yurtimizda bugungi kunda 130 dan ortiq milliy-madaniy markazlar ishlab turibdi. Ularning turli yo'nalishdagi faoliyati, birinchidan, o'z vakillarini milliy tarix, urf-odat va an'analaridan xabardor qilishga, ikkinchidan, xalqning o'z-o'zini anglashiga ta'sir etib, millatlararo totuvlikni mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

II BO‘LIM. MA’NAVIYATNING TARIXIY, NAZARIY VA AMALIY ZAMINLARI

6-mavzu. Qadimgi va O‘rta asr Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari

6.1. Ma’naviyatning tarixiy ildizlari

Muayyan millat, elatning o‘ziga xos xususiyatlari, an’ana va urfatlari, qadriyatlar, dunyoqarashi, tafakkur tarzini shakllantiradigan ma’naviy asoslarini ifodalovchi tushuncha ma’naviyatning milliy asoslari millatning tarixi, taraqqiyoti va bugungi rivojlantirish darajasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekiston xalqi o‘z ma’naviyatining milliy-etnik asoslarini, tarixiy va madaniy qadriyatlar va o‘ziga xos ijobiy an’analarini ming yillar mobaynida asrab-avaylab, boyitib kelmoqda. Ko‘p ming yillik tariximiz shundan dalolat beradiki, eng murakkab davrlarda ham xalqimizning murakkab sinovlardan o‘tishi, hayotning turli to‘fon va bo‘ronlariga mardona dosh berib, qaddi-qomatini tik tutib yashashiga katta madad baxsh etadigan kuch - yuksak ma’naviyat va adolatga intilish tuyg‘usi bo‘lgan.

Xalqimiz hayot yo‘lini, merosini o‘rganar ekanmiz, ana shu ikki haqiqat bu jarayonning bosh mezoni bo‘lib kelganiga ishonch hosil qilamiz. Adolat tuyg‘usi, o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi xalqimizga xos bo‘lgan ezgu tushunchalar bugungi kunda ham ma’naviy hayot asoslarini tashkil etadi. Turli etnos vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, dinlararo bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlar ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan muvjud.

Shu bilan birga milliy xarakterga xos bo‘lgan fazilatlar, xalqi-

mizning o'ziga xos xususiyatlari o'zbekona ma'naviyatning milliy asoslari tashkil etadi. Qadimdan O'zbekiston hududida asrlar davomida turli madaniyat va sivilizatsiyalar yonma-yon yashab kelgan, bu esa tinchliksevarlik, sahovat, mehr-oqibatlilik fazilatlari bilan ajralib turadigan o'ziga xos mentalitetning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu nafaqat o'ziga xoslik, balki ahamiyati va mohiyati jihatidan bebaho bo'lgan g'oyat katta boylikdir. Bir tomonidan, xalqning o'ziga xosligi va betakrorligini saqlash uchun, boshqa tarafdan, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, ming yillar mobaynida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarning o'zaro yaqinlashuvi hamda bir-birini boyitishida O'zbekistonda yashayotgan turli millat, elat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlik va hurmat muhitini qaror toptirish uchun ochilayotgan imkoniyatlar yuksak ahamiyatga ega.

Insonlar o'rtasidagi ana shu o'zaro hurmat muhiti, ular qaysi tilda so'zlashishidan qat'iy nazar, O'zbekiston deb atalgan yagona Vatanda hukm surayotgan tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikning eng muhim asosi va garovi bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston tarixinining turli sahifalari ko'zdan kechirilganda, o'zbek xalqi ma'naviyati bilan bog'liq shunday ma'lumotlarga duch kelish mumkinki, ular halollik, haromdan hazar, ta'magarlikdan nafratlanish, kamtarlik singari tuyg'ular etnosga xos eng olivjanob fazilatlar ekanidan dalolat beradi. «Birovning haqi», «Qiyomat qarz», «Peshona teri» degan ibratli so'zlar buning yaqqol ifodasidir. Masalan, «Boburnoma»da temuriy hukmdor Umarshayx Mirzoning naqadar adolatli va halol inson bo'lganligini ko'rsatuvchi bir ma'lumot keltirilgan. Bir-yili Xitoydan Farg'onaga kelayotgan ming kishilik karvon O'sh tog'larida qor ko'chkisi ostida qolib, halok bo'lgan. Umarshayx Mirzo darhol odamlarini yuborib, karvonning yuklarini nazorat ostiga oldirgan. Egalari halok bo'lgan bu mollarni ikki-yildan ziyod ehtiyyotlab saqlatgan. Xuroson va Samarqandga maxsus odam yuborib, karvon egalarining merosxo'rlarini daraklatib, toptirgan va ularni o'z mamlakatiga chaqirtirib, mollarini to'laligicha qo'llariga topshirgan.

Hozirgi davrda ham hayotimizda shunday ezgu tushunchalar barqaror va ustuvor. Bunday misollar ma'naviyatning milliy asoslari mustahkam ekanidan dalolat beradi. Har qanday etnos ma'naviyatini

uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analarini, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada ma'naviy mero, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omil va manba sifatida xizmat qiladi.

Shunday manbalardan biri xalqimizning miloddan oldingi davrdagi hayoti, dunyoqarashi, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odat va ma'naviy qadriyatlar, g'oyalari, diniy qarashlari haqida ma'lumot beruvchi «Avesto» hisoblanadi. Ushbu nodir kitob ayni zamonda bu qadim o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda buyuk davlat, buyuk madaniyat, buyuk ma'naviyat bo'lganidan guvohlik beruvchi bebahoh tarixiy hujjat bo'lib, ming yillar, asrlar davomida avlod-ajdodlarimiz uchun ma'naviy-ruhiy tayanch, cheksiz kuch-quvvat manbayi bo'lib kelgan.

Bu ta'limotda ezzgulik uchun qadam qo'ygan odam uch asosiy tamoyil, ya'ni niyatning ezzguligi, so'z va shartlarning butunligi, amallarning insoniyligiga tayansagina maqsadga yetishi ta'kidlangan. Bular inson va jamiyat hayotida o'ta muhim qadriyatlar hisoblanigan. Ma'naviyatning milliy asoslari insonni yerga va uning boyliklariga bo'lgan munosabatini ham o'z ichiga oladi. Odamlarni daryolarning musaffoligi va tuproq unumdarligi haqida g'amxo'rlik qilishga da'vat etgan zardushtiylik aynan bizning zaminimizda vujudga kelgani tasodifiy emas. Boshqa ta'limotlar - buddaviylik va moniylik ham tabiatni asrab-avaylash ideal jamiyatga olib boradigan eng muhim yo'llardan biri ekanini targ'ib qilgan.

Ma'naviyatimiz milliy asoslarining o'ziga xos jihatlaridan yana biri jamiyat hayotining, odamlar turmush tarzining ko'proq an'ana, urf-odatlar orqali boshqarilishidir.

Qadimdan Sharqda, jumladan, xalqimiz turmush tarzida ko'pinga an'analar qonunlar darajasiga ko'tarilgan. Barcha marosimlarda mahalla ahli ishtirok etgan. Ming yillar mobaynida mahallalar chinakam milliy qadriyatlar maskani, ma'naviyat maktabi vazifasini ado etib kelmoqda. O'zaro ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kishilar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish singari an'analar mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan.

Xalqimiz uchun jamoa, mahalla-ko'y bilan birga hamohang

bo'lib yashash, el qatoridan chiqmaslik kerak, degan tushuncha nihoyatda qadrli. Soxta urf-odatlar odamlar yelkasiga mashaqqatli bir yuk, aniqrog'i, og'ir majburiyat bo'lib tushadi. Shu boisdan ham hozirgi davrda ulardan voz kechish zarurati tug'ilmoqda. Istiqlol yillarida ma'naviy tiklanishning ijobiy, bunyodkorlik mohiyatini kuchaytirishga qaratilgan reja va dasturlar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar qayta tiklanayotgan ma'naviy merosga xolis yondashishga, eng muhim, umuminsoniy qadriyatlarni boyitadigan hamda jamiyatni yangilash talablariga javob beradigan, ma'naviy jihatdan ijobiy ahamiyatga ega urf-odat, marosim, an'analarni tanlab olish zaruratiga asoslangan.

Ma'naviyatning tarixiy ildizlari - xalqimizning ma'naviy traqqiyoti, milliy tafakkur poydevori, xalqimiz ma'naviyatining shaklanishi va takomillashuvi jarayonini ifodalovchi tushuncha. Mazkur mavzuning mazmun-mohiyati Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida quyidagicha asoslab berilgan: «Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi»¹. Xalqimiz ma'naviyatining tarixiy ildizlari zaminimizda yaratilgan qadimiy tosh bitiklar, rivoyatlar, afsonalar, hikoyalar va dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Spitamen, Alpomish, Go'ro'g'li, To'maris va Shiroq to'g'risidagi rivoyat va dostonlarda vatanparvarlik, mardlik, do'stlik, sadoqat, vafo, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik ruhi badiiy tasvirlangan. Ma'naviyatning tarixiy ildizlari mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimiy shakllarida ham o'z aksini topgan, har bir din o'ziga xos ma'naviyat tizimini yaratgan. Ana shu dinlarning asosiy kitoblarida muayyan ma'naviy tizimlar o'z ifodasini topgan. Ma'naviyatning tarixiy ildizlari takomillashib borgani sari, ulardagi ma'naviy tushunchalar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan. «Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebafo ma'naviy obida alohida o'rin tutadi».² Ajdodlarimizning qadimiy kitobi «Avesto»da xalqimizning o'sha davrdagi ma'naviyati,

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Т.: «Маънавият», 2008. 29-30 бетлар

² Ўша асар, 31-бет.

madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlar yoritib berilgan. «Avesto» zardushtiylikning asosiy kitobi bo‘lgani sababli unda bu dinning ma’naviy tushunchalar tizimi ham o‘z ifodasini topgan. Asarda ezgulik, yaxshilik, ma’naviy barkamollik, hurfikrlik, insonparvarlik kabi xislatlar Ahuramazda qiyofasi orqali ko‘rsatilgan. «Avesto»ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan «ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» tamoyilini oladigan bo‘lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideal-larimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘lik mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa, e’tiborlidir.¹ «Avesto»da yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo‘lgan davrdagi tabiiy-ilmiy qarashlari, ayniqsa, axloqi va ma’naviyatining rivojlanishi tarixiga oid g‘oyat muhim manbalar bor.

«Ma’lumki, bu dunyoda har qaysi millatning o‘z afsonaviy qahramonlari, o‘zi sevib ardoqlaydigan atoqli insonlari bo‘ladi. Xalqimiz azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mayjud ma’naviy qudratga munosib bo‘lmoqqa intilib, o‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl insonlar etib tarbiyalab kelgan.

Shu ma’noda xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan qahramonlik qo‘shib idir. Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo‘lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to‘g‘ri bo‘ladi...

Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘stu yorimizni, or-nomusimizni, otabobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi».² Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning yengilmas bahodiri - Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimiz - bugungi alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz.³

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Т.: «Маънавият», 32-бет.

² Ўша асар, 32-33 бетлар

³ Ўша асар, 34-бет.

Markaziy Osiyoda ma'naviyat to'g'risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan tinchlik hukm surayotgan, islom dini ko'pgina sharq xalqlarining umumiy diniga aylangan edi. Qur'oni Karimda ta'riflab berilgan ma'naviyat tizimi xalqlarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Yurtimizda yashab o'tgan har bir mutafakkir, alloma ijodida islom dini ta'siri yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga islomning yurtimizda tarqalishi davridagi istilo oqibatida milliy ma'naviyatimizning ko'p qadriyatlari musulmon ma'naviyatiga o'rinn bo'shatgani to'g'risida Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida yozib qoldirgan.

Xalqimiz ma'naviyati islom dini tarqalgan xalqlar madaniyatining rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Xorazmiy, Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy, at-Termiziyy, Marg'inoniy, Zamahshariy, Nasafiy, Najmuddin Kubro, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Bedil kabi zotlar boy merosining jahon sivilizatsiyasiga ta'siri katta bo'lgan. Zamonaviy islom ilohiyotchilarining Imom Buxoriy asarlarini Qur'ondan keyingi muqaddas kitoblar sifatida tan olayotgani, Imom Termiziy va Naqshband qabrlari muqaddas qadamjoylarga aylangani bejiz emas. «Vatandoshimiz - Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma'naviy merosi, jumladan, «Sunnani Termiziy» asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molikdir.

Milodning VIII-IX asrlariga kelib ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu davrda madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyotning taraqqiyoti uchun imkoniyat paydo bo'ldi. Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan yili,

ya'ni milodiy 870-yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo - Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. Imom Moturidiy bobomizning o'rta asrlardagi g'oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatib, islom olamida «Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsnинг ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi». ¹ O'sha davrning buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad Muso Al-Xorazmiy (783-850) xalifa Ma'mun tashkil qilgan «Baytul hikmat»da katta mavqega ega bo'lgan U ilgari surgan g'oyalarda ma'naviyatning umuminsoniy jihatlari ifodalangan. Xorazmiy olimning ma'naviyatini ta'riflar ekan, quyidagicha yozadi: «O'tmish davrlarda o'tgan olimlar fanning turli tarmoqlarida asarlar yozish bilan o'zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar. Ulardan biri o'zidan avvalgilardan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi, uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharxlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi... o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi»². Bu so'zlar butun sharq olimlari uchun umumiy talab, kamolot mezoni, hozirgi intellektual mulk egalari ma'naviy qiyofasining asosiy xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan alloma Abu Nasr Farobiy (873- 959) ham ma'naviyatga katta e'tibor bergen. Farobiyning ma'naviyatga oid qarashlari «Madinatul fozila» ta'limotida o'z ifodasini topgan. Alloma fazil jamiyat to'g'risidagi ta'limotida yuksak g'oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma'naviy-axloqiy xususiyatlarning umumiy tizimini izohlab bergen.

Farobiy bunday jamiyatda diniy ma'naviyat ham muayyan ahamiyatga ega bo'lishini, ammo unda kalom (teologiya) va fiqh (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishi ta'kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g'oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o'sha davrda, nafaqat Olloh g'oyasini,

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: «Маънавият», 2008. 39-бет

² Ўша асар. 32-бет.

balki inson, jamiyat va ilm-fan ma'naviyatini falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida talqin etgan dastlabki Sharq faylasuflaridandir.

Ma'naviyat mavzusini Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ham chetlab o'tmagan. Uning fikricha, ma'naviyatning vujudga kelishi ijtimoiy munusobatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'-langan. Masalan, kishilar o'rtasidagi hamkorlik odamlarning birlashish ehtiyojlari ko'pligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o'zini himoya qilish zarurati tufayli vujudga kelgan. Beruniy hunar, savdo-sotiq, mamlakatlararo madaniy-ilmiy aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanni rivojlantirish, uning rolini oshirishning tarafdori bo'lgan. U bosqinchilarning yurtimiz madaniy yodgorliklarini yo'qotish sohasidagi siyosatini qoralaydi, madaniy taraqqiyotda vorislikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abduxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni «Bahouddini Balogardon» deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning «Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin» degan hayotbaxsh hikmati dinimizning oliyjanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalaydi.

Ma'naviyat masalasi Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) ham diqqat markazida turgan. Allolamaning ma'naviyatga oid qarashlari «Donishnama», «Solomon va Ibsol» kabi asarlarida o'z ifodasini topgan. Uning nazarida, o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo topadi.

Ibn Sino inson, uning o'z-o'zini idora qilishi haqidagi fanlarning ahamiyatini yuksak baholaydi. Ibn Sinoning fikricha, odamning qadri boshqalar bilan hamkorligi, yaxshi axloqiy fazilatlarga ega bo'lishga intilishi, donoligi, boshqalarga yaxshilik qila olishi bilan belgilanadi. Muqaddas zaminimizda tavallud topib, voyaga yetgan, o'z hayoti va faoliyati bilan nafaqat tarixda, ayni vaqtida bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimizni ta'riflab, uzoq gapirish mumkin.

Ma’naviyatning tarixiy ildizlarining yurtimizga tegishli falsafiy-tarixiy tahlili Xorazmiy, Farobi, Beruniy, Ibn Sinolar merosi bilangina chegaralanib qolmaydi. Al-Buxoriy, at-Termiziyy, Najmuddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshbandiy kabi zabardast namoyandalarning ham tasavvuf ta’limotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasi bor. Shu bilan birga, jahon madaniyatiga beba ho hissa qo‘sghan Hofiz, Sa’diy, Jomiy, Navoiy kabi zotlarning bu boradagi qarashlari ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ularning butun jahonga mashhur bo‘lgan «Saodatnoma», «Guliston» va «Bo‘ston», «Bahoriston», «Xamsa» kabi beba ho asarlari jahon madaniyati xazinasidan munosib o‘rin egallagan. Dunyoda ularga qiyoslaydigan, ma’naviy-axloqiy ma’naviyatning umumiy tizimlari izohlangan kitoblar barmoq bilan sanarli. Ushbu an’ana yurtimiz madaniyati tarixida aslo to‘xtab qolgani yo‘q va bu borada A. Donishning «O‘g‘illarga nasihat» (XIX asr oxiri), A. Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» (XIX asr boshlari) asarlarini eslash kifoya. Allomalardan biri Ahmad Yassaviy (1105-1166) diniy, ma’naviy-axloqiy ma’naviyatning o‘sha zamonga mos keladigan tizimining namoyon bo‘lishi va amal qilish shartlarini islom dini nuqtayi nazaridan ta’riflab bergen. «Devoni hikmat» majmuasida Yassaviy ma’naviyatning asosiy shakllari - iymon, halollik, poklik, hayo, bardosh va sabr-qanoat, chidam, beozorlik, hokisorlik kabi xislatlarga ta’rif bergen.

Ma’naviy merosimizda naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshband (1388-yilda vafot etgan), Xo‘ja Ahror (1409-1492) va Husayn Voiz Koshifiy kabi ilohiyot ilmi allomalari ilgari surgan g‘oya hamda qarashlarning ham o‘z o‘rni bor. Naqshbandiya tariqati musulmon Sharqida keng yoyilgan, Jomiy, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning hurmat-e’zoziga sazovor bo‘lgan. Hazrat Navoiy «Xoja Bahouddin Naqshband» nomli asar ham yozgan. Naqshbandiylikning vujudga kelishida Yassaviy ta’limotining ta’siri sezilib turadi. Ammo naqshbandiylik tariqati o‘zining ko‘pgina jihatlari bilan boshqalaridan farq qiladi. Naqshbandiyada Alloh visoliga yetish uchun dunyodan voz kechish yoki tarkidunyo qilish emas, balki poklik, hayo, kamtarinlik komil insonga xos asosiy fazilatlar ekani uqtiriladi.

O‘rta asrlar ma’naviyatida Amir Temur va temuriylar davrining,

umumbashariy ma'naviyatning ilmiy tahlilida Ulug'bek va u rahbarlik qilgan olimlar merosi katta o'rin tutadi. Podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning ma'naviyati, xulqi, axloq-odob talablari, davlat va siyosat yuritish san'ati bayon qilingan «Temur tuzuklari»da ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan birga ma'naviyat masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. Ushbu asar Sharq va G'arbda mashhur bo'lgan, ko'p marta chop etilgan. Unda siyosatdonning yurish-turishi, siyosat bobidagi faoliyati, xalq, qo'shin, ulamolar, arkoni davlat va boshqalarga munosabati uchun asosiy mezon bo'ladigan ma'naviyat tamoyillari o'sha zamon nuqtayi nazaridan bayon qilingan. Amir Temurning tariximizdagi o'rni va mamlakatni ozod qilishdagi xizmati katta. Uning mohir davlat arbobi, tajribali siyosatdon sifatidagi o'git va nasihatlari keyingi davrning siyosiy arboblari uchun ham qo'llanma bo'lib xizmat qilgani shubhasiz. «Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma'noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo'lgan «Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqr» degan maqolga hamohang bo'lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma'naviyat asosida yashashga da'vat etishi bilan e'tiborlidir.¹ Umumbashariy ma'naviyat tahlilida Mirzo Ulug'bek (1394-1449)ning fikrlari ham o'ziga xos o'rin tutadi. U o'z atrofiga Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mutafakkirlarni to'pladi, ular bilan birga umumbashariy ma'naviyat, koinot sirlari, unda ro'y berayotgan jarayonlarning ahamiyatini o'rganish borasida o'z zamonasidan ilgarilab ketdi. Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining asoslaridan biri bo'lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko'rsatadi. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb nomlangan Ulug'bekning astronomik jadvali o'rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani fikrimizning yaqqol isbotidir. Sirasini aytganda, ular nafaqat umumbashariy ma'naviyatni tadqiq etdilar, balki ilm-ma'rifat, haqiqat, ziyolilik, fazillik kabi umuminsoniy ma'naviy tamoyillarning xususiyatlarini ham izohlab bergenlar». «O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va

¹ Каримов И.А. Юксак мънавият – сингилмас куч. Т.: «Мънавият», 2008. 45-бет.

makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritamiz»¹. Alisher Navoiyning odil jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarida umumijtimoiy ma’naviyat tizimi, komil inson ta’limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy ma’naviyat tizimi ta’riflanib, ular o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Mutafakkirning bu boradagi g‘oyalari bugungi mustaqillik sharoitida jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish, farzandlarimizni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Ammo Alisher Navoiy vafotidan besh-olti-yil o‘tar-o‘tmas, mamlakatda hukmronlik qilgan temuriylar davlati tanazzulga uchrab, parchalanib ketdi.

Avval, Xiva xonligi va Buxoro amirligi, so‘ngra, Qo‘qon xonligi vujudga keldi. Uch yuz yildan oshiqroq davrni o‘z ichiga olgan bu jarayon xonlik, amirlik, turli sulolalar, urug‘lar o‘rtasidagi urushlar, tinimsiz ziddiyatlar orqali kechdi. Yaxlit sivilizatsiyamizning hamjihatligini ta‘minlaydigan umumiylar ma’naviyat tizimi darz ketdi. XIX asrning o‘rtalariga kelib, amirlik va xonliklarga bo‘linganligiga qaramasdan, mustaqil yashagan Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi, yurtimiz imperiyaning mustamlakasi bo‘lib qoldi.

Bu davrga kelib Ahmad Donish, Sattorxon, Furqat, Muqimiy kabi adiblar ma‘rifatparvarlik g‘oyalarni keng targ‘ib qildilar. Masalan, A.Donishning «O‘g‘illarga nasihat» asarida ma’naviy mada-niyat, axloq talablari va ziyolilikning inson kamoloti uchun ahamiyati bayon qilingan.

Xullas, «Tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma‘rifat va yuksak ma’naviyatga intilish hech qachon to‘xtamaganini, xalqimiz dahosining o‘lmas timsoli sifatida eng og‘ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo‘lib kelganini ko‘rishimiz mumkin»². Xususan, XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida yurtimizda jadidchilik harakati vujudga keldi. Hayotda ro‘y berayotgan turli o‘zgarishlarni o‘rganish, umummiliy ma’naviyatimizni jahon taraqqiyoti talablari nuqtayi nazaridan tahlil qilish borasida M.Behbudiy, So‘fizoda, Saidrasul Aziziy, Munavarqori, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat kabi ma‘rifatparvarlarning xizmatlari beqiyosdir. Chunonchi, A.Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» kitobida o‘ziga xos ma’naviyat tizimi ta’riflab berilgan.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Т.: «Маънавият», 2008. 47-бет.

² Ўша асар, 49-бет

Afsuski, qatag‘on yillarida xalqimiz ma’naviyati xazinasidan munosib o‘rin olgan bu kabi asarlar taqiqlandi. Buyuk ma’rifatparvar bobolarimizning boy merosini o‘rganish, ularni targ‘ib-tashviq etish cheklab qo‘yildi. Faqat respublikamiz mustaqil bo‘lganidan keyingina ana shunday asarlarni chop etish, xalqimizni ma’rifatparvar ajdodlarimizning ezgu g‘oyalaridan bahramand etish imkonи tug‘ildi.

6.2. Ma’naviyatning shakllanish jarayonlari, bosqichlari

Qadimgi xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklar O‘rta Osiyo xalqlari milliy ma’naviyati takomil bosqichlari bu o‘lka xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu sahnda yuz beruvchi hodisa sanaldi. Xalqimiz madaniy taraqqiyoti o‘ta murakkab tarixiy hodisalar majmuyini tashkil etib, o‘z ichiga bir necha ming yilliklarni qamrab oladi. Ana shu murakkab va ko‘p ming yillik ma’naviy takomilimiz jarayonidan asosiy bo‘g‘inlarini ajratib olishimiz lozim. Busiz milliy ma’naviyatimiz rivojlanishi bosqichlari haqida fikr yuritib bo‘lmaydi.

1. Islomgacha milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti.
2. Islom mintaqasi madaniyati takomilida milliy ma’naviyatimizning o‘rnasi va mavqeyi.
3. Yangi davr jahon madaniyati va milliy ma’naviyatimiz takomili masalalari.

Islomgacha bo‘lgan milliy ma’naviyatimiz va uning takomilashishi haqidagi eng muhim manbalar guruhini to‘rtga bo‘lish mumkin.

1. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» va turkiy bitiklar.
2. Qadimgi Shumer, Bobil, Ashshur, Misr, Yunon, Hind, Xitoy manbalari va Eron shahansholalaridan qolgan toshbitiklar.
3. Arxeologik yodgorliklar-moddiy yodgorliklar va turli inshootlar.
4. Xalq og‘zaki va yozma adabiyot namunalari, urf-odatlar, marosimlar, o‘yinlar, bayramlar va boshqalar.

Bizning eng qadimiylardan ajdodlarimiz ma’naviyat va ma’rifati haqidagi ma’lumotlar asrlardan asrlarga o‘tib, hozirgacha saqlanib qolgan xalq og‘zaki ijodi namunalari: afsonalar va qadimiylardan yozuvlarda saqlanib qolgan.

Xalqimizning o‘ziga xos turmush tarzi, tafakkur va dunyo-qarashi, hayotga, voqelikka munosabatining ifodasi bo‘lgan bunday xalq og‘zaki ijodi namunalarini milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir. O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiy afsonalari turli mavzularda bo‘lgan. Chunonchi kosmogonik afsonalar, hayvonlar va qushlar, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi afsonalarda yaxshilik baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlik, yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo‘yilgan. Shu asosda baxt o‘lkasi va baxtsizlik o‘lkasi degan afsonalar yuzaga kelgan. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o‘rtasidagi kurash afsonaviy obrazlar Mitra, Anaxita, Qayumars, Yeima (Jamshid), Elikbek va boshqalar obrazida mujassamlashtirilgan. Bular haqidagi afsonalar zardo‘shtiylikning «Avesto» kitobiga ham kirgan. Mitra – quyosh xudosi. U kishilarga nur issiqlik, baxt-saodat baxsh etadi. Shu bilan birga u yaxshi qurollangan bo‘lib, dushmanlarga dahshat soladi, odamlarni turli balo va ofatlardan qutqaradi. Mitra bitmas-tuganmas kuchga ega bo‘lgan pahlavon sifatida tasvirlangan. U dushmanغا nisbatan shafqatsizlik bilan jang qiladi va uni mahv etadi. Mitra o‘tda kuymas, suvda cho‘kmas, o‘q o‘tmas qahramon.

Qayumars haqidagi afsona ham «Avestoga» kiritilgan. Mifaloyiga ko‘ra Qayumars yer yuzida paydo bo‘lgan birinchi odam bo‘lib, go‘yo u Axuramazda tomonidan yaratilgan va ikki vujuddan: ho‘kiz va odamdan tashkil topgan. Insoniyatning ashaddiy dushmani bo‘lgan Aximan Qayumarsni o‘ldiradi. Qayumars tanasining ho‘kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o‘simlik, sigir va ho‘kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo‘ldi. Tananing odam qismidan esa erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga kelgan deb tasvirlanadi.

Yima (Jamshid) haqidagi afsonada odamlar uchun najotkor hukmron obraqi tasvirlangan. Shunday qilib, yuqoridagi kabi xalq og‘zaki ijodi-afsonalarda xalq najotkori va xaloskori tasvirlandi, kishilarning ma’naviy g‘alabasi va o‘z kelajagiga ishonch tasvirlangan.

Xalq og‘zaki ijodida mifologik obrazlar bilan birga afsonaviy qahramonlar obraqi ham yuzaga kelgan. Bu qahramonlar kishilarning osoyishtaligi va baxt-saodati uchun kurashib, fidokorlik ko‘rsatadilar. Chunonchi, Gershasp va Elikbek haqidagi afsonalarda ajdar va jinlarni engan, o‘limdan qo‘rqmas, mard, bahodir kishilarni halokatdan qutqaruvchi qahramonlar obrazlari tasvirlangan.

Qadimgi O'rta Osiyo aholisi yaratgan og'zaki adabiyot yodgorliklari orasida qahramonlik eposi muhim o'rin tutadi. Ularda xalqimizning chet el bosqinchilari qarshi vatanparvarlik kurashi asosiy o'rinni egallagan.

To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush haqidagi xalq og'zaki eposlarida vatanparvar va fidokor bahodirlarning monumental obrazlari yaratilgan. «To'maris» eposida O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga, xususan eramizdan avvalgi VI asr o'rtalarida bu o'lkaza bostirib kirgan eron ahmoniylari shohi Kirga qarshi massaget qabilalarining qahramonona kurashi aks etgan. Kir qo'shini tor-mor etilib, uning o'zi jang maydonida o'ldiriladi, kallasi tanasidan judo etilib, qon bilan to'ldirilgan meshga solinadi.

«Shiroq» eposi ham O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashini aks ettiradi. Vatanparvarlik va jasorat, vatan va o'z xalqi baxti-saodati yo'lida fidoyilik qilishga shay, tayyor turish kabi yuksak ma'naviylik sak qabilasining cho'poni Shiroq timsoldida gavdalangan.

Qadimgi turkiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklardan bizgacha O'rxun-Yenisey va uyg'ur tilidagi yodgorliklar saqlanib qolgan. O'rxun – Yenisey yodgorliklari V-VIII asrlarga mansub bo'lib, ulardan Kul-Tegin, Bilka qoon, Tunyukuk qabrtoshlariga o'yib yozilgan matnlar, ayniqsa, ahamiyatliydir. Bu yozuvlarni turkiy - run yozuvi ham deb yuritiladi. Run yozuvi – «yashirin», «sirli» yozuv demakdir.

Kul-Tegin Bilka qoonning ukasi bo'lib, 732-yili vafot etgan. U urishlarda zo'r qahramonliklar ko'rsatgan. Kul-Tegin qabr toshida Bilka qoonning tilidan aytilgan judolik qayg'usi marsiyasi badiiy til vositasida ifodalangan. U o'z ukasining vafotidan juda qayg'uga tushadi. Chunonchi, «Agar Kul-Tegin bo'lmasa edi, hammangiz halok bo'lur edinglar. Mening inim Kul-Tegin o'ldi, men qattiq qayg'urdim, ko'rар ko'zlarim ojiz bo'ldi, aql-fahmim o'tmas bo'lib qoldi, o'zim qayg'urdim. Qiyomatni ko'k samo (xudo) taqsim qiladi. Odam bolasi o'lim uchun tug'ilgan» kabi so'zlar yozilgan.

Kul-Tegin qabr toshi yozuvi turk hoqonligi davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti qabila va xalqlarning urf-odatlari, tili, ma'naviyati va mafkurasi bilan tanishtiruvchi manbadir. Markaziy Osiyoda ma'naviyat bilan birga ma'rifat ham rivojlangan. Ma'rifat rivojining

isboti sifatida bu o'lkha xalqlarining yozuvini ko'rsatish mumkin. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy, yunon, forsiy mixxat yozuvi mavjud bo'lgan. Keyinchalik xorazm, so'g'd, kushon, run, (O'rxun -Yenisey), uyg'ur yozuvi kelib chiqqan.

Qadimgi O'rta Osiyoda astronomiya, geometriya, geodeziya, matematika, fizika, medetsina fanlari rivojlangan. Bizga qadar saqlanib qolgan so'g'd kalendar va Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi ma'lumotlar bu o'lkada, ayniqsa, astronomiya fani rivojlanganidan darak beradi.

«Avesto» – milloddan avvalgi VII-VI asrlarda markaziy Osiyo hududida Xorazm vohasida yaratilgan va «Avesto» ya'ni «hayot yo'riqnomasi» zardushtiylik dinini shakllantirishga asos bo'lgan nazariy manbalarning umumiyligi va bu dinning asosiy kitobi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlaridagi moddiy va ma'naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odatlar va qadryatlari haqida ma'lumot beradi.

Milloddan avvalgi XIII asrdan to milodiy IV asrgacha bo'lgan davrdagi tarixiy voqealarni aks ettirgan. Unda ma'naviy yuksaklikka da'vat etish, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g'oyalar, ma'budalar sha'niga aytilgan madhiyalar, duolar ham o'z ifodasini topgan. Dualizm, ruh va moddiy hayotning o'zaro uyg'unligini tan olishga asoslangan zardushtiylik diniga ko'ra, butun olam yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari qarama-qarshi hodisalar o'rtasidagi azaliy va abadiy kurash asosiga qurilgan. Bu kurash yaxshilik xudosi Axuramazda bilan yomonlik tangrisi Axriman orasidagi doimiy olishuv timsolida hech qachon to'xtamaydi.

«Avesto» quyidagi besh qismidan:

1. Vendidod – 22 bobdan iborat bo'lib, unda Axuramazda yerdagи barcha mavjudotning yaratuvchisi ekanligi bayon etiladi.
2. Vispard – 24 bobdan iborat bo'lib, ibodat qo'shiqlaridan tashkil topgan. Zulmat kuchlariga qarshi kuylanadi.
3. Yasna – 72 bobdan iborat bo'lib, qurbanlik vaqtida, marosimda aytiladigan qo'shiqlardan tashkil topgan.
4. Yasht – 22 qo'shiqdan iborat bo'lib, zardushtiylik ma'budalari madhi kuylangan.

5. Xurda Avesto – Kichik Avesto – quyosh, oy va boshqa xudo hamda ma’budalar sharafiga aytilgan kichik ibodat matnlaridan iborat.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra podsho Doro ibn Doro xazinasida «Avesto»ning 12 mingta mol terisiga tilla suvida yozilgan 32 ta kitobdan iborat nussxasi bo‘lgan. Aleksandr Makedonskiy «Avesto»ning beshdan uch qismini yoqib yuborgan, uning tibbiyot, falakiyat, falsafa va adabiyotga doir bo‘limlari esa yunon tiliga tarjima qilingan.

Zardo‘shtiylik va uning muqaddas kitobi «Avesto»da ma’naviyat va ma’rifat masalalari va uning bugungi kun uchun ahmiyati haqida fikr yuritamiz. Axuramazda odamlarni bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari: g‘arazgo‘ylik, hasadgo‘ylik, kalondimog‘lik, shuhratparastlik kabilarga yo‘l qo‘maslik, qonunsiz ishlardan o‘zlarini tiyib yurish uchun intilishga chaqiradi. Bergan so‘zining ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqa shartnomalarga amal qilish, qarzini vaqtida to‘lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo‘lish – iymonlilik alomatlari ekanliklari aytildi. Iymonli odam o‘g‘rilik va talonchilikdan, begonalarning molu – dunyosiga ko‘z olaytirishdan, o‘z-o‘ziga xiyonat qilish, yana o‘z iymoniga xilof ishlardan o‘zini saqlay biladigan komil insondir. Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko‘proq qayg‘uring, ya’ni avval ma’naviy dunyoingiz musaffo bo‘lsa, moddiy turmishingiz ham mukammal bo‘lib, boraveradi, deyiladi «Avesto»da.

«Avesto»da mehnat nihoyatda ulug‘lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-ne’matlar manbayi deb biladi. Inson sahovatli bo‘lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o‘z qo‘li bilan noz-ne’matlar yaratishi zarurligi o‘qtiriladi. «Don ekkan kishi taqvodorlik urug‘ini ekadi, u Mazdaga, ixlosmandli, e’tiqodini olg‘a suradi, iymonini oziqlantirib, turadi». Bunga amal qilish o‘n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbanlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish – yerdagi yovuzlikni yo‘qotishda, deb qaraladi. «G‘alla yerdan unib chiqqanda, - deyiladi «Avesto»da, -devlar larzaga keladi. G‘alla o‘rib olinyotganda devlar nola –faryod chekadi, g‘alla yanchilib, un qilinayotganda ular mahv bo‘ladi....» deb mehnat ulug‘lanadi.

«Avesto»da inson axloq-odobi, ma’naviyati quyidagi uchlikda.

Gumata – yaxshi fikr, Gugta-yaxshi so‘z, Gavarshta – yaxshi ishda ifodalanadi. «Men yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman», - deb ta’kidlaydi Axuramazda.

Yaxshi fikr deganda yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tushuniladi. Yaxshi so‘zlar deganda esa o‘z va‘dasiga rioya qilish, so‘zining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo‘lish, o‘g‘rilik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan o‘zini tiyish va hokazolar tushuniladi.

Yaxshi ishlar deganda insонning o‘z hatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi so‘zlarda ilgari surilgan barcha ijobiy yo‘l-yo‘riqlarga og‘ishmay amal qilish nazarda tutiladi. «Avesto» bitiklari qadimgi yunonlar, rimliklar, yahudiyalar, suriyaliklar va boshqa xalqlar tomonidan chuqur o‘rganilib, undagi eng qimmatli bilimlar fikr va g‘oyalalar, amaliy tajribalar o‘zlashtirib olingan. Ayniqsa, «Avesto» yunon falsafasiga hal qiluvchi ta’sir o‘tkazgan «Avesto» bo‘yicha asrlar davomida dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida chuqur ilmiytadqiqot ishlari olib borilgan va bu ishlar bugungi kunga qadar davom etmoqda.

Sobiq sovet davrida «Avesto»ning ilk vatani bo‘lmish O‘zbekistonda bu kitobni sistemali ravishda o‘rganishining imkonii bo‘lmadi. Qadimgi ajdodlarimizning ezgu g‘oyalari, milliy davlatchilik an‘analari, turmush tarzi va mentalitetini aks ettirgan bu kitob faqat mustaqillik yillarda o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi. Prezident Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilgan ma‘naviy merosimizni tiklash, har tomonlama keng o‘rganish va targ‘ib etish borasidagi keng ko‘lamli ishlar doirasida «Avesto» kitobi ham yangidan xalqimizning ma‘naviy mulkiga aylantirildi. Kitobning xalqimiz va milliy davlatchiligidan tarixi umumbashariy sivilizatsiya rivojidagi ulkan ahamiyatini hisobga olgan holda 2001-yili «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligi yurtimizda xalqaro miqyosida keng nishonlandi.

Navro‘z (fors. yangi kun) -O‘rta Osiyo va Sharq mamlakatlarining qadimiyligi an‘anaviy bayrami. Islom Karimov «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch»asrarida ta’kidlaganidek: «Milliy ma‘naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani

xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram – sharqona yangi yil bo‘lmish Navro‘z ayyomi misolida, ayniqsa, yorqin namoyon bo‘ladi. Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik shodiyona bilan o‘tkazadigan Navro‘z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz sahovatining, ko‘p ming yillik milliy qiyofamiz, ajoyib urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo‘lib kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, yangilanish va ezzgulik timsoli bo‘lgan Navro‘z falsafasi xalqimizga munosib odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va hikmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgan, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk insoniy g‘oyalardan bahramand bo‘lib, ma’naviy kamol topganining yana bir tasdig‘idir, desak, xato bo‘lmaydi.

Ko‘hna tariximizni shu ma’noda ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazib, tahlil qiladigan bo‘lsak, muhim va ibratli bir fikrni takror aytishga to‘g‘ri keladi. Ya’ni ota-bobolarimiz ruhiy olamining tomir-ildizlari aynan yuqorida zikr etilgan ma’naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchanining havasini tortib kelayotgan oliyjanob faziylatlar asosida shakllangan».¹

Navro‘z bayramining sarchashmalari qadimgi ajdodlarimizning koinot, quyosh, yerga bo‘lgan e’tiqodlari asosida vujudga kelgan. Bundan 4-5 ming yil ilgari ajdodlarimiz quyoshni eng buyuk kuch, hayot chashmasi, yorug‘lik va issiqlik manbayi deb o‘ylashgan, unga atab maxsus marosimlar o‘tkazishgan. Marosimlar katta bayramlarga aylanib «yil boshi» vazifasini ham o‘tagan. Navro‘z koinot va tabiat qonunlari, quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning tenglashishi, kunduzning uzaya borishi, tabiatning jonlanish, bahorning, kelishi bilan bog‘liq. O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududida Navro‘z asrlar davomida mazmunan chuqurlashib, shaklan boyib borgan. Navro‘z bayramida ommaviy xalq sayillari uyushtirilgan, yangi ungan ko‘katlardan tansiq taomlar pishirilgan.

Navro‘z xalq hayotidagi eng muhim kun hisoblangan, chunonchi:

1) Navro‘z shunday ruhiy kayfiyatni vujudga keltirganki, unda hamma xursand, shod va baxtiyor bo‘ladi;

2) qadimdan bayramlar o‘ziga xos vaqt o‘lchovi hisoblangan,

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – сингилмас куч. Т.: «Маънавият», 2008. 35-бет.

shu jumladan Navro‘z ham vaqt o‘lchami sifatida xizmat qilgan, ya’ni-yil boshini nishonlash vaqt kelganida, odamlar yana bir-yil o‘tganini his qilishgan. Demak, Navro‘z vaqtini chuqur his qilish, e’zozlash, qadriga yetish uchun sharoit yaratgan;

3) Navro‘z hayotning eng yaxshi tomonlarini aks ettiradigan ko‘zgu bo‘lib kelgan. Ushbu kun kishilar eng yaxshi odatlarini namoyish etib, chiroyli liboslar kiyishgan, lazzatli taomlar tayyorlashgan. O‘z qobiliyatlarini namoyish etishgan, ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishgan;

4) Navro‘z jismoniy va aqliy mehnatdan ozodlik hamda turli majbriyatlardan erkinlik kuni hisoblanib, odamlar kundalik ish, vazifa, burch, tashvishlaridan ozod bo‘lgan;

5) Navro‘z kunida tenglik hukm surgan. Hamma bir qozondan ovqat yeb, bir xil tomosha ko‘rgan, birqalikda sayilgohlarga chiqishib, sayr qilishgan;

6) Navro‘z kuni – tinchlik kuni hisoblangan, urushlar to‘xtatilgan. Xalq odatlariga ko‘ra, bu kuni xafagarchiliklar unutilb, o‘zaro arazlashganlar yarashishgan. Tanishlar do‘splashgan, hamjihatlik, do‘slik ruhi barqaror bo‘lgan;

7) Navro‘z kunida vujudga kelgan ruhiy ko‘tarinkilik kishilarda ertangi kuniga umid uyg‘otgan, insonlar kelajakka ishonch bilan qarashgan, hayotning yanada go‘zal bo‘lishiga harakat qilishgan.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida bosqinchilar xalqning eng sevimli bayrami-Navro‘z orqali o‘z g‘oyalarini singdirishga ko‘p harakat qilishgan. O‘lkaga islam dini kirib kelgandan keyin Navro‘z bayrami man qilinsada, ammo xalq sevimli bayramini nishonlashda davom etgan. O‘rtta Osiy va Eron xalqlari arab xalifaligi hukmronligidan qutilgan davrdan boshlab, Navro‘z bayramini o‘tkazish yanada rasmiytus olgan. Ammo, sobiq ittifoq davrida Navro‘zning ahvoli ayanchli bo‘ldi. Xalqning milliy an‘analari sho‘rolar maqsadiga xizmat qilmagani uchun unga qarshi rasmiy va norasmiy kurash olib borildi. Biroq Navro‘zni nishonlash to‘xtamadi. An‘analar uchun kurash millat ravnaqi uchun, millat ravnaqi uchun kurash esa mustaqillikka erishish uchun kurashga aylandi.

1989-yil 28-fevralda Prezident Islom Karimovning farmoni bilan O‘zbekistonda navro‘zni umumxalq bayrami sifatida nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. 1990-yildan esa 21-mart – «Navro‘z

milliy – xalq bayrami kuni» deb e’lon qilindi. Mustaqillik sharofati bilan qayta tiklanib, istiqlol g’oyalari bilan sug’orilib, mazmunan va shaklan boyigan navro’z bilan birga yangilanish, ruhiy poklanish, tabiiy va madaniy boyliklarni saqlashga chorlash, atrof-muhitni tartibga solish, obodonlashtirish, aholi o’rtasida mehr-muruvvat, do’stlik, ahlilik birodarlikni mustahkamlash, millatlararo hamjihatlik, totuvlikni rivojlantirish omillari ham kuchaydi.

Navro’z xalqimiz uchun poklanish, ruhlanish, yangilanish va ma’naviy kamol topish bayrami bo‘lib qolmoqda. Qadimiy Navro’z o’zining asl mohiyatini saqlab, yangi g’oyalalar bilan boyib, ahillik, totuvlik, xalqlar birdamligi va do’stligi bayramiga ham aylangan.

6.3. O’rta Osiyo – Sharqning yuksak ma’naviyat va tafakkur markazi

O’rta Osiyo tarixiy vaqealarga g’oyat boy, ilm-fan, madaniyat va ma’naviyatning markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu o’lka dunyoga ma’naviyat va ma’rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug’ zotlar, davlat arboblarini tarbiyalab bergen. Umumbashariyat ma’rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan hissa qo’shganlar. O’rta Osiyo madaniy merosi jahon madaniyati va ma’rifatining uzviy ajralmas tarkibiy qismidir.

Ajdodlarimiz e’zozlab kelgan, asrlar qa’ridan olib o’tilgan falsafiy-axloqiy pand-nasihatlar, qadriyatlar siyosat qurboni bo‘ldi, e’tibordan chetda qoldi. Bu esa yosh avlodning ma’naviyatiga salbiy ta’sir o’tkazdi.

Mustaqillik tufayli ona zaminimizning ma’naviy merosini chuqurroq o’rganish, tahlil etish imkoniyatiga ega bo‘ldik. O’z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi. Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanuz yurtimizga ko‘rk bag’ishlab turgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an’analari haqida, vatanimizning shonli tarixi to‘g’risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g’urur-iftixor tuyg’ularini uyg’otadi.

IX-XII asrlarni Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari «Renessans» (Uyg'onish) davri deb ataydi. Ma'naviyat va ma'rifatning g'oyat gullab-yashnaganligi bu davr uchun xarakterlidir. Bu davrda qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari yetishib chiqdi. Dunyoviy fanlar tez sur'atlarda taraqqiy etdi. Tarjimonlik faoliyati rivojlandi. Bu jarayon, ayniqsa, xalifa Ma'mun ibn Xorun ar Rashid (813-833-yy.) davrida Bog'dodda «Baytul-hikmat» (Donishmandlar uyi) tashkil etilgan paytda tezlashdi. Yunon falsafasi va tabobati, hind hisobi, alkimyo va ilmi nujumga oid asarlar arab tiliga o'girildi. Bunga Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlar Abbas ibn Said Javhariy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy, Ahmad al-Farg'oniy, Muhammad al Xorazmiylar ham katta hissa qo'shganlar.

Renessans – Uyg'onish davri madaniyati, ma'naviyati va ma'rifiati mohiyat-e'tibori bilan gumanistik dunyoqarashi, antik davr madaniy merosiga murojaat qilishi bamisol uning qayta uyg'onishini anglatadi, tabiiy fanlar rivoji, fanda universallik (qomusiylik)ni, gumanizmni targ'ib etish va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Sharq renessansi davri quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1. Madaniyat, dunyoviy fanlar va islom aqidashunosligining taraqqiyoti.
2. Yunon, rum, fors, hind va boshqa madaniyatlar yutuqlariga suyanish.
3. Astronomiya, matematika, mineralogiya, jo'g'rofiya, kimyo va boshqa tabiiy fanlar rivoji.
4. Uslub (metodologiya)da ratsionalizm, mantiqning ustunligi.
5. Insoniy do'stlik, yuksak axloqiylikning targ'ib etilishi.
6. Falsafaning keng darajada rivoj topishi.
7. Adabiyot, she'riyat, ritorikaning keng miqyosda rivojlanishi.
8. Bilimdonlikning qomusiy xarakterda ekanligi.

O'rta Osiyoning ko'hna va hamisha navqiron Buxoro, Xiva, Samarqand kabi shaharlari qadimdan fan, madaniyat va ma'naviyatning markazi bo'lib kelgan. O'rta Osiyo tabiiy-ilmiy tafakkuri rivojinining boshlanishi buyuk allomalar Muso Muhammad Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning nomi bilan bog'liq.

Muhammad Al-Xorazmiy (783-850-yy.) ga dastlabki buyuk shuhratni «Hisob al-Hind» («Hind hisobi») nomli risolasi olib keldi.

Mazkur risolada jahon fani tarixida birinchi marta o'nlid sistema va uning amaliy ahamiyati haqida so'z boradi.

Al-Xorazmiy tomonidan «0» (nol raqam)ning kashf qilinishi insoniyat ilmiy tafakkurining beqiyos ulkan yutug'idir. Al-Xorazmiy tomonidan yozilgan «Hisob al-Hind» kitobida eng muhim oltita arifmetik amallar – qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lism, darajaga ko'tarish va kvadrat ildiz chiqarish kabilalar ishlab chiqilgan va uning uslub va qonunlari kashf etilgan edi.

Al-Xorazmiyning yana bir buyuk xizmati algebra fanini kashf etganidir. Algebraning mustaqil fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanishi Al-Xorazmiy faoliyatini bilan bog'liq. «Algebra» atamasining o'zi Al-Xorazmiy tomonidan yozilgan («Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob») nomli risoladagi «aljabr» so'zining lotincha talaffuz ifodasidan kelib chiqqan.

Algoritmlar nazariyasini ham Al-Xorazmiy nomi bilan bog'langanligi, hatto «Algoritm» atamasi ham lotincha ifoda etilgan «Dixi Algoritmik» (dediki Al-Xorazmiy) so'zidan kelib chiqqanligini hech kim inkor etolmaydi.

«Algoritm» tushunchasi hozirgi zamon kibernetikasi, EHM (elektron hisoblash mashinasi) va hozirgi zamon informatsion texnologiyasi hamda jarayonlarining asosiy kategoriyasiga aylandi.

Muhammad Al-Xorazmiy «Hisob al-Hind», «Ziji Xorazmiy», «Astrologiya bo'yicha risola», «Quyosh soati haqida risola», «Yer-ning shakli haqida kitob», «Trigonometrik jadvallar», «Musiqa bo'yicha risola», «Tarix haqida» va boshqa asarlarning muallifi.

Ahmad al-Farg'oniy (798-861-yy.) mashhur falakiyotshunos olim. Uning asosiy asarlari «Falakiyot ilmining usullari haqida kitob», «Ahmad al-Farg'oniy jadvali», «Usturlab bilan amal qilish haqida» kitob, «Usturlab yasash haqida» kitob, «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob» va boshqalar. Ahmad al-Farg'oniyning «Astronomiya asoslari» kitobi o'sha davr astronomiya sohasidagi bilimlarning qomusi bo'lgan. Unda qadimgi falakiyotshunoslik bilimlari, uning qoidalari, usullari bayon qilingan. Asar XII asrdayoq lotin tiliga tarjima etilib, ko'p asrlar davomida Yevropada astronomiya bo'yicha qo'llanma, darslik sifatida xizmat qilib kelgan.

Ahmad al-Farg'oniy o'z asarlari, ilmiy kashfiyotlari bilan jahon

fani va madaniyati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. U quyosh tutilishini oldindan aytib berdi. Yerning sharsimon ekanligining kashf etilishi olimga katta shuhrat keltiradi. 1998-yil YUNESKO tomonidan alloma tavallud topganligining 1200 yilligi keng nishonlandi.

Sharq falsafiy, ijtimoiy, axloqiy fikr rivojini Abu Nasr Farobiysiz (873-950-yy.) tasavvur etish qiyin. U «Sharq Aristotel», «Ikkinch muallim» degan unvonga sazovor bo'lgan mashhur mutafakkirdir. Sharqda qadimgi Yunonistonning eng mashhur faylasufi Aristotelni «Birinchi muallim» deb yuritilgan. Farobiy 70 dan ortiq til bilgan qomusiy olim. U yaratgan asarlarning umumiy soni 160 dan ortiq bo'lib, uni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Qadimiy Yunon faylasuflari va tabiatshunoslari Aristotel, Platon, Evklid, Galen va boshqalarning ilmiy merosini tarjima qilish, sharplash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar.

2. O'rta asr fanining tabiiy, ijtimoiy-falsafiy sohalariga oid risolalar.

Bu borada Aristotelning «Metafizika» kitobining maqsadi to'g'risida», «Osmon sistemasi» kitobiga izoh», «Etika kitobiga sharx», «Qonunlar haqida kitob», «Bo'shliq haqida kitob», «Musiqa haqida so'z», «Falsafani bilishdan oldin nimalarni bilish kerakligi to'g'risida», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Inson a'zolari haqida risola», «Donolik asoslari», «Mantiq ilmiga kirish», «Aql to'g'risida», «Fozil odamlar shahri» va boshqa asarlarini ko'rsatish mumkin. Farobiyning fikricha, inson va jamiyatning g'alabaga erishushi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka ko'tarilishi inson va jamoatning o'z qo'slidadir.

U davlatni fozil va johil davlatlarga bo'ladi. Fazilatli shaharlar-da ilm, falsafa, axloq-ma'rifat birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim, deb biladi. Shunda jamiyat yetuklikka erishadi, deydi. Fozil shahar boshlig'i bilimli, haqiqatni sevuvchi, yolg'on va yolg'onchilarga nafarat bilan qarovchi, adolatni yaxshi ko'rvuchi va adolat uchun kurashuvchi bo'lishi kerak deb aytadi. Farobiy insonning kamoloti uchun xizmat qilgan, xayr – ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo'lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb hisoblaydi va kishilarni undan ogohlantiradi.

Farobiy hayotning oliy maqsadi baxt-saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni o'rganish, kasb-hunar va ilmlarni o'zlashtirish, ma'rifatli bo'lish orqali erishadi deb qaraydi.

Abu Nasr Farobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» kitobida inson takomilini to'rt bosqichga bo'ladi.

1. Ilk bosqichda inson qalbi guyoki o'rmon bo'lib, unda g'azab, yolg'on va jaholat hukmron bo'ladi.

2. Komillik yo'liga kirishga ahd qilgan insonda o'zini-o'zi anglashga qat'iy urinish ehtiyoji tug'iladi. Tinimsiz mehnat natijasida inson takomilining ikkinchi bosqichiga ko'tariladi. Bu davrda o'zini tiya bilish vaadolat kabi xususiyatlarni asosiy mezonga aylantiradi.

3. Inson takomilining uchinchi davri ijodiy davr hisoblanib, unda mustahkam bilim, e'tiqod, o'zgalarni tushunish ustuvor mavqe kasb etadi.

4. Inson komillik sari intilar ekan, o'z takomilining to'rtinchi davrida donolik, faylasuflik maqomiga erishadi. Bu davrda uning adolati va muhabbat ham mukammal darajaga yetadi. Muhimi, u nafaqat o'zini, balki boshqalarni ham baxt-saodat sari yetaklay oladi.

Abu Nasr Farobiyning fikricha, inson o'z-o'zidan baxtli bo'la olmaydi, u baxtli bo'lishi uchun jamiyat unga ma'naviy unsurlarni taqdim qilib berishi kerak. Buning uchun avvalo odamlarni axloqiy jihatdan fozillashtirish darkor. Demak, odamlarni fozillashtirish uchun quyidagilarni bilish lozim:

1. Kishini tuyg'u quvvati oziqlantiradi va tuyg'u xayol surishiga turki beradi.

2. Xayol tafakkurni hosil qiladi.

Kishilardagi eng birlamchi quvvat – tuyg'udir. Tuyg'usi o'lgan kishi axloqiy-ruhiy jihatdan rivojlanmaydi. Shu sababli Farobiy tuyg'u xayolning, xayol tafakkurning manbayi ekanligini uqtiradi. Odamlar o'z tuyg'ularini avaylashi kerak, bu bilan xayol surishga yo'l ochiladi, xayol tufayli fikrlash va anglash kelib chiqadi. Farobiy bu uch tuyg'udan tarbiyalashni uqtirgach, endi qalb va miyani tushuntiradi. Qalb badanning hech bir a'zosiga bo'ysunmaydi, miya ham shunday, lekin u faqat qalbga bo'ysunadi. Chunki qalb tuyg'ular, hislar va sezgilar makoni bo'lishi bilan insonning butun vujudini boshqaradi va miya ham undan quvvat oladi. Farobiy miyaning qalbga bo'ysunishini ta'kidlash bilan ma'naviy manba aqlida emas,

ruhiy tuyg‘ularda ekanligiga ishora qiladi. Demak, tuyg‘ularni tarbiyalash bilan ma’naviyat hosil qilish mumkin va bu hol axloqiy fazilatlarni o‘zlikda tarkib topishiga olib keladi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) – buyuk qomusiy olim va mashhur mutafakkir. U yaqin va O‘rta Sharqning boy fan va madaniyatini puxta o‘rganib, qadimgi Yunon mumtoz ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik alloma bo‘lib yetishdi. U shoir, adabiyotshunos ham edi. Ona tili bo‘lmish Xorazm tilidan tashqari yana arab, sug‘diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy hamda keyinchalik Hindistonda sanskrit tillarini o‘rgandi. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarida samarali ijod etib, 162 ta kitob va risolalar qoldirdi. Shulardan atigi 28 tasi bizgacha yetib kelgan.

Hozirgi paytda allomaning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya», «Ma’danshunoslik», «Mas’ud qonuni», «Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar», Ibn Sino bilan savol-javoblari nashr etilib, turli tillarga tarjima qilindi.

Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega. U astronomik kuzatishlar orqali oy va quyoshning tutilishi, ularning yerdagi hayotga ta’siri, gidrogeologiya, iqlim, kalender (taqvim), saqlanish kabi o‘ta murakkab muammolarni yangi ilg‘or uslub va tamoyillar ko‘magida hal etishga e’tibor qaratdi. Aholi manzilgohlari, ma’dan va metallar solishtirma og‘irligini belgilash, tibbiy va sun‘iy tanlanish g‘oyalari, olamlarning xilma-xilligi haqidagi bashoratlar, tajriba, sinov kuzatuvga izchil munosabat Beruniy dahosining serjilo qirralari bo‘lib, uning buyuk qomusiy olim va mashhur mutafakkir ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Beruniyning tabiiy-ilmiy yutuqlaridan biri shundanki, u Yerning markaz emasligini, uning quyosh atrofida harakat qilishi haqidagi gelotsentrik g‘oyani ilgari surdi. Beruniyning bu ilmiy xulosasi o‘scha davrdan 500 yil o‘tgandan keyin astronom Kopernik tomonidan ilmiy asosda tasdiqlandi.

Beruniyning mashhur «Hindiston» (Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi) asari 1030-yilda yozilgan. Bu asar G‘arb va Sharq olimlari tomonidan yuksak baholangan. Hindistonda sanskrit tilini puxta o‘rganish, uning hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o‘scha davr olimlari bilan yaqinlashishi bu mamlakat haqida o‘lmas asar yaratishiga imkon berdi.

«Hindiston» hajmi jihatdan juda katta asar. Hozirgi zamon Hindiston olimlari Beruniyning bu asarini hind madaniyati tarixini yoritish nuqtayi nazaridan juda yuqori baholaydilar va muhim manba deb biladilar. Tarixda Amerika qit'asini 1492-yilda dengiz sayyohi Xristafor Kolumb kashf qilganligi qayd qilingan. Ammo bu borada Beruniyning ilmiy farazi mayjudligi ham ma'lum. Olim o'zining «Hindiston» asarida yer yuzining tuzilishi, dengiz va quruqlik to'g'risida gapirib, arning choragi ma'muradir deydi. Ma'murani G'arb va Sharq tomondan muhit o'rabi turadi. Beruniy yevropalik olimlardan 450-yilcha oldin o'z asarlarida Amerika qit'asi haqida ham fikr yuritgan.

Beruniy birinchilardan bo'lib, Aristotelni fan sohasidagi xizmatlariga yuksak baho berishi bilan tanqidiy fikrlarni ham bildiradi. Beruniy Aristotelning «Tabiiy joy», «Dunyoning yagonaliyi», «Og'irlilik va yengillik» kabi tushunchalarini tanqid qiladi. Aristotelning «og'ir va yengil» degan tushunchasidan farqli ravishda Beruniy Ibn Sinoga yozgan e'tirozlarida hamma narsaning yer markazi tomon tortilishi haqidagi fikrini olg'a surdi. Bu tortilish kuchi haqidagi nazariyani ishlab chiqish yo'lida qo'yilgan muhim qadam edi. Beruniyning bu nazariy xulosalari XVII asr boshida ingлиз олими I.Nyuton kashf etgan «Olamning tortilish qonuni» bilan ilmiy jihatdan asoslandi.

Beruniy yoshlarni ilmga o'rgatish jarayonida aqlga va tajribadan o'tgan bilimga tayanish lozimligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda, bolalar bilishi va o'rganishi lozim bo'lgan fanlarni haqiqiy fanlar (til, adabiyot, falsafa, tarix, etnografiya, she'riyat, psixologiya, matematika, fizika, jug'rofiya, geodeziya, falakiyot, mineralogiya, tibbiyot)ga bo'ladi. Bu fanlarning har biriga o'z davrigacha bo'lgan bilimlarni umumlashtirib, o'zining yangi xulosalari bilan katta hissa qo'shdi. Jumladan, Beruniy umuman til, til ilmi haqida gapirib, til kishilar o'rtasidagi aloqa va fikr almashuvi vositasigina emas, balki til ilmi barcha fanlarning asosini o'rganish kaliti deyiladi.

Beruniy o'z davrining eng ko'zga ko'ringan ilm-fan homiysi edi. U mamlakat ravnaqini fan, ma'rifat rivojida ko'rgan. Ilm-fan, ma'rifat saxovat xizmatini o'tashi mumkin deb hisoblagan. U shunday yozadi: «Mening butun fikri-yodim, qalbim – bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo'ldim. Buni men o'zim uchun katta baxt deb hisoblayman.

Insonning eng oliy fazilati boshqalar haqida, ayniqsa, yoshlari haqida g‘amxo‘rlik qilishdan iboratdir. Beruniy doimo xalqlarning do‘stligi, inoq, ittifoq bo‘lib yashashi uchun kurashib keldi. Beruniy insoniyat va u tomonidan yaratilgan madaniyatga qirg‘in keltiruvchi urushlarni qoraladi. Olim madaniy hamkorlik va ilm-ma’rifatning keng tarqalishiga katta e’tibor bergen allomadir.¹

Markaziy Osiyoda Uyg‘onish davrining eng mashhur mutafakkiri Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh Ibn Sino (980-1037yy.) falsafa, tabobat, tabiatshunoslik, falakiyat, tilshunoslik, mantiq, adabiyot, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, fiqh, musiqa kabi fan sohalariiga bag‘ishlab 450 dan ziyod yozgan asarlari bilan jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shtigan va o‘z davrida «Shayx ar-rais» («Donishmandlar sardori, allomalar boshlig‘i») unvoni bilan taqdirlangan.

Olimning falsafaga oid asarlarining eng yirigi «Kitob ash-shifo» bo‘lib, mantiq, fizika, matematika, metafizika va ilohiyot qismlarini o‘z ichiga oladi. Mantiqning o‘zi 9 kitob, fizika 8 kitob, matematika 4 kitob, ilohiyot 1 kitob, jami 22 ta kitobdan iborat. «Kitob an-nojat», «Ash-shifo»ning qisqartirilgan turi bo‘lib, tabiat, ilohiyot, riyoziyot qismlaridan iboratdir. «Donishnama» ham mantiq, ilohiyot, tabiat, geometriya, astronomiya, arifmetika, musiqa kabi qismlardan iborat. Salomon va Isbol» falsafiy asar. Ibn Sino bilan Beruniyning yozishmalari fizika va falsafaga oid 18 ta maktubdan iborat. Ibn Sinoning maktublariga Beruniyning e’tirozlari nomli risola ham chop etilgan.

Ibn Sino falsafada Aristotel ta’limoti izidan borib, Farobi g‘oyalarini yanada kamolotga erishtirdi. Faylasuf Sharq allomalariga xos bo‘lgan xususiyat, ya’ni axloq, odob, inson psixologiyasining kamolotiga alohida ahamiyat beradi.

Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida talqin etilgan ta’limtarbiya xususidagi fikrlar g‘oyat muhim. U bola tarbiyasini bola tug‘ilmasdan, u ona qornidaligidanoq boshlash masalasiga alohida e’tibor beradi. Uning fikricha, bola tug‘ilganidan boshlab esa oyoqqa turguncha ma’lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim. Bu tartib o‘z vaqtida ovqatlantirish, cho‘miltirish, yo‘rgaklash, uxlatish kabi muayyan tartib va qoidalardan iborat. Bola tabiatini mustahkamlashdagi muhim vositalar alla aytib asta-sekin tebratish, musiqa eshittirish, ashula aytishdan iborat.

¹ С.Отамуродов ва бошқалар. «Маънавият асослари» ўқув кўлланма. Т., «Мерос», 2002 1116ғ.

Alla aytib tebratish uning tanasiga, musiqa uning ruhiyatiga orom baxsh etadi, bunda bola yaxshi uxlaydi.

Umuman, ibn Sino yosh bola tarbiyasini turli sharoitda muayyan izchillik va tartib bilan olib borish haqida yosh onalarga juda yaxshi maslahatlar beradi:

«Bolaga do‘q qilma, gapirma, bo‘lma qo‘pol, uyqu qochar, qo‘rqrar, axir bo‘lur battol, yumshoq beshik bo‘lsin o‘rni uxlaganda, qarong‘uliq tushub tursin misli tunday... Uyg‘oq chog‘i yorug‘likdan ayirmagil, yulduz – samo ko‘rsun bola shodlanur dil. Rang-tuslarni ko‘rsat unga turli-tuman, kunduz kuni, etmoq ersang ko‘zni ravshan. Gar istasang, o‘rgatmoqqa so‘zu kalom, erkalatib ovoz chiqar har xil muqom». ¹

Zero, bolalarning o‘spirinlikka o‘tish davri tarbiyasi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, bu davrda ularda xulq-atvor shakllanadi. Ibn Sino nazarida, «Bola xulqini mo‘tadillikda saqlashga alohida e‘tibor berish kerak. Bundan ikki manfaat bor. Biri bolaning ruhi uchun bo‘lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo‘lib o‘sadi va keyinchalik bu unga ayrilmas malaka bo‘lib qoladi.

Ikkinchisi uning badani uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo‘ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g‘azab kuchni qizdiradi, qayg‘u kuchni quritadi...».²

Ibn Sino bolaning kamolotga erishishining birinchi mezoni hisoblangan ilmu ma‘rifatni egallashga da‘vat etar ekan, ilmu ma‘rafat insonni ma‘naviy yuksaklikka ko‘taradi va jamiyat ravnaqining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi, deydi.

IX-XII asrlar ma‘naviyati va ma‘rifati rivojiga Yusuf Xos Hojib ham katta hissa qo‘shgan. Alloma yagona dostoni bo‘lmish «Qutadg‘u bilig («Baxtga eltuvchi bilim») bilan mashhurdir. Bu asar 1069-yilda yozilgan bo‘lib, shu asari uchun unga Xos Xojib, ya’ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi unvoni berilgan. Doston qahramonlari – hokim Kuntug‘di adolat ramzi, vazir – Oyo‘ldi baxt ramzi sifatida, vazirning o‘g‘li Uchdo‘lmish aql ramzi sifatida tasvirlanadi.

¹ Н.Атаева ва бошқалар. «Умумий педагогика» Т., «Фан ва технология» 2011. 234 бет.

² Ўша жой.

Mutafakkir inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan muloqatda va foydali mehnatda chinakam kamolga yetadi, degan g'oyani ilgari suradi. Insonga foya keltirmaydigan inson – o'likdir, deb ta'kidlaydi. Jamiyatda mehnat ahli – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb uqtiradi. Shuning uchun Yusuf Xos Hojib hukmdorga adolatli bo'lish, o'zboshimchalik va qonunbuzarlikka yo'l qo'ymaslikni maslahat beradi.

Yusuf Xos Hojibning fikricha, odim kimligidan qat'iy nazar, inson bo'lishi lozim, chunki dunyoda faqat insoniylikkina abadul-abad qoladi. Shu sababli o'z nomini hamisha yaxshilik bilan eslashni istagan kishi faqat yaxshilik qilishi lozim. U shunday yozadi: «Kimning odobi yaxshi va axloqi to'g'ri bo'lsa, u kishi maqsadga yetadi va baxt unga kulib boqadi», chunki «yaxshi axloq jamiki yaxshiliklarning zaminidir».

Mutafakkir ilm va ma'rifatni jamiyatning taraqqiyotiga, gullab-yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashga da'vat etadi. U kishini zulmat ichidagi uyg'a, bilimni esa ana shu uyni nurafshon etuvchi mash'alaga o'xshatadi. Shoир kishilarni so'zlaganda o'ylab gapirishga chaqiradi. So'zingga ehtiyyot bo'l, boshing ketmasin, tilingga ehtiyyot bo'l, tishing sinmasin. Ma'nodor so'z donolik alomati, be'mani so'z mahmadanagarchilik, axmoqlikdir. Shu boisdan odam ko'proq eshtibib, kam gapirishi kerak, deb aytadi.

Yusuf Xos Hojib shuningdek, insonning tashqi qiyofasi uning ichki ma'naviy dunyosiga mos bo'lishiga katta ahamiyat beradi. Mutaffakir yolg'onchi, munofiq kishilar jamiyat uchun zararli, bunday kishilardan uzoq bo'lishi kerak, deydi. Shunday qilib, XI asrda yashab, ijod qilgan Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarida ma'rifatparvarlik, yuksak axloqiy g'oyalarni ilgari suradi. Bu asar katta ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Biz o'rganayotgan davrda axloqiy-didaktik mavzuda asar yaratgan va shuhrat qozongan shoир Ahmad Yugnakiydir. U XII asr oxiri va XIII asrning birinchi yarmida yashab, ijod qilgan. Undan bizgacha «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar tuhfasi») asari yetib kelgan. U o'z asarida dunyoning bevafoligi, o'tkinchiligi haqidu gapirib: dunyo go'yo karvon, faqat ozgina to'xtab o'tiladigan rabot (karvonsaroy). Shu sababli, deb ta'kidlaydi u, bu dunyodagi rohat-farog'atga intilish befoyda, uni deb azob-ujibat chekishga arzimaydi,

chunki «sen bugun ko'rib turgan boylik ertaga g'oyib bo'ladi, sen o'zimni deb bilgan buyumlar boshqalarga qolib ketadi shuning uchun yaxshilik urug'ini sepish uchungina yashash kerak» deb uqtiradi. U bilimli, ma'rifatli kishilarni yetuk kishilar deb hisoblaydi. Inson bilan bilimni ajratib bo'lmaydi, faqat bilimli kishigina kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Uning fikricha, inson olim bo'lgandan keyingina ulug'lik darajasiga ko'tarildi va yaxshi nom qoldiradi. Bilimsiz kishi sog'lom bo'lsa ham u o'likdir. Bilim inson uchun bitmas-tugalmas mulkdir deb ta'kidlaydi. Shoir, axloq-odobga alohida e'tibor beradi. Bunda asosiy narsa tildir. Til baxtiyorlik va baxtsizlikning sababidir, deb uqtiradi. Shu bilan birga, olim halollik va haqgo'ylik, saxiylik inson uchun fazilat, unga intilish kerak, deya xasislik va badf'ellikni qoralaydi. Kamsuqumlik va kamtarlik insonni ulug'laydi, deb ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, IX-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda ilm, fan va ma'rifat yuqori darajada rivojlangan. Ularning zamirida avlod-ajdodlarimizning yuksak darajadagi ma'naviyatga ega ekanligi turadi. Buyuk allomalarimiz tomonidan amalga oshirilgan ulkan ishlar jahon sivilizatsiyasining yutug'i sifatida barcha xalqlarga xizmat qilib kelmoqda. Bu, o'z navbatida, har bir o'zbek farzandida g'urur uyg'otadi va bu ma'naiy boyliklarni chuqur o'zlashtirishga intilishini kuchaytirib boraveradi.

7-mavzu. Islom dinida ma'naviyat va shaxs ma'naviy qiyofasining talqini

7.1. Din – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi

Islom dini ko‘p xalqlar orasida keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu dinga e’tiqod etuvchilar – musulmonlar jahonda 1mlrd. 700 milliondan ko‘proq kishini tashkil etadi.

Islom dini Arabiston yarim orolida VI asrning oxiri va VII asrning boshlarida paydo bo‘lgan. Uning asoschisi payg‘ambar Muhammad alayhissalom (570-632) Makkada Quraysh qabilasiga mansub Hoshimiylar xonadonida tug‘ilgan. U 609-610-yillarda Makkada yakka xudoga e’tiqod qilish to‘g‘risida targ‘ibot boshlagan. Ammo, zodagonlarning qarshiligiga uchragach, 622-yilda o‘z tarafдорлари bilan Madinaga ko‘chadi. Shu yildan musulmonlarning hijriy-yil hisobi boshlanadi.

630-yilga kelib, Makka ham musulmonlar qo‘liga o‘tadi va musulmon davlati shakllanadi. Muhammad alayhissalom vafotidan keyin, bu davlatni uning o‘rinbosarlari, ya’ni noiblari (xalifalar) boshqaradilar. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda «Arab xalifaligi» deb nom olgan. Dastlab, arab xalifaligi katta hududlarni egallagan edi. O‘rta Osiyo yerlari – Mavarounnahr VII asr boshlaridan VIII asr o‘rtalarigacha arablar tomonidan istilo qilinib, ular bilan birga islom dini kirib keldi. Ana shu davrdan boshlab Markaziy Osiyoda islom mintaqasi madaniyati, ma’naviyati va ma’rifati o‘ziga xos ravishda shakllandı va taraqqiyot bosqichini boshidan kechirdi.

Islom diniy ta’limotining asoslari – Qur’oni Karim va Hadis to‘plamlarida, shuningdek, VIII-XII asrlar davomida vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o‘z ifodasini topgan.

Qur’oni Karim ilohiy kitob bo‘lib, u farishta Jabroil alayhissalom tomonidan Muhammad alayhissalomga nozil etilgan. Bu muqaddas kitob yer yuzi musulmonlarining dasturulamali, diniy

ahkomlar manbayidir. Qur'oni Karim sahifalarini bir kitobga jamlash xalifa Abu Bakr davrida boshlanib, xalifa hazrati Usmon davrida yakunlangan va keyinchalik besh nusxada ko'chirilgan. Ana shu ko'chirilgan dastlabki nusxdadan biri Movarounnahr musulmonlari diniy idorasida saqlanmoqda. Bunday muqaddas kitobning yuritimirizda bo'lishi Ollohnning bizning yurtimizga bo'lgan inoyati deb bilmoq lozim.

Ilohiyotda islom dini uch ko'rinishdan – iymon, islom, ehsondan iborat, deb e'tirof etiladi.

Hadislar islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba. Hadislar to'plami sunnat deb ataladi. Hadisi shariflarda Muhammad alayhissalomning so'zлari, qilgan ish faoliyatları va sahabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari bayon etilgan.

Hadisi shariflarni yig'ib, kitob shakliga keltirish, asosan payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning vafotidan keyin amalga oshirilgan.

Bu sharaflı ish hijratning III asriga kelib keng quloch yozdi va u hadisshunoslikning oltin davri deb ataladi. Islom olamining o'sha davridagi madaniy markazlaridan sanalgan Bag'dod, Kufa, Basra, Damashq, Buxoro, Samarcand, Urganch, Termiz kabi shaharlarda hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi muhaddislar ko'p bo'lgan. Ular ichida eng ishonchli sanalganlari oltita bo'lib bularni imom Buxoriy, imom Abu Muslim, imom Abu Davud, imom At-Termizi, imom An-Nasaviy va imom ibn Mojollar tuzishgan. Bu buyuk muhaddislarning to'rt nafari turonzaminlik bo'lgani bizning faxrimizdir.

Mustaqil O'zbekistonda shu munosabat bilan xalqaro anjuman o'tkazildi. Muhaddislik shu qadar sharaflı va sermashaqqat ish bo'lganki, u muhaddisdan aql-zakovatni, kuch-quvvat, fidoiylik, yuksak iqtidor va hofizani talab qiladi. Masalan, imom Buxoriy jami 600 ming hadis to'plab, shulardan 100 ming «Sahih» va 200 ming «G'ayri sahih» hadislarni yod bilganliklari aytildi.

Islomda axloqiy-huquqiy qonun-qoidalar – Majmuyi shariat XI-XII asrlarda to'la shakllangan. Shariat qonun-qoidalari Qur'on va sunnat asosida ishlab chiqilgan. Unda musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, huquqiy va axloqiy hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar belgilab berilgan. Bunday tartib-qoidalari «Hidoya», «Viqoya», «Muxtasari hidoya», «Muxtasari viqoya» nomli kitoblarda

jamlangan. Shariatda qonunlar muqaddas hisoblanib, unga har bir mo'min-musulmon ijtimoiy holatidan qat'iy nazar Allohning bandasi sifatida birday amal qilishi talab etiladi.

Buyuk ajdodlarimiz ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lar ekanlar, ilmga asoslanmagan amal Alloh huzurida ma'qul emas degan udumga riousha qilganlar. Shu tamoyilga vijdonan va halollik bilan riousha qilib, jahon mutafakkirlari qatoridan munosib o'rinni olishdi. Ular uchun Qur'oni Karimning: «Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'la oladimi»? Bu bilan Alloh taolo biladiganlarning martabasi balandroq ekanini ta'kidlaydi. Tangri taolo Toho surasining 114-oyatida Payg'ambarimizga: «Ey rabbim, menga ilmni ziyoda qilgin!», deb so'raydi. Dunyoda ilmdan boshqa ziyoda narsa bo'lganida, Alloh taolo Payg'ambarimizga, ilmimni ziyoda qil» deb so'rashni buyurmasdi. Ilm egallagan kishi ikki dunyo saodatiga erishadi. Rasululloh s.a.v. o'z hadislaridan birida shunday deganlar: «Alloh taolo kimgaki yaxshilikni ravvo ko'rsa, uni din ilmini tushunadigan qiladi».

Haqiqiy ilm shunday ilmki, u kishida Allohdan qo'rqish hissini vujudga keltiradi. Johil kishi esa go'zal axloqlardan bebahra bo'lib, halol va haromning farqiga bormaydi. Johil odamlardan har qanday yomonlik kutish mumkin bo'lganidek, ular jinoyatning ham manbayi, sababchisi bo'ladilar. Aksincha, Allohdan qo'rquvchi kishilar esa chinakam ulamolardir. Fotir surasining (28-oyati bunga dalildir): «Allohdan bandalari orasidagi olim - bilimdonlarigina qo'rqr» . Bu ahli ilm egalari va ahllariga berilgan yuksak bahodir. Rasululloh s.a.v. o'z hadislaridan birida bunday deganlar: «Olimning obiddan afzalligi to'lin oyning yulduzlardan ortiqligiga o'xshaydi». Demak, olim kishilar obidlarga nur, ziyo beruvchilardir.

Darhaqiqat, olimlar inson ruhini va e'tiqodini tarbiya etuvchi kishilardir. Luqmoni Hakim o'z o'g'illariga nasihat qilib: «Ey o'g'lim, suhbat qurmoqchi bo'lsang, ulamolar bilan qurgin, ularning suhbatidan qolma. Zero, Alloh taolo yerni yomg'ir suvi bilan tiriltirganidek, insonlarning qalblarini hikmat nuri bilan tiriltiradi» deganlar. Ilmning qadri Alloh va uning Rasuli oldida ulug' bo'lganligi uchun Payg'ambarimiz ummatlarining barchasini olim bo'lishga da'vat etganlar: «Ilm talab qilmoq har bir erkak va ayol musulmonlar uchun farzdir». Boshqa bir hadisi sharifda esa ilm istashning chegaralanmaganligini qayd etib, bunday deganlar: «Ily mo'minlar, beshikdan to qabrgacha ilm talab qilinglar». Ilmga jiddu jahd qilgan insonlar qancha ko'p o'qisa, u o'zidagi bilim dengizidan

tomchi ekanligini his qila boradi. Aksincha, oz ilmdan xabardor bo'lib, uning bilan chegaralanib qolgan odamlarda o'zini bilimdon qilib ko'rsatish, gerdayish kabi salbiy illatlar mavjud bo'jadi, ular o'zlarini boshqalardan dono his qiladilar.

Islomda har bir harakat odob va axloq normalariga bo'ysun-dirilgan. U izchil targ'ibot va tashviqot asosiga qurilgan. Natijada har bir musulmon e'tiqodda mustahkam, irodali inson sifatida sobit bo'lib yetishgan.

Islomiy ma'naviyat insonning komil darajaga yetishishini ta'minlaydigan mukammal axloqiy tamoyillar tizimini yaratdiki, bular hayotda, kundalik turmushda g'oyat zarur madaniy-ruhiy ehtiyojlarni qondira olish xususiyatiga ega. Islomda muomala odobiga juda katta e'tibor berilgan. Negaki tinchlik, osoyishtalik hukm surishi va ta'minlanishida muomalani to'g'ri olib borish muhim ahamiyatga ega. O'zaro muomalani to'g'ri yo'lga qo'ymasdan eng kichik bir ishni amalga oshirib bo'lmasligi ayon. Binobarin muomala madaniyatining oilada, ahli jamoada, jamiyatda to'g'ri yuritilishi yutuqlar garovi, taraqqiyot manbayidir. Islomning o'zaro munosabatlardagi talablariдан biri bu xushxulqli bo'lishdir. Bu to'g'rida Payg'ambarimiz shunday deganlar: «Kimgaki yumshoqlik nasibasi berilgan bo'lsa, u kishiga dunyo va oxirat yaxshiligidan iborat nasiba berilgandir». Darhaqiqat shirinso'z, axloq-odobi go'zal insonga hamma ta'lpinadi, aksincha dag'al, qo'pol xatti-harakatli odamdan hamma uzoqlashadi. Shu bois Payg'ambarimiz s.a.v. o'z ummatlarini ko'rkm xulqli bo'lishga chaqirib, shunday deganlar: «Qiyomat kunida mo'min bandaning barcha amallari taroziga qo'yilganda eng tosh bosadigan amali yaxshi xulqidir. Alloh taolo sharmsiz, behayo so'z qiluvchilarni o'ziga do'st tutmas».

Yaxshi xulq insonlarga ziynat beradigan libos bo'lsa, hayo uning bezagidir. Imom Termiziyy sahoba Abu Hurayradan rivoyat qilgan bir hadisda shunday deyishadi: «Hayo iymondandir, iymon, ya'ni iymon ahli jannatdadur. Behayolik jafodandur, ahdiga vafo qilmaydigan ahdi jafo do'zaxdandur».

Inson hayotining negizi va manbayi tinchlikka assoslangan. Agar, insoniyat hayotidan tinchlik yuz o'girib, xavf-xatar, urush, talash maydoniga tortilsa, o'sha hududda osoyishtalik buzilib, rivojlanish va taraqqiyot so'na boradi.

Islom dinida umumbashariy manfaatlarni himoya qilish faqat musulmonlar inoqligi emas, balki boshqa dinlar, g'ayridinlar ahlini

ham inoqlik, hamjihatlikka chorlaydigan oyati karimalar ham mavjud. Islom ta'limoti bag'ri kenglik, osoyishta bo'lib yashashni targ'ib qilishda ham ezgu g'oyalarni o'zida mujassam qila olgan. Bu islam dinining tinchlik va chinakam birodarlik dini ekanligidan dalolat beradi. Unda millatchilik, milliy ayirmachilik xususiyati yo'q va undan tamomila yiroqdir.

Nikohga asoslangan oilaning bashariyat tarixida paydo bo'lishi bilan odamzod hayotiga ma'naviyat muhri bosilib, boshqa jonzotlarning hayotidan tubdan farqlanadigan xususiyatga ega turmush tarzi kashf etildi, oilaviy shajara vujudga keldi. Bashariyat oilaviy munosabatlarga tortilib, uning ijtimoiylashuvi boshlandi. Oilaning ijtimoiy va madaniylashuvi moddiy hayot ehtiyojlari bilan yonma-yon ma'naviy ehtiyojlari bo'lishini zaruratga aylantirdi. Bular ko'p qirrali masalalar bo'lib, oila axloqi, oila tarbiyasi, oila ruhiyati, oila huquqi, mulkiy huquq kabi ijtimoiy organizmning vujudga kelishini ta'minladi. Oilada ma'naviy hayotning mustahkam asoslari yaratilishi, mustahkam jamiyat, xalq vujudga kelishida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shu tariqa oila taraqqiyoti jamiyat va davlatning paydo bo'lishi, rivojlanishida katta o'rinn tutdi. Uning zamirida jamiyat va davlat ma'naviy hayoti kurtak yozdi. Islom dini inson ma'naviy hayotining muhim negizi bo'lgan uylanish, oila, ya'ni naslni davom ettirish, pokiza oila, sadoqatli oilaviy munosabatlarga alohida e'tiborini qaratdi. Uning asosini juft bo'lib yashash, ya'ni uylanish, unga qo'yilgan axloqiy talablarda Quronni Karim va Hadisi sharif hamma narsani faqat hazrati inson manfaatlariga qaratdi. Shu bilan islam insoniyat tarixida oila qurish, shuningdek, uylanishning axloqiy poydevoriga tayangan tamoyillarini yaratdi, «sharqona oila» sharqona ma'naviy pokiza turmush tarzi tushunchalari, atamalari uyg'unlashib, umumbashariy qadriyatga aylandi. Hozirga qadar bu sifatlar mujassamlashib, bizning oilaviy turmush tarzimizni axloqiy go'zallik bilan boyituvchi sarchashma manbayiga aylanib ulgurganidadir. Bu ijobiy xususiyatlar milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketganligi ham shundandir.

Oilaning mustahkam bo'lishi jamiyatning, qolaversa davlatning mustahkam bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Oila, jamiyat va davlat ijtimoiy hayotning asosiy zanjiri va halqasidir. U zanjirning mustahkamligi ortib borishi jamiyat osoyishtaligi va farovonligi garovidir.

Oilaning ma’naviy hayoti tobora va tinimsiz boyib, sayqal topib borishidan butun bir xalq va millat, qolaversa, jamiyat manfaatdordir. Buni islom dini alohida diqqat markazida tutdi. Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. «Nikoh (uylanish) mening sunnatim, kim undan yuz o‘girsa mening ummatim emas», deb marhamat qilganlar.

Bugungi kunda yosh oilalarning vujudga kelishida milliy tarbiyani kuchaytirish oilalarda zaiflashgan, avvalda hayotning og‘ir sinovlaridan asrlar davomida muvaffaqiyatli o‘tgan milliy qadriyat-larni tiklash, hayotimiz mazmuniga singdirish bilan mustahkam oila, iymon asosiga qurilgan, odob poydevori bilan ihotalangan sharqona oilamizni bunyod etish lozim.

Buning uchun islomiy udumlarimiz va hodisalarimizning oila ma’naviy hayotida o‘rin tutishi, mohiyatini to‘laroq anglash, ularning oila muhitiga ijobiy ta’sirini his qilish darkor. Ularga amal qilish tufayli insonlar havas qiladigan oila muhiti va munosabatlari vujudga kelishiga shubha yo‘q. Chunki uning yo‘riqlari g‘oyat hayotiyligi, insonlar manfaati va jamiyat manfaatlariga mosligi bilan alohida qimmatga ega. ularning o‘rnini hech bir narsa bosmaydi va to‘ldira olmaydi. Juda ko‘p voqeа va hodisalarning yakuni ijobiy yoki salbiy hal bo‘lishi, bu muomalaning qanday darajada olib borilishiga bog‘liq.

Oilaning muqaddasligi, uni asrash mas’uliyati burch bilan bog‘lanib ketadi, kelin-kuyovning qo‘sha qarishini el-ulus yaratgandan so‘rab minglab qo‘llar duoga qo‘l ochadi. Ana shu duolarning ijobat bo‘lishini ta’minlaydigan muhim talablardan biri bu eru xotinlar o‘rtasidagi muomala va oiladagi axloqiy munosabatlarning izchil tarzda davomiyligini ta’minalashga erishishdir. Negaki, «Bir kun janjal bo‘lgan joydan qirq kun baraka ketadi», degan xalqimizning hikmatli maqoli bejiz aytilmagan.

Er-xotin, kelin-kuyov o‘rtalaridagi muomala va oilaviy munosabatlarning muhim ahamiyati Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. hadislarida keltirilishi ham shundan. Ya’ni «Mo‘minlarning ichida iymoni komilrog‘i axloq-odobi chiroyli bo‘lganidir. Sizlarning ichingizda ahli ayoliga yaxshi muomalada bo‘lganlaringiz eng afzallaringizdir», deya marhamat qilganlar (Termiziy rivoyati).

Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda ko‘chada yurish odobiga muhim o‘rin ajratilganki, agar hozirgi yoshlar bu hikmatlar bilan

tanishib, unga ma'lum darajada amal qiladigan bo'lsalar, jamiyatimizning ma'naviy poklanishiga o'z hissalarini qo'shgan bo'lur edi. Yuqoridagilardan islam dini inson ma'naviy olami yuksalishi yo'lida naqadar katta imkoniyatlar xazinasi ekanligini anglash mumkin.

7.2. Tasavvuf va uning ma'naviy jihatlari

Sharq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib, ma'anaviyatimiz va ma'rifatimizga chuqur ta'sir o'tkazgan tasavvuf (so'fiylik) ta'limoti VIII asr o'rtalarida paydo bo'lган. Dastlab u zohidlik (tarkidunyochilik bu dunyo huzur-havasidan voz kechish) harakati ko'rinishida bo'lib, Bag'dod, Basra, Kufa, Damashq shaharlarida keng yoyilgan.

Tasavvuf so'zi «so'fiy» so'zidan, «so'fiy» so'zi esa arabcha «so'f» so'zidan yasalgan. Jundan bo'lган matoni arablar so'f deb ataydilar. Dastlabki davrlarda so'fiylik yo'lini tutgan kishilar, boshqa oddiy kishilardan ajralib turish uchun jundan tikilgan chakmon (u hirqa deb ham atalgan) yoki po'stin qiyib yurishni odat qilganlar. Shuning uchun ularni jun chakmoq kiyib yuruvchilar, ya'ni so'fiylar deb ataganlar. So'fiy boshqa odamlardan o'zini pok va g'aribona turmush kechirishi, doimiy toat-ibodatda bo'lishi va faqat ilohiy ruhga qo'shilishni maqsad qilib qo'yishi bilan ajralib turadi. Hamma narsadan voz kechish, oxir-oqibatda o'zlikdan kechish – so'fiylik ta'limotining ma'nosi shu. Buyuk so'fiy Boyazid Bistomiy aytadilarki: O'zingdan o'tding, Allohga yetding.

Ulug' tarixiy burilishlar mafkurasini belgilagan jahoniy dinlar insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yangi ma'naviy-ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojga javob tariqasida paydo bo'lganligi sababli madaniy-ma'naviy hayotning hamma sohasini qamrab olib, ijodiy ko'tarilish, tasavvurlar olami, aqliy va badiiy davomat tarziga ta'sir etib keldi. «Mafkuraviy demokratiya»ga izn bergani, inson qalbi va ruhiyatini nishonga olib, jaholat va xudbinlikka qarshi maydonga chiqqani, axloqiy poklikni targ'ib etgani sababli tasavvuf mohiyatan ilmu ijod ahliga yaqin edi.

Tasavvuf, garchi islam dini bag'rida nish urib, Qur'on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko'p hollarda shariat ahkomiga suyangan bo'lsada, u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaasiblik hamda hokim

tabaqalarning turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o'laroq mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keldi. Ushbu ta'limotning el orasida yoyilib, fikriy yangilanishlarga qanoat bergani, haq va haqiqatga tashna ziyolilar yuragini band etganiga sabab shu. Qolaversa, tasavvufning ayni shahar hunarmandlari, qadimdan madaniyati rivojlanib kelgan ilm-ma'rifat markazlarida taraqqiy etgani ham bejiz emas.

Bu o'rinda tasavvufning futuvvat bilan qo'shilib ketishi hodisasini ham qayd etib o'tmoq joiz. Futuvvat (javonmardlik) ahli o'z hayotlarini do'st-birodarlar, yaqin kishilarining hojatini chiqarish, muhtojlarga moddiy va ma'naviy yordam berishga baxshida etgan odamlar bo'lib, aksar oddiy xalq ichidan yetishib chiqqan hunarmandlar, olimu san'atkorlar edi. Ular orasida sipohiylar, nom chiqargan pahlavonlar bo'lib, shaxsiy hayotida halol yashash, zohiran va botinan pok bo'lish uchun intilganlar; yashirin jamiyatlar tuzib, bir-birlarining manfaatlarini himoya etganlar, uyushib tashqi dushmanlarga qarshi kurashganlar.

Chunonchi, Sarbadorlar va Sharqdagi boshqa ko'plab ozodlik harakati namoyondalari javonmardlar edilar. Ular tasavvufni nazariy ta'limot, maslak sifatida qabul qildilar, o'z navbatida, ko'pgina shayxlar futuvvat qoidalarini tariqatga singdirib yubordilar. Shu tariqa, tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va madaniy hayotiga chuqur kirib bordi; fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobji ta'sir ko'rsatdi.

XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g'oyalaridan ruhlanganlar. Shuni nazarda tutib, atoqli olim E.E. Bertels o'tgan asrning boshidayoq qayd etgan edi: «Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan turib, O'rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo'lmadan Sharqning o'zini ham anglash qiyin».¹

Buning boisi shuki, tasavvuf haqiqiy ma'noda insonparvarlik ta'limoti hisoblanadi. Insonning kamoloti, ruhiy-ma'naviy yuksalishi uchun qayg'urib kelgan gumanistik ta'limotlar rivojiga bizning vatandoshlarimizning hissasi beqiyos. Prezidentimiz Islom Karimov

¹ Бертельс Е.Э Суфизм и суфийская литература. М., «Наука» 1995. с.54

ta'kidlaganidek, islom ma'rifati va madaniyati rivoji haqida gap borganda biz «Mana shu qutlug' zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom dunyosi cheksiz ehtirom bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Zamaxshariy kabi piri komillarimizni nazarda tutamiz. Ma'naviy hayotimizni mana shu ulug' nomlar bilan bog'laymiz. Biz bu mutafakkirlarimizning qutlug' merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga ularning mana shunday ma'naviy muhitda kamol topishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g'o-yalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqdamiz. Boshqacha aytganda, biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziyy o'gitlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz».¹

Darhaqiqat, qayd etish zarurki, istiqlol yillarda bu sohada ham ancha ishlar amalga oshirildi: tasavvufga oid nodir manbalar o'rganildi, nashr etildi. Kubroviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlarining shakllanish jarayoni, tarixiy rolining bugungi ma'naviyatimiz uchun ahamiyati ochib berildi.

Tasavvufiy allomalari g'ayb ilmi – ilmi hikmat egalari bo'lib, ko'pchilik insonlar jilovlashni uddasidan chiga olmaydigan nafsni jilovlashdek murakkab va mashaqqatli ishning uddasidan chiga olganlar. So'fizm ulug'lari haqqa pokizalik yo'lidan borib xizmat qilish bilan birga, xalqqa, avomga, miskingga borlig'i bilan, biron manfaat, ayniqsa, moddiy manfaat yoki ta'magirlikdan yiroq saxiylik bilan xizmat qilganlar. Shu xususiyatlar bilan ularning bosib o'tgan yo'li ibrat, tarbiya maktabiga aylanib, ular oxir-oqibat hukmdorlarning ko'pchiligi qaysidir yirik tasavvufiy alloma etagini tutib, piru murshidlarga aylangan. O'rta Osiyo, Eron, Xalifalik, Kichik Osiyo hukmdorlarining siyosiy tarixida bunga juda ko'plab misollar mavjud. Chunonchi, Xorazmshohlar Najmiddin Kubroga, Temur va temuriylar Mirsayid Baraka va Mirsayid Kulol, keyinchalik Bahouddin Naqshband va Xo'ja Ahror Valiy hazratlariga, Shayboniyalar Jo'ybor xo'jalariga, Ashtarkoniylar Maxdumi A'zam va uning vorislariiga

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Асарлар тўплами 7 жилд 1. Узбекистон, 1999. 352-353-бетлар.

xuddi shunday munosabat bildirgan edilar. Xuddi shu yaqinlashuv xalq bilan hukmdorlar o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashuvi va murakkablashuviga yo'l qo'yagan. Chunki So'fiy arboblar asosan xalq tomonida turib, muammo yechimini topishga jur'at qiluvchi, shu yo'lida hayotini garovga qo'yishga tayyor shaxslar bo'lgan. Bu jamiyatda hukmron tabaqalar bilan avom o'rtasidagi muvozanatning ijobiy holatda saqlanib turishida katta o'rin tutdi. Shuning o'ziyoq tasavvufiy ta'limot, avvalo, xalqchil bo'lgani, komil inson muammosini hal etish yo'lida katta va mashaqqatli dovon sari shiddatli ilgarilab, insoniylik ilmi darajasiga ko'tarilganligining yaqqol dalili ekanligidan darak beradi.

Tasavvuf ta'limoti o'zining rivojlanish va taraqqiyot xususiyatlarga qarab turli yo'nalishlarda, oqimlarga bo'linib faoliyat ko'rsatdi. Hududiy doirasi kengayishda davom etdi. Turli hududdagi xalqlar, el-uluslar ma'naviy ehtiyojini qondiruvchi omilga aylandi.

Shulardan biri yassaviylik tariqati (Yassaviy) bo'lib, unga turkiy xalqlarining shayx-ul mashoyixi, buyuk so'fiysi Xoja Ahmad Yassaviy asos solgan. Ushbu so'fiylik maktabi Turkiston hududi aholisi orasida mashhur bo'lib, ushbu hudud turkiy xalqlari ma'naviy hayotida qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lganligi ko'plab yirik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etildi. Shulardan biri Muhammad Fuod Ko'prulzoda o'zining mutasavvuflar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqoti «Turk-adabiyotida ilk mutasavvuflar» nomli asarida birinchilardan bo'lib Yassaviy tariqatining mazkur hududlar xalqi ma'naviy hayotida tutgan o'rni, ahamiyatini ta'kidlab o'tgan.

Uning ma'lumotiga ko'ra yassaviylik tariqatining asosiy g'oyasi haqiqiy so'fiy bo'lishni maqsad qilgan inson riyoza va mujohadga berilib, hayot nozu ne'matlaridan, halovat, shahvat va ishratparastlikdan uzoqda turishi lozim.

Yassaviy tariqatida muridlikka bel bog'lagan har bir inson quyidagi qoidalarga qat'iy amal qilish shart edi.

1. Hech bir kimsani o'z shayxi yoki piridan afzal bilmasligi.

2. Murid zakovatli va idrokli bo'lib, shayxning ko'nglidagi fikrlarini, ko'z qarashlarini anglay bilishlari.

3. Shayxning har bir so'ziga ishonib, undan sodir bo'lgan har bir ishga rozilik bilan qarashi kerak.

4. Shayxning har qanday topshiriq va xizmatlarini tez hamda mas'uliyat bilan bajarishi lozim.

5. So'zda sodiq, dinda sog'lom bo'lib, hech qachon shakshubhaga o'rinn bermasin.

6. Vafoli bo'lib, o'z ahidida (bergan so'zida) tursin.

7. Har qanday sharoitda, har doim molu mulkidan o'z shayxi yo'lida voz kechishga tayyor bo'lsin.

8. Shayxning barcha sirlarini saqlab, ularni hech qachon fosh etmasin.

9. Shayxning barcha o'git va nasihatlarini nazarda tutib, hech qachon uni esidan chiqarmasın va unutmasin.

10. Ilohiy visol uchun shayx yo'lida jonidan kechishga doim tayyor tursin.

Ma'naviy dunyomizda o'ziga xos, ildizi chuqur zaminga borib taqalgan ta'limotlardan biri Kubroviya tariqatidir. Bu tariqat Xorazm diyorida voyaga yetgan ma'naviyat allomasi Shayx Najmuddin Kubro nömqi bilan bog'liq. Uning boshqa tasavvuf ulamolaridan farqi shundaki, u juda erta -o'smirlilikning ilk davridanoq tariqat yo'liga kirdi. O'smirlilik holatida Sharq olami e'tirofiga tushgan, mashhur bo'lgan Kubroviya falsafiy tariqat mакtabiga asos soldi. U nafaqat tasavvuf ta'limoti nazariyasi va amaliyoti bilan balki, fiqh, hadis-shunoslik, Qur'oni Karim tavsifi, uslubshunoslik, falakiyot, tarix, notiqlik, she'riyat, harbiy san'at nazariyasi, falsafa kabi zamonasining qator ilmlarini egalladi.

Haqiqatan bu maktab umumbashariy dunyoga ko'plab ilohi sharif, pиру donish avliyolarni yetkazib bera oldi. Ular pиру komillik maqomiga ko'tarilguncha Najmuddin Kubro hazratlarining Kubraviya tariqatida dastur vazifasini o'tagan o'nta tamoyilga qat'iy amal qildilar, ham amaliy, ham botiniy ruhiy jihatdan barcha harakatlar aynan shu usulga bo'ysundirildi. Shu bois ham Kubroviya tariqati «Oltin tariqat» nomi bilan atalishi bejiz emas. «Oltin tariqat»ning o'nta qoidasi quyidagilardan iborat:

1. Tavba – sodir bo'lgan xatolar – gunohlardan pushaymon bo'lib, xudoga yuz tutmoq.

2. Zuhd – taqvo va parhezlik – Allohdan qo'rqib, man etilgan ishlardan o'zini saqlash.

3. Xudoga tavakkal qilish - o'z taqdirini butunlay xudoga topshirish.

4. Qanoat -ozga rozi bo'lib, ko'p istashdan voz kechish, ta'magirlikdan uzoq bo'lish.
 5. Uzlat - boshqalardan ajralib yakka o'tirmoq.
 6. Har doim zikrda bo'lish, ham til, ham qalban xudoni yod etish.
 7. Butun vujud va borliq bilan tavajjuh qilib, sig'inish.
 8. Sabr - boshga tushgan og'ir ahvolga chidash.
 9. Muroqaba - boqib kuzatmoq, tangri borlig'ining dengiziga botib, ilohiy olamga boqmoq.
 10. Rizo - tangri irodasiga qarshilik qilmasdan qazo va qadar-taqdir hukmiga tan berish.
- Shayx Najmiddin Kubroning tasavvufiy nazariyasi islom falsafasini rivojlantirishda, shuningdek, inson o'zidagi botiniy-ruhiy kuchlarni aql bilan mujassam etib, maqsadga intilganda islomiy axloq bilan to'yingan inson buyuk ishlarga qodir kuch bo'la olishini isbotlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.
- Movarounnahr tasavvuf ta'limotida xoja Bahouddin Naqshbandning ham o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lgan.
- Bahouddin Naqshband (to'liq ismi Muhammad binni Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy (1318-1389)). Mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining asoschisi. Bahouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda so'fiylik bilan o'tgan. U ikki marta haj qilgan. G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati - kimxobga naqsh (gul) solish bilan kun ko'rgan. Bahouddin Naqshband xalq orasida «Balogardon» (ya'ni duo bilan balo -qazoni daf qiluvchi) unvoni bilan ham mashhur. O'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abdixoliq G'ijdivoniy hazratlariga asoslangan. Ta'limotining asosida «Dil-ba yor-u, dast-bakor» («Ko'ngil Xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin») degan shior yotadi.

Bahouddin Naqshband tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi, mo'tadillashтиrdi, kundalik turmushga mosladи. Uningcha, Allohga intilish ko'ngil bilan amalgaloshishi kerak. Qo'l esa ish-mehnat bilan band bo'laversin. Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, demakki, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo'l silkimay turib ham Allohga yetishish

mumkinligi haqidagi g‘oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta’minlaydi.

Axloqiy poklik, qanoatli, sabrli bo‘lish, ixtiyoriy faqirlik bilan Allohga intilish yuksak fazilat hisoblanadi. Naqshbandiyada odamning qadri mansabi, boyligi bilan emas, ma’naviy komilligi bilan o‘lchanadi. Naqshbandiyada asosiy talab- qalbni dunyo g‘uborlaridan tozalash, o‘z nafsi bilan kurashib, ruhda charog‘onlik topish, qalbda Alloh nomlarini naqshlab borish usullari ishlab chiqilgan. Zikri xufiya (yashirin zikr tushish) shunga xizmat qilgan. «Tashqarida xalq bilan, ichkarida Haq bilan bo‘lish», har bir nafasni Xudo bilan chiqarish, qadamni savob ishlar, ezgu amallar sari qo‘yish, yurt kezib, aziz-avliyolar qabrini ziyyarat qilish, g‘ofillarni hushyor etish, har qanday holatda qalb ogohligiga erishish-Naqshbandiya ta’limotining asosiy ma’naviy tarbiya usuli hisoblangan.

Naqshbandiya ta’limotida pir va murid orasidagi ma’naviy orifona suhbatga katta e’tibor qilingan. Naqshbandiyaga ko‘ra, suhbat anjuman ichra bo‘lish, bilmaganini bilib olish, yuksalish, karomatlar siru asrori, ilohiyot olami nurlaridan bahramandlik bo‘lsa, buning aksi - xilvat esa, kishini bilimdan, ma’rifatdan mahrum qiladi. Naqshbandlik o‘zini-o‘zi nazorat qilib borish, olgan bilimlarini dilda mustahkamlash, umrining har bir damini savob ishga, har bir nafsni ma’naviy kamolat uchun sarflash lozim deyiladi.

«Vuqifi zamoni» (muayyan vaqtida to‘xtab, o‘zini tekshirish, «vuqifi adodiy» ishlarni sarhisob qilib, tekshirish) «vuqifi qalbi» (qalb amallari qanday bo‘layotganligini to‘xtab, tekshirib borish) kabi shiorlar («qudsiy so‘zlar») ham ana shu nazorat usuliga kirgan. Naqshbandiya shu tariqa, tasavvufni islom shariati va payg‘ambar sunnati bilan yanada mustahkamroq bog‘ladi. «Urvatul vusqo», ya’ni barcha payg‘ambar so‘zlar va ishlariga suyanish Naqshbandiya shiorlaridan biriga aylandi.

Naqshbandiya tariqatining umuminsoniy g‘oyalar, ma’naviy kamolot, botiniy poklikni targ‘ib etishi uning dunyoda keng tarqalishiga olib keldi.

Naqshbandiya tariqati «Safar dar Vatan», «Xilvat dar anjuman», «Dil ba yoru das ba kor», «Xush dardam», «Nazar bir qadam» kabi ham irfoniylari, ham hayotiy amaliy shiorlarga asoslangan.

Naqshbandiya ta’limoti hayratlanarli darajada ijtimoiy-iqtisodiy.

ma'naviy-ma'rifiy ma'no va mohiyatga, hayotiy mazmunga ega. Bu tariqatdagilar mehnat qilish, ilm olish, o'z mehnati evaziga halol yashash, noz-ne'matlarni ko'pchilik bilan baham ko'rish, faqirona hayot kechirish, hammaga yaxshilikni ravo ko'rishni afzal bilganlar. Ular odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta'kidlab, sham kabi bo'lgin va odamlarga yorug'lik ber, o'zing esa qorong'uda bo'l, degan ekan.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ilmi-inson haqidagi, inson qalbiga sayqal berish ilmidir. U inson odobini, ya'ni ma'naviyatini yanada yuksaltiradi, islom axloqining eng muhim qadriyatlarini bir nuqtaga jamlaydi. Shu tariqa tasavvuf komil inson nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqadi.

7.3. Diniy bag'rikenglik, aqidaparastlik va ularning mohiyati

Turli diniy e'tiqoddagi kishilarning oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishni anglatib, hozirgi vaqtda bu ezu g'oya nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni nazarda tutadi.

Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Qadimdan diyorimizda buddaviylik, zardo'shtiylik, nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bo'lган xalqlar, qavmlar o'z diniy amallarini erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatliligi og'ir damlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari o'rtasida diniy mojarolar bo'lgan emas. Bu – yurtimiz xalqlarining diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ular o'z diniy marosimlarini o'tkazishi va mamlakat hayotida faol ishtirot etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida: «Hamma uchun

vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi» deb qayd etilgan.

Vijdon erkinligi demokratiyaning ajralmas tarkibiy qismidir; u fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, teng huquqligi, barcha diniy konfessiyaning qonun oldida tengligi, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslikka nisbatan hech qanday majburiyat yo'qligi, diniy idora ishlariga davlatning aralashmasligi, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanish mumkin emasligini ifoda etadi.

O'zbekistonda din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan, shuningdek, kuch ishlatishni targ'ib qilish, millatlar va diniy tashkilotlar orasiga nizo solish uchun dindan foydalanish va konstitutsiyaviy tuzum asoslariga qaratilgan harakatlar man etiladi. Barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligi talablari va tamoyilarini amalga oshirish imkonи to'la ta'minlanib, u jamiyatimiz ma'naviy hayotining tarkibiy qismiga aylangan. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo'lib, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «so'zda emas amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqod erkinligini ta'minlashimiz kerak. Biz odamlarning ma'naviy tarbiyasini o'ylab, tinchlik va xayrli ishlarini ko'zlab, harakat qilayotgan har bir kishini qo'llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz»¹.

Ma'lumki dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oya-siga asoslanadi, kishilarni halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish, hamisha yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratdir. Shunday ekan, haqiqiy diniy qarashlar ortida diniy bag'rikenglik yotadi. YUNESKO diniy bag'rikengik muammosiga alohida e'tibor berib, 1995-yilni Birlashgan Millatlar Tashkilotining bag'rikenglik-yili deb e'lon qildi. O'sha-yili 16-noyabrda 185 davlat ishtirokida Parijda Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi qabul qilindi. Mustaqillik yillarda

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т., «Маънавият» 2008. 79бс

mamlakatimizda ham bu sohada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda ikki mingdan ziyod diniy tashkilot shu jumladan, O'zbekiston Musulmonlari idorasi, Qoraqalpog'iston Musulmonlari qoziyati, Toshkent Islom instituti, 10 ta madrasa va 2000 dan ziyod masjid, Rus pravoslav seminariyasi, Rim-katolik cherkovi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, to'liq Injil xristianlar markazi, xristian seminariyasi, O'zbekiston Bibliya jamiyati, 162 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy va 8 ta bahriy jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddistlar ibodatxonasi davlat ro'yxatidan o'tgan.

Bizda davlat dindan ajratilgan. Bu oqilona, adolatli siyosatdir. Ma'naviyat esa ko'ngil ishi, insonning o'z shaxsiga munosabati, asl mohiyatiga muvofiq aytilsa, har bir insonning yagona Haq oldidagi mas'uliyati masalasidir. Shu sababli davlat va dinding bir-biridan ajratilganligi mantiqqa muvofiqli. Jamiyatdagi umumiylar ma'naviy saviya qancha past bo'lsa, bu jamiyatda odamlar orasidagi muomalada kuch ishlatish ehtiyoji va ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi, ma'naviy barkamollik esa siyosatni ham mo'tadillashtiradi, kuch ishlatuvchi tuzilmalar xizmati qisqarib, fuqarolarning ixtiyoriy birlashushi asosidagi jamoat tashkilotlarining mavqeyi oshib boraveradi.

Dinni siyosiyashtirishga urinish, nafaqat insonlar, jamiyatiga nisbatan, balki Alloh oldida ham eng og'ir jinoyatdir. Chunki bunda insonning Haqqa e'tiqodi bir guruh kimsalarning siyosiy g'arazlari vositasida, xavfli quroqla aylantiriladi. Siyosat insonlararo munosabatlarga, ya'ni faqat shu yorug' dunyoga aloqador hodisa, din esa Alloh bilan uning bandasi bo'lmish inson orasidagi munosabatlarga doirdir.

Bir insonning Allohga bo'lgan iymon-e'tiqodini boshqa birov o'zining boshqalarga qarshi amalga oshirmoqchi bo'lgan g'arazli niyati vositasiga aylantirishga urinsa, u ikki karra jinoyatga qo'l urgan bo'ladi. Birinchidan, muayyan inson shaxsiga qarshi jinoyatga yo'l qo'yadi, chunki bir inson ikkinchi insonni o'zining noplari manfaati vositaga aylantirishga haqqi yo'q. Yer yuzidagi barcha mavjudot inson uchun vosita, ammo hech bir inson o'zga insonlar uchun vosita, quroq deb qaralishi mumkin emas. Ikkinchidan, o'zga insonning Allohga bo'lgan iymonidan o'zining g'arazli maqsadi

uchun foydalanishga uringan zot Alloh oldida og‘ir gunohga botadi. Bunday odam, islomiy nuqtayi nazardan, nafaqat mo‘minlar safidan chiqadi, balki u oddiy munofiq darajasidan ham tubanlashadi. Chunki oddiy munofiq o‘zi sidqidildan mo‘min bo‘limgan holda faqat odamlar ko‘ziga o‘zini dindor qilib ko‘rsatishga urinadi. O‘zgalar e’tiqodidan o‘z g‘arazi yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lib, ular orasiga diniy asosda nizo solishga uringan kimsa esa Alloh oldida munofiqdan ham, mushrikdan ham badtar kufurga yo‘l qo‘yadi, deyish mumkin.

«Taassufki, ba’zan islom dini va islom fundamentalizmi haqida gapirganda bu ikki tushunchani bir-biriga aralashtirib yuborish hollari uchramoqda», islom dini – Allohnning dini, «islom fundamentalizmi» esa, tor bir guruuhlar tomonidan musulmonlarning diniy aqidalarini o‘zlarining muayyan siyosiy maqsadlariga bo‘ysundirib «talqin» etishlaridir. Bu «talqin»lar asosida siyosiy faoliyat boshlansa, islom ekstremizmi kelib chiqadi. Allohnning kitobidagi oyatlarni mufassirlar turlicha tafsir qiladilar, payg‘ambarimiz hadislarini ham turlicha talqin etilishi mumkin, chunki insonlarning din masalalariga yondashuvi turlicha. Ammo o‘z talqinini eng to‘g‘ri deb da’vo qilib, fikriga qo‘shilmaganlarni islom nomidan qoralash, hatto kofirga chiqarishga urinish, kamida o‘zga insonga zulm darajasiga ko‘tarilgan takabburlikdir.

O‘tgan asrning 80 yillaridan Afg‘oniston diniy ekstremizm va fundamentalizmning yirik o‘chog‘iga aylandi. Ayrim yirik davlatlar o‘zlarining geosiyosiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish ilinjida Afg‘onistondagi radikal islomchilarni amalda qo‘llab-quvvatladi.

Markaziy Osiyoga diniy ekstremizning kirib kelishida Afg‘oniston darvoza vazifasini o‘tadi. Diniy-ekstremistik guruhlarning bosh maqsadi - «xalifalik» davlati tuzish shiori ostida siyosiy hokimiyatni egallashdir. Hozirgi kunda ko‘proq «Hizbut tahrir», «Akromiyalar», «Nurchilar» kabi diniy ekstremistik va terrorchi guruhlarning faoliyati kuzatilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, O‘zbekistonda bunday tahdidning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo‘ldi:

– «qayta qurish» davrida nafaqat siyosiy va iqtisodiy inqiroz, balki mafkuraviy parokandalik ham yuzaga kelgan edi. Sovet imperiyasi barbod bo‘lgach, mafkuraviy bo‘shliq o‘zining xaturli oqibatlarini namoyon qildi;

– e'tiborli diniy ulamolar o'rnini soxta «islomchilar» egallahsga intilishlari va ular tomonidan islom asoslari buzib talqin qilinishi boshlandi;

– aholining islom diniga bo'lgan katta qiziqishidan foydalanib, xalqaro ekstremistik markazlar tomonidan mintaqada diniy mutaassiblik ruhidagi adabiyotlarni tarqatish kengaytirildi;

– din niqobi ostida faoliyat olib boruvchi, aslida ayrim davlatlarning g'arazli geosiyosiy va geostrategik qarashlari natijasi o'laroq shakllangan, qo'poruvchilik maqsadini ko'zlagan turli oqim va yo'nalihsinga mansub xorijiy da'vatchilar mintaqaga o'z g'oyalalarini olib kira boshladilar;

– mintaqqa davlatlari chegaralarining mustahkam emasligi turli ekstremistik kuchlarga narkotrafik, quroq-yarog'larning noqonuniy savdosi orqali moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlab olishga va mintaqqa bo'ylab erkin harakat qilishga zamin yaratdi.

Qisqa qilib aytganda, sho'ro davridan meros bo'lib qolgan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuki yuqorida qayd etilgan sabablar bilan qo'shilib diniy ekstremistik oqimlarning shakllanishi va faollashuviga qulay sharoit yaratdi.

Umuman olganda esa, diniy ekstremizm mintaqada yashirin, keyinroq ochiq-oshkora tashviqot va zo'ravonlikka asoslangan faol harakatlar, unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar natijasida esa yana o'ta maxfiy ishslash asnosida targ'ibot olib borish va qo'poruvchilik xurujlarini sodir etishdek bosqichlarni bosib o'tdi, deyish mumkin.

Diniy ekstremistik tashkilotlarning asosiy maqsad va faoliyat uslublari quyidagi:

– aholiga hanafiylik mazhabiga zid mutaassib va siyosiy-lashtirilgan diniy g'oyalarni singdirish. Buning uchun aholi ichida aqidaparastlik g'oyalari va «Hizbut tahrir» guruhining ta'limotlari da'vat qilinadi, «jihod», «shahidlik» g'oyalari targ'ib qilingan adabiyot, video va audio tasmalar tarqatiladi, yashirin «hujralar» tashkil qilinib, o'qiyotganlarga mutaassib tushunchalar singdiriladi;

– ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, dirlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish. Buning uchun aholi ichida va xorijiy axborot vositalarida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy holat, jumladan, diniy siyosat, imomlarning faoliyati bo'yicha ig'vo ma'lumotlar tarqatiladi, shuningdek, yashirin guruhlar tuzilib,

ular tomonidan aqidaparastlik ruhidagi diniy tashviqot yuritiladi, terrorchilik harakatlari amalga oshiriladi;

– xorijda faoliyat yuritayotgan diniy-ekstremistik tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish, ular yordamida jangarilar tayyorlash va boshqalardan iborat.

«Hizbut tahrir» avvalo, islom niqobi ostida ekstremistik g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan tushuntirish ishlarini olib boradi. Bunda hizbutchi har bir shaxsning fikrlash doirasiga qarab o‘z ta’limotiga da‘vat etadi. Qolaversa, jamiyatda sodir bo‘layotgan u yoki bu shakldagi qiyinchiliklar, turli tabiiy ofatlardan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanib, g‘arazli niyatlarini amalga oshirishga intiladilar. Boshqacha aytganda, ularning nazdida hujum fikrga qaratilmog‘i lozim. Bu hujum fikriy kurashga, fikriy kurash o‘z navbatida fikriy inqilobga olib borishi kerak. Fikriy inqilobning orqasidan esa siyosiy inqilob sodir bo‘ladi. Mazkur vazifani ado etgan avlodning o‘zi hokimiyat tepasiga keladi.

Ayni paytda, «Hizbut tahrir» guruhi kurashni uch bosqichda olib borishni ko‘zlaydi. Ulardan birinchiisi «tasqif» - tushuntirish ishlari bosqichidir. Unda hali ongi to‘liq shakllanmagan, fikri zaif, ta’sirga beriluvchan yoshlarni tuzoqqa ilintirish, huquq-tartibot va hokimiyat idoralaridagi e’tiqodi sust ayrim shaxslarni o‘z tarafiga og‘dirishdek maqsadlarga erishish ko‘zlanadi.

Ikkinci, «tafoul» - birgalikda harakat qilish bosqichida fikriy kurash orqali «Ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishish» yo‘lida fikriy inqilobga yetishish nazarda tutiladi.

Uchinchi, «inqilob» - to‘ntarish bosqichida esa «tarbiyalangan ummat» orqali hokimiyatni qo‘lga kiritish mo‘ljallanadi.

Yuqoridagilardan «Hizbut tahrir» ham boshqa diniy ekstremistik tashkilotlar kabi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlab, hokimiyat tepasiga kelishga intilishi, yagona xalifalik davlatini qurish, uning asosiy va so‘nggi maqsadi ekani ko‘rinib turibdi. Shuning uchun ham, «Hizbut tahrir»ning rasmiy faoliyat ko‘rsatishi deyarli barcha musulmon mamlakatlari, jumladan, arab davlatlarida rasman taqiqlangan.

«Hizbut tahrir» partiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan ulamolar islom dunyosida juda ozchilikni tashkil etadi. Aksincha, uni inkor etadiganlar son-sanoqsiz. Bu partiyaning g‘oyasi va dasturi hanuz-

gacha dunyoning birorta mamlakatida ma'qullanmagan. Uning o'zi rasmiy tashkilot sifatida tan olinmagan, balki ilk ta'sis topgan maskanidan tortib, dunyo mamlakatlarining hammasida uning faoliyati taqiqlangan. Islomda esa, ozchilikning emas, ko'pchilikning fikriga qo'shilish buyurilgan. «Mening ummatim yoppasiga adashib, zalolatga tushib qolmaydi, qachonki, ular orasida qarama-qarshilikni ko'r salaringiz, sizlar ko'pchilik tomonida bo'lingiz!» – degan sahih hadis ham ushbu fikrga dalil bo'ladi.

Respublikamizda faoliyat yuritishga intilayotgan boshqa oqimlarning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari ham yuqoridagilardan deyarli farq qilmaydi. Masalan, «jihodchilar»ning maqsadi diniy holatni Payg'ambar davridagi ko'rinishga qaytarish, ya'ni din, musulmonchilik o'sha davrda qay holatda bo'lgan bo'lsa, bugun ham shunday qolishi kerak, degan da'voda namoyon bo'ladi. Bunday tuzum bugun qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini «Tolibon» harakatining Afg'onistonda olib borgan siyosati va uning oqibatlari yaqqol ko'rsatib turibdi.

«Akromiylar» guruhi o'z saflariga jalb qilinuvchi shaxslarga ruhiy ta'sir o'tkazish va ularni g'oyaviy jihatdan birlashtirish maqsadida faoliyatlarini davrlar (bosqichlar)ga bo'lgan holda amalga oshirishlari aniqlangan.

Bu oqim g'oyalarining tarqalishiga bir qator omillar ham sabab bo'lgan. Jumladan, ular ish bilan ta'minlash, moliyaviy muammolar yechimi uchun «xolis» moddiy yordam ko'rsatish orqali ularning asl maqsadlaridan bexabar odamlarni o'zlariga iqtisodiy jihatdan bog'lab olishga va o'z tarafдорларига aylantirishga harakat qilganlar.

Barcha mutaassib aqidaparastlarning fojiasi shundaki, ular iyemon, e'tiqod, tuyg'u, tushuncha, qalb va aql, ma'naviyat bilan ma'rifat, din va falsafaning mohiyatini o'zlarining g'arazli fikrlari doirasida talqin etadilar. Kishi o'z e'tiqodi yo'lida qancha ilmga ega bo'lmasin, u avvalo, niyatni pok qilsin, niyatida ezzulik, samimiylik va ixlosga joy bersin. Zero, hadislarda aytildiki: «Ishlar niyatga muvofiqdir».

Akromiylar kundalik ibodat va diniy turmush tarzida yashab kelayotganlarni haqiqiy musulmon deb hisoblamaydilar, din ahllari bilan maslahatlashish yoki ulardan ilm olishni umuman o'zlariga ep ko'rmaydilar. Vaholanki, diyorimizda azaldan islom ilmlariga chin

ixlos bilan xizmat qiluvchi ulamo-yu fuzalolar ko'p bo'lgan, ular hozirda ham kam emas.

«Hizbut tahrir», «akromiylar» kabi adashgan diniy oqimlar turli tashviqotlar olib borishlariga qaramay, xalqimiz orasida e'tibor topa olgani yo'q. Chunki Payg'ambarimiz «Mening ummatim zalolatda birlashmas», degan hikmatni bekorga aytmaganlar. O'n to'rt asrdan buyon e'tiqodida mustahkam bo'lgan xalqni noto'g'ri yo'lga boshlash samarasiz kechishi turgan gap. Dinimizga shunchalar imkoniyatlar berilib turgan bir paytda bu kabi toifalar unga faqat zarar keltirmoqda.

«Biz faqat terrorizmning tashqi ko'rinishlariga, begunoh odamlarni garovga oladigan, portlatadigan va o'ldiradigan kimsalarga qarshi kurashish bilangina bu ofatni bartaraf etib bo'lmasligini bir necha bor ta'kidlaganmiz. Hayotning o'zi shuni ko'rsatmoqdaki, avvalambor, ushbu balo-qazoning birlamchi manbalariga qarshi kurashish darkor. Ya'ni islam dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyer tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xomxayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak,-deb takidlagan edi Yurtboshimiz.

Yuqorida qayd etilgan diniy ekstremistik guruhlar islam dinini «asl holatiga qaytarish» da'vati ostida bosqinchilik, talonchilik va begunoh insonlarning qonini to'kish kabi terrorchilik ishlarini amalga oshirmoqda. Mazkur guruhlarning g'oyalari jamiyat hayotining ajralmas bo'lagi sanalgan ma'naviy va madaniy taraqqiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Keyingi paytlarda turli terrorchilik harakatlarini sodir etish ishlariga ayollar ham aralashib qolmoqda. Ularning terrorizm yo'liga kirib qolishlarining asosiy sababi diniy, dunyoviy bilimga ega emasliklari, turli oqimlarga nisbatan sof islam dinining munosabatini bilmasliklaridir. Amaliyot, ayni paytda, xotin-qizlar o'z aka-ukularining ta'sirida ham bunday harakatlarni sodir etish darajasiga kelganliklarini ko'rsatadi. Jumladan, erkaklar o'zining diniy ilmlardan bexabar, har ishda itoatkor ayoliga turli oyat-hadislarni noto'g'ri talqinda tushuntirishi, qo'poruvchilik harakati uchun jannat bilan mukofotlanishini va'da qilishi, ayolning jannatga kirishi erning

roziligidagi bog'liqligini doimiy uqtirishi oqibatida ayollarning o'zini va begunoh kishilarni o'ldirib, jinoyatga qo'l urishlari aniqlangan.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo'lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharaflı ishga qo'l urgan bo'lasan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!» - degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi.

Ayrim sodda yoshlar va ayollar ularga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlarni yaxshi biladigan va o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalananayotgan, xalifalik tuzsak barcha muammola-rimiz hal bo'ladi, deb yurgan hizbutchilarining safsatalariga uchib, aldanib qolmoqdalar, o'zlarini portlatmoqdalar. Islom ta'limotining asl mohiyatiga ko'ra, bu kabi harakatlar mutlaqo noto'g'ridir. Zero, Qur'oni Karimda o'z joniga qasd qilish eng katta gunohlardan ekani ta'kidlangan.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash jahon hamjamiyati uchun eng dolzarb masalaga aylandi. Shu jumladan, bizning yurtimizda ham bu kabi ishlarni amalga oshirmoqchi bo'lganlarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda. Bu kurashning mohiyati, jumladan, hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqr o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xo'sh, jaholatning o'zi nima? U qanday ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda? Jaholat - arabcha «jahila» fe'lining o'zagi bo'lib, bilmaslik ma'nosini anglatadi. Islom dinidan oldingi davrni «johiliyat davri» deb atalishining sababi ham shunda. Kishilar bilimsizligi, johilligi tufayli qiz bolalarni tiriklay ko'mganlar, ayollarni odam o'rnida

ko'rmaganlar, ularning hech qanday haq-huquqlari bo'lmagan. Islom dini kelgach, jaholat o'rmini ma'rifat egalladi. U ayol-qizlar sha'nini ko'tardi, uch qiz tarbiyalab, ularni turmushga bergan ona jannatiy bo'lishi, jannat onalar oyog'i ostida ekanini baralla aytdi. Kishilar ma'rifatli bo'la boshladilar.

Afsuski, bugungi kunda ham jaholat turli ko'rinishlarda o'zligini namoyon qilmoqda. Shulardan biri, diniy bilimsizlikdir. Diniy savodi past bo'lgan kishilar o'zlarini islom dinining jonkuyarlari qilib ko'rsatuvchi, aslida esa, hokimiyatni egallahni maqsad qilib qo'ygan turli oqim vakillarining quruq va'dalariga aldanib qolmoqdalar, hatto, o'zlarini qurban qilishgacha yetib bormoqdalar. Bunday mudhish oqibatlarni keltirib chiqaruvchi bilimsizlikning oldini olishga davlatimiz katta e'tibor qaratayotganini ta'kidlash zarur. Haqiqiy diniy bilim olaman deganlarga keng imkoniyatlar yaratilgani - o'rta maxsus islom bilim yurtlari, Toshkent islom istituti va Toshkent islom universiteti kabi o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatayotgani ham jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish borasida aniq amaliy ishlar qilinayotganining yorqin ifodasidir.

Johillik ham mutaassib oqimlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishiga zamin yaratadigan omillardandir. Respublikamiz hududiga yashirin tarzda olib kirilayotgan ekstremistik ruhdagi adabiyotlar, tarqatilayotgan varaqalardan ta'sirlanayotgan va to'g'ri yo'lidan ada-shayotganlarning borligi ham buni tasdiqlaydi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar ham jaholat og'ir oqibatlarni keltirib chiqarishini ko'rsatadi. Shunday ekan, odamlar ongi va qalbida ma'rifatning mutlaq ustuvor bo'lishiga erishish, kishilar tafakkurini boyitish, ularda sog'lom va sobit e'tiqodni shakllantirish uchun kurash, bu yo'ldagi nazariy va amaliy ishlarning hozirjavobligini ta'minlash, ta'sirchanligini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, odamning o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlar, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lishi har turli mafkuralarning bosimi, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishining asosiy sharti hisoblanadi.

Yaqin o'tmishda namoz o'qish, diniy marosimlarni o'tash taqiqlangan edi. Masjidlar, aziz-avliyolarning ziyoratgohlariga qul' urilgan, odamlarning uylaridagi Qur'on, Hadis, turli diniy adabiyotlar

terib olinib, yoqib yuborilgan edi. Mana buni «johiliya», nodonlik desa bo'ladi. Qanchadan-qancha odamlarimiz hozirgi emin-erkin kunlarni qumsab, ammo ko'rolmay, armon bilan o'tib ketdilar. Shu bois biz mustaqillik keltirgan ne'matlar uchun har qancha shukronalar aytsak arziydi. Mustaqillik tufayli islomiy qadriyatlar tiklandi, iymon e'tiqodimiz o'zimizga qaytdi. Bu savobli, ezgu ishlarni amalga oshirishga Prezidentimiz bosh bo'ldi. Prezidentimiz ma'naviyat va ma'rifatga oid ma'ruza va asarlarida islom dinining ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy tarbiyadagi yuksak roli, o'rni, ahamiyatiini muntazam uqtirib kelmoqdalar.

Xususan, bu masalalarga Prezidentimizning «Istiqlol va ma'naviyat» to'plami, «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Olloh qalbimizda, yuragimizda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» kabi asar va risolalaridan javob topishimiz mumkin.

Islom Karimov «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javobida «Milliy qadriyatlarimizning shuncha zamonlar osha bezavol yashab kelishiga sabab – avvalo, muqaddas dinimiz hisobidan»,¹ - degan edi. Bu holat xalqimizga, xususan yoshlarimizga milliy g'oyani singdirishga islomi olamidan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Ana shularni hisobga olgan holda mustaqil mamlakatimizda islom dinining boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi katta imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, aziz-avliyolar yotgan maqbaralar, masjidlar ta'mirlandi, yangilari barpo etildi. Amazon va Qurban hayatlari dam olish kuni deb e'lon qilindi. Har yili minglab fuqarolarimizning haj va umra ziyoratiga borib kelishlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib berildi.

Insonning ko'plab xususiyatlari tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish ijtimoiy-siyosiy hayotiy ehtiyoj sanaladi. Chunki kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs har qanday oshkora yoki pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera oladi. Yoshlarimiz doimo va har on ogoh va yana ogoh,

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаравон хаёт – пировард мақсадимиз. Асарлар 8-жилд. Т.: Ўзбекистон 2000. 503-бет.

sergak bo‘lishlari zamon talabi. Buning uchun yoshlarimiz ongiga mustaqillik g‘oyasini chuqur singdirishimiz lozim. Toki ular milliy ildizlari baqquvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan baravar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib etishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da’vati ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.

Prezidentimizning «Turkiston-press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblarida ta’kidlaganlaridek, «O‘scha mudhish voqealar munosabati bilan Oliy Majlisda bo‘lib o‘tgan hukumat yig‘ilishida men yoshlarimizni hech kimning qo‘liga berib qo‘ymaymiz, degan qat’iy fikrni bildirgan edim. Shu fikrni rivojlantririb aytamanki, men O‘zbekiston rahbari sifatida qandaydir yovuz kuchlar muqaddas islam dinimizni, ota-bobolarimiz e’tiqodini, musulmon fuqarolarimizni tahqirlashiga, jamiyatimiz hayotiga xavf tug‘dirishiga hech qachon yo‘l qo‘ymayman»¹.

Prezidentimiz aytganlaridek har birimiz hamisha, har soniyada ogoh bo‘lishimiz lozim. Bu mustaqil yurt fuqarolarining muqaddas burchi bo‘lmog‘i lozim. «...muqaddas dinimiz sha’niga dog‘ tushirmoqchi bo‘lgan, undan g‘arazli siyosiy maqsatlarda foydalanishni istaydigan kimsalar va kuchlar bilan hech qachon murosa qilolmaymiz».²

Har bir fuqaro shuni anglab yetishi kerakki, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o‘ziga xos va mos yo‘li bo‘lgani kabi madaniy-ma’naviy rivojlanishida ham o‘z yo‘li bor. Bu o‘ziga xoslikni dinga, diniy qadriyatlarga munosabatlarimizda, ulardan ma’naviy tarbiyada foydalanishimizda ham ko‘rishimiz mumkin.

Bu yo‘l Prezidentimiz asarlarida bayon qilib berilgan. Uning mohiyati, mo‘tadil dindorlik, islam ma’rifatini rivojlantrish, ichki botiniy olamni poklab, Alloohni dilda saqlab, aqlu tafakkur, ilmu urfon bilan kamolot sari borish, o‘z merosiy qadriyatlarimiz va dunyoviy ilmni egallab, zamon bilan hamohang olg‘a borish. Mustaqillik bergen hidoyat yo‘lini turli yot unsurlardan asrash, ularga berilmaslik, ularning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Taraqqiyot yakdillik, fidoiylik va umummilliyl g‘oyalarimizning moddiy kuchga aylanishidadir.

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз кўнимиз билан курамиз. Асарлар тўплами 7-жилд. Т. Узбекистон 1999. 353-354 бетлар.

² Каримов И.А. Озод ва аబод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиги Асарлар тўплами 8-жилд. Т.: Узбекистон 2000. 342-бет.

8-mavzu. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ma’naviyatning yuksalishi

8.1. Amir Temur – buyuk davlat arbobi, yuksak ma’naviyat sohibi

Amir Temur – buyuk shaxs, sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, iste’dodli me’mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga el-yurtni, xalqni sevgan inson. Uzoq va mashaqqatli kurashlardan so‘ng Amir Temur o‘z raqiblarini yengib, hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Mayda, tarqoq hududlarni birlashtirib, markazlashgan davlat bunyod etdi. Mamlakatda iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar qildi.

Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoyat katta. Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feudal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o‘z tug‘i ostiga birlashtira oldi, mo‘g‘ullar zulmiga barham berib, markazlashgan yirik feudal davlatni yaratdi. Bu bilan hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berdi. Bugun «Temur va temuriylar madaniyati», «Temuriylar davlati», «Ulug‘bek astronomiya maktabi», «Navoiy», «Bobur» kabi qutlug‘ nomlarni nafaqat o‘zbek, balki jahon xalqlari asarlari sahifalarida o‘qib, uning asosida Amir Temurning ulkan xizmatlari borligini his etib, g‘ururlanamiz.

Ikkinchidan, Amir Temur, o‘zi bilib-bilmay, lekin bir qator xalqlar va yurtlarning mustamlakachilar zulmidan ozod bo‘lishiga yordam berdi. Masalan, o‘sha davrning eng qudratli hukmdorlaridan hisoblagan Boyazid-yildirimni tor-mor keltirib, Bolqon yarim oroli va Yevropa xalqlariga ozodlik bag‘ishladi. Oltin O‘rda xoni To‘xtamishni ikki marta tor-mor etib, Rossiyaning mo‘g‘ullar hukmronligidan qutulishini tezlashtirdi.

Amir Temurda vatanni sevish, xalqni ulug‘lash, ulardan faxrlanish va g‘ururlanish singari oliy ma’naviy fazilatlar barq urib turgan.

Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiylarning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari» va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o'gitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo'ladi. Bular el-yurt va fuqarolarning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, qo'shnichilikka rioya qilish va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi o'gitlardir.

Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asarida ta'kidlanganidek, «Buyuk bobokalonlarmizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi».¹

Amir Temur 1370-yilda Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirib, mustaqil davlatga asos soldi. 1370-1405-yillar davomida mazkur davlat asosida Osiyoning 27 mamlakatini o'zida birlashtirgan ulkan sultanat tuzib, bu davlatning har tomonlama taraqqiyoti va tinchligi, shuningdek, ma'naviy madaniyatining yuksalishi, gullab-yashnashi, o'tmish davrlar ajoyib an'analarining yangi tarixiy vaziyatda qayta tiklanishi uchun sharoit yaratdi. Amir Temurning salohiyati va buyuk ma'naviyat egasi ekanligi quyidagilarda namoyon bo'ladi. Jonini garovga qo'yib Turon va Xurosondagi feodal tarqoqlikni bartaraf qilib, markazlashgan davlatga asos soldi. Ana shu hududdagi siyosiy ziddiyatlarga burkangan amiru beklarning qarshiligini goh qilich, goh siyosiy kelishuv yo'li bilan bartaraf qilib, ularni murosaga keltiribgina qolmasdan, barcha kuch-imkoniyatlarini Vatan ravnaqi, yuksalishi sari burib yubordi.

Ikkinchidan, davlatni boshqarish ishlariadolat ustiga qurilib, bu boshqaruvga iymonli, diyonatlari Vatan, el-yurt manfaatini ustin qo'yadigan, mardlik va oliyjanoblik sifatlarini uyg'unlashtira olgan davlat amaldorlarini tanlab, qo'ydi.

Uchinchidan, e'lon qilingan qonun va hukmlar so'zsiz o'z ijrosini topdi. Bu qonunlar xalq va davlat manfaatlari bilan hamohang edi. Bu qonunlar oddiy xalqqa ham, o'qimishli ziyoriga ham tushu-

¹ Каримов И.А. «Юксак маънавият-енгилмас куч». Т.: «Маънавият» 2008. 44-45-бетлар

narli, sodda, ammo hayotning muammolari yechimini topa oladigan mazmun va mohiyatga ega edi.

To‘rtinchidan, turli tabaqalar, ayniqsa, ishlab chiqarish bilan bog‘liq sohalar ravnaqini ta‘minlaydigan adolatli soliq tizimi ishlab chiqilgan edi.

Amir Temurning fikru yodi Vatanni, xalq kuch-qudratini ulug‘-lash, boshqalar tomonidan e’tirof etilishini ko‘zlab, faoliyat yuritishda edi. Shu bilan Turon xalqlari kuchi mahoratida, jangu jadallardagi jasoratida, fan, ishlab chiqarish kabi barcha sohalarda dunyoda biron bir xalq yoxud davlatdan kam emas, balki birinchilardan ekanligini o‘zi bosh bo‘lgan davlat misolida isbotlab berdi.

Amir Temur o‘z ma’naviy olamining kuchi va yuksakligi bilan jahonga ta’sir qiladigan imkoniyatlarning mayjudligini ko‘rsatdi, uni erkin, bir vaqtida favqulotda jasorat va qat’iylik bilan amalga oshirdi. Shu bilan dunyo siyosiy-hududiy xaritasini jahon xalqlari manfaatlari yo‘lida o‘zgartira olgan buyuk davlat arbobi va harbiy sarkarda maqomiga ko‘tarildi. Sohibqiron bobomiz dunyoning o‘nlab davlatlari birlashib, amalga oshira olmagan siyosiy-harbiy ishlarga qo‘l urdi. Bunga dastlab To‘xtamishdek hukmdor bilan, keyingi navbatda esa Osiyo, Afrika va Yevropa qit’asini titratgan Kichik Osiyo hukmdori – Yildirim Boyazid bilan bo‘lgan hayot-mamot bobidagi siyosiy-harbiy to‘qnashuvlarda g‘alaba qozonib, jahondagi o‘zigacha o‘tgan davlat va harbiy arboblardan ham yuqoriga ko‘tarila oldi. Jahonning keyingi tarixi ham uning bu balandlik va buyuklik pog‘onasini e’tirof etishi shubhasizdir. To‘xtamish Oq O‘rda va Rus knyazliklari hududlarini bosib olgach, butun jahonda hukmronlikni amalga oshirish to‘g‘risida fikrlay boshladi. Buning uchun birinchi navbatda Amir Temurni siyosiy-harbiy maydondan yilib tashlash lozim edi. O‘zining harbiy dahosiga ortiqcha baho berib, g‘alabasiga ishongan To‘xtamishxon Mo‘g‘uliston hududlaridan to Boltiq bo‘ylariga qadar hududlardan lashkar to‘plab, 1391-yil yozida Samara atroflarida o‘zining son-sanoqsiz lashkarini Amir Temur qo‘smini bilan to‘qnashuvga hozirladi. Jang jahon tarixida eng og ‘ir to‘qnashuv bo‘ldi. Har ikki tomon bemisl qurbanliklar berdi. Jangda Sohibqiron Amir Temur to‘la g‘alaba qozondi. Biroq To‘xtamish bu mag‘lubiyatni tasodif hisoblab, oradan 4-yil o‘tgach, yana Amir Temurga qarshi chiqadi. Shimoliy Kavkaz hududida, Terek daryosi

bo‘yidagi bu jang avvalgisidan ham qirg‘inli kechdi. Amir Temur Tuxtamishni mag‘lub qilar ekan, o‘z sultanati va Vatani ravnaqni uchun qulay bo‘lgan imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Avvalo Sharqiy Yevropa va Dashti qipchoq, qozoq dashtlari tomonidan keladigan xavf-xatardan butunlay xalos bo‘ldi. Shuningdek, Chingizxonacha O‘rta Osiyo orqali o‘tgan va uning bosqini bilan buzib tashlangan Buyuk Ipak yo‘lining Shimoliy – G‘arbiy va Shimoliy Sharqiy yo‘nalishi qayta tiklandi. Bu esa Amir Temur davlati iqtisodiy hayotiga katta ijobiy ta’sirini o‘tkazdi. Xitoy, Sharqiy va G‘arbiy Yevropa bilan savdo, diplomatik aloqalar qayta tiklandi.

Amir Temur davlatini dunyoga tanitgan va uni jahonning sarkardasi hamda davlat arbobi darajasiga ko‘targan xizmatlaridan yana biri – Yildirim Boyaziddek sultanat egasini siyosiy maydondan chetlatib, umig yengilmas armiyasini o‘z poytaxti – Anqara ostonasida mag‘lub etganligi bo‘ldi.

Ayniqsa, Yevropa davlatlari Amir Temurni o‘zlarining chinakam xaloskori deb biladilar. O‘z minnatdorchiligini bildirib, ushbu davlatlar qirollari elchilarini Tog‘li Qorabog‘ va Samarcandga Sohibqiron huzuriga jo‘natib, siyosiy, iqtisodiy va harbiy shartnomalar imzolashdi. O‘z xavfsizliklarini ta’minalashda Amir Temurning kuch-qudratiga tayandilar, sohibqiron siyosida buyuk davlat arbobi, yengilmas sarkarda, ishonchli ittifoqchini ko‘rdilar.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyos. Amir Temur va uning avlodlari sa‘y-harakatlari bilan qurilgan madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, saroylar, bozorlar, qal’alar, kanallar va boshqa inshootlarning son-sanog‘i yo‘q. Amir Temurning bevosita rahnamoligida bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi, Go‘ri Amir, Ahmad Yassaviy, Zangi ota maqbaralari, Oqsaroy va Shohi Zinda me’moriy mo‘jizalari, Bog‘i Chinor, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Behisht, Bog‘i Baland singari o‘nlab go‘zal saroy, bog‘lar va boshqa inshootlar shular jumlasiga kiradi.

Tarix bu ko‘hna dunyoda juda ko‘p jahongirlarni ko‘rgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Uning «Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim» degan so‘zлari bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdig‘idir. «Agar bizning qudratimizni bilmoxchi bo‘lsangiz, qurgun

binolarimizga boqing», deganda Amir Temur, avvalo o‘z xalqiga, kelajak avlodlarga murojaat qilgan, desak yanglishmaymiz.

Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma’rifatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buni teran anglagan sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etishga, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash bilan boshlagan. Qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin Amir Temur avvalo, o’sha yerlik olimu fozillar bilan uchrashar, ular bilan suhbat qurar, turli mavzularda bahslashar edi.

Amir Temur ma’naviyatini belgilovchi bosh mezon uning butun umr bo‘yi amal qilgan «Kuch-adolatda» degan shioridir. Bu shiorda Amir Temur hayoti va faoliyatining butun mazmuni mujassamlashgan, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

8.2. «Amir Temur tuzuklari» – ma’naviyat sarchashmasi

«Amir Temur tuzuklari» jahondagi nomdor kutubxonalarda nodir kitoblar qatorida saqlanadi. Shuningdek, uni qirollar, marshallar, diplomatiya korpusi xodimlari va katta-kichik amaldor tabaqalar ham o‘zlarining turli darajadagi muammolari yechimini topishda saboq hamda kalit deb biladilar. Buni biz O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning «Temur tuzuklari»ga bergan yuqori bahosida ham ko‘ramiz. Shaxsan men «Temur tuzuklari»ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo‘laman, o‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, «Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbihsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan so‘zları bugungi kunda ham ma’naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanı barchamizga ayon.

Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma’noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan «Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqr» degan maqolga g‘oyat hamohang bo‘lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir.¹

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Т.: «Маънавият». 2008. 45-бет.

Haqiqatan ham dunyo bu kitobga katta ma'rifiy ehtiyoj sezib, ardoqlab kelganligi beziz emas. «Temur tuzuklari»da sohibqironning falsafiy, huquqiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari o'z ifodasini topgan. «Tuzuklar» Amir Temurning buyuk davlat arbobiga xos salohiyati, daholigi, harbiy san'ati nazariyotchiligi, insoniylik dunyosining ma'naviy-ruhiy quvvatlari bilan mardlik va shijoatining hududiy kengliklari haqida to'la tasavvur beradi. Binobarin, tuzuklarda ifodalangan g'oyalar orqali Amir Temur ma'naviyat olamining turli jabhalari yorqin ko'zga tashlanadi. Bir inson ega bo'lishi mumkin bo'lgan fazilatlar, iste'dodlar, voqealarga aql-idrok, teran zehn va tafakkur bilan baho bera olish, har qanday og'ir vaziyat va sharoitlarda vazminlik, pirovard natijada uni o'z davlati, xalqi foydasiga hal etish kabi sohibqironga xos sifatlar har bir inson uchun bugungi kunda ham, kelajak avlodlar uchun ham ibrat maktabi bo'lib qoladi.

Asrlar davomida tuzuklarning, uning ijodkori bo'lgan Amir Temurning dunyodagi aksariyat xalqlari ziyolilari siyosat, madaniyat hamda harbiy sarkardalar tomonidan e'zozlanib kelinayotganligi ham aynan shundandir.

Shuni ta'kidlash lozimki, agar Amir Temur tuzuklaridagi dono fikrlar quyi bo'g'indan to yirik amaldorlaru mansabdorlar va har qanday jamiyatdagi hal qiluvchi ahamiyatga ega tabaqa hamda guruh vakillari tomonidan ijodiy yondashuv asosida o'zaro munosabatga tortilsa, o'sha jamiyat albatta rivojlanishi, taraqqiyot sari yuz tutishi muqarrar. Unda har qanday muammoning aniq yechimini topish yo'llari ta'kidlab ko'rsatilgan. Agar «Tuzuklar»dagi boshqaruvchilar bilan boshqariluvchilar, ya'ni fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar qanday qilib ziddiyatlardan xoli qilinganligi, bu esa jamiyatning ijtimoiy ravnaqiga yo'l ochganligi nuqtayi nazaridan yondashilib, uning saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqarishga erishilsa, tuzuklar o'z asrida qo'yilgan vazifalarini yana davom ettira olish kuchiga ega bo'lib, ma'naviy quvvat bo'la oladi. Buni Sohibqironning vasiyat o'midagi o'gitlari ham tasdiqlab turibdi. Bu o'gitlar milliy davlatchiligidimizning barcha davrlariga daxldor deyish mumkin. «Bu «Tuzuklar»dan o'z saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, - deydi Amir Temur, - toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lgay». Sohibqiron qudratli saltunatni

idora etishda 12 tamoyilga qat’iy tayanib faoliyat yuritganligini ta’kidlaydi. Keyingi avlodlarni ham shunga rioya etishga chaqiradi.

«Temur tuzuklari» jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy, fan, madaniyat sohalarini yuksaltirishda muvaffaqiyatlar kaliti bo‘ldi. Amir Temurning zafar kaliti - ustozlari Tobodiy, Pir Shamsiddin kulol va Pir Sayid Barakalarga bo‘lgan ehtiromi bo‘ldi.

Sohibqiron Amir Temur qanday muvaffaqiyatlarga erishmasin, ularda ustozlarining katta ulushi va hissasini ta’kidlab o‘tadi, ularning hurmatini joyiga qo‘yib, doimiy duolarini olganligini ta’kidlaydi. Jahonning teng yarmini idora qilgan buyuk sultanat sohibi vafotidan keyin o‘z jasadini Sayid Pir Baraka oyog‘i tomonida qo‘yishlarini vasiyat qiladi. Bu vasiyat uning ustoziga bo‘lgan cheksiz hurmati belgisi edi.

Amir Temur jamiyat hayotida turli toifalar katta o‘rin egallashini yaxshi tushunib, davlatni boshqarishda ularning mavqeyi, aqli va salohiyatidan o‘rinli foydalanishga harakat qildi. Ular bilan munosabatlarni uzoqni ko‘zlab, aql-idrok kuchiga tayanib, hal qila bordi. Bu masalada ustoz Mir Sayid Barakaning o‘git va maslahatlariga amal qildi. Davlat boshqaruvida asqotadigan tamoyillarga rioya qilinganini sohibqiron quyida sa‘y-harakatlarida tatbiq qilganligini ta’kidlab o‘tadi: «Hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim. Ish ko‘rgan, sinalgan, er yigitlarni qoshimda tutdim. Sofdir kishilarga, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, ko‘ngli buzuq qo‘rroqlarni majlisimdan quvib yubordim. Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim».

Toifalar bilan munosabatni to‘g‘ri amalga oshirishda Mir Sayid Barakaning o‘gitlari ham alohida o‘rinda turdi. Ularda quyidagi ta’kidlar mavjud edi: «Buyuk zafarlar sohibi Temurga, Alloh uni hamisha qo‘llasin, ma’lum bo‘lsinkim, uning sultanati korxonasi Tangri taolo korxonasining bir kichik nusxasidirki, unda turli mansabdagi xodim va xizmatkorlar, noiblar, eshik og‘alari bordir. Ularning har biri martabasiga yarasha o‘z yumushi bilan mashg‘uldir, hech biri o‘z martabasidan chetga chiqmaydi va doimo Allohnning amriga muntazir bo‘lib turadilar. Shunday bo‘lgach, sen hamisha

hushyor va ehtiyotkor bo‘lgin, toki vazirlar, lashkarboshilar, amadorlar, ish boshqaruvchilar, sipohsolorlardan hech biri o‘z martabasi chegarasidan chiqmasin va doimo sening hukmingga muntazir bo‘lib turishsin. Har toifa va har qavmni o‘z martabalarida tutginki, sultanating Nizomiga kelib, davlat intizomga kirgay. Agar, har narsani va har kimni o‘z martabasida saqlay olmasang, sultanatingga bundan ko‘p xalal va ziyon yetgay. Demak, har kimning qadrqiymatini, tutgan mavqeyini va har narsanining o‘lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yuritishing kerak.

Hazrati Muhammad avlodidan bo‘lganlarning martabasini boshqalardan yuqori ko‘tarib, ularning izzat-hurmatini joyiga qo‘ygil. Ularga qancha ko‘p muhabbat bildirsang ham uni isrof deb o‘ylama, chunki qaysi ish xudo yo‘lida bo‘lsa, unda isrof yo‘qdir. 12 toifa bilan davlatingga ziynat berib, shular bilan sultanat qurg‘il, vassalom».

Amir Temur bu o‘git o‘rnidagi xatga siyosiy masala sifatida qarab, o‘zining bunga munosabatini quyidagicha bildirgan edi: «Pirimning ushbu xati menga yetgach, unda buyurilgan har bir narsani bajo keltirdim. Sultanatim ishlarini qonun-qoida va intizomga solib», sultanatim martabasiga zebu ziynat berdim. Sultanatimni 12 toifaga bog‘lab, tuzdim. Bu 12 toifani sultanatim falakining 12 burji va davlatim korxonasining 12 oyi deb hisobladim.

1-toifa - sayyidlar, ulamo, shayxlar, fozillarni o‘zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlisimni bezab turishdi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o‘rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirishardi, halol va haromga oid masalalarni men ulardan o‘rgandim.

2-toifa - aqlli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor arboblar, sergak va keyinni o‘ylab, olisni ko‘rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilarni xos majlisimga kiritib, suhbatlaridan, ishlaridan naf olib, tajriba hosil qilardim.

3-toifa - duogo‘y kishilarni qadrlardim. Ular bilan xilvatda suhbat qurib, ko‘nglimdagagi maqsadimni aytab, duo tilardim. Majlislarda, bazmlarda, jang maydonlarida ulardan ko‘p barakatlar topdim.

4-toifa - amirlar, sarhanglar, sipohsolorlarga majlisimdan o‘rin berib, martabalarini yuqori ko‘tardim. Ular bilan suhbatlashib, maslahatlar oldim. Jang maydonlarida mardona qilichlashgan shijoat ahlini do‘s tutardim. Jang maydonlariga ot choptirib kirib, chiqish usullu-

rina, g'anim lashkari to'pini buzib, ularni sindirishni, nayza sanchib, qilich chopqilashni, butun urush-talash ishlarini ulardan so'rарedim.

5-toifa - sipoh va raiyat bo'lib, har ikkisiga bir ko'z bilan qarardim. Sipohiylardan chiqqan bahodirlar, dovyuraklarga maxsus faxrli o'tov, kamar va tarkash taqdim etib, martabalarini ko'tardim. Har el va har mamlakatning ulug'larini, boshliq oqsoqollarini qadrlandim, ularga sovg'a-salomlar berib, xizmatlaridan foydalandim. Sipohiyalarimni hamisha jangga tayyor holda tutdim, oylik haqlarini so'rattirmay, vaqtida berardim. Chunonchi Rum yurishida sipohiyalarimga o'tgan va kelajakda qiladigan xizmatlari uchun 7 yillik ozuqlarini bordaniga berdim.

Sipoh va raiyatni shunday tutdimki, birontasi ikkinchisidan ustunlik qilib, qattiq gapira olmas edi. Boshqa sipohiyarlari o'z martabalariga va darajalariga qarab shunday saqlardimki, haddidan tashqari biron qadam qo'ya olmasdi. Ularning martabalarini ko'p ko'tarib, hovliqtirmadim va na ko'p tushirib yuborib, ko'ngillarini cho'ktirmadim. Qaysi biri ko'zga ko'rinarli biror xizmat ko'rsatar ekan, in'omlar berib, boshqalardan ayricha hurmatladim. Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroq ko'rsam, uni tarbiya qilib, amirlik darajasiga chiqarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatiga yarasha martabasini yanada ko'tarar edim.

6-toifa - aqli, tajribali eng ishonchli kishilarki, sultanat ishlarini, sirlarini ularga ochib, ular bilan kengash qilishimga loyiq kishilar edi. Bular bilan sirdoshlik qilib, yashirin ishlar, maxfiy sirlarni shularga topshirdim.

7-toifa - vazirlar, bosh kotiblar, devon munshiylariki, sultanatim saroyini shular bilan bezatdim. Bularni menga tobe mamlakatlar uylarining ko'zgusi deb bildim. Chunki ular el orasida va mamlakatda bo'layotgan kundalik voqealarni, sipoh va raiyat turish-turmushini menga bildirib turar edilar. Bular davlat xazinasini, sipoh va raiyatga oid ishlarni tartibga solib, yuritdilar. Sultanat mulkiga tushgan rahnalarni bekitishning loyiq chora-tadbirlarini ko'rdilar. Sultanatim korxonasi xazinasining kirim va chiqimiga oid ishlarni to'g'ri olib bordilar. Hamisha mamlakat to'kinchiligi va obodligi uchun harakat qildilar.

8-toifa - hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o‘z atrofimga to‘pladim. hokimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim. Munajjimlardan sayyoralarning qutlug‘ va qutsiz kunlari, ularning harakati va osmonda aylanishini aniqlab olardim. Muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar barpo etib, bog‘u bo‘stonlarning loyiha va tarhini chizdirdim.

9-toifa - muhaddislar, payg‘ambar, uning avlodlari va sahabalari haqida rivoyatlar naql qiluvchilar (tarixchilar) hamda qissaxonlar bo‘lib, ularni ham o‘zimga yaqinlashtirdim. Payg‘ambarlar va avliyolar haqidagi qissalarni, o‘tgan podsholar to‘g‘risidagi xabarlarni, ularning saltanat taxtiga qanday yetishganliklarini, davlatlarning qanday sabablarga ko‘ra zavol topganligini bulardan so‘rab, bilardim. Har qaysisining qissalari va xabarları, ishlari va so‘zlarini eshitib, tajribam ortdi. Olamda bo‘layotgan voqealarni ulardan eshitardim va olam ahvoldidan xabar topar edim.

10-toifa - mashoyixlar, so‘filar, xudoni tanigan oriflardir. Ularning xizmatlarida bo‘lib, suhbatlar qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ulardan Tangri taoloning so‘zlarini eshitib, karomatlar ko‘rdim, favqulodda odatlarni mushohada etdim va suhbatlaridan rohatlanib, huzur qildim.

11-toifa kasbu-hunar egalaridir, bularning har toifa va sinfidan bo‘lganlarini davlatxonamga olib kelib, o‘z o‘rdamdan o‘rin belgiladimki, safarda va xatarda sipohimga kerak yaroqlar va boshqa narsalarni hozirladilar.

12-toifa har mamlakat va diyor sayohatchilari-yu, musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvon-boshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalaridan keltirishsin. O‘sha mamlakatlarda yashovchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushlari haqida menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorining o‘z raiyatiga qanday muomala-yu, munosabatda ekanligini aniqladilar».

Buyuk Sohibqiron masfurasing asosiy mohiyatini tashkil etgan «millat dardiga darmon» bo‘lishga chaqirig‘i hozirgi kunda ham suv bilan havodek zarur da’vatdir.

«Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch

bunyodkorlik va buzg‘unchilik g‘oyalari hamisha o‘zaro kurashadi. Bunyodkor g‘oya insonni ulug‘laydi, uning ruhiga qanoat bag‘ishlaydi.

Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g‘oyalarni asos bo‘lgan».¹

8.3. Amir Temur va temuriylar davrida ma’naviy-madaniy uyg‘onish

Madaniyatimiz va ma’naviyatimiz tarixining eng qudratli, sifat jihatdan yangi davri Amir Temur va temuriylar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiyot, madaniyat, ma’naviyatning yana qayta yuksalishi, ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishi turli qabilaturug‘lar, qavmlar, elatlar o‘rtasidagi mushtaraklikni kuchaytirdi, ularning milliy jipslashishini tezlashtirdi. Eski o‘zbek adabiy tili shakllana boshladi. U Taroz va Yassadan to Hirotgacha fors tili bilan bir qatorda umumiyoq aloqa va ijod vositasiga aylandi. Milliy ong, tafakkur, milliy adabiyot va san’at, ilm-fan rivojida kishilarning yangi tarixiy birligi shakllanishi ehtiyojlari o‘z aksini topdi. Biz bu davrdagi chig‘atoy-turkiyni eski o‘zbek tili, Durbek, Sakkoki, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur ijodini mumtoz o‘zbek adabiyoti deb bejiz atamaymiz. Bugungi mumtoz o‘zbek adabiyoti, san’ati, va madaniyatining shakllanishida Amir Temur va temuriylar davri hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mo‘g‘ullardan hokimiyat Amir Temurga o‘tgandan so‘ng ma’naniy hayotda haqiqiy Uyg‘onish davri boshlandi. Madaniyat, ma’rifat, hunarmandchilik, savdo-sotiq gullab-yashnadi, shaharlar va qishloqlarda obodonchilik keng ko‘lamda olib borildi. Ariqlar, kanallar qazildi. Yangi yerlar o‘zlashtirildi, bog‘lar barpo etildi. Karvonsaroylar, madrasalar, hammomlar, bozorlar, rastalar, saroylar, hashamatli imoratlar, suv quvurlari qurildi. Amir Temur bu ishlarni nafaqat yurtida, shuningdek, zabit etilgan mamlakatlarda ham amalga oshirdi.

Yirik imperiyaga birlashgan xalqlar va ularning madaniyatları o‘rtasida muloqot kuchaydi. Turli xalqlar madaniyatları bir-birlaridan

¹ Милий истиқлол гојси: Асосий тушунча ва тамоиллар. Т.: Ўзбекистон, 2000. 10-бет.

o'rgandilar, bir-birlarini boyitdilar. Imperiya, garchi harbiy yurishlar natijasida tuzilgan bo'lsada, unda ichki boshqaruvda zo'ravonlik qo'llanilmas, balki Amir Temurning «Kuch - adolatda» tamoyili asosida ish yuritilar edi. Amir Temur davlatida milliy madaniyatlarning o'zaro ta'siri va bir-birini boyitishi aslo zo'ravonlik natijasi emas, balki buyuk buniyodkorlik, xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi, hamkorligi natijasidir.

Amir Temur davridagi allomalar haqida gapirganda avvalo, uning xos, yaqin kishilaridan bo'lган mavlono Abdumalikni eslash o'rinnlidir. U Burhoniddin Marg'inoniyning avlodlaridan biridir. Abdumalik mudarrislik qilgan, she'rlar yozgan. Turkiy, arab va fors tillarini, turli ilmlarni mukammal egallagan shaxs bo'lган. U Amir Temurning arab olimlari va fozilu ulamolari bilan suhbatlarida, bahslarida tarjimonlik qilgan. Amir Temur bilan suhbat qurban, bir qancha muddat uning qarorgohida yashagan Ibn Xoldun va boshqa allomalar o'z xotiralarida Abdumalikka yuksak baho berganlar.

Amir Temur davrining dong'i chiqqan olimlaridan Sa'duddin at-Taftozoniy, Sayyid Sharif Muhammad al-Jurjoniy, Xoja Muhammad az-Zohid al-Buxoriyni ko'rsatib o'tish lozim. Xoja Muhammad az-Zohid al-Buxoriy Qur'oni Karimni yuz jildda tafsir qilgan. Musiqa ilmida shuhrat topgan bastakor va ustoz Abduqodir al-Marog'iy nomi ham tarixda qolgan.

Ibn Arabshohning yozishiga qaraganda, mavlono Ahmad ibn Shams ul Aimma turkcha, forscha, arabchada «malik ul kalom» unvonini olgan. Bu uchchala tilning podshohi deganidir. Ushbu munosabat bilan shuni alohida ta'kidlamoqchi edikki, o'rta asrlarda ilmiy, adabiy va madaniy hayotning milliyligi qaysi tilda bitilgani bilan belgilanmagan.

G'arbiy Yevro'poda badiiy asarlar XIV asr oxirigacha, ilmiy asarlar deyarli XVII asr oxirigacha asosan lotin tilida yozilgan. Adabiyot va san'atning milliy tilga ko'chishi Renessans davrida uzilkesil hal bo'ldi.

Bizning mintaqamizda arab tili ilm tili sifatida XV asrgacha o'z mavqeyini saqlab turdi. Lekin, fors tilining ilmiy mavqeyi ham bu davrga kelib ancha yuksalgan, hatto arab tili bilan tenglashib qolgan edi. XVI asrdan Markaziy Osiyoda so'nib borayotgan tabiatshunoslik ham to'la fors tiliga ko'chdi. Badiiy ijoddha IX asrdan boshlab fors tilli

yetakchilik qila boshladi. Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib kabi atoqli shoirlar ijodi qoraxoniylar davrida turkiy tildagi adabiy yuksalish namunasidir. Lekin, bu yuksalish chingiziylar davrida tanazzulga yuz tutgan edi. XV asrgacha mintaqamizda arab va turkiy tilda bitilgan asarlar, bu tilda ijod qilgan adiblar kam bo'lmasada, ular orasida daho darajasidagi yirik ijodkorlar yo'q edi. Lekin bu turkiy xalqlardan adabiyot sohasida bunday ijodkorlar XV asrgacha chiqmagan ekan, degan tushunchani anglatmaydi.

Ta'kidlash joizki, Samarcandga va mamlakatimizning boshqa shaharlariga o'zga yurtlardan ko'chirib keltirilgan hunarmandlar, san'atkorlar, olimlar oila a'zolarining haq-huquqlari cheklanmagan, ular qulga yoki xizmatkorga aylantirilmagan. Balki mahalliy aholi bilan bir xil sharoitda, bir xil huquqqa ega bo'lib yashagan va kasb-kori bilan shug'ullangan.

Yuqorida iqtibos keltirilgan Ibn Arabshoh 12 yoshida Samarcandga oilasi - onasi, aka-ukalari bilan ko'chirilgan edi. Uning Samarcandda har tomonlama bilim olib, yetuk tarixnavis, shoir va adib, ko'p fanlar bo'yicha chuqur bilimdon bo'lib yetishgani yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. U chig'atoiy turkiy (eski o'zbek), arab va fors tillarini mukammal bilgan. Chig'atoiy turkiyda she'rlar yozgan, hatto o'zining ayrim ilmiy asarlarini bu tilga she'riy usulda tarjima qilgan.

Amir Temur faoliyatining bosh g'oyasi «Kuch - adolatda» hikmati, umuminsoniy ahamiyatga ega. Bu g'oya hozir ham, bundan keyin ham eng e'zozli umuminsoniy ma'naviy qadriyatlardan, axloqiy va huquqiy me'yordan biri bo'lib qolajak. Rostgo'ylik, haqiqatgo'ylik, adolatparvarlik, yurti va fuqarolari to'g'risida qayg'urish, mamlakati tinch va osoyishta, obod va farovon bo'lishiga butun kuch-g'ayratini, aql-zakovatini yo'naltirish kabi Amir Temurgagina xos fazilatlar uning chinakam buyuk ma'naviy shaxs bo'lishiga, buyuk bunyodkor davlat boshlig'i sifatida tarixda o'chmas iz qoldirishiga xizmat qildi. Mazkur fazilatlar uning avlodlariga ibrat bo'ldi va hozir ham shunday.

Davlat boshqaruvi, demokratiya tamoyillariga suyanish, ijtimoiy hayotni tartibga solish, jinoyatchilikka qarshi kurash va qonun ustuvorligini ta'minlash, xalqaro munosabatlarni teng, ikki tomonlama manfaatdor iqtisodiy aloqalar va hamkorlik asosida

qurishga oid bugun tan olingen umumbashariy me'yorlar, qadriyat-larning birortasi yo'qki, u Amir Temurning amaliy faoliyatida va siyosatida kurtak sifatida mavjud bo'lmasa.

Amir Temurning davlat ishlarining 90 foizi kengashu mashvarat, faqat 10 foizi kuch (ya'ni ma'muriy yo'l) orqali hal qilinishi lozim, degan tamoyili o'z davri uchun maslahat asosida, ya'ni o'ziga xos demokratik boshqaruv me'yordir. Xalq norozi bo'lgan, adolatni buzgan hokimlarni vazifasidan chetlashtirib jazolashi yoki mamlakatning bir sarhadidan ikkinchi sarhadiga boshiga bir lagan javohir qo'yib o'tayotgan bolakayning biror dona ham javohiri yo'qolmaydigan tartib o'rnatgani adolat va qonun ustuvorligining o'z davrida ta'minlanishidir.

Uning G'arb davlatlari hukmdorlariga yozgan maktublarida mamlakatlar o'rtasida urushlar emas, savdo-sotiqlar rivojlanishi farovonlikka, obodonchilikka xizmat qilishi to'g'risidagi fikrlari va bunday aloqalarni o'rnatish bo'yicha bildirgan amaliy takliflari ham bugungi xalqaro siyosiy va iqtisodiy aloqalar negizida yotgan tamoyilning o'sha davrda nish urgan kurtagidir.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar, me'yorlar bevosita ma'naviyatning mohiyatli unsurlaridir. Ular turli tarixiy davrlarda turli ko'rinishlar kasb etishi, shaklan va mazmunan boyishi tabiiy. Bugun biz buning guvohimiz. Faxr bilan e'tirof qilishimiz mumkinki, zamonaviy umuminsoniy qadriyatlarning muayyan qismi o'z ildizlari bilan bizning ajdodlarimiz ijodiga va faoliyatiga borib taqaladi.

Temuriy shahzodalar, afsuski, o'zaro taxt va mansab talashib, mamlakat barqaror va bir tekis rivojlanishini ancha qiyinlashtirdilar. Lekin ularning aksariyati chuqur bilimli, adabiyot va san'atga qiziquvchan, o'zлari ham ijod borasida yuksak iqtidorli edilar. Shu bois ilm-fan, san'at va din arboblariga homiylik qildilar. O'z mulklari, viloyatlari yoki hokimiyat tepasiga kelib qolsalar, butun mamlakat miqyosida obodonchilik ishlari bilan shug'ullanishga, ma'rifatni qo'llab-quvvatlashga intildilar. Ayniqsa, Shohrux, Ulug'bek va Husayn Boyqaro kabi temuriy shahzodalar bu borada alohida ajralib turadilar.

Amir Temur o'z vasiyatida to'ng'ich nabirasi Pirmuhammadni valiahd qilib tayinlagan edi. Ammo, avlodи uning bu vasiyatiga amal qilmadi. Toj-taxt uchun kurashlar oqibatida Amir Temurning kenja

o‘g‘li Shohrux hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Otasi vasiyati bo‘yicha davlat tepasiga kelmagani uchun bo‘lsa kerak, otasi taxtiga o‘tirishga jazm qilolmay, poytaxtni Hirotg‘a ko‘chirdi va Samarqandni o‘g‘li Ulug‘bekka topshirdi. Bu hol uning ma’naviy-axloqiy fazilatining bir qirrasini ko‘rsatib turibdi.

Samarqand va Hirot nafaqat temuriylar davlatining, balki butun islom madaniyati, ilm-fani va san‘atining ikki markaziga aylandi. Samarqandda Ulug‘bek atrofida o‘sha davrning buyuk riyoziyotchi va astronomlari, muhandislari, turli fanlar bo‘yicha boshqa olimlar to‘plandilar. Usmonli Turkiya mamlakatidan Qozizoda Rumiy, Erondan G‘iyosiddin Jamshid Koshiy Ulug‘bek huzuriga kelib, u bilan birga trigonometriya, geometriya va astronomiya sohasida, astronomik asboblar, globus yasash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazadilar. Keyinchalik mahalliy yoshlardan buyuk olim Ali Qushchi yetishib chiqdi. Ulardan tashqari Muhammad Havofiy, Alouddin al-Buxoriy singari ko‘plab iste‘dodli, olimlar Ulug‘bek madrasasi va rasadxonasida faoliyat ko‘rsatdilar, yoshlarga ta’lim berdilar, ilmiy kuzatishlar olib bordilar. Samarqandda o‘sha davrda jahondagi eng zamonaviy, mukammal observatoriya - rasadxona qurildi. 1018 ta yulduzning koordinatlari aniqlanib, jadvali tuzildi. U haqqoniy ravishda «Ziji jadidi Kuragoniy» yoki «Ziji Ulug‘bek» deb ataldi. Ulug‘bekning ilmiy maktabi al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy va ayniqsa, al-Beruniy ilmiy merosini chuqur o‘rgandi, tahlil etdi, bu merosning haqiqiy vorisi, davomchisi bo‘lib, ilm-fan, ma’naviyat tarixi sahnasiga chiqdi.

G‘iyosiddin Jamshid Koshiy va boshqalarning yozib qoldirishi-cha, Beruniyning «Qonuni Mas‘udiy» asari Ulug‘bek shogirdlari va hamkasblarining deyarli qo‘lidan tushmaydigan kitob, darslik bo‘lgan. Bu asarning turli boblari bo‘yicha munozaralar, ilmiy bahslar olib borilgan, ular og‘zaki va yozma talqin qilingan.

Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy rivojlantirgan falakiyot ilmi o‘zining oliy yuksalishiga Ulug‘bek akademiyasida erishdi. Teleskoplar ixtiro qilingunga qadar rivojlangan jahon falakiyot ilmining xulosasi va cho‘qqisi Ulug‘bek va uning hamkorlari ijodidir.

Ma’lumki, zij tuzish uchun osmon jismlari eng kamida 12 yil, o‘rtacha 24 yil, tugal bo‘lishi uchun 36 yil kuzatiladi. Shu bois, Ulug‘bekning davlat ishlaridan bo‘shagan paytlardagi asosiy vaqt

rasadxonada yulduzlar va osmon jismlarini kuzatishga ketgan. Ulug‘bek ziji ni ta’riflab o‘tirishning hojati yo‘q. Uni butun dunyo tan olgan. Uning muallifiga Sharqu G‘arb O‘rta asrlarning eng buyuk astronomi degan baho berilgan.

Davlatshoh Samarqandiy Ulug‘bekka «maoniy ilmida (ma’nolar ilmi - dunyoviy fanlar va mantiq) qilni qirq yordi», deb baho beradi. «Uning davrida, deb yozadi Davlatshoh Samarqandiy, - olimu fozillar martabasi nihoyat baland cho‘qqiga ko‘tarildi... Fozillaru hakimlarning yakdil fikrlari shulki, islomiyat zamonida, balki Zulqarnayn zamonidin shu paytgacha Ulug‘bek ko‘ragondek olim va podshoh saltanat taxtida o‘ltirmagan».¹

Jamshid Koshiy va Ulugbek tomonidan sinus bir gradusini hisoblash masalasining ikki original usulda yechilishini xorij olimlari ham mukammal yechim deb baholaganlar. Biz Ulug‘bekni ko‘proq buyuk falakiyotchi (astronom) olim sifatida bilamiz. Aslida u trigonometriya rivojiga ham beqiyos hissa qo‘shtan. Umuman Ulug‘bek qiziqlishi va bilimiga ko‘ra, har jihatdan qomusiy olim bo‘lgan. Uning «To‘rt ulus tarixi» degan yirik asari (afsuski, tugallanmay qolgan) mustaqillik yillarida xalqimizga yetib keldi. Faraz qilish mumkinki, astronomik kuzatishlarini yakunlagach, Ulug‘bek falsafa, tarix, adabiyotshunoslik va boshqa fanlar bilan ham jiddiy shug‘ullangan edi. Chunki Jamshid Koshiy ma’lumotiga ko‘ra, «u qonunshunoslik (fiqh)dan yaxshi xabardor; mantiq, adabiyot uslublarini hamda musiqa nazariyasi asoslarini biladi. U kishi riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan...».²

Ulug‘bek ilmiy dunyoqarash tarafiori, ayni paytda komil musulmon edi. U islom aqidalarini, Qur’on oyatlari va hadislarni talqin qilar, xurofotni, mutaassiblikni qabul qilmas edi. Shu bois uni diniy mutaassiblar uncha xushlamaganlar. Bu Abdullatif ko‘rsatmasi bilan Samarqand ulamolarining Ulug‘bek taqdirini hal qilish borasida qabul qilgan hukmlarida o‘z ifodasini topgan.

Ulug‘bek maktabining yana bir dahosi - Ali Qushchining ilmiy xizmatlarini ham alohida ta’kidlash lozim. Ali Qushchi o‘rta asrlarda yurtimizdan dunyoviy ilm-fan, tabiatshunoslik sohasida chiqqan oxirgi qomusiy olimdir. U o‘z zamonasidagi dunyoviy ilmlarga oid

¹ Қаранг: Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотирасида. Т.: «Ўқитувчи», 1996, 10-6

² Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотирасида. Т.: «Ўқитувчи», 1996, 278-бет

deyarli barcha fanlarni puxta egallagan. U nafaqat matematika va astronomiya fanlari rivojlanishiga buyuk hissa qo'shdi, shuningdek, mantiq, falsafa, grammatika va adabiyot nazariyasi, tabobat, fiqh, tarix va boshqa sohalarga oid risolalar ham bitib, ularni boyitdi. U bu sohalarga bag'ishlangan asarlarida haqiqiy ilmiy usulni, ratsionalistik tahlil va umumlashtirishni, ilmiy xolislikni (obyektivlikni) himoya qildi. Ya'ni ilm-fanda, tafakkurda, dunyoqarashda Ulug'bek tamoyillarini davom ettirdi va himoya qildi.

Ali Qushchi matematika faniga «musbat» va «manfiy» tushunchalarini kiritdi, o'nli kasrlar nazariyasini boyitdi. Ayo Sofiya madrasasida bosh mudarris bo'lganida 90 gradusdan kichik burchaklarning o'tmas bo'lishi mumkinligi to'g'risida bahslar yuritdi. Keyingi holatni noevklid geometriyasiga taalluqli olib borilgan ilk tadqiqotlardan biri, deb baholash mumkin.

Astronomiya sohasida esa u Ulug'bekning o'ng qo'li edi. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» Ali Qushchi ishtiokisiz, balki, tugallanmay qolgan bo'lur edi. Uning sharhlarini arab tiliga tarjima qilib, butun jadvalga tartib bergen ham, Ulug'bek qatlidan keyin saqlab qolib, butun dunyoga targ'ibot qilgan ham Ali Qushchidir.

Ulug'bek o'z atrofiga nafaqat olimlarni, shuningdek, iste'dodli shoir va bastakorlarni, adiblarni, me'morlarni, rassom va naqqoshlarni, xattotlarni va san'atning boshqa sohalariga oid ijodkorlarni to'pladi. Mumtoz o'zbek adabiyotining shakllanishiga Navoiygacha zamin yaratganlardan biri - atoqli shoir Sakkokiy Ulug'bek atrofidagi ijodkorlardan edi. Xoja Ismatullo Buxoriy, Kamol Badaxshoniy kabi shoirlar, «ilmi hikmatda zamonasining yaktosi» Alouddin Shoshiy, mashoyix Hasan Attor kabi atoqli ijodkorlar Ulug'bek davrida Samarqandning ma'naviy hayotini yuksaltirdilar.

Buyuk faqih Abul Lays as-Samarqandiyning avlodlaridan xoja Fazlulloh Abullaysiy - Alisher Navoiyga ikki yil dars bergen ulug'ustoz ham o'z ijodiy faoliyatini Ulug'bek davrida boshlagan. Ulug'bek Samarqandda, Buxoroda, G'ijduvonda oliy madrasalar (o'sha davrdagi universitet), boshqa shaharlarda ham ko'plab maktablar va madrasalar qurdirdi. «Ilm olmoqlik har bir muslim va muslima uchun farz» degan hadisni Buxoroda qurdirgan madrasa eshigi tepasiga yozdirib qo'ydi.

Temuriylar davri ma'naviyati va ma'rifati rivoji o'zlarini ongli hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodati, xalqlar osoyishtaligi obodonlik ishlari, ilm-fan, adabiyot va san'at rivojiga bag'ishlangan ikki buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va Mir Alisher Navoiy (1441-1501) larning nomi bilan chambarchas bog'liq.

Abdurahmon Jomiy O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy olamida, badiiy tafakkur osmonida yorqin nur sochib, o'chmas iz qoldirgan mutafakkirlardan biri. Abdurahmon Jomiy temuriylar davri dunyoqarashi, mafkurasi bo'lmish naqshbandiylikka ixlos qo'ygan, uni qabul qilgan, o'zi shu yo'ldan borgan va uning g'oyalarini targ'ib etgan. Naqshbandlik adolatni, o'z mehnati asosida bunyod etilgan halol luqmani ma'qullagan, dabdabali hayotni rad etgan, g'irrom yo'llar bilan mol-mulk topishni qoralagan. Bu ta'limot insonparvarlik, rostgo'ylik, halollik, mehnatsevarlik, ma'naviy poklik, kamtarlik, samimiylilik kabi chin insoniy fazilatlarni ulug'lagan. Uning «Dil ba yoru dast ba kor» – «Ko'ngil Ollohda-yu, qo'l mehnatda» shiori Jomiy va Navoiy kabi mutafakkirlarni o'ziga jalb etgan. Shu sababli bu ikki siymo, so'z san'atkorlari naqshbandiylik yo'lini qabul qilganlar va o'z ijodlarida uning g'oyalarini tarannum etganlar.

O'zbek xalqining buyuk farzandi, mutafakkir, davlat arbobi, o'zbek adabiyoti va tilining asoschisi Alisher Navoiy O'rta Osiyoning ma'naviy va ma'rifiy fikr taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. U adabiyot va san'atning turli sohalariga oid qirqdan ortiq asar yaratdi. «Chor devon», «Hamsa», «Mahbub ul qulub», «Muhokamat ul lug'atayn», «Majolis un nafois», «Lison ut tayr» va boshqalar shular jumlasidandir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir

inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa».

«Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir».¹

Alisher Navoiyning bundan qariyb 550 yil avval ilgari surgan g‘oyalari asrlar osha ahamiyatini, hayotiyligini yo‘qotmagan. Prezidentimiz Islom Karimovning insonparvarlik, xalqlar tinchligi uchun olib borayotgan kurashi bilan hamohang bo‘lib yangramoqda.

Davlat boshlig‘ining o‘zi ijod bilan shug‘ullanishi, ma’rifatga intilishi, ijod ahliga homiylik qilishi uning a’yonlariga ibrat va taqlid uchun namuna bo‘lgan. Husayn Boyqaro va viloyatlar hokimlari saroyida ijodiy muhit qaynab turgan.

Shohrux davrida Sharafiddin Ali Yazdiy tarixnavislikda, Lutfiy she’riyatda, Jomiy tasavvufda va she’riyatda buyuk meros yaratdilar. Tasavvuf, xususan, naqshbandiya tariqatining ma’naviy hayotdagi mavqeyi ancha yuksaldi, yetakchi o‘rinni egalladi. Husayn Boyqaro zamonida naqshbandiya mavqeyi yanada mustahkamlandi, u rasmiy mafkura darajasiga ko‘tarildi. Jomiy va Navoiy nafaqat daho shoir, shuningdek, falsafiy-diniy masalalar, axloq, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, jamiyatni boshqarishni takomillashtirish, inson shaxsini tarbiyalash, ma’rifat va ma’naviyat borasida ham buyuk mutafakkirlar edilar. Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosify tarixnavislik bobida ajoyib asarlar bitdilar.

Shu o‘rinda Alisher Navoiy ijodining milliy ma’naviyatimizda tutgan o‘rni haqida alohida to‘xtalish zarur. Biz Alisher Navoiyni nafaqat mumtoz o‘zbek adabiyoti asoschisi, daho shoir, mashhur davlat arbobi, ta’lim va san’at homiysi sifatida, shuningdek, milliy ma’naviyatimiz tarixida butun bir davrni tashkil etgan qomusiy mutafakkir sifatida ham anglab olishimiz zarur.

«Alisher Navoiy va o‘zbek ma’naviyati» masalasi bir necha yo‘nalishlardan, mavzulardan iborat juda katta masaladir. Zero, shoir o‘z faoliyati va ijodida, birinchidan, chig‘atoy-turkiy (eski o‘zbek) milliy ongi va milliy g‘oyasi shakllanishiga xizmat qilgan. Ya’ni eng avvalo o‘zining badiiy ijodida, har qanday siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy (maktablar, madrasalar qurish, san’atkorlarga,

¹ Каримов И.А. Юксак мънавият – сингилмас куч. Т.: «Мънавият» 2008. 47-бет.

olimlarga, adiblarga, ulamolarga homiylik qilish) faoliyatida turkiy (eski o'zbek) tilda ijod qilishni alohida rag'batlantirishda va boshqa barcha masalalarda shakllanayotgan xalq, uning adabiy tili va milliy davlatchiligi manfaatlaridan kelib chiqib, ish tutgan. Ikkinchidan, eski o'zbek adabiy tili me'yorlari va mezonlarini tartibga keltirilishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Uchinchidan, milliy-badiiy tafakkurni jahon badiiy tafakkurining eng yuksak cho'qqilariga ko'tara olgan.

Alisher Navoiy gacha chig'atoy-turkiy tildagi adabiyot go'zal va nozik his-tuyg'ularni, lirik hissiyotni ifodalashda (Sakkokiy, Lutfiy) yoxud voqealarni lirik-epik tasvirlashda (xalq baxshilari, Durbek) ancha yutuqlarga erishgan, yuksak mahoratga ko'tarilgan bo'lsada, olamshumul badiiy-falsafiy qomusiylik (ya'ni o'z davridagi falsafiy-axloqiy, estetik, diniy-ruhoniy, dunyoviy-ma'naviy omillar mujassamligi) ahamiyatini kasb etmagan edi. Faqat Alisher Navoiy ijodida biz shunday qomusiylikni ko'ramiz.

Alisher Navoiy ijodida tasavvufning sirli jilolari va teranliklari ham, hamsachilikning falsafiy-epik kengliklari, serqirraligi va qudrati ham, g'azaarning nozik, maftunkor obrazliligi va musiqiyligi ham birday o'z ifodasini topdi.

Alisher Navoiy asarlarini o'rganishdan maqsad nafaqat estetik, badiiy ehtiyojlarimizni qondirish, zavq olish, bilimlarimiz va dunyo-qarashimizni boyitish, aqlimizni charxlash, didimizni yuksaltirish, shuningdek, o'zligimizni tarixning yangi bosqichida qayta anglash, kelajak yo'lida o'z ma'naviy manbalarimiz, tarixiy ildizlarimizdan ko'proq oziqlanish, kuch toplash, dunyoqarash va e'tiqodning dolzarb masalalariga munosabatlarimizni aniqroq belgilab olishda qo'shimcha dalillar topishdir. Bundan Alisher Navoiy asarlari bugun ham biz uchun qay darajada zamonaqiylik va dolzarblik kasb etishi yorqin ko'rinish turibdi.

Alisher Navoiy ijodini qanday baholash, munosabatimizni aniqlash tor ilmiy-falsafiy va adabiyotshunoslik muammozi emas. Bugungi kunda u milliy mafkura, ma'naviy taraqqiyotimizning kelajak yo'li qanday bo'lishi lozimligi va muammolarni yechishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

O'sha davr ma'naviyatini miniatyura san'atisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. Kamoliddin Behzod va boshqa rassomlarning rung-tasvirda ishlagan kitob miniatyuralari umuminsoniy qadriyatlarga,

jahon san'atining durdonalariga aylandi. Behzod asarlari Matiss ijodiga va u orqali hatto XX asr Yevropa rangtasvirining ba'zi modernistik oqimlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Behzod asrlar o'tib, bizning zamonomizda haqqoniy ravishda Sharqning eng buyuk, daho rassomi deb e'tirof etilmoqda. U «Sharq Rafaeli» deb nom oldi. Uning asarlari vaqt sinoviga bardosh berdi va ularning qiymati yanada oshdi.

Behzod maktabidan keyinchalik Buxoro va Samarcandda o'zlar ham maktab yaratgan ikki atoqli rassom - Mahmud Muzahqib va Muhammad Murodlar yetishib chiqdilar. O'sha davrdagi ma'naviy muhitni, ma'naviy tarbiyani tasavvur qilish uchun Alisher Navoiyning Said Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad hayotlariga bag'ishlangan asarlarini, «Majolisun nafois»ini o'qish lozim. «Majolisun nafois»ning beshinchi majlisini Navoiy amirlar, yuksak amaldorlar va ularning o'g'llaridan o'sha paytda she'r yozayotganlarini sanab, ular ijodidan namunalar keltiradi. Bu yuksak a'yonlar, martabali amaldorlarning ta'lim-tarbiyaga, ma'naviyatga munosabatidan va jamiyatda hukm surgan ma'naviy muhitdan bilvosita dalolatdir. Buyuk o'zbek shoiri Zahiriddin Muhammad Bobur ham temuriy shahzodalardan. Bobur yangi sulolaga asos soldi. Afsuski, bu sulola Qobul va Hindistonda hukmronlik qildi. Boburiylar ilm-fan, adabiyot va san'at shaydolari, homiyłari bo'lib, o'zlar ham ijod bilan shug'ullanishgan. Boburiylar bilan bog'liq xorijda rivojlangan o'zbek madaniyati va ma'naviyati hali yetarli darajada o'rganilgan emas, o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi (Boburiylar va ular saroyida xizmat qilgan yurtdoshlarimizning, ular avlodlarining turkiy (eski o'zbek) va fors-tojik tilida ijod qilgan shoiru adiblar, tarixchilar, faylasuf va mutasavvuflar ijodini biz milliy madaniy merosimizning xorijda yaratilgan uzviy bo'lagi deb qarasak, mantiqqa zid bo'lmaydi).

8.4. Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan ma'naviy merosning ma'naviy tiklanishda tutgan o'rni

Milliy mustaqillik tufayli jahon ma'naviyati va ma'rifati sohasida o'z o'rinalariga ega bo'lган piru komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosni teran anglash, o'rganish va

ulug‘lash imkoniyati yuzaga keldi. Buyuk davlat arbobi, ma’rifat homiysi, yuksak ma’naviyat egasi Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan, abadiylikka daxldor merosi bugungi kunda xalqimiz ruhiy-ma’naviy poklanishi va milliy o’zligini anglashning bitmas-tuganmas chashmasidir.

Biz bugun yashayotgan mustaqil O‘zbekiston davlatidagi tarixiy go‘zal makonlarning ko‘pchiligi Amir Temur va temuriylar davrida vujudga kelgan. Temuriylar davri har sohada chinakam uyg‘onish davri bo‘ldi. 150 yillik mustamlakachilik, 70 yillik qaramlik yillarda shunday buyuk zot, dunyoga mashhur davlat arbobi, ulug‘ bunyodkor Amir Temur shaxsining asl mohiyatiga xolis va haqqoni yaho berish imkonidan mahrum bo‘lib yashadik.

Sho‘ro tuzumi sohibqiron haqidagi haqiqatni xalqdan yashirib keldi. Bobokalonimiz to‘g‘risida ikki og‘iz iliq so‘z aytilgan barcha manbalar ko‘zdan yashirildi, taqiqlandi yoki soxtalashtirildi. «Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora buyoq bilan o‘chirildi, unutishga majbur etildi. Maqsad, xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g‘urur tuyg‘usini yo‘qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko‘niktirish edi». Yoki Prezidentimizning yana quyidagi so‘zlarini eslaylik. «Sho‘ro davrida bizga Amir Temurni bosqinchchi, zolim, qonxo‘r, jallod, borib turgan johil, deb uqtirib kelishdi. Amir Temur haqidagi bu uydirma sof siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan tuhmatdan iborat. Bilasizmi, bu ishlarning tagidagi maqsad bitta bo‘lgan, ya‘ni bizning o‘zligimizni, tariximizni unuttirish bizni manqurtga aylan-tirish edi. Shuning uchun ham biz Amir Temurning hurmatini joyiga qo‘yar ekanmiz, birinchi galda shu savobli ish orqali xalqimizning, millatimizning izzat-hurmatini joyiga qo‘yan bo‘lamiz. Buni hech qachon unutmaslik zarur. O‘zligimizni anglashimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklashimiz ham qarz, ham farz.

O‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq Prezidentimiz Islom Karimov boy ma’naviy merosimiz, dinu iymonimiz, qadriyatlarimiz, shu jumladan ulug‘ bobomiz sohibqiron Amir Temur nomini, u haqidagi tarixiy haqiqatni tiklashga shaxsan rahnamolik qilib kelmoqda. O‘zbekiston mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni qaytarib bergani bilan ham alohida qadrlidir. Xorijda siyoshi-yillar davomida teatr sahnalaridan tushmay kelgan, Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqin kitoblar yozilgan, ko‘pdan ko‘p suratlari

ishlangan, qisqasi, dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ zot Amir Temur yana xalqimiz qalbidan munosib o‘rin oldi.

Istiqlolimiz endi kurtak otayotgan davrda Toshkentning markazidagi xiyobonda sohibqironga o‘rnatilgan muhtasham haykal mustaqillik poydevoriga qo‘ylgan oltin g‘isht bo‘ldi.

Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida ta’kidlaganidek, «Istiqlolga erishganimizdan so‘ng, biz tarixiy adolatni qaror toptirish, xalqimizning toptalib kelgan milliy g‘ururini yuksaltirish maqsadida Sohibqiron Amir Temur bobomizning nafaqat muborak nomi, boy merosi va xotirasini, ayni paytda tarixiy siyemosini ham tiklashga qaror qildik»¹.

Sobiq sovetlar davrida bu masalada g‘arazli siyosat olib borilgani, asossiz ravishda bobomiz jaholat va yovuzlik timsoli sifatida ko‘rsatib kelingani bugun hech kimga sir emas. Nega deganda, mustabid tuzum tarixiy haqiqatni namoyon etishdan, bizning milliy o‘zligimizni anglashimizdan mutlaqo manfaatdor emasdi.

Prezidentimiz YUNESKO qarorgohidagi «Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» ko‘rgazmasining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida «Ma’rifatli Movarounnahr ruhi, temuriylar davrida fan-san’atning gullab-yashnagani Yevropada uyg‘onish jarayoniga hayotbaxsh ta’sir etganini, umumjahon taraqqiyotiga ko‘maklashganini anglab faxrlanamiz.

Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o‘ylab ish qilish, quroq kuchidan ko‘ra o‘n barobar foydaliroqdir», degan daho so‘zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so‘zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo‘li bilan hal qilishni bildiradi»,¹ -degan edi.

1994-yilda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi, 1996-yilda esa sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan dunyo miqyosida ulkan tadbirlar o‘tkazildi. Parijdagi YUNESKO qarorgohida o‘tkazilgan yubiley tantanalari muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga ko‘ra «Amir Temur» xayriya jamg‘armasi tashkil etildi. Dunyoning taniqli siyosat arboblari, olimlari, yozuvchilari, tarixchilari ishtirotida ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazildi. Prezident Farmoni bilan (1995-

¹ Каримов И. А. «Оксак маънавият –енгилмас куч». Т.: «Маънавият», 2008. 149-бет.

¹ Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. Асарлар тўплами, 4-жилд. Т.: Ўзбекистон 1996. 341-бет.

yil 5-may) yuksak mukofot – Amir Temur ordeni ta'sis etildi. «Temuriylar tarixi Davlat muzeyi»ning barpo etilishi respublikamiz, xalqimiz hayotida muhim voqeа bo'ldi. Yubiley munosabati bilan ko'plab tarixiy-ilmiy asarlar, risolalar, albomlar va boshqalar nashr etildi. Shu o'rinda Amir Temurning o'zi yaratgan «Temur tuzuklari» risolasini, akademik Bo'riboy Ahmedovning «Amir Temur» tarixiy romanini, Yerkin Azimovning «Amir Temur sultanati» risolasini, Abdulla Oripovning «Sohibqiron» she'riy dramasini, Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylarning «Zafarnoma» asarlarini, F.Ashrafiyning «Temuriylar davri miniatyurasi» kabi nashrlarni alohida qayd etish mumkin.

....«Biz o'zbeklarni ulug', bunyodkor xalq deb dunyoga tarannum etayapmiz va aslida ham shunday. YUNESKOning Parijdagi qarrogohida Amir Temur bobomizning to'ylarini o'tkazishdan maqsad nima edi? Bu komil insonning eng avvalo, buyuk davlat asoschisi, buyuk bunyodkor, ijodkor shaxs bo'lganini, fan, madaniyatga homiylik qilib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shganini olam ahliga bildirish edi. Janob Jak Shirakning o'zi ishtirok etgan bu anjumanda men mazkur fikrimni ishonchli manbalar asosida isbotlab berishga harakat qildim. Davlatchiligimiz asoslarini yaratib ketgan Temur bobomiz g'ayrat-shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirdorligi, elparvarligi bilan bizga hamisha ibrat namunasi bo'lib qolq'usidir. Biz u zoti oliydan hamisha ruhiy madad olamiz». ¹

Bularning hammasi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ma'naviy tiklanishi borasida olib borilayotgan keng jabhadagi xayrli ishlardan bir nishona, xolos.

¹ Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ» Т., Шарқ 1998. 15-бет.

**9-mavzu. Jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari va
ularning xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi roli**

**9.1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ijtimoiy,
siyosiy, ma'rifiy mohiyati**

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda, ma'rifat bilmoq, kishilarning ongi, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonlaridir. Ma'rifat so'zining ko'plikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor demakdir.

Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak, ma'rifat – bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish quroli, vositasidir. Ma'rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o'z ichiga oladi.

Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar – ma'rifat uchun kurashuvchi ilm, bilim chirog'ini yoquvchi, ma'rifat homysi va tarafdori demakdir.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamонning eng yetuk, ongli, oq-qoranı tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilari ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadilar.

Ma'rifatparvarlar odatda, davr uchun, jamiyatning, mamlakating, xalqning buguni va kelajagi uchun muhim g'oyalarni ilgari suradilar, shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar.

Ma'rifat ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadikni bartaraf etadi. Insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. Shuning

uchun ozodlik kurashchilar mamlakat, millat mustaqilligini xalqning ma'rifiy uyg'oqligida deb bildilar va ma'rifat uchun kurashdilar.

Turkiston ma'rifatchiligi maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulqodir Shakuriy, Ashur Zohidiy, Saidrasul Saidaziziy, Isoqxon Ibrat va Ahmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar. Bu fidoyi zotlar mustabid tuzum va jaholatga, ma'naviy qullik va zulm-zo'ravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar. Bu ma'rifatparvar bobolarimiz dunyo kezib, jahon xalqlarining ilmu ma'rifati, madaniyati bilan tanishib, mustamlaka o'lkani, uning kishanlarini ilm chirog'i bilangina parchalamoq, ozodlik sari boshlamoq mumkin ekanligini chuqur his etdilar. Shu sababli ham eng avvalo yurtimizda maktab-maorif ishlarini rivojlanishida ham nazariy ham amaliy jihatdan azmu shijoat namunasini ko'rsatdilar.

Ko'rinadiki, jadidchilik, ma'rifatchilik ham millatni ma'rifatli qilish, ma'naviyatni yuksaltirish maqsadlarida yuzaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir.

«Jadid» so'zining ma'nosi «yangi» demakdir, u shunchaki «yangi» yo bo'lmasa «yangilik tarafdoi» degani emas. Balki «yangi» tafakkur», «yangi inson», «yangi avlod» singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan.

Jadidchilik mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashgacha bo'lgan qizg'in va hayojonli jarayon tashkil qiladi. Bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Jadidchilarimiz millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab yetdilar va tinch xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar. Xalq esa, Po'latxon va Dukchi eshon voqealaridan «Turkiston muxtoriyati» mohiyatini anglash va qo'llashgacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Jadidchilarimiz siyosiy ishlar, haq-huquq, milliy davlat, hokimiyat masalalari bilan muntazam shug'ullandilar. Ayni paytda, maorif isloh qilina boshlandi. Milliy matbuot yo'lga qo'yildi. Teatr paydo bo'ldi. Yangi adabiyot shakllandi. Bir so'z bilan aytganda, yangi tafakkur maydonga keldi. Bu milliy o'zlikni anglash va mustaqillik masifikasi edi.

«Jadid» atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton Salim III hukmronligi (1739-1802) davrida paydo bo‘ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko‘rgan idora tizimini «Nizomi jadid» deb tushuntiradi. 1789-yilgi Fransuz inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimni esa «Fransiya nizomi jadidi» deyila boshlandi. Shu yillari «Nizomi jadid» tor ma’noda askariy tizimni yevropalashtirishni, keng ma’noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo‘jaligini zamonaviylashtirishni ko‘zda tutadi.

Jadid va qadim iborasi keyingi asrlarda maydonga kelgan bo‘lsada, u mohiyatan eskilik va yangilik, taraqqiyot va turg‘unlik o‘rtasidagi eski kurashdir. «Yunon qadimchilari bir necha ming yil muqaddam Suqrotni jadidchilik qabohati bilan ayblab, qatl ettirdilar», deb yozadi Ismoilbek «Qadimchilik-jadidchilik» («Tarjimon», 1909-yil 19-son) maqolasida. «Shundan hozirgacha, masalan, hatto zamonamizning eng madaniy, eng mutaraqqiy insonlari bo‘lgan ingilzlar orasida ham qadimchilar g‘oyat ko‘pdir»,¹ deb davom etadi muallif va bularning tepasida hatto olamga mashhur olimlar, siyosatchilar, iqtisodchilar turganini aytadi.

Abdulla Avloniy «Bu kunda madaniy millatlar urushlarni sanoat va tijoratga aylantirdilar va bu sohada bir-birlariga g‘alaba va raqobat qila boshladilar», deb yozadi. Fitrat va Cho‘lpon bularni «madaniyat vahshiyatlari» deb ataydilar. Mohiyat o‘sha-o‘sha, o‘zgargan emas. Faqat shakllar har xil.

Samovar suvining ichida o‘t yonadi, bu yerda sehr bor, binobarin nosha’riy, jome’larning shamlarini elektr bilan almashadirishga tish-tirnoqlari bilan qarshi chiqishi, «usuli jadid» maktabini, zamonaviy fan-tehnikani rad etish, gazeta, teatrga «shaytoniy ish», «shakkoklik» deb qarash va ularning hammasidan kofirlik izlash jadidqadim kurashining bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lgan edi.

Jadidlik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat yaqingacha ham u faqat ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylab qilingan edi. Maqsad jadidchilik doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Aslida esa jadidchilik:

¹ Б.Косимов «Миллӣ уйғониш» Т., «Маънавият» 2002, 9 бет.

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi.

2. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo yuzini ko'rgan «Turkiston muxtoriyati» bu yo'ldagi amaliy harakatlarning dastlabki natijasi edi.

3. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsad-larga moslab chiqardi.

Jadidlarning poydevori, tamal toshi – «usuli jadid» maktabi edi. Bu tabiiy, hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishtirmoq lozim. Eski an'anaviy usulda bu ishni amalgalga oshirish qiyin. Chunki zamon o'zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o'quvchi tarix, jug'rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. Ilmiy fanlar, fan-texnika yutuqlari so'nggi uchto'rt asr dunyo taqdirini boshqa o'zanga solib yubordi. Yevropani oldinga olib chiqdi. Endi Yevropa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo'lmaydi.

Bu ilm-fanni o'zlashtirmoq uchun Yevropa tillarini bilmox kerak. Ayni paytda o'zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchala jihatni ham ushlamoq kerak bo'ladi. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa, yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolg'izgina din ushlansa, dunyo qo'ldan ketadi. Faqat o'zlik, millat desak, yana dunyodan ajralib qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo'lmaydi. Yevropalashsak, o'zlik yo'qoladi. Bu ham fojia.

Bugun biz yuzma-yuz bo'lib turgan milliy g'oya, milliy mafkura masalalari bundan yuz-yil oldin jadidchilarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo'yilgan va qizg'in muhokama qilingan edi.

Ma'rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallash g'oyasi millatning ko'pchiligi tomonidan anglanishi kerak. Darhaqiqat, jadidchilarimiz olib borgan barcha ishlar matbuotning yo'lga qo'yilishi, «usuli jadid» maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik kabilalar shunga xizmat qildirildi. Shu tariqa har bir g'oyanining milliy g'oyaga aylanishi, jadidchilarimiz fikricha, ikki shartni taqozo etadi.

1. G'oya millatning tub, asl ehtiyojlaridan, turish-turmushidan, asosiy an'analaridan, o'zligidan va tabiiyki, imkoniyatidan kelib chiqmog'i lozim.

2. Mazkur g'oya millat tomonidan anglanishi, his qilinishi, boshqacha aytganda, ongiga joylashib, yuragidagi o'tga aylanmog'i, so'ngsiz ishtiyoq hosil qilmog'i kerak.

Tabiiyki, har bir millat taraqqiy topmog'i uchun jahon ilm-fani yangiliklaridan, umuminsoniy g'oyalardan foydalanmog'i shart. Lekin bu fikr-g'oyalalar millatning qalbi va ongidan o'tmog'i, «milliy lashmog'i» kerak. Shundagina u millat yo'lida xizmat qila oladi.

Millat tushunchasi birlikni talab qiladi. Birlik deyilganda, asosan insoniy, irqiyl, diniy mushtaraklik ko'zda tutiladi. Shular asosida millatning uyg'onishi, o'z-o'zini anglashida muhim rol o'ynagan, lekin so'ngroq asossiz ravishda ayblov vositasiga aylantirilgan panislomizm, panturkizm, panturonizm, mahalliy millatchilik kabi tushuncha va atamalar paydo bo'ldi. Ularning ayrimlari o'z davrida milliy g'oya darajasiga ko'tarildi, lekin siyosiy jihatdan amalgalashirish imkoniyati bo'lmagani uchun zamon qatlarida qolib ketdi.

Dunyoda yashab turgan har bir millatning o'z fe'li – tabiatidan, hayot sharoiti va turmush tarzidan, maslak-e'tiqodidan kelib chiqqan, asosiy tarixiy tajribalari bilan mustahkamlanib, takomillashib borgan va boradigan fikr-qarashlari tizimi bor. Bu tizim millatning borliq va tabiatga munosabatidan tortib, jamiyat, axloq, siyosatigacha bo'lgan qarashlarini qamrab oladi. Davlatchiligi, uning kamoli va zavoli, idora tuzumi, askar tutumi, zehniyati, zavqi-didi, iyomon-e'tiqodi kabi millatning tarixi, turmushi bilan bog'liq o'nlab masalalarni oydinlashtirmsandan u haqda aniq fikr bildirish qiyin. Lekin shunisi aniqliki, milliy mafkura jamiyat hayotining jon tomiri. U qurisa, millat o'sishdan to'xtaydi, jamiyat buziladi.

Uning asoslari tarixda, urf-udum, an'analarimizda. Unitiklashning zarurligini birinchi bo'lib jadidchilar sezdilar.

Bugun hayotimizga tatbiq qilinayotgan milliy istiqlol mafkurasi – «Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'limas merosidan oziqlanadi».¹ Jadidchilar g'oyalari ana shu merosimizning uzviy qismi sifatida milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

¹ Миллий истиқлолғоғаси: асосий тушунча ва тамоилилар. Т.: Ўзбекистон 2000. 43-бет.

9.2. Jadidchilik harakati va ularning umumxalq ma’naviyatini yuksaltirishdagi roli

Jadidchilik g‘oyalarini uning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, So‘fizoda, Tavallo, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Isoqxon Ibrat kabilar targ‘ib qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo‘l qo‘ymaslik borasida katta ishlarni amalga oshirdilar.

Ma’rifatchi jadidchilar moddiy qiyinchiliklar, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma’naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar qidirdilar. Ular tarixning murakkab, mas’uliyatli burilish davrlarida millatning ongini yuksaltirish, milliy tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar jadid maktablarini ochib, o‘zлari dars berar, o‘quv qo‘llanmalari yozar, nashr etar edilar. Bu yo‘lda ular hatto o‘z mablag‘larini ayamaganlar.

Abdurauf Fitrat – yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san’atshunos va siyosatshunos olim, davlat va jamoat arbobi. Birinchi o‘zbek professori.

Turkiya, Hindiston, Arabiston va Rossiyaning yirik shaharlarida bo‘lgan. O‘qishni davom ettirish maqsadida Turkiyaga borib, 1909-1913-yillarda Istambulda yashagan. Fitrat o‘scha vaqtida Turkiyada kuchaygan yosh turklar harakati ta’sirida Turkiyadagi buxorolik yoshlari yordamida «Buxoro ta’limi maorif jamiyat»ni tuzadi. Jamiyat Buxoro va Turkiston maorifining olg‘a siljishiga doir muhim ishlarni amalga oshiradi.

Abdurauf Fitrat Turkiyada tahsil olish, ma’ruzalar o‘qish bilan birga samarali ijod ham qilgan. 1909-yili Istambulda uning fors tilida yozgan «Munozara», «Sayha» («Na’re») she’riy majmuasi, 1912-yilda esa «Sayyohi hindi» (Bayonoti sayyohi hindi) asarlari nashr etiladi. Keyinchalik Fitratning millatchi, turkparast va islomparast yozuvchi sifatida qoralanishiga sababchi bo‘lgan bu asarlar XX asr boshlarida Turkistondagi milliy uyg‘onish harakatining norusmly dasturi bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, «Munozara» va «Sayyohi

hindi» asarlari yoshlari dunyoqarashining keskin o‘zgarishi va ularning jadidchilar safiga kelib qo‘shilishiga sababchi bo‘lgan.

Fitrat vataniga qaytgach, jadidchilik g‘oyalarini keng targ‘ib etdi. Yosh buxoroliklar harakatining mafkurachisi va g‘oyaviy rahbarlaridan biriga aylandi.

BXSR tashkil topishi bilan Abdurauf Fitrat 1921-yilda maorif, 1922-yilda xorijiya – Tashqi ishlar vaziri, Xalq xo‘jaligi kengashi raisi, MIQ va Xalq nozirlari sho‘rosi raisining o‘rinbosari va boshqa lavozimlarda ishladi.

U shu davrda BXSR mablag‘i hisobiga 70 nafar turkistonlik istiqbolli yoshlarning Germaniyaga borib o‘qishida, Buxoroda Sharq musiqasi mакtabining tashkil etilishida, fan va madaniyat tarixiga doir xalq qo‘lida sochilib yotgan noyob qo‘lyozmalarни to‘plashda tashabbuskor bo‘ldi.

Abdurauf Fitratning sa’yi-harakati bilan Buxoro jumhuriyatida turkiy (o‘zbek) tili davlat tili deb e‘lon qilindi. Abdurauf Fitratning adabiy merosi boy va rang-barang bo‘lib, u badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o‘zbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, she‘r tuzilishining isloh etilishi, realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog‘liq muhim ijtimoiy muammolarning o‘zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo‘shti. Abdurauf Fitrat zullisonayn shoir bo‘lib, adabiy faoliyatining dastlabki davrida asosan fors tilida ijod qilgan. Abdurauf Fitratning o‘zbek tilidagi she‘rlari 1917-yil va undan keyingi davrga oid.

Ma’lumki, fevral inqilobidan keyin Turkiston xalqlarining mustaqillikka erishishlari uchun tarixiy imkoniyat tug‘ilgan. Abdurauf Fitrat shu davrda xalqni mustamlakachilik kishanlarini parchalab, istiqlol uchun kurashga da‘vat etuvchi she‘rlar yozishga kirishgan. U «O‘zbek yosh shoirlari» (1922) she‘riy majmuasining tuzuvchisi va asosiy muallifi. Sahna asari sifatida namoyish etilgan «Munozara» Abdurauf Fitratning nasrdagi ilk asaridir. «Munozara» ham, «Sayyohi hindi» ham Abdurauf Fitrat publisistikasining yorqin namunalaridan.

1930-yilda qayta ishlangan «Qiyomat» hikoyasi hozirgi o‘zbek adabiyotida fantastikaning tug‘ilishi va shakllanishiga asos bo‘ldi. Abdurauf Fitrat 1916-yildan boshlab teatr uchun ko‘plab dramatik

asarlar yaratdi. Ammo uning nafaqat 1916-1918-yillarda yozgan «Begijon», «Qon», «Abo Muslim», «Temur sag'anasi», «O'g'izxon» singari pesalari, hatto 30-yillarda yozgan «To'lqin» opera liberettosi (1934) ham bizgacha etib kelmagan. «Temur sag'anasi» pesasida muallifning «Yurt qayg'usi (Temur oldinda)» sochmasidagi istiqlol uchun kurash g'oyasi badiiy ifodalangan.

Abdurauf Fitrat ijodining shu davrdagi yetakchi motivi - bolshevizmga qarshi istiqlol uchun kurash g'oyasi «Chin sevish» (1920) va «Hind istilochilar» (1923) pesalarida, ayniqsa, yorqin aks etgan. 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan «Til va imlo» qurultoyida Abdurauf Fitrat o'zbek tilining sofligini ta'minlash va rivojlantirish masalalarini o'rta ga tashladi. U «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: sahf» (Morfologiya) (1925), «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Nahv» (Sintaksis) (1926) darsliklarini yaratdi va bu darsliklar 1930-yilga qadar bir necha marta nashr etildi. Abdurauf Fitrat «Eng eski turk adabiyoti namunalari» (1927), «O'zbek adabiyoti namunalari» (1j., 1928) asarlarida adabiy merosimizning eng qadimgi davrdan so'nggi davrlarga qadar yaratilgan namunalarini to'plab, muayyan tizimga soldi. «Qutadg'u bilig» singari noyob yodgorlikning Namangan nusxasi Abdurauf Fitrat tufayli qo'lga kiritildi.

«She'r va shoirlik» (1919), «Adabiyot qoidalari» (1926), «San'-atning manbayi» (1927), «Aruz haqida» (1936) singari maqola va risolalari bilan adabiyot nazariyasi faniga asos soldi. Abdurauf Fitrat 1921-yilda Sharq musiqa muktabini tashkil etib, uning birinchi direktori bo'lgan. U shu vaqtidan boshlab «Shashmaqom» kuylarini to'plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi. Fitrat tashabbusi bilan ota Jalol va ota G'iyosdan Buxoro shashmaqomi V.Uspenskiy tomonidan ilk bor notaga olinib, nashr etildi (Sheft muzikalnix poem (maqom). Buxara M., 1924). Abdurauf Fitrat «Shashmaqom», «O'zbek musiqasi to'g'risida» maqolalari va «O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi» (1927) risolasi bilan 20-asrda o'zbek musiqashunoslik fanini boshlab berdi.

Munavvarqori Abdurashidxonov - O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'lboshchisi. XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagagi milliy muktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilarida biri, adib va shoirlar.

Munavvarqori ham boshqa jadidchilar kabi Vatan ravnaqi va milliy taraqqiyotning asosiy omili deb xalqini savodli va ma'rifatli qilishni tushunadi. U ana shu fikrdan kelib chiqib, Toshkentda 1901-yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o'quv dasturlari tuzgan, darsliklar yozgan. 1904-yildan boshlab ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga aralasha boshlagan. 1906-yildan «O'rta Osiyoning umrguzorligi», «Taraqqiy» gazetalarida adabiy xodim. Shu-yili noshir va muharrir sifatida «Xurshid» gazetasini tashkil etgan. «Shuhrat», (1907), «Tujjor» (1907), «Osiyo» (1908) gazetalarini g'oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan. So'ng «Sadoyi Turkiston» (1914-1915) gazetasida mas'ul muharrir muovini, «Alislohh» jurnali, (1915-1917)da, «Najot» va «Kengash» (1917) gazetalarida mas'ul muharrir lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.

Munavvarqori turli jamiyat va uyushmalar tashkilotchisi. U «Jamiyat Imdodiya»(1909), «Turon» (1913), «Turkiston» kutubxona-nasi (1914), «Umid» (1914), «Maktab» (1914), «Ko'mak» (1921) jamiyat, tashkilot, shirkat va uyushmalarda muassis, muovin, rais bo'lib ishlagan.

Munavvarqorining bir qancha darsliklari - «Adibi avval» (1907), «Adib us-soniy» (1907), «Usuli hisob», «Tarixi qavm turk» «Tajvid» (1911), «Havoyiji diniya». «Tarixi anbiyo», «Tarixi islo-miya» (1912), «Yer yuzi» (1916-1917), 4 qismdan iborat «O'zbekcha til saboqlari» (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga) bir necha marta chop etilgan.

Yevropa savdo-sanoat, ilm-fanini o'rganishga chaqirgan, ma'naviy qoloqlikni qoralagan. Chor va sho'ro hukumatlari olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi izchil kurash olib borgan. 1917-1924-yillarda «Sho'royi islom», «Ittihod va taraqqiyot», «Milliy ittihod», «Nashri maorif» kabi jamiyat, firqa va tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik qilgan.

U vijdon erkinligini inkor etmagan, dunyoviy demokratik davlat tarafdori bo'lган. Umr bo'yi o'z vatanini mustaqil ko'rishni istagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy – ma'rifatparvar, Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi. U yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi: yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amalyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergen birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist.

Yoshligidan ilm-fanga qiziqdi, hisob, huquq, din sohasini, shuningdek, arab, fors, rus tillaridan chuqur saboq oldi. U Makkaga, Madinaga bordi, haj ziyoratini ado etib, Misr va Turkiya shaharlarida bo‘ldi. Peterburg, Minsk, Qozon, Ufa, Orenburg va Nijniy Novgorod kabi Rossiya shaharlarida yangi davr madaniyati bilan tanishdi.

Yosh Behbudiy dunyoqarashining shakllanishida Rossiya jadid-chilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspirinskiyning ta’siri katta bo‘lgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o‘quv yurtlariga yuborish kerak, degan masalani o‘rtaga tashladi. U quyidagi uch qoidani olg‘a suradi:

1. Zamon talablaridan kelib chiqib, ish ko‘rish.

2. Millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni etishtirish.

3. Milliy biqiqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish.

Uning tashabbusi bilan yangi usul mакtablari ochildi. Adib bu maktablar uchun 1904-1909-yillarda «Risolai asbobi savod», «Risolai jug‘rofiyai umroniy», «Risolai jug‘rofiyai Rusiy», «Kitobat ul atfol», «Amaliyoti islom», «Muxtasar tarixi islom» kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatni o‘stirish uchun mакtabning maorif sohasidagina xizmat qilib qolmasdan, dramaturgiya va matbuotni ham yo‘lga qo‘yadi. Uning «Padarkush» (1913) asari o‘zbek dramasining ilk namunasidir. Muallifning «Milliy fojiya» deb atalgan 3 parda, 4 manzarali bu dramasi hajman ixcham, tili ravon va nihoyatda sodda edi. Bu asar o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani, nodonlik va jaholat pand bergenligi haqida hikoya qiladi. «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914-yili 15-yanvarda sahnaga qo‘yiladi. Avloniyning «Turon» teatr truppassi tomonidan Toshkentda 1914-yiln 27-fevralida namoyish qilinadi. Boy rolini Abdulla Avloniy ijro etadi. O‘z maishatiga o‘ralib, dunyoni unutgan millatdoshlarga spektakl kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqning dunyoqarashi, milliy ongni yuksaltirishda matbuotning o'rni juda muhimligini bilgan Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yildan matbuot ishlari bilan shug'ullana boshlaydi.

U «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'lidi. «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochdi.

1914-yilning 29-mayidan boshlab Mahmudxo'ja Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlari bo'y lab sayohat qiladi. Sayohat xotiralari har jihatdan g'oyat to'kis bo'lib, «Oyna» jurnalining 1914-yil sonlarida chop etiladi. «Oyna» jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqlari, tarixiga, til, adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borildi. Ayniqsa, til masalasi muallifning hamisha diqqat markazida turgan. Mahmudxo'ja Behbudiy millat taraqqiyoti uchun bir necha tilni bilish shart deb, hisoblaydi. Uning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste'dodini juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. O'zining millat va vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini yuzlab maqola va chiqishlarida teran ifoda etdi. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi bu maqolalarning aksariyati o'zbek xalqining yangi yo'nalishdagi milliy tafakkuri shakllanishida, hayotga, turmushga yangicha qarashlari tug'ilishida, haq-huquqlarini tanishida katta ahamiyatga ega bo'lidi. «Turkiston idorasi», «Turkistonda maktab jarida», «Buxoroda usuli jadid», «Yoshlarga murojaat», «Ehtiyoji millat», «Ikki emas, to'rt til kerak» kabi publitsistik maqolalari ana shunday xususiyatlarga ega.

Mahmudxo'ja Behbudiying ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Mahmudxo'ja Behbudiyl ilmu ma'rifat xalq ommasi tomonidan o'zlashtirib olingandagina ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanadi, deb fikr yuritadi.

Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Ayni vaqtida bugungi murakkab va shiddatli zamonda jahonda o'z o'rnini topishga intiladigan har qanday xalq va millat umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini har tomonlama chuqur va puxta egallashi shartligini barchamiz yaxshi tushunamiz. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyl o'tgan asrning boshidayoq «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur», degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu

shuurini uyg‘otishga da’vat etgani bejiz emas, albatta. Bu so‘zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlamoqda».¹

Abdulla Avloniy – ma’rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi.

XX asr boshlarida Abdulla Avloniy jadidchilik harakatiga qo‘silib, uning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib tanildi. U yangi usulda, yangicha mакtab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi. Abdulla Avloniy asos solgan yangi usul mакtabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy ilm-fanni bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘yan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo‘lishni ta’minlaydigan haqiqiy xalq mакtabi bo‘ldi.

Adibning 1909-1917-yillar davomida maxsus mакtab bolalari uchun yozilgan o‘ndan ortiq kitoblari maydonga keldi. Uning «Birinchi muallim», «Ikkinci muallim», «Turkiy Guliston yoxud axloq», «Mакtab gulistoni» singari darsliklari; «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» to‘plami inqilobga qadar bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko‘p yangi usul mакtablari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi.

«Muallim afandilar va adabiyot muhiblari banim bu asari nochizonalimni iltifotsiz qoldurmadiilar. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jadvalini kiritub, maydoni ta’lima qo‘ydilar»², deb yozgan edi Avloniy mamnuniyat bilan.

1913-yilda Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari bosilib chiqdi. 1917-yilda ikkinchi marta nashr etildi. Kitob mакtablarning yuqori sinf o‘quvchilariga darslik sifatida yozilgan. Lekin asrimiz boshlaridagi o‘zbek jadid ma’rifatchiligining noyob hodisalaridan bo‘lgan bu asarning ahamiyati faqat mакtab doirasi bilan cheklanmadidi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm – axloq haqida fikr yuritiladi.

Axloq, bu xulqlar majmuyi. Xulq esa, eзgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq eзgulik va olivjanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadilar. Lekin, bular

¹ Каримов И.А. «Оксак маънавият – ёнгилмас куч». Т.: «Маънавият» 2008. 94-95-бетлар

² А.Бобохонов, М.Махсумов, Абдулла Авлоний. Педагогик фаолигит. Т.: «Ўқитувчи» 1996. 41-бет

kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishidan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon kuyga soldi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya «yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo sadoqat, yo falokat» masalasidur. Tarbiya tug‘ilgan kundan boshlab, umrning oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan – uy va maktab tarbiyasidan iborat. Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. Gapni, birinchi navbatda, bolaning sog‘ligi haqida qayg‘urish lozimligidan boshlaydi.

Abdulla Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko‘chdi. Jism bilan ruhning uzviy birligi haqida gap ochadi: badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham ta’siri bordir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Bolalarda fikrlash iqtidorini hosil qilish, fikr tarbiyasi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan» bo‘lib, ularning yordamiga muhtoj. Negaki, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi» muallimga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bolalarning fikrlashi tarbiyachining o‘zini fikrlash va intilish doirasi, saviyasi bilan ham aloqador.

«Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir...» Muallif o‘z fikrini yanada aniqroq va ravshanroq anglashi uchun shunday misol keltiradi: «Hayvonlar o‘zlariga bo‘laklar tarafidan keladurg‘on zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va tirnoqlar ila qaytarurlar. Lekin inson aql va idroki saviyasida o‘ziga keladurgan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo‘ynidan boylab, iplarining uchini qo‘llariga bergan insonlarning aqlidur». Hukamolardan biri, «Har narsa ko‘paysa, arzon bo‘lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko‘paysa, shuncha qimmatbaho bo‘lur»demish.¹

Vatan tuyg‘usi eng insoniy, eng mo‘tabar tuyg‘ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Abdulla Avloniy Vatan Onadek muqaddas. Uni qadrlash, e’zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo‘lish, g‘am-hasratini baham ko‘rish farzandning burchi. Vatan va uning oldidagi burchni shunday tushunadi. Farzandlar ham har xil bo‘ladi. Onaning baxtiga sherik bo‘lib,

¹ Б.Қосимов «Миллий уйғониши» Т., «Маънавият» 2002. 255 бет.

baxtsizligida yolg‘iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vatanning ham fusunkor tabiatini, bog‘-rog‘larini xush ko‘radigan, biroq tashvish va g‘amlarini o‘ylamaydigan farzandlar yo‘q emas. Vatanni, u qanday bo‘lmasin, sevish kerak.

«Biz, turkistonliklar, o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig‘imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumliq, issiq cho‘llarini, eski-mo‘lar Shimol taraflarini, eng sovuq, qor va muzlik yerlarini boshqa erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasilar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab, hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz «kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l», demishlar.¹

Muallif o‘z fikrini xilma-xil misollar bilan asoslashga harakat qiladi. Masalan, u shunday tamsilni keltiradi. Ayrim kishilar o‘z hovli-joylarini, mol-mulklarini sotib, Makkaga ziyoratga borishadi. Hatto shularning ham aksari yana o‘z vatanlariga qaytib keladilar. «Buning sababi, ya’ni bularni tortib keturgan quvvat o‘z vatanlari tuproqlarining mehru muhabbatidur» deydi.

Shoirning «Maktab gulistoni»ga kirgan she’rlarida bu fikrlar davom ettirilgan.

«Sening isming bu dunyoda muqaddasdir.

Har kim sening qadring bilmas –aqli pastdir»² deb boshlanar edi uning «Vatan» she’ri.

«Hijron so‘zi»da esa ona-yurtning ko‘rkam boy va ulug‘vor manzarasi chiziladi. Bas shunday ekan, uning uchun jonlarni fido etmoq kerakdir.

Jadidchilar umummilliylar ma’rifatni ko‘tarish, milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikka erishish, jahon madaniyatini egallash kabi g‘oyalar bilan milliy ma’naviyatimiz rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Jadidlarning qismati chor hukumati, muvaqqat hokimiyat va ayniqsa, sobiq sho‘rolar tuzumi davrida nihoyatda fojiali bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligiga yuqorida bayon qilingan talablari uchun millatchi «panturkist», «panislomist», degan tamg‘a bosilib, qatag‘on qilindi. Jadidlar g‘oyalari va harakatlariga qora chiziq tortildi. Jadidchilik turkiy millatlarning jahon miqyosida tanilishini yana bir asrga orqaga surdi.

¹ Б.Қосимов «Миллий уйғониш» Т., «Маънавият» 2002. 256 бет.

² Уша асар, 257 бет.

Jadidchilik bir asr davomida avval kommunistik g‘oyaning tazyiqida, keyinchalik esa iskanjasida bo‘lib, o‘zini to‘la namoyon etolmadi. Uning shakllanish tarzini o‘rganishga intilganlar ham tazyiq ostiga olindi. Mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, mustaqilligi, milliy davlatchilik g‘oyalari, ma‘rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi.

9.3. Mustamlakachilarining ma’naviy sohada olib borgan siyosati va uning salbiy oqibatlari

Kishilik jamiyatining o‘tmishidan ma’lumki, bir xalqni o‘ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo, uni o‘zligidan, tarixidan, madaniyatidan, milliy qadriyatlari-yu, ma’naviyatidan judo qilishga intiladi. Bosib olingen mamlakat xalqlarining madaniy-ma’naviy taraqqiyotini bo‘g‘ib qo‘yish bosqinchi mamlakatlar tomonidan mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahamlashning an’anaviy yo‘llaridan biri hisoblanadi. Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni o‘ziga singdirib yuborishni, buning uchun o‘z mafkurasi va g‘oyalarini ularga majburan joriy etish, madaniyatiga shikast yetkazish, milliy tili, urf-odatlari va qadriyatları rivojiga yo‘l bermaslikni o‘z siyosatining asosiy maqsadi deb biladi. Madaniyat va ma’naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlari kamolotiga yo‘l bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo‘llaridan biri ekanligini istilochi va bosqinchilar yaxshi bilgan.

Bosib olingen mamlakatda ilm-fan, ma’naviyat, madaniyat istilochi mamlakatga nisbatan bir necha bor ustun bo‘lsa, unday joylarda mustamlakachilik tartibini saqlab turish oson kechmaydi. Bizning o‘lka esa bosqinchi chor Rossiyasiga nisbatan ma’naviy-ma‘rifiy va madaniy jihatdan ancha ustun turardi. Chor hukumati olimlar maslahatiga amal qilib, bizning o‘lkada qanday qilib bo‘lmasin, o‘zlarining yerli xalqdan ustunliklarini isbotlashga va shu tariqa «uzil-kesil g‘alabaga erishishga astoydil kirishdilar. O‘tmishdagi bosqinchilar singari chor bosqinchilari ham bu sohadagi amaliy ishni Turkiston xalqini bir necha ming yillik tarixi, madaniyati, urf-odatlaridan mahrum qilish, ruhan, ma’nан mayib-majruh qilishdan boshladilar. Bu chuqur o‘ylab, uzoqni ko‘zlab va rejalashtirib qo‘yil-

gan mash'um siyosat edi. Bu siyosatning zamirida chor hukumatining manfaatini har tomonlama himoya qilish va Turkiston xalqlaridan, shu jumladan o'zbek xalqini milliy o'zligini anglashdan butkul mahrum qilib, o'tmishini unutgan, vatanparvarlik tuyg'usidan judo bo'lgan, istiqbolini ko'rolmaydigan odamlar guruhiga aylantirish muddaosi turgan. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Inson uchun tarixidan judo bo'lismayda hayotidan judo bo'lismayda demakdir».¹

Ma'naviyat va ma'rifat xalqning o'z o'tmishini bilishi va istiqbolini tushunib yetishiga yordam beradi. Vatanni sevish va u bilan faxrlanishga da'vat etadi, dushmanlarga, bosqinchi va mustamlakachilarga qarshi murosasiz kurash olib borishga, erk vaadolat uchun jasorat ko'rsatishga undaydi.

Ma'naviyat va ma'rifatdan mahrum xalq milliy jihatdan o'zini anglab ololmaydi, taqdirga tan berib yashashni o'ziga ep ko'radi. Chor amaldorlari buni yaxshi anglagan holda Turkiston xalqlarini ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatdan bebahra qoldirish masalasiga alohida ahamiyat berdilar.

Chorizm mustamlakachilik siyosatini Sharqda qon va qilich bilan joriy qilgan generallardan biri M.D.Skobelev: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, tilini, san'atini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi», deb «bashorat» qilgan edi. Uning ana shu «dono» ko'rsatmasi Turkiston-dagi ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatga nisbatan amalga oshirilgan jaholat va yovuzliklar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Chorizm Turkiston xalqlarini savodsizlik, bilimsizlik holatida ushlab turishdan manfaatdor edi. Uning maqsadi g'aflat uyqusida yotgan, zamonaviy fan-texnika, ma'rifat yutuqlaridan bebahra, milliy ongi past, milliy g'ururi toptalgan xalqni talash, ezishdan iborat edi. Chor hukumatining mustamlaka o'lkalardagi gumashtalari yarim podsho Kaufman, general – gubernator Kuropatkin, jallod Golovanovga o'x-shaganlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkentdagi buyuk osori-atiqalarni, masjidu madrasalarni, arklaru tarixiy-madaniy yodgorliklarni to'pga tutib, yer bilan yakson qildilar.

Sho'ro zamonida xalqimizning ming yillik tarixi, e'tiqodi rad etildi, o'rniga «shaxsga sig'inish» balosi ro'baro' bo'ldi.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.; Шарқ. 1998. 10-бет.

Prezidentimiz Islom Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» risolasida ta’kidlaganidek: «...sho‘rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag‘batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko‘zidan iloji boricha yiroq saqlanardi»¹.

Insonlarning ma’naviy-axloqiy yuksalishiga ko‘maklashadigan muqaddas kitoblar xalqdan yashirildi, ularga o‘t qo‘yildi, suvlarga oqizildi. Qaramlik va mutelik yillarida sodir bo‘lgan bu dahshatli voqeа va hodisalar o‘zbek xalqining milliy ma’naviyatini muayyan darajada tanazzulga uchrashiga sabab bo‘ldi.

Yuqorida qayd etganimizdek, 30-yillarning o‘rtalariga borib, milliy ma’naviyatimizni to‘liq yo‘q qilib tashlashga qaratilgan siyosat izchil amalga oshirila boshlandi. Asl ziyorilar otib tashlandi. Bular qatoriga Cho‘lpon, Abdulla Qodiri, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir kabi millatimizning, o‘nlab, yuzlab asl o‘g‘lonlarini kiritish mumkin.

Navoiy, Bobur, Ulug‘bek, Yassaviy, Mashrab, Nodirabegim singari allomalar feodalizm davri namoyondalari deb e’lon qilinib, ularning meroslarini o‘rganish taqiqlandi.

O‘zbekistonda barcha dirlarning, birinchi navbatda, islam dinining ko‘zga ko‘ringan yirik vakillari qamaldi, surgun qilinib, otib tashlandi. Chorakam bir asr davomida diniy-ma’naviy tarbiyaga o‘rin berilmadi. Diniy axloq va madaniyatning zarari haqida aytilmagan gap qolmadi.

Mustabid tuzum siyosati va zo‘ravonligi asosida ma’naviyatimizning muhim qirrasi – imlomiz ketma-ket uch marta o‘zgartirildi. Oradan o‘n ikki yil o‘tgach, kirill alifbosi qabul qilindi. Shu tariqa xalqimiz o‘zining 1200 yillik ko‘hna tarixi, o‘tmishi, ma’naviy merosi haqidagi qo‘lyozma asarlarni o‘rganishdan mahrum bo‘ldi. Otabobolarimizdan qolgan kitoblar, asosan arab va fors tillarida yozilgan. Imloning o‘zgartirilishi natijasida o‘sha kitoblarni o‘qiy olmaydigan bo‘lib qoldik. Yaqin o‘tmishimizning riyokor siyosati natijasida ma’naviy inqirozga uchradi. Bu tariximizni, madaniyatimizni, milliy-ma’naviy merosimizni yo‘qotishga urinishning yangicha yo‘li edi.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., Шарқ 1998. 4-бет

O‘tmishda toptalgan, tahqirlangan ma’naviy va ma’rifiy merosimizga mustaqillik yillarida munosabat tubdan o‘zgardi. Milliy – ma’naviy merosimiz qayta tiklandi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, kim bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi.

Xuddi shu ma’noda ham ona Vatanimiz tarixini, uning taraqqiyot jarayonlarini chuqur o‘rganish ilm-fan oldida turgan o‘ta dolzarb vazifa hisoblanadi. Uni o‘rganishimiz bugungi mustaqillikning qadr-qimmatini to‘laroq anglashimizga, taraqqiyotimizga yot oqimlarga qarshi kurashishimizda, Vatanimiz va xalqimiz manfaatlari yo‘lida chinakam fidoyi bo‘lishimizga yordam beradi.

*Adab bu – xulqni chiroyligilish,
so ‘zni va fe’lni soz qilishdir.*

Bahovuddin Naqshband

III BO‘LIM. SHAXS MA’NAVIYATI TARAQQIYOTINING MEZONLARI

10-mavzu. Ma’naviy barkamol inson tushunchasi va uning sharqona ta’rifi

10.1. Ma’naviy barkamol inson tushunchasining mohiyati, ma’rifiy, axloqiy, ijtimoiy xususiyatlari

Bugungi kunda ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish biz uchun umummilliylar, umum davlat miqyosidagi kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa sanaladi. Bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat’iyatlilik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Haqiqatan ham mustaqillikning dastlabki kunlaridan oq bu masalaga katta e’tibor berib kelinmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning har bir nutqi va ma’ruzalarini, maqola va asarlarida yuksak ma’naviyat – kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta’kidlanmoqda. Biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma’naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog‘lik chuqur ildiz otishi bilan baholaymiz.

Mustaqillik va ma’naviyat bir-biriga bog‘liq tushunchalardir. Ma’naviyatning kamol topishi, qalblarga singishi uchun mustaqillikni mustahkamlash lozim bo‘ladi. Qudratli davlat, buyuk ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ma’naviyat zamirida vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma’naviy kamoloti orqali huquqiy demokratik davlat barpo etiladi. Shu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o‘zligini tanib, o‘z shajarasini idrok etmoqda, tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda.

Ma'naviyatni yuksaltirmay xalqimiz hayoti, turmushi va mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohotlarning birinchi bosqichida milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo'lida ko'zlangan maqsad to'la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Ma'naviy g'oyasizlik, mafkuraviy parokandalik davriga barham berildi. Ijtimoiy hodisalar bilan birga milliy ma'naviyatimiz yuksala bordi. Yurtboshimiz Islom Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida ta'kidlaganidek: «Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixiy va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli olg'a siljishida hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir»¹. Ma'naviyat jamiyat hayotining shunday bir nozik, ahamiyatli sohasiki, bu borada xo'jako'rsinga ish qilish iqtisodiy va siyosiy sohalarda kutilmagan turli inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko'lamli madaniy, tarixiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak. Eski tuzum sharoitida tarkib topgan ma'naviy inqirozga barham berish, yangicha tafakkurga ega bo'lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi jarayon bo'lganligi sababli tarixning burilish davrlarida jamiyat hayotida ma'naviy bo'shliq holatlari ham yuzaga kelishi tabiiy. Bu bo'shliq jamiyat uchun iqtisodiy, siyosiy inqirozga nisbatan ancha xatarliroq kechadi. Shuning uchun jamiyat ma'naviy hayotida bo'shliq paydo bo'lishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Uning achchiq saboqlarini 1999-yil 16-fevral, 2005-yil Andijon voqealari ko'rsatdi. Shu sababli tarixiy burilish davrlarida obyektiv tarzda yuzaga keladigan bunday holatlarni chuqur anglab, ularga to'g'ri munosabatda bo'lish lozim. «Bunday to'g'ri mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun bunday holatlarni yuzaga qalqib chiqishining oldini faqat odamlarimiz, avvalambor yoshlarimizning iyomon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash orqaligina erishish mumkinligini, mustaqillik tafakkuri.

¹ Каримов И.А. Ватан – саъдагоҳ каби муқаддасидир. Асарлар тўплами. З-жини. Т.: Узбекистон 1996. йт. 229

ma'naviyatini shakllantirish, maqsad, vazifa, vositalari yo'llarini izlab topish, hayotga joriy etish orqali hal etish mumkinligini ta'kidlab kelmoqda»¹. Zotan, yosh, mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun ham Yurtboshimiz «Yuksak ma'naviyat - kelajak poydevori» degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo'lib qoldi.

O'zbekiston bozor munosabatlariiga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yemoqda. Shu ma'noda Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlari hozirgi davrda har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi: «Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebafo merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat»². Bozor munosabatlarda ham yuksak ma'naviyatli va axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishbilarmon kishilar zarur. Ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy jihatdan sust, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar bozor munosabatlarda ko'zlangan maqsadga erisha olmaydilar.

Vatanimiz ertangi kunini, o'z surriyodlarining baxtu istiqbolini istaydigan har bir odam - u kim bo'lishi, qanday lavozim egasi ekanidan qat'iy nazar, farzandlarimizning ma'naviy, g'oyaviy tarbiya masalasidan chetda turmasligi kerak. Bugun bu o'ta muhim masalaga beparvo qarashga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q.

Endilikda ma'naviy va ma'rifiy tarbiya mustaqil davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Yurdoshlarimizning texnikaviy bilimi, murakkab texnologiyani egal-lash qobiliyati ma'naviy barkamollik, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak.

¹ Каримов И.А. Миллий истиқбол мафкураси - ҳалқ эстиқолол ва буюк келажакка ишончлар. Т.: Ўзбекистон. 13-14-бетлар.

² Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Асарлар тўплами. 8-жилд. Т.: Ўзбекистон. 2000. 341-бет.

Ma'naviy barkamol inson tushunchasi keng qamrovli, serqirra tushuncha. Ma'naviy barkamol inson - komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatsada, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobjiy xislatlarni, shuningdek, ularning inson, jamiyat, Vatan, oila, ota-onha va boshqalarga bo'lgan munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Bu masalada Yurtboshimizning quyidagi so'zлari ibratlidir: «Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz».¹

Bundan ko'rinish turibdiki, sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma'naviyatli, ya'ni ma'naviy barkamol, komil inson sanaladi. Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi singari qator xislat va fazilatlarning to'kisligida ko'rindi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o'yaydilar.

Prezidentimiz o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida erkin, ozod shaxs haqida gapirib, quyidagi to'rt jihatga e'tiborni qaratadi, ya'ni har bir fuqaro:

- o'z haq-huquqlarini taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin;

- o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'rsin;

- atrofida sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin;

- shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'rib, faoliyat yuritsin².

Bu barkamol inson fazilatlari haqidagi aniq va to'liq ta'rifdir.

Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning qirralari va mezonlari

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тимошларни Т. Ўзбекистон, 1995, 57-бет.

² Ўзбекистон XXI asrga intilmoqda. T.: Ўзбекистон, 2000, 232-233-бетлар.

qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini har bir kishida shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g'urur bo'lmas ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar ham bo'lmaydi.

Mustaqillik tafakkuri keng qamrovli bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Vatan istiqolli va istiqboli haqida qayg'urish;
- xalqi, yurti qadr-qimmati, or-nomusini anglash va buni himoya qilish;
- butun mehnati, iste'dodi, imkoniyatini, zarur bo'lsa jonini ham yurt istiqboli, xalq baxti uchun baxshida etish va boshqalar.

Mustaqillik, bu - bizga ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas ma'naviyatdir. Bu ma'naviyatni har birimiz avaylab-asrashimiz ham qarz, ham farzdir. Shu ezgu vazifani amalga oshirish butun xalq va ayniqla, yoshlari ongiga mustaqillik ruhini singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning qirralaridan biri milliy g'urur va iftixordir. Milliy g'urur o'z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an'analarli, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir.

10.2. Komil inson va uning sharqona fazilatlari

Komil inson tushunchasi ma'naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ma'naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak, ma'naviy barkamollikka intilish - bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Sog'lom avlod, ma'naviy barkamol, komil inson – darajama-daraja chuqur ma'no kasb etadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, komil inson bo'lishning aniq cheki va chegarasi yo'q. Bizning ko'hna tariximizda yuzaga kelgan, xalq, mamlakat tarixida katta ma'naviy-axloqiy tarbiya rolini o'ynagan tasavvuf komil inson nazariyasi haqidagi, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqidagi ta'limot va amaliyat sanaladi.

Mazkur masalani tasavvuf ta'limotidan kelib chiqqan holda bayon etishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko‘p asarlar bitilgan. Ana shunday insonlardan biri XII asrda yashagan Aziziddin Nasafiy bo‘lib, «Insoni komil» nomli risolasida komil insonga ta’rif berib shunday yozadi: «Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolotga yetgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe‘l, yaxshi axloq va maorif». Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg‘on, riyva badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo‘llanma vazifasini o‘tagan ko‘p pandnomalar, xalq kitoblari yaratilgan. Masalan, Kaykovusning «Qobusnoma», Sa‘diyning «Guliston», «Bo‘ston», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» va boshqalarni ko‘rsatishi mumkin. Bu asarlarning ko‘pchiligidagi odil shoh va adolat, halollik, soflik, poklik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, insonparvarlik, ma‘rifatli bo‘lish kabi insonning sharqona fazilatlari berilgan.

Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlari sanab o‘tilgan. Bular qatoriga ulug‘ mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o‘z kasbidan topib kun o‘tkazish, shariatga riyova etish, barchadan o‘zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo‘pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo‘lish - yaxshi, muloyim tilli, rahmdil, saxiy, mard, halimlik, xushxulq, sabrli, sadoqatli, riyozat chekishdan qo‘rmaslik va boshqalar.

Shu tariqa o‘tmishda komil insonning o‘ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sifatlarga ega bo‘lish har bir odamning orzusi deb qaralgan. Komil inson haqidagi g‘oyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan. U insonni sharaflı, ezgulik va buyuk xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon, har lahzada insonlurgu ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo‘ya xatti-harakat

va qiliqlardan saqlanishga ko'maklashdi, ularda iymon va vijdonlilikni ta'minlab keldi.

«Komil inson deganda, - deb yozadi Islom Karimov, - biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz»¹.

Komil insonning umumiy xislatlari: yoqimlilik, ko'rksamlik, jozibadorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ulug'sifatlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatllilik, tarbiyalanganlik va boshqalar;

Komil insonning axloqiy fazilatlari: insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylilik, odamiylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boadablik, iltifotlilik, kechirimlilik, mehmondo'stlik, halollik, to'g'rilik, diyonatlilik, haromdan hazar etish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokazolar.

Ishbilarmomonlik xislatlari: mehnatsevarlik, tirishqoqlik, serharakatlilik, mas'uliyatlilik, insoflilik, halollik, malakalilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, tadbirkorlik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, tavakkalchilik va boshqalar.

Zukkolik, idroklik fazilatlari: zehnlilik, bama'nilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik kabilar.

Sobitlik xislatlari: faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, jo'shqinlik, sabotlilik, bir so'zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, nafsnii tiyishlik, o'zini yo'qotmaslik, sovuqqonlik, o'ziga talabchanlik, kansuqumlik, o'zini o'zi idora eta bilish va boshqalar.

Ehtiroslilik xislatlari: ko'tarinkilik, tantanavorlik, kelajakka ishonch, ezzulik, kek saqlamaslik, oliyanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, hayolilik, xijolatpazlik, iffatlilik va hokazolar.

Ayni shu xislat va fazilatlarni yoshlarimiz ongiga singdira borish ularni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Insondagi komillik eng avvalo uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidadir. Shu ma'noda, buyuk yunon

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Асарлар тўплами. 7-жийд. Т.: Ўзбекистон 1999. 134-бет.

faylasufi Suqrotning «O‘z-o‘zingni angla», degan da’vati ham insonning nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir. Komil insonning mohiyati, avvalo, jamiyatni barkamol qilish yo‘lidagi sa’yi-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Komil inson va jamiyat munosabatlarida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki jarayonni ko‘rish mumkin. Birinchisi, komil insonning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qilishi. Komil inson g‘oyasining mavjudligi va u bilan bog‘liq amaliyot jamiyatni rivojlantirish darajasini belgilaydigan mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki biz har qanday jamiyatni unda yashayotgan kishilarning xatti-harakatiga qarab baholaymiz. Ikkinchisi, jamiyatning xarakteri, uning komil insonni tarbiyalash borasidagi imkoniyatlarida, unga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni erkinlik, mustaqillik komil inson g‘oyasini amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoit yaratadi. O‘zbekistonda komil insonni tarbiyalashda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, tashkiliy vazifalar davlat siyosatining eng muhim, ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Prezidentimiz Islom Karimov komil insonni tarbiyalashga yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligining eng muhim omillaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratmoqda. Yurtboshimiz inson tarbiyasiga keng to‘xtalar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi: «...har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli, komil insonlar etib voyaga yetka-zish - ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi».¹

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini a’lo darajada his etadigan shaxs bo‘lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har qaysi komil inson, har birimiz: «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?» deb emas, balki: «Men

¹ Каримов И.А., Юксак маънавият - ёнгилмас куч. Т.: «Маънавият», 2008, 62-63-бетлар

o‘zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?» deb o‘ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak bo‘ladi. Bu komillikka da‘vogar inson uchun asosiy mezondir.

10.3. Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimiz va kelajagimizga tahdid.

Islom Karimov asarlarida barkamol inson konsepsiyasining asoslab berilishi va uning ahamiyati

Ma’naviy tahdid muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, shaxs va jamiyat xavfsizligi, ma’naviy, ruhiy dunyosiga tahdid soluvchi g‘oyaviy-nazariy qarashlar va shunga asoslangan amaliyot majmuyini ifodalaydi.

Yurtboshimiz asarlarida ta’kidlanganidek, tili, dini, e’tiqodidan qat’iy nazar, har qaysi odamning tom ma’noda erkin bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion xurujlar ma’naviy tahdid hisoblanadi. Ma’naviy tahdid vayronkor kuchlarning o‘z moddiy, siyosiy manfaatlarini ko‘zlagan holda har xil markazlar tomonidan biron-bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan ma’naviy buzg‘unchilikning muayyan shaklidir. Ular o‘z maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning ma’naviy-ruhiy hissiyotlari, milliy tuyg‘ulari, har qanday jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy muammolardan, shuningdek, zamonaviy texnologiya, telekommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari, Internetdan ustalik, noxolislik bilan foydalanishga harakat qiladi.

Prezidentimiz buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfsizligimizga tahdid solayotgan jiddiy muammolardan biri ekanligini alohida ta’kidlab, «O‘tgan mustaqil rivojlanish yillarida davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhidagi ishoralarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan xatti-harakatlarda namoyon bo‘lmoqda», -deydi.

¹ Каримов И.А., Хавфсизлик ва баркарор тараккиёт йўлида. Асарлар тўплами. 6-жилд. Т.: Ўзбекистон 1998. 64-бет.

Buyuk davlatchilik shovinizmi g‘ayriinsoniy xususiyatga ega bo‘lib, boshqa xalqlarni qaram qilish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan kamsitishning o‘ziga xos shaklidir.

Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat, o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrirligi ta’kidlanadi. Qayerdaki mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin. Prezident asosiy maqsad – «G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkinligiga qaratilgan»¹ligini ta’kidlaydi.

Yurtboshimiz «Jamiyatda paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqdan foylanib, chetdan biz uchun mutalaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirishi mumkinligini unutmaslik kerak», deya bong uradi.

Islom Karimovning «Milliy istiqlol mafkurasi xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» nomli asarida bugungi kunda mafkura poligonlarida muayyan davlatlar va guruhrar o‘zlarining g‘arazli manfaatlarini ifoda etuvchi turli tajovuzkor g‘oyalarni sinovdan o‘tkazmoqdalar, deya ta’kidlanadi.

Bu borada ularning niyatlari bitta, eng avvalo, kishilarni ma’naviy-mafkuraviy jihatdan tobe qilish, pirovard natijada esa butkul qaram qilib olish, ular ustidan hukmronlik qilish maqsadi yotadi. Bu usul katta-katta hududlar, ayniqsa, boy tabiiy resurslarga ega bo‘lish harakati hisoblanadi. Bunday xavf-xatardan millatni, ayniqsa, yoshlарimizni asrash uchun ularni ushbu g‘oyalarning asl mohiyati, maqsadlarini to‘g‘ri anglaydigan va ularga munosib javob beradigan qilib tarbiyalash uchun boy tarixiy merosimiz va an‘analarimiz asosida, ilmiy asoslangan g‘oyaviy bilimlar bilan oziqlantirib, qurollantirib turish lozimligi aytib o‘tilgan.

Prezident Islom Karimov «O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz» nomli asarida mustaqillik mafkurasi, milliy g‘oya, milliy g‘urur, ma’naviyat masalalariga e’tibor qaratish bilan birga yoshlarga xavf solishi mumkin bo‘lgan qator mafkuraviy tahdidlarga, yovuz intilishlarga aslo yo‘l qo‘ymaslik zarurligini uqtiradi.

Bugun dunyo batamom yangi tahdid – diniy ekstremizm va

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Асарлар тўплами 7-жони. 1 Ўзбекистон, 1999. 88-бет.

fundamentalizm bilan yuzlanmoqda. Bu xavfning ko‘lami uning insoniyat maqsad-manfaatlarga zid ekanligi bilan belgilanadi. Diniy mutaassiblik bilan kurashish odamzod uchun hayot-mamot masalasi ekanligini anglash vaqtı yetdi. Tarix charxpalagini ortga qaytarib, insoniyat taraqqiyotini o‘rta asrlarga uloqtirish va islom xalifaligini tiklashni maqsad qilib olgan bu kuchlar uchun iymon, e’tiqod, islomiy ilm, din taraqqiyoti, diniy ma’rifat muhim emas.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» nomli asarining «Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimiz va kelajagimizga tahdid» deb nomlangan bobida globallashuv jarayoni, uning mazmun-mohiyati, ijobjiy va salbiy jihatlari, xususan, bugungi kunda mafkuraviy ta’sir o‘tkazish vositasi sifatida ayrim siyosiy kuchlar mafkurasiga xizmat qilayotgani, ushbu jarayon orqali milliy qadriyatlarimizga yot g‘oya va qarashlar yopirilib kirayotgani va ular ertaga qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi bayon etilgan.

Hozirgi davrda ma’naviy tahdid, deganda aholining ayrim qatlamlari, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga ta’sir qilib, ularning qarashlarini o‘zlariga ma’qul yo‘nalishda o‘zgartirish, diniy ekstremizm, vayronkorlik, buzg‘unchilik, axloqsizlik g‘oyalarini zimdan targ‘ib-tashviq etib, singdirish kabi g‘arazli maqsadlar anglanadi.

Madaniyatga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz, tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlari, jismonan va ma’nan sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin. Ma’naviy tajovuzkorlar ko‘pincha, jozibali shior va g‘oyalar niqobi ortida ish ko‘radi. Bunday kuchlar ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ular puxta o‘ylangan davomli maqsadlarga xizmat qilmoqda. Hozirgi davrda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz bermoqda, millatlarning ma’naviy qadriyatları, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqmoqda, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolmoqda. Eng yomoni, bunday ma’naviy xuruj-larning pirovard maqsadi odamni o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg‘ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo‘lgan shaxsga aylantirishga qaratilgan.

Xudbinlik va loqaydlik, mahalliychilik, korrupsiya va manfaat-parastlik, boshqalarni mensimaslik, hasad, sotqinlik singari illatlar ham ma’naviy tahdidlar tarkibiga kiradi. Prezidentimiz ogohlantirgani kabi, hozirgi davrda turli eski va yangi g‘oyalar kurashi har qachongidan ham ko‘ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba’zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o‘rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to‘qnashuvlar, ommaviy qirg‘inlarga sabab bo‘lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg‘u-kulfatlar solmoqda. Bu tortishuvlardan ko‘zlangan asosiy maqsad - inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallah, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish, uni o‘z dunyoqarashiga bo‘ysundirish, ma’naviy jihatdan zaif va tobe qilishdan iborat.

11-mavzu. Vatanparvarlik, insonparvarlik va o‘z millatiga sadoqat – shaxs ma’naviyati mezonlari

11.1. Vatanparvarlik tushunchasi. Vatanni ulug‘lash har bir shaxsning insoniy burchi

Vatan aslida arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt ma’nosini anglatadi, shu ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston - o‘zbek xalqining vatani, muqaddas sajdagohidir:

«Dunyo bo‘ldi chamanim manim,
O‘zbekiston vatanim manim».

Vatan - bu inson va uning avlod-ajdodlarining kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargoh. Vatan - bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlarini chinakamiga shakllanib, o‘sib, kamol topib boradigan zamindir.

Vatan, deganda hamisha o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan, ko‘z ochib ko‘rgan, ta’lim-tarbiya olib voyaga yetgan, ajdodlarimiz yashab o‘tgan, ularning aql-idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko‘z oldimizga keladi.

Vatan ona kabi aziz va mukarramdir. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan zamindir.

Vatan - ajdodlardan avlodlarga qoladigan eng buyuk, bebafo meros, eng aziz xotira.

Kurayi zamin - Yer sayyorasi butun jumlayi jahonda yashayotgan yetti milliarddan ziyod xalqlar uchun Vatan hisoblansa, har bir xalq uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hudud ona Vatandir. Vatan bilan xalq yoki millat birga paydo bo‘ladi, birga yashaydi. Vatanimiz bor ekan - xalqimiz bor, xalqimiz borki, vatanimiz bor.

Vatanni avaylab-asrash, uning boyligini e’zozlash har birimizning muqaddas burchimiz bo‘lgani kabi kurayi zamin - Yer sayyoramizni ham avaylab asrashga, uning barcha boyligini: tabiat, o‘simlik va hayvonot dunyosi, musaffo osmonini-yu muqaddas zami-

nini kelgusi avlodlarga qoldirish unda yashayotgan har bir xalqning muqaddas burchidir.

Vatan - bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan - muqaddas qadriyat. Vatan ostonadan boshlanadi. U insonning kindik qoni to'kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, ma'naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o'chog'idir.

Inson uchun vatan yagonadir. Vatan in'om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakrordir. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, «Vatan - sajdagoh kabi muqaddasdir». Vatanni eng oliv ne'mat singari boshimiz uzra baland ko'tarib, har on va har soniyada uning tuprog'ini ko'zlarga surtib, unga ta'zim bajo aylashimiz farzandlik burchimizdir. Muqaddas hadisi shariflarda, «Vatanni sevmoq iymondandir», deyilgan. Ya'ni iymoni but, vijdoni pok har bir inson vatanni sevadi, uni g'animplar ko'zidan asraydi, uning yashnashi va yashashi, hurligi uchun kurashadi.

Sho'rolar davrida milliy manfaat, ona zaminga mehr-muhabbat «Vatan» tushunchasi mavhum bir umumiylig holga kelib qolgandi. Hamma narsa «umumisovet» manfaatiga qaratilgandi. Har bir millat, xalq ming yillardan beri yashab kelayotgan o'z vatani uchun qayg'urishga haqli emasdi. Istibdod davridagi hukmron kommunistik mafkura bor kuchini kishilar ongidagi ona Vatan tushunchasini so'ndirib, soxta, mavhum sovet vatani g'oyasini singdirishga qaratdi.

Inson istagan joyda bir parcha nonga qornini to'yg'azishi mumkin. Ammo Vatanning o'rmini hech narsa bosolmaydi. Vatanda yashash haqiqiy baxtdir.

Mustaqillik tufayli biz Vatanimizga ega bo'ldik. Bu mustaqillikning bizga bergen eng oliv ne'matidir. Vatani mustaqil xalqning o'zi ham mustaqil bo'ladi. Yurti ozod va erkin odamning erki o'z qo'lida bo'ladi.

Tarix o'zbek xalqining yosh avlodи zimmasiga g'oyat buyuk vazifa yukladi. Bu Vatanimiz kuch-qudratini mustahkamlash, uning dovrug'ini olam uzra yoyish, shuhratiga shuhrat qo'shishdir. Bunda esa Vatan, Prezidentimiz aytganidek, fidoyi vatanparvurlarga tayanadi. Har birimiz o'zimizning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyatimiz, halol mehnatimiz bilan o'zimizdan keyingi avlodlarga ozod

va obod vatanni qoldirishimiz kelgusi avlodlar, nasl-nasablarimiz oldidagi burchimizdir.

Milliy mustaqillik - xalqimizda, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizda vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tmish mutafakkirlari bu haqda alohida qayd etganlar va o'zlar ham unga sodiq qolganlar. Endi ana shu qaydlardan ba'zilarini eslab o'tamiz.

Sitseron (Rim notig'i va faylasufi): Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrobalar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so'zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo'lsa, qaysi vijdonli odam u uchun jonini berishga ikkilanan ekan.¹

Gegel (nemis faylasufi): Ma'rifatli xalqlarning jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi.²

Bayron (ingliz shoiri). Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.³

Belinskiy (rus tanqidchisi): Kimki o'z Vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas.⁴

Gyugo (fransuz adibi): O'z vataniga dog' tushirish - uni sotish degan so'z.⁵

Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jo'sh uradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi»⁶.

Vatanparvarlik Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oliyjanob faoliyatni anglatadigan vatan-

¹ С. Отамуротов ва бошқалар «Маънавият асослари» ўқув кўлланма Т., «Мерос» 2012. 163 бет.

² Ўша жой.

³ Ўша жой.

⁴ Ўша жой.

⁵ Ўша жой.

⁶ Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаравон ҳаёт - пировард максадимиз. Асарлар тўплами 8-жилд. Т.: Ўзбекистон 2000. 502-бет.

parvarlik nihoyatda serqirra tushuncha bo‘lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma’no-mazmun bilan boyib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmati, taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg‘usi qancha churqur anglansa, vatanparvarlik tuyg‘usi shuncha yuksak bo‘ladi. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy taraqqiyotning turli bosqichlarida vatanparvarlikning yangi-yangi qirralari namoyon bo‘lib boradi. Haqiqiy vatanparvarlik Vatanga, ona zaminga, o‘z xalqiga muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo‘lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug‘ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi. Har jabhada Vatanimiz erishayotgan muvaffaqiyatlardan quvonish, og‘ir kunlarida uning uchun qayg‘urish, o‘z yurti bilan g‘ururlanish, uning har bir qarich yeri, har bir g‘ishti va giyohiga, qadimiy va zamonaviy obidalari, ilm-fan va san’atdagi yutuqlarini, moddiy va ma’naviy boyliklarini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash-bularning barchasi vatanparvarlikdir. Ayniqsa, bugungi kunda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson o‘z yurtini qanday bo‘lsa shundayligicha sevishi, uning rivoji uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi lozim. Vatanparvarlik kishilarda asosan uch bosqichda namoyon bo‘ladi:

- 1) bilish - Vatan tuyg‘usiga xos qadriyatlarni egallash;
- 2) e’tiqod – mazkur qadriyatlar to‘g‘risida olgan bilimlarini e’tiqodga aylantirish;
- 3) harakat - bu e’tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, «Barchamizga ma’lumki, inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, ulg‘aya boradi.

Bu ildiz qancha teran bo‘lsa, tug‘ilib o‘sigan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo‘ladi. Albatta, jahon - keng, dunyoda mamlakat ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O‘zbekistonimiz yakka-yu yagona. Bu go‘zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan.

Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqisi jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Biz shunday

ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin...

Biz Vatan tuyg'usini..... yaxlit holda, ya'ni dunyoda yagona o'zbek millati bor, xorazmlik, farg'onalik, surxondaryolik o'rtasida hech qanday milliy farq yo'q, ularning barchasi o'zbek xalqining farzandi deb anglashimiz, yosh avlodimizni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur».¹

Vatanparvarlik deganda esa yana quyidagilarni anglash joiz:

- o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;
- qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish;

- xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm-rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;

- ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularning ulug' ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;

- shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;

- Turonzaminni himoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo'lgan qahramonlar nomini yod etish;

- asrimizning yigirmanchi, o'ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyuştilgan qatag'onlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo'lgan minglab millatimiz gullarini unutmaslik;

- bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir.

Vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilarini sari intilish va boshqalardir.

Vatanparvarlik bir so'z bilan aytilganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab-yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish:

¹ Каримов И.А. «Ўксак мънавият - енгилмас күч». Т.: «Мънавият» 2008. 90-91 бетлар.

Ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;

Vatanparvarlik-xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishdir.

Vatanparvarlik haqida so‘zlar ekanmiz, mustaqillik bizga in’om etgan vatanparvarlikning oliv ramzları haqida so‘zlamasdan iloj yo‘q. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu Yorkdagi qarorgohida ko‘plab davlatlar bayroqlari qatorida mag‘rur hilpirab turishini ko‘rish va his etish naqadar katta baxt. Prezidentimiz Islom Karimov juda to‘g‘ri ta’kidlab o‘tganidek: «O‘zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzları - Davlat Gerbi, Davlat Bayrog‘i, Davlat Madhiyasi azizdir. Ular ona Vatan - O‘zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz hurmat tuyg‘usini tarbiyalaydi».

Davlatimiz mukofotlari - «O‘zbekiston Qahramoni» oliv unvoni, orden va medallar, faxriy unvonlar ham mamlakatimiz fuqarolarida o‘z Vatanidan g‘ururlanish tuyg‘ularini oshirishga xizmat qiladi.

O‘z milliy valyutamiz - so‘mimiz ham vatanparvarlik ramzidir.

O‘zbekiston - muqaddas Vatan. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbijalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har qarichiga mehru muhabbat uyg‘otish bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi.

11.2. Insonparvarlik – inson va jamiyat ma’naviy qiyo fasining mezoni

Vatanparvarlik tushunchasi insonparvarlik tushunchasi bilan uyg‘undir. Vatanparvarlik uchun intilish, kurashning zaminida insonparvarlik yotadi.

Insonparvarlik bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma’no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o‘zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko‘zga tashlanadi. Qur‘oni Karim insonparvarlik g‘oyalari asosiga qurilgan. Muhammad alayhissalom (s.a.v.) hadislari shu g‘oyalarga boy hikmatlar majmuasi sanaladi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-shafqatida, diyonatda, o‘zaro ko‘maklashuvilda, hamdardlikda, boshqalar qayg‘usiga sherik bo‘lib, quvonchidan va

baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko‘rinadi.

O‘zbek xalqining turmush tarzi, mehnat faoliyati, o‘zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanishi, yaxshi qo‘shnichilik, bolajonlik, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga hurmati, sadoqati kabi qadriyatlari insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. O‘zbek xalqi bir umr mehr-shafqatli bo‘lgan, barchaga yordam qo‘lini cho‘zgan. O‘zbek xalqi o‘zining insonparvarligini fashizmga qarshi kurash yillarida yetim bolalarning boshini silab, o‘z tarbiyasiga olib yorqin namoyon etdi.

O‘zbek xalqi doimo umuminsoniyat dardini kuylab kelgan. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, az-Zamahshariy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Ogahiy asarlaridagi g‘oyalari - insonparvarlik ruhi bilan ajralib turadi. Xususan, Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Uningcha, vatanga, xalqqa sadoqat eng avval uning taqdiri ustida g‘amxo‘rlikdan iborat. *Insonga nisbatan beparvolik, uning taqdiri va baxtu saodati uchun g‘am chekmaslik sharafli insonga tamomila yotdir.* Navoiyning barcha-barchani insonga g‘amxo‘r bo‘lishga chaqirgan, insonparvarlikni kuylagan quyidagi bayti asrlar osha hammamiz uchun ibrat yanglig‘ yangrab turibdi:

Odami ersang, demagil odami,

Oningkim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami¹.

Mustaqil O‘zbekistonimizning butun siyosati insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilganligi har birimiz uchun faxrdir. Respublikamizda inson huquqlari va demokratiyaga oid masalalar maxsus qonunlar bilan belgilab qo‘yilgan.

Prezidentimiz va O‘zbekiston davlatining eng ulug‘vor va insonparvarlik g‘oyalardan biri - ichki va tashqi tinchlik siyosatidir. Inson tug‘ilgan ekan, u yashashi kerak. Yashash uchun tinchlik zarur. Demak, davlatimizning tinchlik siyosati insonparvarlik siyosati mazmuni bilan sug‘orilgan.

O‘zbekiston davlatining ekologik siyosati ham chuqur insonparvarlik mazmuniga ega. Ekologiya zararlansa, salomatligi yomonlashadi. Inson nosog‘lom ekan, bu jamiyatdagi nosog‘lomlikni keltirib chiqaradi. Mamlakatimizda «Sog‘lom avlod uchun» Davlat dasturi-

¹ Каримов И.А. «Оксак маънавият - ёнгилмас кун». Т.: «Маънавият» 2008. 90-91 бетлар.

ning ilgari surilganligi insonparvarlikka qaratilgan katta tashabbusdir. Mustaqil O'zbekiston o'z xalqining salomatligiga milliy boylik sifatida qaraydi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi ning Konstitutsiyasi o'zining insonparvarlik g'oyalari bilan ajralib turadi. Bu haqda Islom Karimov shunday yozadi: «Shu ko'hna zamin odamlari ko'nglida ustuvor bo'lgan adolat, haqqiqat, iymon, mardlik, tantilik, bag'rikenglik kabi ulug' xislatlar bu muborak hujjatdan munosib o'rinni olgan». Bu tarixiy hujjatda insonparvarlik o'z ifodasini to'la topgan. Konstitutsiyamizning 39-moddasida «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qtganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlari miqdori rasman belgilab quyilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas» deb yozib qo'yilganligi fikrimiz isbotidir. Davlatimizning asosiy qonuni o'zining insonparvarlik kafolati ustuvorligi tufayli xalq oldida katta obro'-e'tiborga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan islohotlarning muhim tamoyillaridan biri ijtimoiy siyosatga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shunchaki islohot uchun emas, aynan inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qiladi.

Mustaqil respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlari ruhiyatida vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish huquqiy demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim kafolati sanaladi. Shuning uchun yoshlarda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish tarbiyaviy ishimizning muhim yo'naliшlaridan biri bo'lib qolmog'i lozim.

O'zbekiston barcha sohalarda birinchi galda insoniylik va insonparvarlikning yuksak mezoni va talablari asosida siyosat olib bormoqda. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonunlari, yurtimizdagи tub islohotlar, avvalo, insonni ulug'lash, uning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani, xalqimiz ma'naviyatiga, milliy qadriyat va an'analarimiz rivojiga berilayotgan e'tibor, bu boradagi keng ko'lamlı ishlар insonparvarlikning amaldagi yorqin ifodasıdır.

11.3. Millatparvarlik va o‘z millatiga sadoqat tushunchalarining mohiyati

Millatparvarlik insonning hayoti va faoliyati davomida o‘z millatining o‘ziga xos jihatlariga hurmat va sadoqat ruhida qarashi, milliy mentalitet, urf-odat, tafakkur tarzini chuqur his etgan holda, millatning har tomonlama taraqqiy topishiga xizmat qilishi va u bilan bog‘liq dunyoqarashning namoyon bo‘lishini ifodalovchi tushuncha. Millatparvarlik ma’lum ma’noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish, keng ma’noda, Vatanni sevish degani.

Vatansiz millatning bo‘lishi, uning rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas Biroq, millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o‘z millatini ajratib olib, unga «buyuk»lik maqomini berishga intilish bo‘lsa, millatparvarlik boshqalarni kamsitmagan holda, o‘z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo‘lda, lozim bo‘lsa, o‘z hayotini ham fido qilish demakdir. Chunki o‘z millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvarlik milliy o‘zligini anglab yetgan insondir, u o‘z millati bilan faxrlanadi, u bilan butun jahonda faxrlanishni istaydi. Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g‘oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi. Millatparvarlik insoniyat taraqqiyotida millatlarning o‘rni va ahamiyatini to‘g‘ri tushunish, Yer yuzidagi mavjud millatlarning tili, turmush tarzi, irqi, tashqi qiyofasi, urf-odatlari, dini, madaniyatining o‘ziga xos tomonlaridan qat‘iy nazar hurmat qilish, ularning ozodligi, tengligi, gullab-yashnashi uchun shart-sharoitlar yaratib berish tarafdori bo‘lishdir.

Millatparvarlik har bir kishidan millatlar va milliy munosabatlar sohasida chuqur bilimli bo‘lishni, insoniyat tarixida uning moddiy - ma’naviy madaniyatining shakllanishida hozirgi zamon sivilizatsiya-sining rivojlanishida jiddiy mavqega ega ekanligini bilishni taqozo etadi. Millatparvarlik barcha millatlarga barobar hurmat bilan qarash demakdir. O‘z millatini boshqalardan afzal ko‘rib, unga imtiyozlar berishni talab qilish yoki aksincha, o‘zinikini ulug‘lab, o‘zganining tili va madaniyatiga befarq qarash millatparvarlik qoidalariga ziddir.

Shu bilan birga, millatparvarlik barcha millatlarni, ularning farq va tafovutlarini hisobga olmay turib, tenglashtirishni inkor etadi. Har bir millatga bo‘lgan munosabat uning istiqomat qilib turgan muayyan sharoitlari, tarixi va shu asosda millatlar bilan o‘zaro munosabatlariga bog‘liq. Millatlar ham insonlardek xilma-xil va turli-tuman bo‘lganligi bois, har bir millatga nisbatan munosabatlarda nihoyatda ehtiyyotkorlik, muomala madaniyati va e’tibor talab qilinadi.

Har bir insonning millatparvarligi avvalambor, uning o‘z millatiga, tiliga, madaniyatiga, an’analari, urf-odatlari va rasm-rusumlariga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Lekin millatparvarlik bu doirada cheklanib qolmaydi, boshqa millatlarni o‘z millati bilan teng ko‘radi. Mustaqil O‘zbekistonning yuksalishi har bir insonning millatparvarlik tamoyiliga sodiq bo‘lishiga ham bog‘liq. Chunki davlatimizning kelajagi, birinchi navbatda, xalqimizning uyushqoqligi, g‘ururi, tadbirkorligi hamda ~~hudud~~dimizda istiqomat qilib turgan har bir kishining millati, dini, tili va e’tiqodidan qat’iy nazar, umummilliy g‘oya atrofida jipslashuviga bog‘liqdir. O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari ana shunday yo‘ldan bormoqdalar. Shu ma’noda, mustaqillik yillarida millatlararo hamkorlikning mustahkamlanib borishi mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish bilan birlgilikda millatparvarlik tuyg‘usining yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Milliy iftixor millatga xos moddiy yoki ma’naviy yutuq, muvaffaqiyat bilan faxrlanish tuyg‘usini ifodalaydigan tushuncha. U inson ma’naviy kamolotining qirralaridan birini namoyon etadi. Milliy iftixor o‘z xalqining asrlar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an’analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma’naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e’zoz bilan munosabatda bo‘lish, avaylab-asrashni ifodalovchi tushunchadir.

Millatinning istiqboli uchun qayg‘urmaydigan, o‘z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan kishilarda milliy g‘urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo‘lmaydi. Bunday insonlarni ma’naviy jihatdan kamol topgan barkamol insonlar

deya olmaymiz. Milliy iftixorni tiklash va o'stirish ma'naviy hayotimizdagи ustuvor vazifalardan biridir.

Inson tabiatiga o'zini muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, toifa, millat, davlat, mintaqा, davr yoki sulola bilan bog'lash xosdir. Shu bois shaxs o'z qavmi, millati va davlatining erishgan yutuqlaridan quvonish, uni yanada boyitish va kelajak avlodlarga qoldirishga intilishi tabiiy ma'naviy hodisadir. Xalqlar, millatlar tarixiy taraqqiyotining tub burilish davrlarida jamiyatning yangilanishi tufayli milliy iftixorni tiklash va o'stirish milliy davlatchilik qurilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib qoladi.

Milliy ma'naviy-madaniy qadriyatlarni yoshlar ongi, qalbiga atroflicha va batafsil yetkazish, ularni ajdodlar yaratgan ma'naviy boyliklar bilan oziqlantirish milliy iftixorni tiklash va o'stirish omildir. Bu millat tarixini o'rganish, anglash, qadrlash orqali amalga oshiriladi. O'zbek xalqi hayotida milliy iftixor o'z millatining buyuk shaxslari hayoti va taqdirini o'rganish bilan yanada yuksaladi.

Prezident Islom Karimov aytganlaridek: «Besmafqa davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlар, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir»¹. Milliy iftixorning yana bir vazifasi xalqni, millatni birlashtiradi, yuksak maqsadlar sari olg'a boshlaydi. «Mana, Germaniyani, Yaponiyani oling. Bundan 50-60-yil oldin ular bugun erishgan taraqqiyotni faraz qilishi ham qiyin edi. Nima hisobidan ular jahon maydoniga chiqdi, butun dunyo hurmat qiladigan yetakchi davlatlar qatoridan o'rinn oldi? Bu davlatlarda, avvalambor, xalq birlashdi. Milliy g'urur, milliy iftixor, ertangi kunga mustahkam ishonch paydo bo'lди. O'z oldiga qo'ygan marralarga erishish uchun zarur dasturlar ishlab chiqildi, odamlar, butun millat bir tanu bir jon bo'lib, mayli, besh-yil, o'n-yil bo'lsayam, yigirma-yil bo'lsayam qattiq ishlaymiz, lekin shu darajaga yetamiz, degan yagona maqsad bilan yashadi»². Ezgu

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз кўлнимиз билан курамиз. Асарлар тўплами. 7-жилд. Т.: Ўзбекистон 1999. 132-бет.

² Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-кудратимизга, хамжиҳатлигимиз ва катъий иродамизга бояниш. Асарлар тўплами. 12-жилд. Ўзбекистон, 2002. 258-бет.

maqsadlarimizga erishish, jahon miqyosida o‘zimizga munosib o‘rin egallash, Vatanimiz istiqlolini himoyalash, avvalambor, o‘zimizga, o‘zimizning imkoniyat va salohiyatimizga, azmu shijoatimizga bog‘liq ekanini shu yurtda yashayotgan har qaysi inson chuqr tushunib olishini taqozo qiladi. Shu borada siyosiy, harbiy, iqtisodiy omillar qatorida milliy iftixor tuyg‘usi ham o‘ta muhim mezon hisoblanadi. Milliy iftixor shunday buyuk qudratki, tarixda bu kuchga tayanib-suyanib, ko‘plab xalqlar eng murakkab sinovlardan, davr suronlaridan omon chiqqan va boshqalarning havasini uyg‘otadigan erkin va farovon hayot qurishga erishgan. Odamlarimiz ongi va jamiyatimiz mafkurasida yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g‘oyalari yetakchi o‘rin tutishiga harakat qilinayotgani bejiz emas. Milliy g‘urur, milliy iftixor barcha ishlarimizning poydevori bo‘lmog‘i kerak. Bu muqaddas g‘oyalar, millati va e’tiqodidan qat’iy nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog‘i, har birimiz uchun eng katta tayanch va ishonchga, haqiqiy maslakka aylanishi lozim.

*Agar qidirishdan yuz o'girmasang,
nimaniki qidirsang topasan.*

Abdulxoliq G'ijduvoniy

12-mavzu. Ma'naviy fazilatlarni anglatuvchi tushunchalar

12.1. Diniy va dunyoviy iymon-e'tiqod va ularning mohiyati

Iymon (arab. - ishonch) - 1)Allohga bo'lgan ishonch-e'tiqod; ko'ngilda ishonish va tilda iqror qilish; 2) umuman, ishonch; 3) muayyan fikr, oliv g'oyaning haqiqatligiga komil ishonish, shu ishonchni e'tiqodga aylantirish. Shuning uchun ham iymon so'zi e'tiqod so'zi bilan yonma-yon kelib, iymon-e'tiqod tarzida ishlataladi. Iymon inson ongi va ruhiyatiga singgan, undan mustahkam o'rinn olgan dunyoqarash sifatida qudratli harakatlantiruvchi kuch, *inson* irodasini mustahkamlash vositasidir. Iymon tufayli odam ruhi ezgulik sari intiladi, ijtimoiy-siyosiy hayotning insoniylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har qanday g'oya va dunyoqarash insonning iymon-e'tiqodiga aylangandagina harakatlantiruvchi moddiy hamda ruhiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar - so'z bilan ish (amal), til va dil birligi, insof, diyonat, halollik-poklik, vijdonlilik, sadoqat, muhabbat, vatanparvarlik, shuningdek, oila, jamiyat, xalq va butun insoniyat oldidagi burchni anglash kabi fazilatlar iymonlilik shartlari hisoblanadi. «Ishonch» bilan «iymon» tushunchalari odatiy (kundalik) ongda ko'pincha bir ma'noda qo'llanadi.

Nazariy ongda ular o'rtasidagi yaqinlikdan tashqari tafovut ham borligi e'tiborga olinadi. Ishonch odamlar va ularning uyushmalari o'rtasidagi axloqiy-ruhiy holat sifatida o'zaro munosabatlar insoniy tus olishiga xizmat qiladi. Ishonch muhitni qaror topgan joyda ko'p muammolar osonroq, beozorroq hal bo'ladi, odamlarning ko'p vaqtini va quvvati behuda sarflanmaydi. Ishonchsizlik va shubha barqaror muhitda inson shaxs sifatida shakllanishi qiyinlashadi.

Iymon ishonchga nisbatan chuqur falsaviy mazmunga ega. U dunyoqarash va e'tiqod bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli alohida nodir ruhiy holat sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda butun jahonda diniy dunyoqarash bilan birga ilmiy-falsafiy dunyoqarash ham mavjud. Ayrim odamlarda diniy ong ustuvor bo'lib, ularda iymon diniy aqidalar haqligiga ishonch asosida shakllanadi, ba'zi kishilarda esa ilmiy haqiqatlarga ishonch ustuvor bo'lgani sababli, ularda iymon dunyoviy bilim, falsaviy dunyoqarash negizida yuzaga keladi. Qur'oni Karimda iymonli insonlarning belgilari quyidagicha tavsiflanadi: ular mo'min, halim, itoatkor, so'zi bilan amali bir, poklik va halollikka intiluvchi, o'z va'dalari, shartnomalariga rioya etuvchi, ibodatiga amal qiluvchi va shuning uchun jannat vorislari bo'lgan kishilardir.

Ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarda «iymon» tushunchasi bilan «e'tiqod» tushunchasini aynan bir narsa deb talqin qilish holatlari uchraydi, hatto e'tiqodni iymondan ustun qo'yadigan qarashlar ham bor. Aslida e'tiqod odamning ongi, ahvoli, ruhiyati bilan bog'lanib ketadigan, olamdag'i narsa-hodisa va jarayonlarga alohida munosabatni qaror toptiradigan ma'naviy-ruhiy holatdir. Muayyan g'oya va dunyoqarashga his-hayajon asosida yondashuv ma'nosida e'tiqod iymonga yaqin turadi, shu bois ham ba'zan e'tiqodni «iymon» tushunchasining ma'nodoshi yoki uni to'ldiradigan tushuncha sifatida qo'llaydilar.

Sobiq sovet davrida «iymon» tushunchasi tadqiq etilmagan. Uni o'rghanish, tahlil etish nihoyatda muhim. Umuman aytganda, uch narsaning butunligidan iymon hosil bo'ladi: e'tiqod, iqror va amal. E'tiqod - chin dildan ishonish; iqror - so'zda buni tan olish; amal - ishonchni yaxshi ishlar bilan isbotlash. Alisher Navoiyning «Mahbub ul qulub» asarida quyidagi satrlarni o'qiyimiz: «Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q. Har kimda bu ikki yo'q - iymon yo'q va har kimda iymon yo'q- andin odamiyliq kelmak imkon yo'q». Ya'ni iymonsiz kimsa odam emas.

Tilimizda iymon so'zi keng qo'llanib, u o'ta muhim tushunchalarni bildiradi. Xalqimizda «iymonsiz» so'zidan ortiq haqorat bo'lmasa kerak. Bu haqorat zamirida ishonch-e'tiqodi yo'q, xudodan, dindan qaytgan ma'nolaridan tashqari vijdonsiz, yaramas,

¹ Маннавиятшунослик тушунчалар изоҳли луғати. Т.: «Ғафур Гулом» 2009. 169-бет

razil, diyonatsiz degan mazmun ham ifodalanadi. Inson e'tiqodsiz, fikrsiz yashay olmaydi. Shaxsning e'tiqodi masalasi muhim muammolardan bo'lib, uning shakllanishi, iymonlilik darjasи ko'p jihatdan ijtimoiy omillarga ham bevosita bog'liq. Bugungi kunda bu masalaga e'tibor ortib borayotganining boisi shundaki, inson, ayniqsa, yoshlar uchun g'oyat zarur bo'lgan mafkuraviy immunitetning shakllanishida undagi iymon-e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar, biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarash asoslarini shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va olivjanob shaxslar bo'lib kamolga yetadi.

E'tiqod (arab. ishonch, iymon) - muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur tarzini ifoda etuvchi tushuncha. Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda «e'tiqod» tushunchasi turlicha talqin etiladi, jumladan, e'tiqodning vujudga kelishi uchun bilim eng muhim asos vazifasini bajaradi. Lekin e'tiqod va bilim aynan bir xil tushunchalar emas. Albatta, bilimlarning chinligi e'tiqodni mustahkam bo'lishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ammo har qanday bilim ham e'tiqod emas, balki inson ongida qayta ishlab chiqilgan, ya'ni tajriba chig'irig'idan o'tgan, ikkinchi marta qayta hosil bo'lgan bilimlargina (g'oyalar, nazariyalar) e'tiqodning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Insoniyat taraqqiyoti jarayonida yaratilgan bilimlar insonning o'zi uchun, uning ehtiyojlari uchun qayta kashf etilgandagina, chinakam e'tiqod darajasiga ko'tariladi. Bilim e'tiqodga aylanishi uchun bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Chunonchi bilim o'z taraqqiyotining dastlabki bosqichida anglash holatini bosib o'tadi. Anglab olingen bilim, o'z taraqqiyotining ikkinchi bosqichida tushunish holatiga kiradi. Inson bilimlarning ma'no-mohiyatini tushunib yetgach, uning to'g'rilingiga (yoki noto'g'rilingiga) ishonch hosil qiladi. Tajribadan ma'lumki, faqat mustahkam e'tiqodga aylangan bilim (g'oya, nazariya) inson amaliy faoliyatining takomillashuviga xizmat qiladi. Inson e'tiqodi nafaqat turli haqiqatlarni o'zida aks ettirgan bilimlar, balki o'sha bilimlarga bergen bahosi, unga bo'lgan munosabatiga ham bog'liqdir. Shuning uchun ham bilim (g'oya, nazariya)ning e'tiqodga aylanishi jarayonini tahlil etganda, u ijtimoiy amaliyot insonning bilish borasidagi faoliyatining mahsuli ekanini unutmaslik darkor. E'tiqod quyidagi uch holatni bosib o'tadi:

- a) bilim, g'oya, nazariya (ya'ni aqliy holat);
- b) bilimga berilgan baho, munosabat (ya'ni baholash holati);
- d) o'zlashtirilgan bilimlarni o'z faoliyatiga tatbiq etish, ular asosida o'z xatti-harakatini tartibga solish (xohish-iroda bilan boshqarish holati).

Inson dunyoqarashining asosiy komponenti sifatida e'tiqod bilish, baholash, boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi. Bilish funksiyasining asosida olamdag'i turli voqe'a-hodisalar, jarayonlar sodir bo'lishiga doir bilimlar yotsa, baholash funksiyasi o'zlashtirib olingan bilimlarga tayanib, sodir bo'layotgan o'zgarishlar ma'nomohiyatini tushunib olish bilan bog'liq. Boshqarish funksiyasi esa, insonning o'z xulq-atvori, xatti-harakatiga ko'rsatayotgan ta'siri, uni aniq maqsad sari yo'naltira olish qobiliyati, malakasi bilan bog'liqdır. Demak, bilim, g'oya, nazariya insonning amaliy faoliyati chig'irig'i-dan o'tgach, ishonch-e'tiqodga aylanadi.

Ishonch insonning ongliligi, xulq-atvori xarakterlasa, iymon kishining xatti-harakatida namoyon bo'ladi. E'tiqod inson xulq-atvori va xatti-harakatining birligi holatini ifodalovchi integrativ tushunchadir. O'z navbatida, e'tiqod inson xatti-harakati yo'nalishini belgilovchi asosiy determinantdir. Xohish-iroda, istak kabi unsurlar e'tiqodning inson amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi uchun hal qiluvchi turki beradi. Amaliy faoliyat esa e'tiqodni inson hayotiy pozitsiyasiga aylantiradi. Shunday qilib, e'tiqod inson dunyoqarashining eng barqaror komponentidir. Xuddi shu komponent insonning ongli faoliyati, so'zi bilan ishi birligini ta'minlovchi mustahkam, ishonchli ko'prikdir. Lekin e'tiqod o'z mazmuni, xarakteriga ko'ra xilma-xil tarzda (gumanistik, fashistik, kommunistik, irqiy va b.) namoyon bo'lishi mumkin.

Avtoritarizm yoki zo'ravonlik, ma'muriy buyruqbozlik yoki irqchilikka asoslangan har qanday e'tiqod shaxs mustaqilligini yemiradi, insonni buyruqni bajaruvchi manqurtga aylantiradi. Aniqrog'i, dunyoqarashida fashistik yoki g'ayriinsoniy, irqchilik, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki diniy fanatizm ustuvorlik qilgan e'tiqodga asoslangan har qanday inson, hech qachon mustaqil shaxs darajasiga ko'tarila olmaydi. Dunyoqarashida bunday e'tiqod ustuvorlik qilgan kishi mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash, mustaqil yashash madaniyatidan mahrum bo'ladi. Ilmiy g'oya va nazariyaga asoslan-

magan, turmush sinovlaridan o'tmagan e'tiqod g'ayri ilmiy e'tiqoddir. Shuningdek, e'tiqod – psixologik hamda ijtimoiy-psixologik tu-shuncha bo'lib, odamning muayyan qarash, ta'limot-nazariya, hayotiy aqida, qadriyat yoki faoliyat tamoyillarini emotsional-hissiy qabul qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvurlar majmuyi hamdir. Boshqacha aytganda, e'tiqod ma'lum qadriyatlar, diniy yoki dun-yoviy maslak, munosabatlarning inson qalbida yashash falsafasi, faoliyat dasturi sifatida qabul qilinishidir. Agar shu jarayonning oqibati o'laroq odamda diniy yoki dunyoviy maslak, ishonch kabi tur-g'un munosabatlar shakllangan bo'lsa, biz uni e'tiqodli odam deb ataymiz.

Insonning insonligi, uning jamiyatdagi o'rni va nufuzi ham ma'lum ma'noda uning e'tiqodi bilan belgilanadi. Ayrim insonlar butun umri mobaynida faqat bitta narsaga e'tiqod qiladi. Masalan, Fransiyalik mashhur sayyoh Kusto va uning masalakdoshlari bir qarashda, butun umrini dengiz hayoti va undagi sirli voqealar, hayvonot dunyosini kashf etishga bag'ishlagandek ko'rindi. Dengizdan juda uzoqda yashaydigan, undan manfaat ko'rmaydigan odamlar uchun bunday tadqiqotchilarining hayoti va faoliyati keraksizdek tuyuladi. Lekin, Kustoning o'z ishiga sadoqati, e'tiqodi shu darajada kuchliki, uni butun dunyo, sog'lom fikrlovchi har bir inson juda yuksak qadrlaydi. Bu kabi odamlarning boshqa sohalardagi xizmatlari kam bo'lishi mumkin, ammo bashariyat ularni yuksak e'tiqodlari uchun hurmat qiladi.

E'tiqodli odam, avvalo, foydali ish bilan shug'ullanadi, o'zga-larga ziyon keltiruvchi amallar qilmaydi, yolg'on gapirmaydi. U hamisha lafziga amal qiladi, ya'ni bir narsani qilaman, deb ahd etsa, butun kuchi va iqtidorini safarbar qilib, uni albatta bajaradi, boshlagan ishini oxiriga yetkazadi.

E'tiqodli inson nima uchun aynan shu ishni qilayotganini juda yaxshi biladi. Shu bois haqiqiy e'tiqod egasi ilmga intiladi, o'z oldiga aniq maqsad qo'yib yashaydi, har tomonlama barkamol bo'lishga tirishadi, yaxshilarga oshno bo'lish, buyuklikka havas uning hayotiy shioriga aylanadi. Haqiqiy e'tiqod sohibi o'zidan oilasiga, farzandaligiga, insoniyatga nimadir qoldirishni istab yashaydi. Shuning uchun ham e'tiqod shaxsdagi jur'at, mardlik, fidoyilik, iroda, vijdon, qat'i-yat, halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar bilan bog'liqdir.

12.2. O‘zbek xalqiga xos yuksak fazilatlar

Adolat (arab.- odillik, to‘g‘rilik, hamma uchun barobar bo‘lgan haqiqatning talab va tamoyillariga amal qilinishi) - insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g‘oyasi, ma’naviyat, axloq va huquqning me’yoriy kategoriyalardan biri. Jamiyat hayotidagi hodisalar, tartib-qoidalar ning asl insoniy ideallarga, haqiqat mezonlariga qanchalik mos ekanini aniqlashda hamma zamonlarda ham asosiy ma’naviy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatning shaxsga, shaxsning jamiyatga va bir shaxsning ikkinchi shaxsga munosabatida namoyon bo‘ladigan adolat tamoyili ana shu munosabatlarni baholashning o‘zgarmas mezonidir. Adolat yuksak ma’naviy qadriyat bo‘lib, «baxt», «ozodlik», «tenglik», «do’stlik», «tinchlik» tushunchalari kabi insonning azaliy ezgu intilishlari timsolidir. Adolat haqidagi ilk tasavvurlar juda olis zamonlarga borib bog‘lanadi. Qadimgi davr muttafakkirlari uni universal qonun sifatida talqin etishgan. Yunon faylasufi Aflatun adolat muammosini tizimli tarzda o‘rganib chiqishga harakat qilgan. Uning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasida adolat «hukmronlik» va «imtiyoz» tushunchalariga yaqin kategoriya sifatida sharhlangan. Faylasufning fikricha, har bir tabaqa ichida tenglik bo‘lmog‘i, tabaqalar o‘rtasida tenglik hukm surmog‘i adolatdandir. Arastu bu g‘oyalarni rivojlantirib, «tenglashtirish» va «taqsimlash adolati» tushunchalarini qo‘llagan. Farobiy adolatni ijtimoiy iyerarxiya va tartibning mavjud bo‘lishi uchun poydevor yaratuvchi huquqiy kategoriya deb ta’riflagan. XVIII asrga kelib adolat ijtimoiy tenglik bilan bog‘liq holda kun tartibiga qo‘yila boshlandi. Hozirgi zamon falsafiy adabiyotlarida adolat jamiyatdagи barcha ijtimoiy munosabatlarni ifoda etuvchi kategoriya sifatida ta’riflanmoqda. Adolat jamiyatda oltita asosiy vazifani bajaradi:

1. Jamiyatdagи ijtimoiy munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etadi.
2. Turli ijtimoiy guruh va sinflar manfaatlarining himoya qilinishini ta’minlaydi, ular orasidagi muvozanatni saqlab turadi.
3. Jamiyatdagи mulkchilik munosabatlarini, ishlab chiqarish faolligini oshiradi.
4. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

5. Voqelikda keng ildiz otgan, lekin ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'layotgan munosabatlarni bartaraf etishga da'vat qiladi.

6. Odamlarda kelajakka ishonch tuyg'usini uyg'otadi.

Adolat tamoyili adolat, odillik, xolislik asosida masalaga qonun ustuvorligi nuqtayi nazaridan xolis yondashish, haqiqatni bosh mezon deb bilish, shu yo'lda beminnat xizmat qilish. Adolat tamoyiliga amal qilib, mamlakatimizda inson, uning huquq va manfaatlarini eng oliy qadriyat sifatida ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Tabiiyki, bu o'zgarishlar yurtimizda ijtimoiy adolat va demokratiya tamoyillarini chuqur qaror toptirish bilan uzviy va chambarchas bog'liq. Adolat tamoyili alohida inson xatti-harakatidan tortib mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy institulgacha bo'lgan keng miqyosdagi munosabatlar tizimiga bir xilda yondashishni taqozo etadigan noyob ijtimoiy hodisadir.

U ba'zan qarama-qarshi va ziddiyatli holatlarga sabab bo'ladi, lekin oxir-oqibatda haqiqatni yuzaga chiqaradi. Adolat tamoyili real ijtimoiy mexanizmga ega. Avvalo, barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashning eng muhim omilidir. Adolat tamoyili jamiyatning o'ziga xos «asab tolasi» bo'lib, odamlarning ijtimoiy kayfiyatini yaqqol ifoda etadi. Ayni paytda u jamiyatdagi ezgu niyatli kuchlarni yagona maqsad yo'lida birlashtiradigan ta'sirchan va samarali qadriyatdir.

Jamiyatimiz o'zining ijtimoiy adolat konsepsiyasiga ega bo'lib, bunda xalqimizga azaldan xos bo'lib kelgan adolatga ishonch va ehtirom tuyg'usi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotda adolat tamoyilining asosiy qoidasi - hissa *va ulush mutanosibligi manfaatlar uyg'unligini* ta'minlash masalasi bo'lib, bunda demokratik tamoyillar muvozanatga soluvchi vosita rolini bajaradi.

Adolat tamoyilining ratsional ahamiyatini oshirish uchun aniq me'yorlar, o'lchovlar talab etiladi. Hissa va ulush birligi demokratik me'yorlarga ham mos keladiki, bu *iqtisodiyotda* - mehnat va ish haqi; *siyosatda* - boshqaruvdagi ishtirok va burch; *huquqda* - erkinlik va zarurat, huquq va burch, jinoyat va jazo, *sotsial* sohada - insонning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzi, ijtimoiy maqomining real mehnat natijalari, qobiliyat va salohiyatiga qanchalik mos ekanida namoyon bo'ladi.

Adolatning boshqa tamoyillari ham demokratik mazmunga ega. Ular jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy va bir xilda tatbiq qilinishi mumkin. Quyida adolat tushunchasini umumiy tarzda tasniflab o'tamiz:

- 1) talab va taklif qoidasi;
- 2) teng imkoniyatlar qoidasi;
- 3) ehtiyoj qoidasi;
- 4) ijtimoiy kafolat qoidasi;
- 5) xizmat ko'rsatish qoidasi;
- 6) mutanosiblik qoidasi;
- 7) ekvivalentlik qoidasi;
- 8) rag'batlantirish qoidasi;
- 9) kasbiy layoqatlilik qoidasi;
- 10) ijtimoiy foydalilik qoidasi.

Mazkur qoidalar bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha demokratik jamiyatlarda keng qaror topgan. Bu qoidalar hayotga qanchalik keng joriy etilsa, fuqarolik jamiyatni poydevori shunchalik mustahkam bo'ladi.

Ayni paytda mutaxassislar bu qoidalarni to'ldiruvchi boshqa prinsiplar haqida ham fikr yuritadi. Amerikalik sotsiologlar R.Xusman va D.Xetfild «adolat omili» tushunchasini asoslاب, uni amalga oshirishdagi qo'l keladigan qoidalarni ilgari suradi. Bular quyidagilar:

- 1) inson o'zgalar bilan munosabatini o'zining jamiyat ishiga qo'shgan hissasi va shuning evaziga oladigan ulushini taqqoslash orqali baholaydi;
- 2) hissa va ulushning o'zaro mos kelmasligi norozilikka sabab bo'ladi;
- 3) inson o'ziga tegayotgan ulushdan qoniqmasa, o'zicha adolatni tiklashga harakat qiladi.

Xullas, ijtimoiy adolatning mazkur qoidalari jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiyligi va bir xilda tatbiq qilinishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, bu qoidalar ijtimoiy uyg'unlikning zaruriy asosi hisoblanadi.

Garchi adolat nisbiy tushuncha bo'lib, barcha uchun bir xilda mayjud bo'lmasada, demokratik jamiyatda uni amalga oshirishning qat'iy qoidalari, me'yorlari ta'minlanadi. Mamlakatimizda taraqqiyot

tadrijiy va bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirilayotgani yurtdoshlarimiz manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtirishga, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunday sharoitdaadolat tamoyilining o'zi jamiyat hayoti uchun muhim ma'naviy-huquqiy me'yorga aylanadi. Prezident Islom Karimovning «Odamlar hamma narsani kechirishi mumkin, ammoadolatsizlikni kechirmaydi» degan fikrlari asosida yurtimizda har qaysi insonning huquq va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Shafqat kishining o'ziga aloqador odamga, aybdor, gunohkor, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jazolanishga loyiq kimsaga kechirim-lilik orqali insonparvarlik ko'rsatishini anglatuvchi tushuncha. Shafqat o'zbek xalqiga xos bo'lgan yuksak ma'naviy fazilatlardan bo'lib, o'zgalarning dardini anglash, muhtoj odamlarga ko'mak va muruvvat ko'rsatish, ularning inson ekanini yodda tutgan holda yordam, rahmdillik ko'rsatish, himmat qilishni bildiradi. Odamlarning o'zaro kundalik ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'ladigan fazilatlarini, jamiyatdagi ong va axloqning yuksakligini belgilovchi insoniylik tamoyillaridan bo'lgan bu xislatni jamiyat va kishilar faoliyatining barcha jabhalarida kuzatish mumkin. Shafqat hissi-shafqatga muhtoj kishi o'rniha xayolan o'zini qo'yib, fikr yuritish orqali vujudga keladigan, o'zga inson iztiroblarini yengillatishga qaratilgan ma'naviy-axloqiy hodisa.

G'azab insondagi yomon xislat bo'lsa, shafqat insoniylik belgilaridan biridir. Masalan, beva-bechoralar, iqtisodiy nochor oilalar ahvoldidan boxabar bo'lib turish, kichik yoshdagilarga izzat-hurmat, keksalarga muruvvat ko'rsatish, gunoh yoki ayb ish qilib qo'ygan kishilarning aybidan o'tish, yordamga muhtoj kishilarga himmat qo'lini cho'zish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan muruvvat va shafqatpeshalik fazilatlari hisoblanadi. Qur'oni Karim va Hadisi sharifda hatto urushda mag'lub bo'lgan, asir bo'lib tushgan dushmanlarga, g'ayridinlarga ham muruvvat, shafqat ko'rsatishga da'vat qilinadi. Mo'tabar dinimizda tilga olingan bunday bag'rikenglik (tolerantlik) bugungi kunga kelib, dunyoning turli xalqlari turmush tarziga, tafakkuriga singdirilmoqda.

Uning aksi bo'lgan salbiy xususiyatlar qatorida qahr-g'azab, nafrat, johillik,adolatsizlik, befarqlik, loqaydlik kabi qusur va nuqsonlarni ko'rsatish mumkin. Shafqat oldingizda javobgar, jazoga

loyiq odamni, uning insoniy huquqi va tabiatini hisobga olib, kechirishdir. Shafqat universal tabiatga ega bo‘lib, u nafaqat insonning insonga, balki hayvonga bo‘lgan munosabatida ham namoyon bo‘ladi, zero, hayvonga shafqatsizlik qilgan odam insonga ham shafqat qilmaydi. Bugungi kunda «shafqat» tushunchasini inson hayotining oliv qadriyati deb e’tirof etish, uning yashashga bo‘lgan huquqini himoya ostiga olish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Diniy aqidaparastlik, ekstremistik g‘oyalar va mafkuraviy kurashlar shafqatsizlikka asoslanganini hisobga olsak, «shafqat» tushunchasining ahamiyati yanada ortib borayotganini, uning XXI asr jamiyatni uchun eng muhim ma’naviy-axloqiy hodisaga aylanganini ko‘rish mumkin.

12.3. Ma’naviy fazilatlarni anglatuvchi tushunchalar

Axloq (arab. – xulqning ko‘pligi; lotincha *moralis* - xulq-atvor) - ma’naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma’naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me’yor va qoidalar yig‘indisi. Axloq, bu avvalo, insof va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuyini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar.

Kishi qalbida haromdan hazar, nopoliklikka,adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak. Shunday odamgina lafzida turadi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo‘ladi, vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o‘zini ayamaydi. Axloq talablari kishilarning fe’l-atvori va faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Bunda ba’zi xatti-harakat va xulq-atvorlar axloqiy, ba’zilari axloqsizlik deb baholanadi.

Axloq- ijtimoiy ongning eng qadimiy shakllaridan biri. Davr o‘zgara borgani sari har qanday hodisa kabi axloq ham o‘zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma’naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biriga aylanib boradi. Axloqni alohida falsafiy fan - «Etika» va «Axloqshunoslik» o‘rganadi. Uning axloq bilan aloqador «burch», «vijdon», «or-nomus» kabi qator kategoriyalari mavjud. Axloq hodisa

sifatida ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan o‘z talablarining asoslanishi va amalga oshirilishi bilan farq qiladi. Axloq me’yorlari hamma uchun barobardir, lekin ular hech kimning buyrug‘i bilan joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida axloqning o‘ziga xos me’yor va qoidalari (mehnat axloqi, xizmat ko‘rsatish axloqi, kasbiy, tadbirkorlik, diplomatiya etikasi, maishiy turmush, oila axloqi) mavjud va ular axloqning nisbatan mustaqil sohalarini tashkil etadi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib-qoidalalarining yig‘indisi bo‘lib gavdalaniadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo‘lgan munosabatda axloq belgilari namoyon bo‘ladi. Inson xatti-harakati va xulqidagi yo‘nalishlar, eng muhim belgilari mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida axloqning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimiz axloqiy tafakkur bobida boy merosga ega. Axloqqa oid fikrlar «Avesto»da, qadimiylar turkiy tosh bitiklar va boshqa yozma manbalarda o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, xalqimiz orasida keng tarqalgan pandnomma va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, diniy-falsafiy risolalar hamda allomalar merosida axloq masalalariga keng o‘rin berilgan.

Jumladan, buyuk muhaddis imom Buxoriy axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik - mana shu to‘rt xislatni Alloh taolo senga bergen bo‘lsin, deb yozadi. Alloma Voiz Koshifiy esa «Insonning qadr-qimmati, uning mol-mulki yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki ma’naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan o‘lchanadi¹, deb ta’kidlaydi.

Ulug‘ ma’rifatparvar Abdulla Avloniy axloqni bunday ta’riflaydi: «Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o‘qib, bilib amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, javobi haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini bilmas, o‘z aybini bilub, iqror qilub, tuzatmakg‘a sa’y va qo‘sish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur»².

¹ Манавият асосий тушунчалар изоҳли луғати Т., «Фафур Фулом» 2009. 49 бет

² Ўша жой.

Abu Nasr Farobiy «axloq» tushunchasini keng ma'noda talqin qilib, dini, e'tiqodi, irqi, tilidan qat'iy nazar, barcha insonlarni hamjihatlik va hamkorlikka chaqiradi. Dunyoda yagona va bir butun inson jamoasini shakllantirishni, uning va barcha fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishini orzu qiladi. Bu g'oya keyinchalik jahondagi ko'plab mutafakkirlar, jumladan, nemis faylasufi I.Kant tomonidan ham ilgari surilgan. Bu g'oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Farobiyning fikricha, yuksak axloqiy fazilatlarga rioya qilgan holda rivojlanayotgan har qanday davlat o'z fuqarolarini, shak-shubhasiz, baxtu saodat yo'liga olib chiquvchi kuchdir. Inson bilimli va namunali axloq egasi bo'lgan-dagina ijobjiy xislatlari bilan barchaga o'rnak bo'la oladi.

Ma'naviy poklik inson ma'naviyatining go'zalligi, boyligi, teranligi, pokizaligini taqozo etuvchi, ezgu ma'naviy fazilatlar majmuyini ifodalaydi. Ma'naviy poklik inson dunyoga kelganidan to so'ngga nafasigacha ma'naviy jihatdan qanday yashab o'tishi kerakligi bilan bog'liq bo'lgan bilimlar, tajribalar, tasavvurlardan tarkib topadi. Xalqimiz ming yillar mobaynida yuksak ma'naviyat va ezgu axloq shart-sharoitlari negizida tarbiyalanib kelgani bois, bizning bu boradagi tushuncha, tasavvur, bilim va tajribalarimiz pokiza turmush tarzini belgilab kelgan.

Zero, ma'naviy poklik eng avvalo, ezgulik va ma'naviy poklikdan ta'lif beradi. Kundalik turmush tarzidagi oddiy tozalikka rioya etish (hovli-joy, yashaydigan, ovqatlanadigan, xonalarimiz ozodaligi), har qanday yumushning mukammal ado qilinishigacha o'tadigan vaqt mobaynida bizga pokizalik, ozodalik, sarishtalik tushunchasi asos bo'ladi. Shunday ekan, bizning tashqi ozodaligimiz o'z-o'zidan ichki (ma'naviy) ozodalikni, poklikni taqozo etadi.

Binobarin, xalqimizning pok niyatli bo'lishi, niyatni ezgulikdan boshlab to yakunigacha, (mukammal ado qilgunicha) pokizalikka rioya qilib kelganligi zamirida ham toza, pok hayot nafasi mavjudligi, har qanday ishdaadolat, haqiqat, halollik, ishonch-e'tiqod kabi tushunchalarga tayanishi, boshqalardan ham shuni talab qilishi bejiz emas.

Yoshlar tarbiyasi, ta'lif sohasi, turmush tarzimizda ezgulik va poklikka e'tibor kuchaydi. Prezident Islom Karimovning «**Farzandalarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono, va albatta baxtli**

bo‘lishlari shart!» degan da’vatida ana shunday ezgu g‘oyalar mujassamlashgan. Darhaqiqat, mustaqil O‘zbekiston jahon hamjamiyidan o‘z o‘rnini egallagan hozirgi davrda ma’naviy poklik bilan bog‘liq azaliy qadriyatlarimiz, millatimiz g‘ururi va sha’nini tiklash xalqaro munosabatlarda mamlakat obro‘yini yanada baland ko‘tarish muhim ahamiyatga ega. Bunda xalqimiz mentalitetiga xos bo‘lgan ezgu qadriyat ma’naviy poklik singari noyob fazilatlarga bag‘rikenglik, tenglik, tincht-otuvlik, birodarlik, halollik, to‘g‘rilik, pokizalik, adolatparvarlik va ishonch e’tiqod kabi asl milliy xislatlarga suyanib ish tutish turmush tarzimizning bosh mezoniga aylanib bormoqda.

Ma’naviy fazilatlar insonning ma’naviy qiyofasi, ijtimoiy hayot, ong va munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyat taraqqiyoti va turmushi ta’sirida shakllangan ma’naviy xususiyat va xislatlarining umuminsoniy hamda milliy fe'l-atvor ko‘rinishlarini ifodalaydi. Sharq xalqlarida ma’naviy fazilatlarni tarbiyalashning muhim mezoni «O‘zingga nima tilasang, o‘zgalarga shuni tilagin» degan hikmatda mujassamlashgan. Ulug‘ ajdodlarimiz Imom Buxoriy va Imom Termiziylarida yuksak ma’naviy fazilatlar tavsiflab berilgan. Abu Nasr Farobiy jamiyat hayotida rahbarlarning eng muhim o‘n ikki ma’naviy fazilatlari, aholining har bir tabaqasiga xosligini tahlil etgan bo‘lsa, Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg‘ariy fuqaroning odobini, Kaykovus esa farzandlarda ma’naviy fazilatlarni shakllantirish yo’llarini batafsil bayon etgan.

Muqaddas kitoblarimizda ham ma’naviy fazilatlarning komil insonni voyaga yetkazish hamda ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni ta’kidlanadi. Ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy, madaniy taraqqiyot natijasida shakllanadi, takomillashib, boyib boradi. Shu tariqa milliy madaniyat rivojlanadi. Bu jarayonda ma’naviyat ahli-allomalar, adib va ziyolilarning milliy ong, milliy ruh, milliy o‘ziga xoslikni ta’minalash va rivojlantirishda tutgan o‘rni beqiyosdir. Ulug‘ ajdodlarimiz Imom Buxoriy, At-Termiziylar, G‘ijduvoniy, Naqshband, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi zotlarning bizga qoldirgan bebafo ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon madaniyati xazinasidan munosib o‘rin olib, insoniyatni ezgulik sari yetaklab, har tomonlama barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qilib kelmoqda.

Binobarin, yuksak ma'naviy fazilatni o'zida mujassamlashtirgan bu ulug' zotlarning o'zi ham biz uchun ma'naviy yetuklik timsoli bo'lib qoladi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolda ega bo'lamiz»¹. Xalqimiz ma'naviy taraqqiyoti jarayonida shakllanib, sayqal topib kelayotgan xislatlar ma'naviy fazilatning eng noyob ko'rinishlari sirasiga kiradi.

Jamiyatda qabul qilingan ma'naviy mezonlarga mos bo'limgan qilmishi uchun o'zidan uyalgan odam o'zgalarga ham ana shunday nojo'ya xatti-harakatni ravo ko'rmaydi. O'zida hayo tuyg'usi bo'limgan odam o'zgalardan hayoli bo'lishni talab qila olmaydi. Ma'naviy fazilatlar tushunchalari doirasida or-nomus ham muhim o'rin tutadi. Or-nomus bu o'ziga nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, nomus qilish tuyg'usidir. Oriyat bu or-nomus tushunchalaridan tashqari izzat-nafs, qadr-qimmat tuyg'ularini ham ifodalaydi. Chunki oriyatli odam o'zi, oilasi, mahallasi hamda Vatanining manfaatlari va qadr-qimmatini yuksak tutadi. Nomus esa iffat, bokiralik ma'nolarini mujassam etgan holda insonning jamiyatda o'z mavqeyini saqlashi, ko'pchilik manfaatlarini hurmat qilish va ardoqlash, noo'rin xatti-harakatlardan xijolat tortish tuyg'ularini, oila, jamoa va ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslik ma'nolarini ham anglatadi. Andisha ham ma'naviy fazilatdan biri sifatida ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallab, o'zbek millati vakillariga xos xususiyat sifatida oqibatni o'ylab ish tutish, mulohaza yuritish hissidir.

Andishali kishi farosat bilan ish tutib, ma'naviy fazilat sohibi ekanini namoyon etadi. Ma'naviy fazilatdan yana biri vijdon kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvorida mujassamlashgan oila, mahalla, jamoa, jamiyat, millat va Vatan oldida ma'naviy mas'uliyatni his etish tuyg'usidir. Insaf esaadolat va vijdon amri bilan faoliyat yuritish tuyg'usi bo'lib, o'zaro munosabatlarda halollik, to'g'rilik, tenglik, sofkillik va to'g'riso'zlikni ifoda etadi. Insaf kategoriyasi sharq falsafasida insonning jamiyatning ma'naviy-axloqiy me'yorlari nuqtayi nazaridan o'z xulq-odobini nazorat qilishi

¹ Каримов И.А. Юксак маннавият - енгилмас куч, Т.: «Маннавият» 2008. 48-бет.

va uni baholay olishi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birligida insof vijdonli kishining yoki ma'lum jamoaning jamiyatga yoki boshqa shaxslarga nisbatan o'z xulq-atvori uchun ma'naviy javobgarligini ham anglatadi. Ma'naviy fazilat insonning shaxs sifatidagi faoliyatida ham, uning Vatan va xalq oldidagi mas'uliyatini his etishida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat ma'naviy taraqqiyotining o'ziga xos mezoni sifatida xizmat qiladi.

13-mavzu. Milliy o'zlikni anglash – shaxs ma'naviy barkamolligi mezoni

13.1. Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar

Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan, o'zgartiradigan, jamiyat hamda millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushuncha. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida chuqur va har tomonlama asoslاب berilgan.

Mazkur asarga tayangan holda ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlarni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin: bиринчи guruhga millat, xalq, davlatchilik, madaniyat, me'moriy yodgorliklar, qishloq va suv xo'jaligi bilan bog'liq agrar madaniy an'analar, geografik shart-sharoitga aloqador tarixiy munosabatni ifodalovchi moddiy meros kiradi; ikkinchi guruhga xalqimizga xos bir necha ming yillik diniy e'tiqod, ta'lim-tarbiya, shuningdek, barcha ilm-fan sohalari va ular rivojida muhim o'rın tutgan mutafakkirlar va ularning asarlari, xalq ijodini qamrab oluvchi madaniy meros; uchinchi guruhga xalqimizga xos an'analar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar, turmush tarzi bilan bog'liq boshqa madaniy omillar; to'rtinchi guruhga xalq qadriyatlari, tafakkur tarzi, mafkurasi, xalqqa xos ma'naviy xususiyatlar, g'oyalar, ruhiyat va o'zaro ijtimoiy munosabatlar; beshinchi guruhga hozirgi jamiyatimizda bevosita amaliy faoliyat yuritayotgan, inson tarbiyasida katta ta'sirga ega, umuman, ma'naviy dunyoqarash shakllanishida bosh rol o'ynaydigan ta'lim-tarbiya maskanlari, ommaviy axborot vositalari, kutubxona, teatr, san'at saroylari va shu kabi boshqa ma'naviy ta'lim vositalarini kiritish mumkin.

Ma'naviyatni yuksaltirish masalasi har bir davr va jamiyatga xos bo'lib, bunda davlat va jamiyat oldida ma'naviyatni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rinn tutishini yaxshi anglab olish maqsadi ham yotadi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «**Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi**».¹ Masalan, shu zamindan yetishib chiqqan buyuk zotlar, olim ulamolar, siyosatchi va sarkardalar, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida xizmatlari katta.

Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshooatlari, hali-hanuz o'zining ko'rkun tarovatini saqlab kelayotgan osori-atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morlik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlangandan dalolat beradi va mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan dunyo me'morchilik muzeyiga aylangan Samarqand, Xiva, Buxoro shaharlari va to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Bunday o'lmas osori-atiqalar bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi va tabiiyki, insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda qanday kuchli ta'sirga ega bo'lganini bildiradi.

Milliy ma'naviyatimizda xalq og'zaki ijodi ham muhim o'rinn tutib, u millatimizning o'zligini namoyon etadigan, uni avlodlardan avlodlarga o'tkazib, tarix sinovlaridan eson-omon chiqarib, o'zligini saqlab kelayotgan el-yurtimizni chuqur anglash, insonga xos ezgu fazilatlarini o'zida ifoda etadi.

Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlardan biri bo'lgan din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Т.: «Маънавият» 2008. 29-30-бетлар.

yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzulalarni o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyat - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turki beradi, ma’naviyat mezonlari shakllanishiga o‘ziga xos ta’sir o‘tkazadi.

Prezidentimiz Islom Karimov «Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiatи va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezzulik, olivjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir».¹

Oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchi kabi odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizi, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi. Ma’naviyatni shakllantiradigan mezonlar haqida so‘z ketganda, mahallaning o‘rni va ta’siri xususida to‘xtalish zarur. Ma’lumki, o‘zbek mahallalari azaldan chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, to‘y hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan.

Bu borada barchamiz uchun Prezidentimizning quyidagi fikrlari qadrli: «Xalqimizga xos o‘zini o‘zi boshqaruva tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dildida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. «Mahalla - ham ota, ham ona» degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz. Har qaysi xonodon, butun el-yurtdagi ma’naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo‘lsak, kishi, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko‘rish imkoniga ega bo‘lamiz».²

Ma’naviyatni shakllantiradigan mezonlardan yana biri ilmu

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – ингилмас куч. Т.: «Маънавият» 2008. 52-бет.

² Ўла асар. 29-30-бетлар.

ma'rifat, ta'lim-tarbiya bo'lib, ularga inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi sifatida qaralgan. Kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, xalqning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-onasiga, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rishi zarur.

Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ishi ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib qoladi. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uzlucksiz va uyg'un holda olib borishni talab etadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik yillarda butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta e'tibor qaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi. Uni amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkam-lashga e'tiborni kuchaytirish muhim va jiddiy masalaga aylangan.

Hozirgi kunda istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlar misolida ma'naviyatning yuksalishini kuzatish mumkin va tabiiyki, bunday sharoitda ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar ham davrga muvofiqlashib boradi. «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar bilan bir qatorda ma'naviyatning tarixiyligi va zamonaviyligi, moddiy va madaniy meros, milliy ma'naviy obidalar, mamlakatimizdan yetishib chiqqan donishmandlaru mutafakkirlar, xalq qahramonlari, ilmiy-ijodiy kashfiyotlar, davlat va jamoat arboblari, ma'naviy tarbiyaning tarixiy va zamonaviy o'choqlari, ularning ma'naviyatga ta'siri bilan bog'liq teran fikr-mulohazalar ilgari suriladi.

13.2. Milliy o‘zlikni anglash va uning mohiyati

Milliy o‘zlikni anglash har bir inson uchun ma’naviy barqarorlikning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki u avvalo, o‘zining kimligini bilib olsa, qaysi millatga mansubligini tushunib yetsa, avlod-ajdodlari, ular qoldirgan moddiy va ma’naviy merosni o‘zlashtirsagina to‘laqonli shaxs darajasiga yetishi mumkin. Bunday shaxslar millatning aksariyat ko‘pchilik qismini tashkil qilsagina bunday millatning istiqboli buyuk bo‘ladi. Shuning bilan birga o‘zini-o‘zi anglab yetgan, aqli raso, g‘oyaviy-siyosiy jihatdan uyg‘ongan va jipslashgan xalq va millatni mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarini talab ketish, huquqlarini paymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas.

O‘z-o‘zini anglash bu xalqning, millatning o‘tmishi, tarixiy taraqqiyot yo‘lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlod-ajdodlarining kim bo‘lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shtigan buyuk hissalarini bilib olishdir.

Milliy o‘zlikni anglash – millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta’minlash uchun qanday imkoniyatlар va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real vogelikka aylantirish uchun o‘zini safarbar etish, barcha imkonyatlari, kuch-g‘ayratini ishga solish demakdir. O‘zlikni anglash o‘z mohiyatiga ko‘ra millat va elatlar uchun xos bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarni ifoda etib, o‘z vazifasiga ko‘ra milliy manfaatlarni himoya qiladi.

Shunday qilib, har bir millat va elatning o‘zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarni ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarga mansubligi, manfaatlар va ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishga milliy o‘zlikni anglash deb ataladi. Milliy o‘zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarning shaxs, mahalliychilik manfaatlardan ustun turishini anglash darajasi bilan bog‘liqdir.

Milliy o‘zlikni anglash millatimiz til, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlар, hudud yagonaligi ma’naviyatning o‘ziga xosligidan iborat millatning mustaqil belgisi hisoblanadi. Milliy o‘zlikni anglash millatning mustaqil belgisi ekanligi – milliy manfaatlар, ehtiyojlar umu-

miyligini himoya qilish va millat hayotidagi o'rnini mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi.

Milliy o'zlikni anglash omillarining qudrati quyidagi sharoitlarda ko'proq namoyon bo'ladi:

1. Agar milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, yuqorida qayd etganimizdek, millatning manfaatlariga, ayniqsa, sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yuzaga kelgan sharoitda, millatning barcha vakillari birlashib ketadilar, hatto millatning ichida o'zaro muxolifatda bo'lgan tomonlar ham millatning sha'ni, g'ururi, obro'-e'tiborini himoya qilish manfaati yo'lida birlashadilar.

2. Milliy o'zlikni anglash ruhiy his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Uni millatning xatti-harakatlari, intilishlari va maqsadlarini amalga oshirishdagি salohiyati orqali bilib olish mumkin bo'ladi.

Ruhiy his-hayajon va ehtiroslarning «portlashi» millatning xarakteri, xususiyatlari, milliy g'oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziylilarining salohiyatiga bog'liq.

3. Milliy o'zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal etish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi. Bu muammolar mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda sodir bo'lishi mumkin.

4. Milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida, faqat uning manfaatlarini ifodalab yoki himoya qilish bilan cheklanmay, balki shular bilan birga uning abadiyligini ta'minlab turuvchi mustahkam qo'rg'on hamdir.

Siyosiy ma'nnaviyati, milliy ongi rivojlangan, milliy jihatdan o'zligini anglab yetgan xalq, millat mustaqilligining buyuk kuchiga aylanadi. Millatning, xalqning kuch-qudrati uning sha'ni bilan bir qatorda siyosiy yetukligi, milliy ongning o'sganligi, milliy g'ururi, hissiyoti, tuyg'uning qay darajadaligi, o'z-o'zini anglab yetganligi, uyushganligi bilan belgilanadi. O'zligini anglagan millatni harbiy ustunlik bilan vaqtincha qaram qilish mumkin, ammo uni batamom qaram qilib bo'lmaydi. Undagi milliy g'urur har qanday sharoitda ham ozodlikka chiqishi uchun kurash olib borishga undaydi. Shunday

qilib, milliy o'zlikni anglash millatning eng muhim belgisi, uning rivojlanishi va kelajagini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Murakkab kurash jarayonini o'z boshidan kechirgan o'zbek xalqi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng o'zining mustaqil millat maqomini tiklash uchun dadil harakat qildi. Xususan, bosib o'tilgan tarixan qisqa davr mobaynida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta ishlar amalga oshirildi. Bu-yillarda millatimizning o'zligini anglashi jadal rivojlanib bordi. Bu milliy o'zlikni anglash jarayonining yuksalib borish xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ldi:

Sobiq tuzumda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda millatning tarixi, o'zligi, ma'naviyati, qadriyatlarini yo'q qilish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmas, millatimizning dunyoqarashini butunlay o'zgartira olmadi. Xalqimiz har qanday sharoitda ham o'zligiga qaytish kayfiyati va ruhiyati bilan yashab keldi. Chunki sho'rolar tuzumi bermoqchi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat, uni shakllantirish milliy madaniyatlar rivojlanishining obyektiv qonunlariga asoslanmay, balki, subyektiv kuchning, ya'ni kommunistik mafkuraning zo'ravonligiga tayangan edi. Bundan tashqari sobiq tuzum bermoqchi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat milliy madaniyatlarning o'zaro ta'siri asosida boyishga emas, balki, rus millatning madaniyati va ma'rifatini boshqa millatga singdirishga qaratilgan edi.

Sobiq sovet jamiyati madaniyatining modeli «nazariy» jihatdan «asoslangan» bo'lsa ham, ammo u amalda mavhum tushuncha edi («mazmunan sotsialistik, shaklan milliy»). Mohiyat jihatidan esa o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan va bugungi avlodlarga meros bo'lib o'tgan ma'naviyat va ma'rifatga mutlaqo zid edi. Mustaqillikka erishishimiz bilan bunday holatlarga Prezidentimiz rahnomaligida barham berildi.

Mustaqillikning dastlabki bosqichlarida milliy o'zlikni anglashning xarakterli xususiyati shunda bo'ldiki, milliy qadriyatlardan ko'ra diniy qadriyatlarni ko'rsatish birinchi o'ringa chiqdi. Buning obyektiv sababi bor edi. Xususan, o'zbek xalqi ma'naviyati va rivojlanishining sho'rolar tuzumi o'rnatilguncha bo'lgan davri islom ma'naviyati va ma'rifati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u millatimiz ongi va ruhiyatining muhim qismini tashkil qilib kelgan. Xuddi shuning uchun ham bolsheviklar islomga qarshi kurash yo'li bilan millatni ham yo'q qilish mumkin, deb hisoblaganlar va shu siyosatni izchillik

bilan amalga oshirishga intilganlar. Ularning bu harakatlari bejiz emas edi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «**Tarixdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi**».¹ Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyin tarixiy xotira va diniy qadriyatlarni tiklash milliy tiklanishning, o'zlikni anglashning muhim omili sifatida ustuvorlikka ega bo'ldi. U milliy birlikni mustahkam-lashda va milliy taraqqiyotni yangi bosqichga ko'tarishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Milliy o'zlikni anglash jadal sur'atlar bilan o'sishiga qaramasdan, O'zbekistonda millatlararo va fuqarolararo nizolar kelib chiqmaganligining sababi o'zbek millatining vazminlik, bag'rikenglik va boshqa millat vakillariga nisbatan hurmati kabi o'ziga xos xususiyatlari tufayldidir. Aslida, 1990-yillarda sobiq ittifoqdosh respublikalarda bo'lgani kabi parokandalik, taraqqiyot yo'lining noaniqligi O'zbekistonda ham bo'lgan edi. Ammo o'zbek xalqining o'ziga xos aql-zakovati, bosiqlik, vazminlik xususiyatlari, uning rahbari Islom Karimovning vaziyatni to'g'ri anglab, shunga mos ravishda siyosat olib borishi parokandalik yo'lini to'sib, yurtda osoyishtalikni qaror topdirdi.

O'zbek xalqi o'z atrofida yashayotgan boshqa millat va elat vakillariga nisbatan do'stlik, birodarlik, hamkorlik, o'ziga xos mehr-oqibat tuyg'ularini saqlab qola olganligi milliy o'zlikni anglashdag'i yana bir xususiyat hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonning yuksalishi, gullab-yashnashining tarafdori bo'lgan har bir fuqaro millatlararo totuvlik, do'stlik qoidalariga sodiq bo'lishi kerak. Chunki mustaqil davlatimizning kelajagi birinchi navbatda o'zbek xalqining milliy o'zligini qanchalik anglab yetganligiga hamda mamlakatimiz hududida o'zbeklar yonma-yon istiqomat qilib turgan har bir kishining millati, dini, tili va e'tiqodidan qat'iy nazar, bir-birining ko'nglini ola bilihiga, ular o'rtasida do'stona munosabatlarning o'rnatilishiga bog'liq.

Mamlakatimizda har bir milatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash va namoyon bo'lishiga keng yo'l ochib berilgan. Bu esa mamlakatning barqaror rivojlanishi kafolatidir.

¹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончdir. Т.: Ўзбекистон, 2000. 11-бет.

Milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish yo'lida Islom Karimov so'zlar bilan aytganda: «Biz fidoyi vatanparvarlarni tarbiyalashimiz», «Elim deb, yurtim deb yashovchi, shu yo'lda hatto jonini ham ayamaydigan», «O'zidan so'ng, ozod va obod Vatan qoldiradigan» farzandlarni tarbiyalashimiz zamon va mustaqillik talabi. Bunga yurtimizda yashayotgan har bir kishi millatidan qat'iy nazar, mas'ul bo'lmosh'i lozim. Yoshlarimiz tafakkurida o'zligini unutmaslik, otabobolarining muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishish ma'naviy tarbiya ishimizning markazida turmog'i lozim.¹

Agar, biz bugungi milliy o'zligimizni anglash borasidagi vazifalarni talab darajasida amalga oshira olsak:

Mustaqilligimizni abadiylashtirishga, ozod va obod Vatan, farovon hayotni qurishga, mamlakatimizning dunyoviy nufuzini oshirishga, o'zimizning jahon sivilizatsiyasidagi adolatli va munosib o'rnimizni topishga erishamiz.

Ikkinchidan, miliy o'zligimizni anglashimiz avlod-ajdodlarimizdan qolgan boy merosimizni o'zlashtirishimizga olib keladi. Bu faqat mustaqilligimizni mustahkamlash vazifalari darjasasi bilan chegaralanibgina qolmasdan, balki millatimiz avlodining vorisligini ta'minlashga imkon beradi.

13.3. Huquqiy savodxonlik - ma'naviy yetuklik mezoni

Har qanday mustaqil davlatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush qurishi, xohish-irodasining amalga oshirilishi, ezgu niyatları huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim. Bu kafolat Vatan taraqqiyotini, davlat mustaqilligini, xalqning jipsligini, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni, mustaqillikning barqarorligini ta'minlashga shart-sharoit yaratadi va u kafolat sifatida, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: Davlatimiz, O'zbekistonda

¹ Каримов И.А. Миллий истиқол мафкураси - халқ эътиқоди ва буюк келожакка ишончилир | Ўзбекистон, 2000, 11-бет.

yashayotgan har bir fuqaro kelajagining kafolatini Konstitutsiya berdi. Fuqarolarning haq-huquqlari, burchlari Konstitutsiyada belgilangan, tegishli qonunlar bilan mustahkamlangan. Maqsadimiz erkin, demokratik huquqiy davlat qurish, adolatli jamiyat barpo etish, hech bir insonni kansitmaslik, e'tiqodini hurmat qilish, erkinligini ta'minlash», deb ko'rsatgan edi.¹

Oldimizga qo'yilgan yuksak maqsadlarga erishish uchun bugungi O'zbekistonga erkin va ravon fikrlaydigan, uning osoyish-taligi, mustaqilligini asrab-avaylashda faol ishtirok eta biladigan, Vatan oldidagi o'z majburiyatları va burchlarini to'g'ri anglab, beminnat ijro eta oladigan fuqarolar zarur. Bunday fuqarolar kelajagimizning egalari bo'lgan siz – talaba yoshlardirsiz.

Mamlakatimizning har bir fuqarosi, Siz kabi yoshlardan qomusimiz va barcha qonunlarni chuqur o'rganishlari va ularga amal qilishlari zarur. Konstitutsiyani bilmagan, puxta o'rganmagan kishi o'z haq-huquqlarini bilmaydi. Huquqini bilmagan odamning hayoti oxir-oqibatda fojiali tus olishi mumkin. Bu haqda Prezidentimiz o'z nut-qida: «Madomiki maqsadimiz aniq ekan, inson huquqlari umumxalq muhokamasida qabul qilingan Konstitutsiya himoyasida ekan, avlodlarimiz, farzandlarimiz kelajagiga xavf soladigan, millat sha'niga dog' tushiradigan, xatti-harakatlardan qayerdan paydo bo'la-yapti» deya qaltis xatti-harakatlarga qo'l urgan kimsalar qonunni bilmasligi, bilsa ham unga mensimasdan qarashi, hurmat qilmasligi ularda huquqiy madaniyat yo'qligi, yetishmasligini ta'kidlaydi.

Shunday ekan, tabiiy ravishda huquqiy madaniyat nima degan savol tug'iladi. Huquqiy madaniyat – bu o'zingiz yashab turgan, fuqarosi bo'lgan mamlakat qonunlar yaxshi bilish ularni hurmat qilish va ularga amal qilib, bo'ysunib yashashdir.

Shuningdek, har bir shaxs, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayoni hamdir. Huquqiy madaniyat insonning ichki dunyosi, madaniyati, umuminsoniy an'analarga va huquqiy bilimlarga bo'lgan munosabatlarini belgilaydi. Shaxsning ichki ma'naviyati uning tashqi odobini ko'rsatadi. Huquqiy madaniyat egasi bo'lgan kishi jamiyat talablari va qoidalariga hurmat bilan qaraydi, jamiyatni boshqarishda o'zining

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан курамиз. Асрлар тўплами. 7-жилд. Т.; «Ўзбекистон», 1999. 52-бет

huquqiy malaka va bilimlarini ishga solib, faol qatnashadi.

Ko'pincha kishilar huquq, qonun, burch kabi atamalarni, ba'zan tasodifan qonunbuzarlik qilib, qonun oldida javobgarlik holatiga tushib qolganlaridagina eslaydilar. Nega qonunni buzding, deb so'ralganda bunday bo'lishini bilmagan edim deb javob beradilar.

Biroq qonunni bilmaslik aybni yengillashtirmaydi. Biz qonunga mensimaslik bilan qarasak, uni o'rganmasak, hurmat qilmasak bir kuni noqulay ahvolga tushib qolishimiz mumkin. Qonunni bilish, hurmat qilish huquqbuzarliklarning oldini olish demakki, bilib-bilmay jinoyatga qo'l urmaslikning bir yo'lidir. Qonunga hurmat inson madaniyati va ma'naviyatining ajralmas bir bo'lagi bo'lib qolganda, bunday jamiyatni boshqarish ham, adolatni qaror topshirish ham oson kechadi.

Bundan ko'rindiki, huquqiy savodxonlik har birimiz qonunlarni Konstitutsiyamizni yaxshi bilishimiz, ularga amal qilib yashashimiz tinch turmush tarzimiz va osoyishta faoliyat yuritishimiz garovidir.

Prezidentimiz huquqiy savodxonlikni oshirish borasidagi vazifa «o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qudratiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor»¹, deb ta'kidlaydi.

Huquqiy madaniyatni, savodxonlikni rivojlantirmay turib salbiy holatlarning oldini olish, tugatish anchayin mushkil bo'ladi. Qonunbuzarliklardan avvalo odamlarni, jamiyatni himoya qilish zarur. Yurtboshimiz Islom Karimov so'zлari bilan aytganda «... davlat davlatchiligini qilmoqchi bo'lsa, fuqaroni o'z panofiga olishi zarur... boshqacha aytganda, davlat har bir fuqarosini himoya etishi, unga huquqiy yordam berishi kerak. Qonun oldida hamma barobar. Mamlakat qonunlariga barcha fuqaro yoshidan, millatidan, irqi, dinidan qat'iy nazar, barobar bo'ysunmog'i farz». ¹

Yuqoridagilarni bajarish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish, adolatli davlatning ma'naviy va ma'rifiy vazifasi. Bizning vazifamiz esa fuqarolar manfaatini ko'zlovchi qonunlarga to'liq rioya etishdan iborat.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард максадимиз. Т.: Ўзбекистон 2000, 12-бет.

¹ Ўтта жойда.

Qayerda qonunlarga itoat qilinmas ekan, u yerda adolat buziladi, zo'ravonlik vujudga keladi, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar kuchayadi va oxir-oqibatda jamiyat ma'naviy qashshoqlikka giriftor bo'lib, parokandalikka uchraydi. Shuning uchun qonunlarga itoat qilish har bir shaxsning ma'naviy yuksaklik belgisi bo'lishi bilan bir vaqtda jamiyatni barqaror rivojlantirishning asosiy sharti ham hisoblanadi.

13.4. Demokratiyaning ma'naviy-ma'rifiy jihatlari

Demokratiya (yun. *demos*-xalq va *kratos* - hokimiyat):

- 1) fuqarolar erkinligi va tengligi tamoyili asosida Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan xalq hokimiyatining shakli;
- 2) amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan erkin, adolatli jamiyat va davlatni anglatuvchi siyosiy tushuncha.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida «demokratiya» tushunchasi shaklan va mazmunan boyib, takomillashib kelgan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Zero, demokratiya eng rivojlangan davatlarda ham yuqori takomil nuqtasiga, ideal darajaga yetgani yo'q. Chunki demokratiya bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon bo'lib, har bir millat va jamiyat, har bir davrda uni tushunish, talqin etish va amaliyotda qo'llashda o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xoslik xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'li, milliy mentaliteti, an'analarini, amaldagi ijtimoiy munosabatlarning xarakteri kabi omillar bilan belgilanadi.

Prezident Islom Karimov alohida ta'kidlaganidek, «Hammani bir qolipga solib bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, davatlarni ham bir qolipga solish va bozor munosabatlariga o'tish, demokratiyani barpo etish nuqtayi nazaridan ularga bir xil yondashuvlarni qo'llash yaramaydi».

Demokratiyaning xarakterini belgilovchi umumiy mezonlar. Bu demokratiya tamoyillariga rioya qilinishi, demokratik qonunlarning mavjudligi va ular asosidagi demokratik institutlar faoliyati bilan bog'liqdir. Demokratiya, mohiyatan, insonning har tomonlama kamol topishi uchun berilgan imkoniyat, shaxs bilan jamiyat manfaatlari o'rtaisdagi uyg'unlikni ta'minlovchi omildir. Ayni paytda demokratiya qabul qilingan qonunlar, amaldagi tartib-qoidalar yordamida shaxs hayoti va faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm hamdir.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda demokratiya jamiyatning yashash tarziga aylanib qolgan. Odatda, vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiya bir-biridan farqlanadi. Vakillik demokratiyasida fuqarolar qonunchilik, ijroiya va boshqa funksiyalarni bajaruvchi organlarni saylaydi, ammo bu funksiyalarni amalga oshirishda bevosita ishtirok etmaydi. Bevosita demokratiya shaklida esa fuqarolar turli masalalarni to'g'ridan to'g'ri o'zlari hal qilish huquqiga ega bo'ladi. Saylovlar bevosita demokratiyani yaqqol namoyon etuvchi muhim siyosiy tadbir sanaladi.

Demokratiya asosida qiziqish, intilish va manfaatlarni muvofiq lashtirish, murosaga keltirish va kelishish siyosati yotadi. Shu ma'noda, demokratiya jamiyatdagi kuchlarni birlashtirishga, uni mamlakat taraqqiyoti uchun safarbar etishga xizmat qiladi. Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Har qanday munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, muzokaralar yo'li bilan fikr almashish va eng to'g'ri, hamma uchun birday manfaatli bo'lgan xulosalarga kelish va har qanday zo'ravonliklarga, tazyiq va kuch ishlatishga qarshi ravishda sharqona munosabatlar ilmini egallash - demakki, sharqona demokratiya tamoyillari asosida ish yuritishdir». Demokratiya insoniyat bugungi kungacha qo'llab kelgan, ijtimoiy muammolarni hal etishning eng oqilona yo'li sifatida e'tirof etilgan.

Tarixiy jihatdan demokratiyaning boshlanish nuqtasi ham, tugash nuqtasi ham yo'q. Kishilik jamiyati paydo bo'lganidanoq, demokratiya kurtaklari paydo bo'lgan, hatto, eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham u o'zining ideal darajasiga yetgani yo'q. Demokratiyani bo'g'ish, unga rahna solish mumkin, lekin butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. Har qanday davrning, har qanday jamiyatning va har qanday xalqning o'ziga xos demokratiyasi bo'ladi. Ya'ni demokratik tamoyillarni belgilashda jamiyatning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari asosida shakllangan, xalqning, millatning ijtimoiy ongi va psixologiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Demak, demokratiya insoniyatning madaniyati, ma'naviyati, ijtimoiy ongi, mentaliteti, idroki, bilim doirasi, ishbilarmonlik qobiliyati, uning jamiyatda erkin yashash va mehnat qilish ko'nikmasi bilan birgalikda shakllanib, rivojlanib boradigan tabiiy-tarixiy jarayondir. Demokratiyaning muhim xususiyati shundaki, unda xalq hokimiyati, ya'ni ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunish tamoyili

rasman e'lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliliqi e'tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a'zolari hayotining asosiy qonuni - muayyan davlatning Konstitutsiyasida aks ettiriladi.

Demokratiyaning asosiy tamoyillari teng huquqlilik, erkin va demokratik saylovlari, hurfikrlilik, siyosiy plyuralizm, ko'ppartiya-viylik, hokimiyatning saylab qo'yilishi va xalq oldida hisob berishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, ozchilik fikrining inobatga olinishi. Shu bilan birgalikda, demokratiya sharoitida har bir shaxsning shakllanishiga o'ziga xos «chegara» ham qo'yiladi, ya'ni Konstitutsiyaga oid qoidalar va qonunlar orqali shaxslarning ijtimoiy hayoti va xatti-harakatlari tartibga solinadi. Bundan tashqari, demokratiya jamiyatning axloqiy-psixologik iqlimini vujudga keltiradigan shart-sharoitlarni ham yaratadi.

Mustaqillik O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish imkonini beradi. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida ana shu yo'ldan muvaffaqiyat bilan ilgarilab borilmoqda. Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash va liberallashtirish bilan bog'liq tub o'zgarishlar va islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ana shu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lish barchamizning insoniy burchimizdir.

Demokratiyaning ma'naviy-ma'rifiy jihatlari quydagilarni o'z ichiga oladi: yuksak siyosiy tafakkur va siyosiy madaniyat har qanday ehtiroslardan xoli, aql-idrokka tayangan fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish, amaldagi qonunlarga qat'iy rioya qilish va jamiyat rivoji hamda barqarorligini ta'minlashda mas'uliyatni anglash. Shu ma'noda, demokratiya - yuksak ma'naviyat, fuqarolarning ichki madaniyati va intellektual imkoniyati; fuqarolarning barcha uchun birday zarur bo'lgan qonunlarga to'liq rioya etishi, inson haq-huquq va erkinliklarini, umumxalq va umum davlat manfaatlarini himoya qiladigan, barchani qonunlarga bo'ysunib yashashga undaydigan umuminsoniy, huquqiy va ma'naviy qadriyat hisoblanadi.

Demokratiyani ma'naviyatsiz va ma'rifatsiz anglab bo'lmaydi. U inson aql-zakovati mahsuli va ayni paytda uning erkin holda farovon hayot kechirishining zaruriy shartidir. Demokratiyani hayotga

joriy qilishda mamlakat xalqining milliy ehtiyojlari, turmush tarzi, axloqiy mezonlari e'tiborga olinishi g'oyat muhim. Zero, barcha davlatlar va xalqlar uchun demokratiyaning bir xil qolipi bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatda demokratik qadriyatlarning amal qilishi ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning ko'rsatkichi hamdir. Ularning uyg'unligi jamiyatning barqaror taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Totalitar tuzumdan erkin fuqarolik jamiyatiga o'tilayotgan bir sharoitda har bir fuqaro demokratiyaning mohiyati va tamoyillarini anglab yetishi, erkin yashash va erkin fikrlash ko'nikmasini hosil qilishi hamda ma'naviy-ruhiy jihatdan demokratik yashash shartlariga o'zini tayyorlab borishi, fikrsizlik, qaramlik, tanballik va boqimandalik illatidan xalos bo'lishi zarur. Demokratiya asta-sekin, bosqichma-bosqich shakllanib, rivojlanib boradigan uzluksiz jarayon bo'lgani sababli, u har bir insonning ma'naviy-ma'rifiy salohiyati muttasil yuksalib borishini taqozo etadi.

Demokratiya eksporti:

1) jahondagi ayrim qudratli davlatlar yoki davlatlar guruhi tomonidan suveren davlatlarning o'z taraqqiyot modelini o'zi tanlash huquqiga, qolaversa, demokratiyaning ma'no-mazmuni, pirovard maqsadlariga zid ravishda uning «hammabop uslubi»ni kuch ishlatish yo'li bilan boshqa jamiyatlarga tizishtirish amaliyotini anglatadi;

2) yosh mustaqil davlatlarda demokratiya tanqisligini ro'kach qilib, bu mamlakatlardagi demokratlashtirish jarayonlarini sun'iy ravishda jadallashtirishga urinayotgan ayrim kuchlar va siyosiy doiralarning xatti-harakatlarini ifoda etuvchi tushuncha mohiyati Yurtboshimiz tomonidan quyidagicha ko'rsatib berilgan: «Ma'lum bir mamlakatda, aytaylik, «demokratiya taqchilligi» mavjud, ushbu mamlakat xalqiga ana shu taqchillikdan xalos bo'lishga yordam berish kerak, deb hisoblanadi. Buning uchun katta mablag'lar ajratilib, tegishli kuchlar yo'naltiriladi. Va bundan ko'zlangan maqsad to'ntarish uyuştirish va ana shunday «taqchillik»ni vujudga keltingan rahbariyatni yo'qotishdan iborat tushuncha. Mana shunday holatlarda «baxmal o'zgarish»lar texnologiyalari ishga tushadi: avvalgi hokimiyyat nisbatan tinch yo'l bilan, qurbanlarsiz ketishi, uning o'rnini boshqa, mazkur texnologiyalar manfaatlariga javob beradigan kuchlar egallashi ko'zda tutiladi». Aslida, demokratiya boshqa mamlakat

hududiga uning milliy manfaatlari va xususiyatlarini inobatga olmasdan turib, eksport qilinishi mumkin bo'lgan oddiy bir tovar emas. Agar demokratiyaga ham eksport predmeti sifatida yondashilsa, u bir tarafning boshqa taraf ustidan ustunlikka erishish vositasiga aylanadi. Holbuki, hech bir xalqaro tashkilot yo hech bir davlatga o'zga mamlakatda zo'ravonlik bilan demokratiya o'rnatish vakolati berilgan emas. Demokratiyani zo'rlik bilan boshqa joyga eksport qilish demokratiya tamoyillariga hech qachon mos kelmaydi. Keyingi-yillarda yaqindagina mustaqillikka erishgan mamlakatlarda demokratlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zarurligi haqida ayyuhannos solayotganlarning bunday intilishlari ortida qanday geosiyosiy, strategik va iqtisodiy maqsad-muddaolar turgani sir emas. Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Yerkinlik va demokratiyani olg'a siljitchi» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mustaqil davlatlar suverenitetini pisand qilmay, ularning ichki ishlariiga aralashayotgan «demokratiya rejissyorlari» aslida dunyoga hukmronlik qilishga, o'zga mamlakatlardagi yerusti va yerosti boyliklarini egallab olish, muayyan mintaqalardagi tinch-osuda hayotni izdan chiqarish, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishiga yordam berishga intilayotgani yaqqol namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, demokratiya eksporti yangi ko'rinishdagi mustamlaka-chilik, gegemonizm va buyuk davlatchilik shovinizmiga xizmat qiladigan harakatdir. Shu bois demokratiya eksportining g'arazli ta'siridan mamlakatimizni asrash, ma'naviy qadriyatlarimiz, davlatchilik an'analarimiz, demakki, milliy taraqqiyotimizni izdan chiqaruvchi bunday tahdidlarga qarshi ogoh va hushyor bo'lish, ularga qarshi qat'iy va izchil kurash olib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Demokratiyani hayotga joriy qilishda mamlakat xalqining milliy ehtiyojlari, turmush tarzi axloqiy mezonlaridan kelib chiqqan holda yondashish kerak bo'ladi. Ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, hamma xalqlar uchun demokratiyani birday joriy qilishining bir xil qolipi bo'lishi mumkin emas, masalan, sharqona demokratiya

haqida gap ketganda Prezident Islom Karimov: «Sharqda demokratiya jarayonlarining qadimdan shakllangan o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo‘lmaydi. Ya’ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o‘zgarishlar yasashga urinishlar g‘oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g‘arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb aytganlar. Tabiyki, bunday yo‘l bizga aslo to‘g‘ri kelmaydi»¹ deya demokratiyanı joriy etishning tamoyillari borligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarda Turkiya, Germaniya, Fransiya, Angliya kabi mamlakatlar bizga o‘z taraqqiyot dasturlari va modellarini tavsiya etdilar. To‘g‘ri, bu mamlakatlarda demokratiyaning ibratli va o‘rganishga arzirli tajribalari mavjud. Biroq davlatimiz rahbari Islom Karimov bu takliflarga o‘zining aniq munosabatini bildirib, bu masalaga har bir millatning turmush tarzi ruhiyatidan kelib yondashish zarurligini aytdi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko‘r-ko‘rona ko‘chirish aslo samara bermaydi. Bunday yo‘l chalkash va xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, g‘arb demokratiyasini to‘g‘ridan to‘g‘ri sharq mamlakatlarida joriy etish mumkin emas. Unga taqlid qilish kutilmagan fojialarga olib kelishi mumkin.

Sodda qilib aytganda, demokratiya - ongli fikrlash, har qanday ehtiroslardan xoli, aql-idrokka tayangan munosabat; Demokratiya – yuksak ma’naviyat va ichki madaniyatni oshkor etish imkoniyati; demokratiyanı anglash shaxsning barcha uchun birday zarur bo‘lgan qonunlarga to‘la rioya etishi; aniq tartib-intizomga tayanib, yashash, salohiyati; demokratiya-inson haq-huquqlarining qonuniy himoya qilinishi.

Aksincha bo‘lgan jamiyatda boshboshoqlik, parokandalik avj oladi va oqibatda bunday jamiyat halokatga uchraydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz mamlakatimizning siyosiy va davlat qurilishi sohasidagi xususiyatlarini ko‘rsatib berar ekan, «siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish jamiyatda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillari gumanizm g‘oyalari va umuminsoniy

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий таройишилари Т.: Ўзбекистон, 1995. 10-11-бетлар

qadriyatlarni qaror toptirish¹»ni muhim vazifa sifatida belgilab berdi.

Mustaqillik tufayli erkinlik, demokratiya nimaligini va o'zligimizni kashf etdik. Tom ma'naviy kamolotga yetmaguncha, to xatti-harakatlarimiz, munosabatlarimiz aqlu-idrok va umumiy manfaat doirasi bilan chegaralanmaguncha demokratiyaning mazmuni ham, ko'lami ham kutganimiz darajasida bo'lmaydi. Bu bevosita fuqarolar ongi, dunyoqarashini tubdan o'zgartirish, yaqin o'tmishdan qolgan loqaydlik va boqimandalik kayfiyatlarini yo'qotish, shu asosda davlatimiz, vatanimiz istiqboli uchun kuyinish tuyg'ularini kuchaytirish kabi murakkab va uzoq muddatli jarayon bilan bog'liq. Ana shundan kelib chiqib, Prezident Islom Karimov: «... demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Demokratiyaga tinimsiz aqliy va jismoniy mehnat qilib, ter to'kib, hayotning achchiq-chuchugini obdan tortib, keyin aytish mumkinki, hatto fojiali tajribalarni ham boshdan o'tkazib, og'ir sinov va kurashlarga mardona bardosh beribgina erishish mumkin²», degan edi.

Shunday qilib, milliy o'zlikni anglash, huquqiy savodxonlik, qonunlarga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat, demokratik qadriyat-larga sodiqlik bir tomondan jamiyat ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlaydigan omil bo'lsa, ikkinchi tomondan shaxs ma'naviy komilligini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi.

Jamiyatda komillik mezoniga javob beradigan kishilar aksariyat ko'pchilikni tashkil qilsagina, ma'naviy barkamollik va iqtisodiy yuksaklikka erishish mumkin bo'ladi.

¹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси ҳалқ ҳътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Т.: Ўзбекистон 2000, 13-14-бетлар.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг аосий тамойиллари. Т.: «Ўзбекистон», 1995. 10-11-бетлар.

14-mavzu. Shaxs ma'naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari

14.1. Islom Karimov shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari to'g'risida ilgari surgan g'oyalari

Jasorat - insonning yuksak kamolotga erishganini ko'rsatuvchi ma'naviy-axloqiy hodisa; insonning jamiyat va uning a'zolari manfaatlarini himoya qilish, muayyan vazifani ado etishda fidoyiligi, butun kuch va imkoniyatlarini to'la safarbar etishini anglatadigan ma'naviyat kategoriyasi.

Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asarida jasoratning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish xususiyatlari dalil va misollar asosida olib berilgan. Asarda ta'kidlanganidek; «Mening nazarimda, avvalambor Yaratganimizning o'zi har bir mavjudotga jasorat ko'rsatish imkonini beradi va ong-tafakkur sohibi bo'lgan insonlar bundan ibrat olib yashaydi. «...hayotning ma'nosi tinimsiz kurash, qiyinchiliklarni engib o'tish, doimiy jasorat, azmu shijoat bilan yashashdan iborat ekani ayon bo'ladi. Tabiat va tarix qonunlarini, uning taraqqiyot jarayonlarini chuqur tushunadigan odamgina o'z hayotini ma'naviy jasorat asosiga qurishga qodir bo'ladi. Har kuni, har soatda fidoyi bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish - haqiqiy qahramonlik aslida mana shu»¹.

Asardan olingen bu ilhombaxsh fikr jasorat tushunchasining mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilish uchun asos bo'ladi. Kundalik turmushda turli xavfli vaziyatlar va tahdidlarda el-yurt manfaatlari uchun ixtiyoriy ravishda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'sada halokatning oldini olish ham jasorat.

¹ Каримов И.А. «Оксак маънавият – ёнгилмас куч». Т.: «Маънавият» 2008. 163-164 бетлар.

Jasorat nafaqat urush va favqulodda holatlarda, kutilmagan hodisa tufayli ijtimoiy hayot yoki inson hayotiga bo‘lgan tahdidni bartaraf etishda, balki kundalik turmushda ham namoyon bo‘ladi. U moddiy yoki ma’naviy manfaatdorlik evaziga amalga oshirilmaydi. Jasorat hayotini, maqsad va orzu-umidlarini xalq va jamiyat uchun bag‘ishlab, amalga oshirgan hokisor inson faoliyatining natijasi hamdir. Shuning uchun jasorat faqat ayrim shaxslar va alohida kishilarning salohiyati emas, balki har bir inson uchun ham imkonи bo‘lgan ma’naviy fazilatdir.

«Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida jasoratning ushbu jihatи Yurtboshimiz tomonidan quyidagicha asoslab berilgan: «Shu ma’noda, shaxsan men zahmatkash va buniyodkor xalqimizning hayotini, ayniqsa, qish qahratoni va yoz jaziramasida ham, bahor va kuzning yog‘in-sochinli kunlarida ham yerdan rizq undirish maqsadida kunni kunga, tunni tunga ulab, mehnat qiladigan dehqonlarimiz hayotini tom ma’noda jasorat namunasi, deb bilaman».¹

Jasoratning mazmuni ko‘p holatlarda ommaviy harakatlarning boshlanishida, umummilliyl manfaatlarni himoya qilishda birinchi qadam, birinchi qarorlarda va ularni amalga oshirishda ham o‘z ifodasini topishi mumkin. Shu ma’noda, 1991-yil 31-avgust sanasida milliy istiqlolning e’lon qilinishi va mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash yo‘lida amalga oshirilayotgan buniyodkorlik ishlari ana shunday jasorat namunasidir. Vatan va millat manfaatlarini ro‘yboga chikarishda ulkan voqeа bo‘lgan bu azmu-qaror yuksak jasorat namunasi sifatida jamiyatimiz a’zolari uchun ma’naviy qadriyatga aylangan bejiz emas.

G‘oya va ong munosabati haqida gap ketar ekan, quyidagi holatlarga e’tibor berish zarur. Birinchidan, muayyan g‘oya inson tomonidan qabul qilinmasligi mumkin. Ikkinchidan, muayyan g‘oya shaxs ongida faqat axborot sifatida saqlanib qolishi, ya’ni keraksiz buyum kabi inson ongingin bir chetida «chang bosib» yotaverishi mumkin. Birinchi holatda g‘oya inson ongida hech qanday iz qoldirmaydi. Ikkinci holatda esa u shaxs uchun hech qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, g‘oya faqat inson qalbini egallagan, uning ma’naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangan taqdirdagina amaldagi kuchga aylanadi.

¹ Каримов И.А. «Оксак маънавият – ёнгилмас куч». Т.: «Маънавият» 2008. 164-165 бетлар.

Shuning uchun ham bugungi kunda mafkuraviy kurashning bosh maqsadi inson qalbini zabt etish orqali uning ongini egallash bo‘lib qolmoqda. Yurtboshimiz ta’kidlagani kabi bugungi kunda insoniyat qo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin, hozirgi zamondagi eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda, yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi. Shu ma’noda aholi, ayniqsa, yoshlariimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

Hammamiz yaxshi bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz ma’naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol bugun barchamizii o‘ylantirishi tabiiy.

... hayotda ko‘p bora o‘z tasdig‘ini topgan haqiqatdan kelib chiqqan holda, bu masalada shunday degan bo‘lardim: tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan puxta, ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha - qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi¹. Prezidentimizning bu fikrlari inson qalbi va

¹ Каримов И.А. «Оксак маънавият – ёнгилмас куч». Т.: «Маънавият» 2008. 115-116 бетлар.

ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi davrda barchamiz uchun dasturilamal bo‘lmog‘i lozim.

14.2. Shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ota-on va oila mas’uliyati

Shaxs ma’naviyatini rivojlantrishning omillari va vositalari ko‘p. Shulardan biri farzandning ota-onaga va ota-onaning farzandga bo‘lgan munosabati masalasidir.

O‘zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o‘z ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri - ota-onani farzandlar tomonidan yuksak darajada e’zozlash, izzat-ikromini, hurmatini joyiga qo‘yishdan iborat. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko‘ra mehribon, aziz va mo‘tabar zot yo‘q. Ota-onasi farzandlarning suyanchig‘i, bitmas-tuganmas boyligidir.

Ota-onasi o‘z farzandidan hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O‘zbek xalqi odob-axloqiga binoan keksalar va ota-onaning oldidan salom bermasdan o‘tish ayb hisoblanadi. Ota-onani qadrlash, ularning beo‘lchov, beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo‘lish, duolarini olish - farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biri.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga e’zoz, farzandlarga mehr-sadoqat kabi insonni ulug‘laydigan, axloqiy, ma’naviy jihatdan go‘zal va barkamol qiladigan qadriyatlarimiz odamlar, ayniqsa, yoshlar qalbidan o‘rin olgani quvonchli bir hol.

Asosiy qonunimiz - Konstitutsiyamiz farzandlarning jamiyat, oila, ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va majburiyatlar milliy qadriyatlarimizdagи asosiy g‘oya va qoidalarga asoslanib, belgilab qo‘yilgan. Uning 66-moddasida ta’kidlashicha, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

Har bir farzandning o‘z ota-onasini e’zozlashi farzandlik burchi va jamiyat oldidagi mas’uliyati sanaladi. Ota-onani e’zozlashning quyidagi sharqona talablariga hammamiz amal qilishimiz ham farz, ham qarz, farzandlik burchimizdir: ota-onaga xushmuomila bo‘lish

ozoda kiyintirish, kasal bo‘lganda shifokorga ko‘rsatish, kerakli dori-darmonni keltirib berish, doimo hol-ahvol, sihat-salomatliliklarini so‘rab turish, moddiy va ma‘naviy yordam berish keksayganda boqish, ota-onas oldida «uh» tortmaslik, gerdymaslik. Ota-onas norizo bo‘lgan ishni qilmaslik, ko‘chada yurganda otadan oldin yurmaslik, otadan avval ovqatga, dasturxonga qo‘l uzatmaslik, otadan avval o‘tirmaslik, otadan pastroqda o‘tirish, otaning oldida oyoqni uzatib yonboshlab olish bizning axloq-odob qoidalarimizga zid. «Otang o‘tirgan uyning tomiga chiqma» degan gap ham aynan ota-onaning ulug‘ligidandir. Ota-onas chaqirganda labbay deb javob qaytarish, har qanday ishni tashlab, ularning xizmatiga shay turish farzandning burchidir.

Ota-onaning roziligini olgan farzand baraka topadi, ishi o‘ngidan keladi, oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi. Ota rozi - xudo rozi, degan hikmatda gap ko‘p. Ota-onasi norizo bo‘lgan farzandning biri ikkiga aylanmaydi. Turmushga chiqish, uylanishda ota-onaning roziligini, oq fotihasini olishda hikmat ko‘p. Siz ota-onangizga nima qilgan bo‘lsangiz, u sizga farzandlaringizdan qaytadi. Bu-tabiat qonuni.

Hadisi shariflarda yozilishicha: «Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyyarat qilsa, Alloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar, ulardan bittasini ziyyarat qilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha, Alloh taolo undan rozi bo‘lmaydi»; «Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo (jannatdagi daraxt) nasib bo‘lib, Alloh taolo uning umrini ham ziyoda qiladi»; «Uch toifa kishilarning duosi, hech shubhasiz, Alloh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi»; «Ota-onalarning keksaygan vaqtida har ikkisini yoki biri bo‘lma ganda ikkinchisini rozi qilib, jannatiy bo‘lib olmagan farzand xor bo‘lsin, xor bo‘lsin va yana xor bo‘lsin»; «Ota-onaga itoat qilish - tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish tangri oldida gunoh ish qilish bilan barobardir» va boshqalar.

Farzandning ota-onas oldida burchli bo‘lganidek, ota-onaning ham farzand oldidagi burchi nihoyatda katta va mas’uliyatlidir. Farzandlarning kelajakda qanday inson bo‘lib yetishishi asosan ota-onas, ular bergen tarbiyaga bog‘liq. Har bir ota-onas farzandi oldida o‘z

otalik, onalik burchini to'liq his etishi, javobgarligini ma'nан anglab yetishi kerak.

Bola, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida ota-onan beradigan tarbiya juda muhim ahamiyatga ega. Farzand tarbiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini har bir ota-onan yaxshi bilishi foydadan xoli bo'lmaydi: Birinchisi - nasl tarbiyasi, ya'ni bola tarbiyasi - bola tug'ilmasdan uch-to'rt-yil oldin boshlanishi kerak. Ya'ni bo'lg'usi ona va otaning sog'lig'i, farzand tarbiyalashga mas'ulligini hisobga olish lozim bo'ladi. Bu - bola, farzand ko'rishni istagan ota-onanining bo'lajak farzandlari taqdiriga mas'uliyat bilan qarab, o'zlarining salomatliklarini yaxshilashlarini nazarda tutadi. Ikkinci bosqich - homiladorlik davridagi parvarish. Bu masala o'ta muhim, o'ta ahamiyatli bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda homiladorlik davri tug'ilajak inson taqdirining 60 foizini belgilashi ko'zda tutiladi. Bu davrdagi chora-tadbirlar aksariyat ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi. Uchinchi davr - bola tug'ilgandan to 6-7 yoshgacha bo'lgan davr. Shu davrga kelib, bola ma'naviyatining asosiy kurtaklari shakllanib bo'ladi. So'ng ana shu ma'naviy kurtaklarni parvarishlash va yanada rivojlantirish davri boshlanadi.

Ma'naviy barkamollik, balki, ona allasining mazmunidan, bolani kiyintirishu uni halol luqma bilan boqishdan boshlanishi mumkin. Hazrati Bahouddin Naqshband aytganlaridek, insondagi yaxshi fe'llar, a'mollar halol luqmadandir. Demak, ota-onan farzandini halol luqma bilan boqsa, u farzand ma'nан pok va halol bo'lib voyaga yetadi.

Olamda juft bo'lib yashash tabiat qonuni, taqozosi. Lekin oila bo'lib yashash barcha mavjudodlar orasida faqat odamgagina xosdir.

Oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo'g'ini, zarrachasi. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Yer va xotin - ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchinchi bir olam - bu oiladir. Agar oila tinch-totuv, ahil bo'lsa, olam tinch va obod. Aks holda, turmush do'zaxga aylanadi, oila zindonning o'zi bo'ladi, buning jabrini esa yer va xotinning o'zigina emas, balki farzandlari, yaqinlari ham tortadi.

Oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, e'tiqodiga ko'nikmalar majmuyi asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda oila - haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Bino-barin, milliy g'oyamiz, mafkuramizga xos ilk fazilatlar oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar mobaynida sakllanib kelayotgan muqaddas an'analarini orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon-e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, isnonparvarlik, ilmga ishtiyoq, mehnatsevarlik qo'nikmalari shakllanadi.

Ota-onalar bolalarda yoshlikdan xalq, yurt taqdiri uchun fidoyilik tuyg'usini shakllantirish, ularni ezgulik, insonparvarlik, rahm-shafqatlilik ruhida tarbiyalashga mas'uldirlar. Buning uchun o'z farzandlarini yoshlidan boshlaboq olam va odam dunyosi bilan tanishtirishning milliy an'analarimizga xos shakllarini qo'llashlari lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan «jangari» o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik maqsadga muvofiqdir.

Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmi kitoblar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlarni ko'rishga qiziqtirish bola ular ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

O'zbek oilasining o'ziga xos ichki qonun-qoidalari, axloqiy, ma'naviy mezonlari bor. Quyida biz shulardan ba'zilari, haqida to'xtab o'tishni lozim topdik, zero, bu siz kabi oila qurish oldida turgan yoshlar uchun foydadan xoli bo'lmas.

- Rizq-ro'z tongda har bir odamga, oilaga ularshiladi. Kimki g'aflat bosib, o'rnida yotaversa, rizqidan quruq qoladi, deyiladi. Barvaqt turilsa, ish unumli, o'sha kun xayrli bo'ladi.

- Yuz-qo'lni yuvmasdan hol-ahvol so'ralmaydi, yuz-qo'lni yuvgandan so'ng, kichiklar kattalarga salom beradilar, qizlar-kelinlar nonushta tayyorlaydilar, hovli, eshik oldini supurib, suv sepib qo'yadilar.

- Ish yoki o'qishga oilaning tabarruk yoshlilaridan fotiha olib ketilishi axloq-odob doirasiga kiradi, qaytganda, avval ularga uchrashib, salom beriladi, hol-ahvol so'raladi.

Oila odobiga ko'ra katta yoshlilar bolalarga, balog'atga yetgan

farzandlar, kelinlar katta yoshlilarga ochiq-sochiq holda ko‘rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar, pardasiz so‘zlarni aytmaydilar. Ko‘chaga uy kiyimida chiqilmaydi va boshqalar. Aytaversak, o‘zbek oilasining fazilatlari ko‘p, qonunlarda belgilanmagan, ammo millatimizning qadriyatlariga aylangan tartib va talablari mavjud. Ularni farzandlarimiz o‘zlashtirishi ham farz va ham qarzdir. Chunonchi, oilada ota-onalari, qaynona-kelin, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlarning me’yori, ularning maqsadga muvofiqligi, munosabatlarning samimiyat darajasi ham yoshlarda sog‘lom fikrning, sharm-hayo, mehr-oqibat, iffat, ibo, nazokat, lafz, mas‘uliyat kabi ijobiy ma’naviy fazilatlar shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Xalqimizga xos ustuvor fazilatlar asosan oilaviy muhitda, yaqin qarindosh-urug‘larning bevosita aralashuvida yuz beradi. Bu hol mehnatga to‘g‘ri munosabat, halollik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e’zozlash, ayash, urf-odatlarni muqaddas bilish jarayonida amalga oshadi. Bunday sifatlarni o‘zlashtira olgan har bir o‘g‘il-qizda oilaparvarlik, yurtparvarlik fazilatlari rivojlanishi muqarrar. Ammo oilaviy nizo va ajralishlarning sabablari tahlil qilinganda, shu narsa ayon bo‘lmoqdaki, oila muhitining nosog‘lomligi, oila a‘zolari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, o‘zaro til topa olmaslik holatlari nafaqat o‘sha oila, balki qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi xotirjamlikka ham rahna soladi. Eng achinarlisi - buning oqibatida e’tiqodsiz, diyonatsiz, maqsadsiz bolalar, hayotda o‘z o‘rnini topa olmagan insonlarning paydo bo‘lishidir.

Shunday qilib, oila - jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatan, el-yurt, mustaqillik, ozodlik haqida berilgan tushuncha, tasavvur bolaning murg‘ak qalbida bir umr muhrlanib qoladi. Oila mustahkam, tinch, farovon, sog‘lom bo‘lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «Oilaning jamiyatdagi o‘rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtayi nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz»¹, ya’ni ma’naviy sohadagi vazifalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаравон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Асарлар тўплами. 8-жилд. Т.: Ўзбекистон 2000. 502-503-бетлар.

Prezidentimiz I. Karimov o‘zining «Tarixiy xotira va inon omili – buyuk kelajagimizning garovidir» risolasida ta’kidlaganidek «Barchamizga ayon – jamiyatda ma’naviyatning o’rni beqiyosdir. Chunki inson hayotga, yon-atrofida ro’y berayotgan voqealarga befarq bo‘la olmaydi. U faqat pul yoki boylik uchun yashamaydi, odamlarning tashvishi, dardiga sherik bo‘ladi, ular uchun kuyunadi. Biz yoshlarimizni aynan mana shunday ruhda tarbiyalashimiz darkor. Nega deganda, ma’naviyat, odob-axloq, ibratli qadriyatlar, oljanob fazilatlar birinchi navbatda oilada, jamiyatda shakllanadi. Onaning qalb tuyg‘ulari, ma’naviyati farzandiga, avvalo uning oq suti orqali o’tadi. Bularning barchasi muqaddas kitoblarda bayon etilgan. Shu bois biz «Mustahkam oila-yili» munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturini amalga oshirish uchun katta kuch va imkoniyatlarni safarbar etmoqdamiz. Maqsad –oilalar mustahkam bo‘lsin, yoshlar katta avlod boshlagan ishlarni munosib davom ettirsin. Toki hayotda o‘z yo‘lini izlayotgan farzandlarimiz o‘z ongi, o‘z aqli bilan mana shu g‘oyalarning taraforiga, eng asosiysi, ularning himoyachisiga aylansin».¹

14.3. Adabiyot, san’at va boshqa omillar shaxs ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositasi

Adabiyot va san’at asarlari fuqarolarimizning ma’naviy dunyosini boyitish, ularni go‘zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ajoyib xususiyatlarga ega. Ma’naviy g‘oyasi yuksak, badiiy jozibali adabiyot va san’at asarlari kishilar qalbiga tezroq yo‘l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta’sir qilish, hayotiy voqeа – hodisalarni chuqur mushohada etishga da’vat qiladi. Shuning uchun adabiyot va san’at asarlarining kishilarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy ta’sir etishdek vositachilik xususiyatlaridan imkonli boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot va san’at asarlarining kuchi uning xalqchilligi kishilar ichki-ruhiy dunyosiga emotSIONAL ta’sir ko‘rsata olishdadir. Ma’naviy

¹ И.А.Каримов «Тарихий хотира ва инсон омили –буюк келажагимизнинг гаровидир». Т.: Ўзбекистон, 2012. 29-30-бетлар.

barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyot va san'atning ana shu xususiyatini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Ma'naviy tarbiyada o'zbek xalqinnig boy ma'naviy merosidan keng foydalanish uning ta'sirchanligi, samaradorligini oshirishda muhim omil bo'la oladi. Yoshlarimiz tarbiyasida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mashrab, Muqimiyy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpion, Usmon Nosir kabi klassik shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruhiy dunyosini ma'naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir. Ularning bizga qoldirgan boy badiiy -ma'naviy merosi o'zinig chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yo'nalishi bilan ajralib turadi.

Mumtoz san'atkorlarimiz asarlarida halollik va poklik, to'g'rilik, birovning haqiga ko'z olaytirmaslik, xiyonat qilmaslik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik, iymonlilik, halol luqma bilan kun ko'rish, ota-onani hurmat qilish kabi inson uchun zarur ma'naviy xislatlar yuqori badiiy savyada bayon etilgan.

Bu xislatlarni ko'ramiz va ulardan ma'naviy tarbiyada Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik kabi yozuvchilarimiz, Abdulla Oripov, Yerkin Vohidov, Oydin Hojiyeva, Omon Matjon, Rauf Parfi kabi shoirlarimizning asar va she'rlaridan ham keng foydalanish, badiiy asarlardagi qahramonlarining fe'l-atvori, axloqi, ma'naviy dunyosi to'g'risida suhbat, munozara o'tkazish katta samara beradi.

Ma'naviy tarbiyada kishilar ongi, ruhiyatiga ta'sir etishda teatr san'atining ham roli, o'rni va ahamiyati ta'sir etish doirasi imkoniyatlari cheksizdir. Biz teatr san'atini ikki tomoni charxrlangan shamshirga o'xshatishimiz mumkin. U bir tomoni bilan kishilar qalbiga yorug'lik olib kirsa, uni yuksak ma'naviylik tomon yo'llasa, ikkinchi tomoni bilan esa inson qalbidagi nodonlik, jaholat ya'ni ma'naviyatsizlikka qarshi kurashadi.

Teatr san'ati boshqa san'at turlari kabi obrazli – badiiy tabiatini bilan inson qalbiga emotsiyal ta'sir ko'rsatish, uning ruhiy dunyosiga chuqur kirib borish, shu orqali ma'naviy dunyosini boyitish xususiyatiga ega. Kishilarни yuksak ma'naviylik ruhida tarbiyalashda teatr san'atining ana shu xususiyatlaridan unumli foydalanish zamon talabi. Afsuski, fuqarolarimiz, shu jumladan,

yoshlarimizning teatr, kino san'ati yoki san'atning boshqa turlariga bo'lgan qiziqishi yetarli darajada emas. Teatr bir vaqtning o'zida ham so'z, ham musiqa, ham xatti-harakat orqali inson qalbiga ta'sir etish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi, shuning uchun teatr va kino san'atining bu xususiyatidan ma'naviy tarbiyada foydalanish katta samara berishi shubhasiz. Faqat ulardan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

Bunday asarlarni kishilar qalbiga kirib borishida televide niye imkoniyatlaridan foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Kishilarimiz «Otalar so'zi-aqilning ko'zi» kabi ko'rsatuvlarni sabrsizlik bilan kutganidek, ma'naviy yuksaklikka chorlaydigan, ya'ni jasorat va olivjanoblikni, ma'naviy go'zallik va axloqiy poklikni, ulug'vorlik, nafosat va ma'naviy qadriyatlarimizni targ'ib etuvchi badiiy yuksak adabiyot va san'at asarlari ga muhtoj. Chunki ular ma'naviyatimizni yuksaltiribgina qolmasdan, shuning bilan birga yoshlarimizga ilm egallashga, millat va vatanni taraqqiy ettirishga fidoyilik ko'rsatishda, zavq-shavq va ilhom bag'ishlaydigan vositalarning asosiyalaridan hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda va yoshlarimiz ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining olib borayotgan amaliy ishlarni ham alohida ta'kidlash lozim. Uning viloyatlardagi va Toshkent shahridagi bo'limlarida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, u talaba-yoshlar bilan respublikamizning ko'zga ko'ringan adabiyot va san'at arboblarining uchrashuvlarini tashkil etish, olimlar ishtirotkida turli ilmiy-amaliy konferensiyalar uyushtirish kabi o'ta muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, bu kengash tomonidan ma'naviyat, tarbiya va ta'lim masalalariga bag'ishlangan ilmiy, ilmiy-ommabop risolalarning chop etilishi va ularni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilinayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Bu kengash o'z faoliyati bilan mamlakatimizda ta'lim-tarbiya borasida olib borilayotgan umumiyl ishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Shaxs ma'naviyatini shakllantirish va qaror toptirishda so'z g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ladi. «Yaxshi so'z – qilichdan ham o'tkir» degan gap bor. Haqiqatdan ham o'z o'rnida ishlatilgan so'zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, ba'mani fikr doimo kishilarning xulq-atvoriga, ma'naviyatiga ijobjiy ta'sir

ko'rsatadi. Fikrni esa tinglovchilarning talab-ehtiyoji, orzu-umidlari va manfaatlariga aloqadorligini hisobga olgan holda bayon etilsagina, ta'sirchan va ishchonchli bo'ladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda muayyan ma'naviy qarashlar tizimini birdan, bir vaqtning o'zida ifoda etishga intilmaslik lozim. Tinglovchilarga alohida-alohida fikrlarni ravon va sodda tilda bayon etilsa, ular masalaning mohiyatini tez anglab, aytilayotgan fikr tinglovchi qalbidan o'rin oladi. Masalan, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarimizni o'rni haqida so'zlar ekanmiz, ularning barchasini bir boshdan birma-bir aytish shart emas. Ya'ni ona mehr-muhabbatining naqadar ulug' kuch ekani, bunga aloqador noyob udumlarimiz borligini anglash uchun oddiy ona allasining ta'sirchanligini his etish kishi qalbida kuchli takrorlanmas kechinmalarni uyg'otishi mumkin.

O'zini-o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahallamiz azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analarga tayangan holda, ulkan ma'naviy tarbiya o'chog'i vazifasini bajaradi. Keksalarning pand-nasihat, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi orqali odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Mahalla avvalo, sog'lom ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muhit sanaladi. Mahallada kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlini uning katta yoki kichikligidan, amaldor yoki oddiy ishchi, hunarmand, boy yoki nochor bo'lishidan qat'iy nazar, ularning xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk davrlaridan boshlaboq mahalla institutiga katta e'tibor berildi. Prezidentimiz tomonidan 1992-yil 12-sentabrda respublika «Mahalla» jamg'armasini tashkil etish to'g'risida Farmon va 1993-yil sentabr oyida «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Mahalla o'z ahlining ma'naviy, ruhiy dunyosi, mafkuraviy ongi va tafakkuri, insonlarning o'zaro aloqalari, oilaviy munosabatlarini shakllantiruvchi, qo'ni-qo'shnichilik, quda-andachilik kabi muammo va masalalarni hal etuvchi nodavlat tashkilotdir. U jamiyat hayotida tinchlik va osoyishtalikni, hamjihatlik va hamkorlikni saqlashda mehr-oqibatlilik, shafqat va muruvvat kabi usullar bilan har qanday mavjud muammolarning yechimini topa oladigan ijtimoiy hodisadir.

Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida ta’kidlaganidek, «O’zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyoj-mand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o’tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqi-mizga xos o‘zini-o‘zi boshqaruv tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egllagani bejiz emas». Biz « Mahalla –ham ota, ham ona» degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz.

Davlatchiligidan tarixida birinchi marta «Mahalla» tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va maqomi qat’iy belgilab qo‘yildi. Mahalla boshqaruviga bunday katta e’tibor bugun mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning xalqchil-ligidan dalolat beradi. Ayni paytda u yurtimizda amalga oshirilayotgan «Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari» degan tamoyilning amaliy ifodasi bo‘lib, ma’naviy hayotimizni yanada mustahkamlash, yosh avlodimizning ongu tafakkurini zamonaviy asosda shakllantirish borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda¹.

Mahallda keng jamoatchilik o‘rtasida g‘oyaviy-mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, har bir kishi qalbida milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha’ni uchun kurash, o‘zaro yordam kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o‘rni beqiyos.

Shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ta’lim-tarbiya muassasa-larinining ham o‘rni nihoyatda katta. Maktablar, akademik litsey, kasbhunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari ma’naviy tarbiyaning asosiy o‘choqlaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan ma’naviy tarbiya jarayonida, barcha o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar, qo‘shimcha adabiyotlarda o’tkaziladigan tadbirlarda quyidagi ma’naviy-ma’rifiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi maqsadga muvofiq;

¹ Каримов И.А. «Юксак маънавият –сингилмас куч» Т., Маънавият, 2008., 58-60-бетлар.

- Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish.
- Milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy me’rosimizga hurmatni kuchaytirish.
- Ona tilimizga muhabbat va hurmat uyg‘otish.
- Ezgulik timsoli bo‘lgan ayolni ulug‘lash.
- Umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, bag‘ri-kenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg‘or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanligini uqtirish.
- Dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash.
- Huquqiy madaniyat sog‘lom dunyoqarash, sog‘lom ma’naviy fazilat shakllanishining muhim omili ekanligini tushuntirish.
- O‘z tarixini bilish orqali o‘zligini anglash va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalasi. Bu ishga yurtimizning barcha ziylolari, o‘qituvchilar, jurnalistlar, yozuvchilar, shifokorlar, san’atkorlar, barcha rahbarlar birdek mas’uldirlar. Mamlakatimizda tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma’naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishish mumkin.

14.4. Eng buyuk jasorat – ma’naviy jasoratdir

Ma’naviy jasoratning mazmun-mohiyati, falsafiy ifodasi Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida insoniyat tarixidagi yorqin misollar orqali ta’riflangan. Mazkur tushuncha yer yuzidagi barcha o‘lmas obidalarni, insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yuborgan jamiki ulug‘ kashfiyot va ixtirolarni, mumtoz san’at va adabiyot durdonalari hamda mardlik va qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan insonlarning mislsiz aql-zakovati va yuksak ma’naviy salohiyatini o‘z ichiga olgan holda ifodalangan. Unda inson o‘z ma’naviyatini doimo yuksaltirib borishi har qanday faoliyatda ma’naviy jihatdan alohida namuna ko‘rsatishi lozimligi kabilar yorqin misollarda bayon etilgan.

Bugun biz «Buyuk sivilizatsiya va madaniyat beshigi bo‘lgan, qo‘hna va hayratomuz tarixni o‘zida mujassam etgan Vatanimizdagи bebaho yodgorliklar, osori-atiqalar haqida so‘z yuritar ekanmiz, shu

zaminda yashayotgan barcha insonlar ularni avvalo, xalqimiz dahosining yorqin namunasi, ta’bir joiz bo‘lsa, uning yuksak ma’naviyatiga qo‘yilgan muazzam haykallar, deb qabul qiladi. Shuning uchun ham bu yorug‘ olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat - bu ma’naviy jasorat, deb javob bersak, o‘ylaymanki yanglismagan bo‘lamiz.

Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qalbida, yuragida ana shunday jasorat hissi nihoyatda kuchli bo‘lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda hamadolat va haqiqat yo‘lida o‘zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun, qanday ibratlilishlarni amalga oshirganini ko‘rish mumkin. Aynan ana shunday odamlarning ma’naviy fazilatlari tufayli ezgu his-tuyg‘ular, muqaddas va ulug‘ tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo‘lib kelmoqda. Bunday benazir zotlarning barcha xalqlar va millatlar orasida ko‘plab topilishi - ma’naviy jasorat tuyg‘usi butun bashariyatga xos xususiyat ekanidan dalolat beradi».¹

Jahon sivilizatsiyasi ana shu buyuk jasorat, azmu shijoat, ma’naviy jasorat sohiblarini ulug‘lab, sharaflab kelgan. Yunon afsonalaridagi Ikar kabi halok bo‘lishini bila turib, quyoshga, yorug‘-likka, buyuk orzular sari parvoz qilish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Ammo insoniyat taraqqiyotini har doim aynan ana shunday odamlar yo‘lga qo‘yanlar, shular tarix g‘ildiragini olg‘a siljitanlar. Ulardagi buyuk jasorat odamlar uchun ibrat maktabi bo‘lgan. Erk va ozodlik yo‘lida buyuk jasorat ko‘rsatgan milliy qahramonlarimiz To‘maris, Shiroq, Spitamen biz uchun vatanparvarlikda ibratdir. Insoniyatning taraqqiyot yo‘llarini belgilagan buyuk kashfiyotlar, odamlarni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga da‘vat etgan fan, madaniyat, san‘at, adabiyotdagi va boshqa bunyodkorlik durdonalari ana shunday ma’naviy jasorat mevalaridir. **Suqrot** yaratgan ilm, uning inson va jamiyatga doir falsafasi qariyb 2,5 ming yil mobaynida Sharqu G‘arb allomalarini ruhlantirib kelmoqda. Uning hayoti va o‘limi tarixi inson ruhiy quvvatining chinakam ramziga aylangan. Odob va axloqni falsafiy teran tadqiq qilgan Suqrot hokimiyat tomonidan ayblanib, o‘lim jazosiga hukm etiladi. Shogirdlari unga qamoqdan qochib, jonini saqlab qolishni taklif etishganda, u bundan voz kechadi. Suqrot uchun qamoqdan qochish o‘zi targ‘ib qilgan va o‘zi butun umr rioya etgan qoidalarga, eng muhimi -

¹ Каримов И.А. «Оксак маънавият – енгилмас куч». Т.: «Маънавият» 2008. 159-160 бетлар.

Vatanga xiyonat bo‘lar edi. Zero, uning qat’iy fikricha, har qanday, hatto eng yuksak vaadolatli maqsad ham, unga erishmoq yo‘lidagi past va jinoiy vositalarni oqlamaydi.

Shuningdek, necha asrlardan buyon yuksak tafakkur va aql-zakovat timsoli bo‘lib kelayogan antik davrga mansub yunon faylasufi Platonning hayot yo‘lini o‘zimizga bir tasavvur qilib ko‘raylik. Ma’lumki, Platon butun umrini ilmu ma’rifatga bag‘ishlagan ulug‘ donishmand Suqrotning munosib shogirdi edi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Suqrotning o‘limidan keyin yunon falsafasining taqdiri xavf ostida qoladi. Faqatgina Platonning fidoyiligi va beqiyos xizmatlari evaziga bu fan yangi bosqichga ko‘tarildi. Uning qanchadan qancha qiyinchilik, sarson-sargardonlikdan so‘ng, bor mol-mulkini sarflab, Afina shahri yaqinidan maxsus yer sotib olib, olimlar to‘planib, babs-munozara olib boradigan joy akademiya tashkil etishi chinakam ma’naviy jasorat namunasi edi. Platon asos solgan bu ilmiy maskan ming yil davomida nafaqat yunon, balki butun Sharqu G‘arb olamining ravojiga kuchli ta’sir o‘tkazdi, insoniyat tafakkur taraqqiyotining istiqbolini belgilab berdi.¹

«Chunonchi o‘rtta asrlarda astronomiya sohasidagi ilmiy kashfiyotlari uchun tazyiq va ta’qiblarga uchragan Nikolay Kopernik hamda keyinchalik uning izidan borib, jaholat va aqidaparast ruhoniylar tomonidan o‘tga tashlangan Jordano Bruno, qanchadan qancha ta’na va malomatlarga girifor etilgan Galileo Galiley kabi allomalarning jasoratida ham haqiqatga sadoqat, e’tiqod uchun kurashning yorqin namunasi yaqqol namoyon bo‘lganini ko‘ramiz».²

Nikolay Kopernik (1473-1543) buyuk polyak mutafakkiri va astronomi. «Samoviy sferalarning aylanishi» nomli asarida olamning gelotsentrik tizimini asosladi. Uning ta’kidlashicha, Yer olamning o‘zgarmas markazi emas, negaki, u o‘z o‘qi atrofida aylanib turadi. Ikkinchidan, Yer olamning markazida turgan Quyosh atrofida aylanib turgani bois kun va tun almashinadi. Shuningdek, osmondagи biz ko‘rib turgan yulduzlarning holati o‘zgarmasdek tuyuladi. Yer Quyosh atrofida aylanib turgani uchun Quyosh boshqa yulduzlarga nisbatan o‘z o‘rnini o‘zgartirganidek (ya’ni harakatlangandek), sayyoralar esa halqasimon harakatlanayotgandek ko‘rinadi. Biz

¹ Каримов И.А. «Ўксак маънавият – ёнгилмас куч». Т.: «Маънавият». 2008. 159-160 бетлар.

² Уша асар. 161-бет.

sayyoralar harakatini olamning markazida turgan Quyoshdan emas, uning atrofida aylanib turgan yerdan kuzatayotganimiz uchun ham bu harakat halqasimon shaklda yuz berayotgandek tuyuladi. Yer atrofida esa faqat uning yo'ldoshi Oy aylanadi, deb xulosa qiladi mutafakkir.

Nikolay Kopernik o'z mulohazalarini falsafiy ta'limot deb atadi. Aftidan, bunga mutafakkirning qadimgi yunon pifagorchilar g'oyalari bilan tanishgani sabab bo'lsa kerak. Antik dunyo faylasuflarining ilg'or g'oyalari ham Nikolay Kopernik e'tiboridan chetda qolmadi. Nikolay Kopernik asoslab bergen gelotsentrizm ta'limoti o'rta asr dunyoqarashida keng ildiz otgan geotsentrizmga barham berdi.

Nikolay Kopernik ta'limotining nemis astronomi Iogann Kepler va italyan faylasufi Jordano Bruno tomonidan rivojlantirilishi uning xristian dunyoqarashiga naqadar zid ekanini namoyon etdi. Natijada 1616-yilda mutafakkirning shoh asari taqiqlangan kitoblar qatoriga kiritildi va ikki asrdan ko'proq vaqt (1822-yilga qadar) e'tibordan chetda qoldi. Shunga qaramay, Nikolay Kopernik g'oyalari olam haqidagi yangi qarashlarning shakllanishida nazariy metodologik asos vazifasini o'tadi.

Jordano Bruno (1548-1600) italiyalik buyuk faylasuf va tabiatshunos. Jordano Bruno din va cherkovga qarshi chiqishlar qilgan. Oqibatda katolik cherkovi tomonidan ta'qib ostiga olingan. Jordano Bruno 1575-yilda monaxlikdan voz kechib, Rimga qaytadi, so'ngra Shvetsiya, Fransiya, Angliya va Germaniyada yashaydi. Universitetlarda astronomiya fanidan ma'ruzalar o'qiydi. O'rta asrlar sxolastik falsafasiga, katolik cherkoviga qarshi asarlar yozadi. 1582-yilda «G'oyalarning soyasi haqida» deb nomlangan bиринчи falsafiy asarini yaratdi. 1584-yilda «Ko'k uy ustidagi bazm», «Ibtido va birlamchi sabab haqida», «Koinot va olam, cheklanmaganlik haqida», 1591-yilda «Juda oz va uch qirrali o'lchov haqida», «Son-sanoqsizlik va o'lchovsizlik haqida» kabi asarlari nashr etiladi. Mutafakkir 1592-yilda Italiyaga qaytadi. Venetsiya inkivizitsiyasining ko'rsatmasiga muvofiq qamoqqa olinadi. Yetti-yildan ortiqroq umrini inkivizitsiya qamoqxonalarida o'tkazadi. Undan falsafiy, ilmiy-tabiiy g'oyalardan voz kechishni talab qiladilar. Jordano Bruno o'z falsafiy e'tiqodida sobit qoladi. Bundan g'azablangan katolik cherkovi Jordano Brunoni tiriklayin gulxanga tashlaydi. Jordano Bruno odamlar ongiga

singdirilgan va asrlar mobaynida xalq ma'naviyatining asosi bo'lib kelayotgan diniy an'analar va ma'naviy qarashlarga o'z asarlari bilan katta ta'sir ko'rsatgani sababli kishilar tafakkurida katoliklar o'rnatgan diniy, siyosiy, madaniy, huquqiy va iqtisodiy tartiblarga nisbatan norozilik yuzaga kela boshlagan edi.

Mantiqan olib qaraganda, jamiyatda diniy ma'naviyat hamda qonunlarning dunyoviy ma'naviyat va qonunlar bilan almashinishi orqali yuzaga kelgan Yevropa Renessansi davri Bruno kabi olimlarning asarlari va ularning xalq orasida keng tarqalishi bilan bog'lanadi. Jordano Brunoning fikriga ko'ra, falsafaning asosiy vazifasi tabiat ustida turgan Xudoni yoki narigi dunyoning sirlarini emas, balki tabiatning o'zini o'rganishdan iborat bo'lmog'i zarur. Jordano Bruno falsafasidagi eng asosiy g'oya - ilohiylik va tabiiylik, moddiylik va ideallik, tana va ruhiyat, aqliylik va hissiylik, koinot va yerdagi hayotning dialektik aloqadorligi muammolarini aniqlab berishdan iborat.

Mutafakkir koinotda mavjud bo'lgan turli sayyoralar o'rtasida o'zaro aloqadorlik va ta'sir borligini isbotlashga urindi. Bruno Renessans davri an'analarini davom ettirib, bilish jarayonida har qanday obro'-e'tiborga sajda qilishga, uni mutlaqlashtirishga qarshi chiqdi.

Jordano Brunoning ta'kidlashicha, bilish jarayonida hissiy bosqichning ahamiyati uncha katta emas, chunki his-tuyg'u insonga aqlni qo'zg'atish, unga ichki turtki berish uchun kerak. Aqlni qo'zg'atish, hissiyot qanday takomillashgan bo'lishidan qat'iy nazar, ayrim noaniqliklardan xoli emas. Jordano Bruno ta'limoti yangi dunyoqarash sari bosilgan ulkan qadam edi.

Markaziy Osiyoda ham yuzlab ana shunday buyuk jasorat sohiblarini sanab o'tish mumkin. Xususan, Xorazm Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatgan Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi allomalarning fidoyiligi tufayli Sharq ziyo maskaniga aylandi. Ularning ilmiy kashfiyotlari, mashaqqatli mehnat ortida yaratgan asarlari jahon ilm-fanining rivojiga beqiyos hissa bo'lib qo'shildi.

Ilohiy ishq yo'lida eng buyuk jasorat ko'rsatgan Mansur Halloj, Nasimiyl, Mashrab kabilarni bugungi avlod yodidan chiqarmaydi. El-

yurt mustaqilligi yo‘lida o‘z jonini fido qilgan Najmiddin Kubro yoki Jaloliddin Manguberdilarning jasoratisiz, mamlakatni rivojlantirish, davlatni mustahkamlashga umrini baxshida etgan Amir Temursiz, xalq farovonligi, jamiyat barqarorligi haqida qayg‘urgan Alisher Navoiysiz, Vatan ishqisi bilan buyuk sultanatni yaratgan Zahiriddin Muhammad Bobursiz o‘zbek xalqining tarixi va buyuk kelajagini tasavvur etish mumkin emas. XX asr tarixida ham bunday ulug‘ siymolarni ko‘plab uchratish mumkin.

Mahatma Gandhi (2.10.1869-30.1.1948) - asl ismi Mahatma Karamchand Gandhi, Hindistonda milliy ozodlik kurashi rahbarlaridan biri, siyosatchi, atoqli mutafakkir. U «Mahatma» («Buyuk qalb») taxallusi bilan mashhur. Gandhi nomi bilan bog‘liq gandizm ta’limoti Hindiston Milliy Kongressi (HMK) rasmiy mafkurasi sifatida tan olingen va u hozirga qadar hind xalqi tafakkuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgan ma’naviy omil hisoblanadi. Hindiston mustaqilligining ashaddiy raqiblaridan biri U.Cherchill Gandiga «isyonkor faqir» nomini bergen edi. Garchi, U.Cherchill mazkur laqab bilan Gandini xalqaro doirada yerga urishni ko‘zlagan bo‘lsada, aslida Gandining «faqir»ligi, kamtarligi, sabr-matonati butun hind xalqi ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsatgan.

Mustamlakachilarga qarshi kurashning o‘zi asoslagan madaniy shaklda boshlagan bu yo‘l butun dunyoda Gandining obro‘-e’tiborini yuksak darajaga ko‘targan. Gandhi tashkil etgan harakat dunyoga zulmu istibdodga qarshi kuch ishlatmasdan, ma’naviy omillarga suyangan holda kurashish va g‘alaba qilish mumkinligini amalda isbotlab bergen edi. Gandichilik Hindiston tarixidagi butun bir davr mazmunini tashkil etadi. Gandhi «Satiyagraxa» («Qat’iylik haqiqatda», ya’ni «kuch ishlatmasdan kurashish») g‘oyasini ilgari surgan. Satiyagraxa ta’limotida, idealizm va siyosiy pragmatizm bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanib ketgan. Zo‘rlikka qarshi sabr-toqat, chidamni tan olmasada, unga qarshi barcha vositalarni ishga solish Gandining axloqiy prinsiplariga mos kelmagan.

Gandi Hindistonni vayronagarchiliklardan, tanazzuldan, xalqning qirilib ketishi va kuchga asoslangan inqilobiy harakatlar natijasida yuz berishi mumkin bo‘lgan ko‘plab falokatlardan saqlab qolgan edi. Gandhi HMK yetakchilaridan farqli ravishda o‘z ta’limotini xalq orasida targ‘ib etgan, kishilarda yuksak ma’naviy tafakkurni shakl-

lantirishga intilgan edi. Uning targ‘iboti oddiy, sodda, barcha birday tushunadigan va biladigan, amal qilish qiyin bo‘Imagan tushuncha va harakatlardan iborat edi.

Butun umr oddiy va kamtorona, lekin ezgu g‘oyalar yo‘lida tinimsiz kurashib yashagan bu zotning falsafiy-siyosiy qarashlarida insoniyat uchun ibratli jihatlar ko‘p. Jumladan, uning turli muammo va ziddiyatlarni kuch ishlatmasdan, tinch yo‘l bilan hal qilishga oid fikrlari dunyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarda, ijtimoiy hamkorlik masalasida bugun ham o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmasdan kelmoqda».¹

Hindiston ikki davlatga bo‘lib yuborilgach (1947-yil), Gandhi umrining oxirigacha diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) uchun kurash olib bordi. Chunki Hindistondagi ko‘p dinlilik, aholining turli dinlarga e’tiqod qilishi ma’naviy birlashuv orqali erishilgan g‘alabalarga katta xavf tug‘dirardi. Dinalar bilan bog‘liq ma’naviy tafakkurdagi rang-baranglik, siyosiy-ma’naviy birlikning buzilishini oldini olish bu davrda Gandhi ta‘limotining bosh yo‘nalishiga aylangan edi. Gandhi 1948-yil 30-yanvarida hind shovinistik terroristik tashkiloti «Rashtriya svayam sevak singx» a’zosi N.Godze tomonidan o‘ldirilgan.

Hindiston tarixida buyuk rol o‘ynagan Gandini bekorga «millat otasi» deb atashmagan. Uning satiyagraxasi etnik, diniy kasta, til, mintaqaviy va xalq orasidagi turlicha ma’naviy qarashlar bilan bog‘liq. U har xil to‘sqliarni buzib tashlagan edi. Hindiston birligi, istiqlol masalasi Gandining hayoti mazmunini tashkil etgan. Yer yuzida «sarvadoyya», («umumi farovonlik jamiyat») qurish satiyagraxa g‘oyasining mohiyatini tashkil etgan. Unda demokratik va gumanistik tamoyillar o‘z ifodasini topgan. Gandhi nomi bugungi kunda Hindistonda va butun dunyoda tinchlik, ijtimoiy hamkorlik, dinlararo bag‘rikenglikni anglatadi. Tamaddun kelajagi haqida fikr bildirayotib, mashhur ingliz tarixchi-sotsiologi A.Toynbi: «Dunyoda bir kun kelib urushlar, qirg‘inlar ham barham topadi, yer yuzi xalqlari orasidagi keskinliklar ularni o‘z ixtiyorlari bilan faqat bir yo‘lni tanlashlariga majbur qiladi. Bu yo‘l Gandhi yo‘li - tinchlik yo‘lidir» degan edi.

¹ Каримов И.А. «Юксак маънавият – ёнгилмас куч». Т.: «Маънавият». 2008. 161-162 бетлар.

O'lka tarixiga qaytilsa, O'zbekiston mustaqilligining ilk tamal toshlarini qo'ygan istiqlol fidoyilar - jadidlarning ma'naviy jasorati ibrat maktabi bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Isoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvarlar Turkiston o'lkasini Chor mustamlakachiligidan xalos etish, yurtni taraqqiy toptirish yo'lida o'z huzur-halovatidan voz kechdilar, kerak bo'lsa aziz jonlarini qurban qildilar.

Tarixdan ma'lumki, chor hukumatining mustamlaka o'lkalardagi siyosatini sho'rolar davom ettirdi. Bu siyosatning asl mohiyati xalqlarni, xususan o'zbek xalqini tarixidan ayirish, o'zligini yo'qotish, o'lkani xomashyo bazasiga aylantirishdan iborat edi. Shuning uchun xalqning milliy tarixi, ma'naviyati, madaniyatini himoya qilishga harakat qilgan har qanday insonga «xalq dushmani», «vatan xoini» kabi tamg'alar bosilib, qatag'on qilindi. Shunday tahlikali davrda ham o'zbek ziyorilari xalqning himoyasiga otlanib, fidoyilik ko'rsatishdi, bu yo'ldagi qiyinchilik va ta'qiblardan ruhan bukilmay, dadil turishdi.

Shunday shaxslar qatorida Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad, Shukrullo singari shoir va yozuvchilar, Yahyo G'ulomov, Ibrohim Mo'minov kabi o'nlab, yuzlab olimlarning nomlarini keltirish mumkin. Masalan, arxeolog olim Yahyo G'ulomov sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonni yaxlit paxta dalasiga aylantirish siyosati tufayli qa'rida tarixiy obida va yodgorliklar yashiringan tepaliklar tekislanishiga qarshi chiqadi. Shu tufayli tazyiqqa uchraganda ham olim o'z hayotiy va ilmiy qarashlaridan voz kechmadi. Tarix va kelajak oldida mas'uliyatini his etib tizimga, uning bema'ni siyosatiga mardona qarshilik ko'rsatgan shunday insonlar tufayli o'zbek xalqining boy tarixiy merosi kelajak avlodlar uchun saqlanib qolindi.

Islom Karimov siyosiy, tashkiliy, g'oyaviy, ma'muriy va boshqa jihatlardan juda mustahkamlangan, yangicha yashashni mutlaqo istamaydigan tuzum tomirlari chirmashib ketgan bir sharoitda yangicha tafakkur va yangicha yashash tarafдори bo'lib maydonga chiqdi. Uning novatorlik kuchi mamlakatni bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga hushyorlik va donolik bilan olib o'tishida, o'zi tanlagan

yo'lning to'g'riliqiga qat'iy ishonch bilan, barcha sohadagi islohotlar ni sobitqadamlik bilan joriy etishga intilishida namoyon bo'lmoqda.

O'tgan tarixan qisqa va sermazmun davr mobaynida jahon siyosatida, davlatchilik va boshqaruvchilik tajribasida, aytish mumkinki, Islom Karimov maktabi vujudga keldi. Bugun mamlakatimizda ming-minglab turli toifadagi rahbarlar ana shu maktab sabog'ini olmoqda va unda ishlab chiqilgan konsepsiylar, siyosiy yo'l-yo'riqlar asosida ish olib bormoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning davlatchilik borasidagi faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, beixtiyor ko'z o'ngimizda turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan siyosat va davlat arboblari gavdalanadi.

Darhaqiqat, haqiqiy baho taqqoslash orqali beriladi. Tarixiy jarayon, voqeа va hodisalar tahlil etilayotganda, ular bir-biriga qiyoslangandagina o'zining butun salmog'i va miqyosi bilan namoyon bo'ladi. Ana shu jihatdan qaraganda, milliy davlatchilikni barpo etish borasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarni jahoning ko'plab mamlakatlari tarixida kechgan olamshumul jarayonlarga qiyoslash mumkin.

Deylik, Sohibqiron Amir Temur turkiy ulusni va Turkistonni birlashtirish, yaxlit davlatni vujudga keltirish orzu-istagi bilan yashamaganida yoki uning o'rnida boshqa bir odam taxt tepasiga kelganida o'z davridagi buyuk siljishlar yuz berarmidi?

Zahiriddin Muhammad Bobur «oyoq yetgancha ketgayman» deb ko'nglida fig'on, dard va hasrat bilan «Hind sari yuzlandi»-yu, turli din, mazhab va aqidalar bilan yashayotgan xalqlarni birlashtirib, buyuk Hindiston davlatiga asos soldi. Butun yer sharining ulkan bir qismida fan, madaniyat va san'atni rivojlantirib, odamlar ongi va dunyoqarashida to'ntarish yasadi. Ana shu mintaqa xalqlari taqdirini butunlay boshqa o'zanga burib yubordi.

Mashhur davlat arbobi Jorj Washington Shimoliy Amerikadagi ingliz konoloniyalariga qarshi mustaqillik uchun kurashda faol ishtirot etgan. Ozodlik harakatiga qo'mondonlik qilib, sarkardalik iste'dodini yorqin namoyon etgan, Amerika Qo'shma Shtatlari davlatining asoschisi hamda uning birinchi Prezident sifatida tarixda qolgan siymodir.

Ikkinchi jahon urishidan keyin Fransiyani rivojlangan va demokratik davlat qatoriga olib chiqishda Sharl De Goll, urushdan

batamom charchagan Germaniya iqtisodiyotini hamda uning jahon hamjamiyatida badnom bo‘lgan obro‘sini qayta tiklagan Konrad Adenauerlar o‘z millatlari va xalqlari xotirasida abadiy joy oldilar. Boshqacha qilib aytganda, bu har ikki buyuk siyosiy arbobning tarixiy xizmati bevosita butunlay yangi tarixiy sharoitlarda o‘z millati va davlatining beqiyos taraqqiyotini ta’minlagani, uning buyuk kelajagiga zamin yaratgani bilan asoslanadi.

Prezidentimiz Islom Karimovning O‘zbekiston hali SSSR tarkibida turgan paytidayoq milliy ozodlik uchun boshlagan harakati, mustamlakachilikka qarshi kurashish, mustaqillikka erishish va nihoyat, milliy davlatchilikka asos solish borasidagi faoliyati yuqorida tilga olingan mashhur davlat va siyosat arboblarining faoliyatini eslatadi. Islom Karimovning o‘zbek xalqi uchun tarixiy xizmati shundaki u butunlay yangi tarixiy sharoitda butunlay yangi o‘zbek milliy davlatchiligidagi asos soldi.

Qolaversa, O‘zbekiston rahbarining jahon davlatchiligi qurilishi tajribalarini boyitayotganligi, unga yangi mazmun, yangi shakl va joziba berayotgani uning o‘ziga xos qudratidan dalolat beradi. Zero, O‘zbekistondagi islohotlarni, dunyoning eng ilg‘or davlatchilik tajribalari va demokratik tamoyillariga mos keladigan, ayni paytda nihoyatda milliy, tagzaminli davlat qurilayotganligini xorijiy atoqli siyosatdonlar tan olmoqdalar va yuqori baholamoqdalar.

Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, har qanday davlatchilik faqat milliy asosda qurilgandagina, tub aholi ma’naviy-ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib barpo etilgan taqdirdagina, yashovchan bo‘ladi. Ayni paytda, u milliy ravnaq uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Chunki har bir xalq o‘zining boy o‘tmishini, tarixini, an'analarini va o‘zligini bevosita davlat timsolida ko‘rishi kerak. Bu o‘zini bilgan, o‘zini tanigan xalq uchun juda katta ma’naviy-ruhiy ehtiyoj hisoblanadi.

Atoqli o‘zbek shoirasi Zulfiya, taniqli olim Ozod Sharafiddinov kabi ko‘plab yurtdoshlarimiz ham ma’naviy jasorat sohiblari hisoblanadilar.

«O‘zini o‘zbek xalqining farzandi degan har bir inson ana shunday fidoiy yurtdoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanadi, unib-o‘sib kelayotgan bolalari, shogirdlariga ma’naviy jasorat timsoli sifatida, aynan mana shunday odamlarni namuna qilib ko‘rsatadi. Va hech

shubhasiz, umr bo‘yi el-yurt manfaati, Vatan istiqboli uchun kurashib, jon fido qiladigan ana shunday qahramon farzandlari bor xalq hech qachon kam bo‘lmaydi. Olis va yaqin tariximiz shuni ko‘rsatadiki, xalqimiz doimo ma’naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug‘ tuyg‘u uning hayotida yillar, asrlar o‘tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib, bormoqda. Chunki xalq ma’naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g‘ayrat va ilhom olib, o‘zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi».¹

¹ Каримов И.А. Юксак мънавият-енгилмас куч. Т.: «Мънавият» 2008. 169-170-бетлар.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: O‘zbekiston. 2010.
2. I. Karimov, O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. T.: O‘zbekiston, 1992.
3. I.Karimov. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. T.: O‘zbekiston, 1993.
4. I.Karimov O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: O‘zbekiston, 1996.
5. I.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.: O‘zbekiston, 1996.
6. I.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: O‘zbekiston, 1996.
7. I.Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasining ochilishi marosimida so‘zlangan nutq. 1995-yil 3-oktabr. Asarlar to‘plami, 4-jild T.: O‘zbekiston, 1996.
8. I.Karimov. Bunyodkorlik yo‘lidan. T.: O‘zbekiston, 1996.
9. I.Karimov. Yuksak ma’naviyatsiz kelajak yo‘q. «Ma’naviyat va ma’rifat» Respublika jamoatchilik markazi rahbariyati hamda boshqaruvi a’zolari bilan uchrashuvda so‘zlangan nutq. 1996-yil 4-sentabr. Asarlar to‘plami. 5-jild. T.: O‘zbekiston , 1997.
10. I.Karimov. Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz. A.Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyadagi ma’ruza, 1996.
11. I.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi T.: O‘zbekiston, 1997.
12. I.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.: O‘zbekiston, 1998.

13. I.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xafsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Asarlar to‘plami, 6-jild. T.: O‘zbekiston, 1998.
14. I.Karimov. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlangan nutq. 1997-yil 29-avgust. Asarlar to‘plami, 6-jild. T.: O‘zbekiston, 1998.
15. I.Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.: O‘zbekiston, 2001.
16. I.Karimov. «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidagi so‘z boshi. Asarlar to‘plami, 9-jild. T.: O‘zbekiston, 2001.
17. I.Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: O‘zbekiston, 2002.
18. I.Karimov. «O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T., O‘zbekiston, 2005.
19. I.Karimov. Istiqlol va ma’naviyat. T., O‘zbekiston 2005.
20. I.Karimov. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. T.: O‘zbekiston, 2006.
21. I.Karimov. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.: O‘zbekiston, 2007.
22. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori (I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlagan nutqi). Asarlar to‘plami, 6-jild. T.: O‘zbekiston, 1998.
23. «Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi». (I.Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asari). Asarlar to‘plami, 6-jild. T.: O‘zbekiston, 1997.
24. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin» (I. Karimovning «Tafakkur» jurnali Bosh muharrirning savollariga javoblari). Asarlar 7-jild, T.: «O‘zbekiston» 1999. 84-102- betlar.

25. «Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» (I.Karimovning «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblari). Asarlar to'plami, 8-jild. T.: O'zbekiston, 2000.
26. «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz» (I.Karimovning «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblari). Asarlar to'plami, 7-jild. T.: O'zbekiston, 1999.
27. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda (I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi ma'ruzasi). Asarlar to'plami, 7-jild. T.: O'zbekiston, 1999.
28. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008.
29. I. Karimov. Tarixiy xotira va inson omili- buyuk kelajagimizning garovidir . T.: O'zbekiston, 2012.
30. Ibraximov N, X.Sultonov X, Jo'rayev N, Vatan tuyg'usi. T.: O'zbekiston, 1996.
31. Imomnazarov M, Eshmuxamedova M, Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T.: Toshkent islom universiteti. 2001.
32. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T.: Universitet, 1998.
33. M. Sharifxo'jaev, Z. Davronov. Ma'naviyat asoslari Darslik. T.: «Iqtisod-Moliya», 2005.
34. Otamurodov S. va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. T.: Meros, 2002.
35. Ma'naviyat yulduzlari T.: Meros, 2002.
36. Muminov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T.: «Fan», 1978.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. J.Rahimov J.«Ma'naviyat asoslari». O'quv qo'llanma, T.: TDYU, 2009.
2. Xo'jamurodov N. Ma'naviy qadryatlar va milliy o'zlikni anglash, T.: «Fan», 1991
3. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari T.: O'zbekiston, 1991.
4. Qayumov A, Alisher Navoiy, T.:»Fan», 1994.

5. Aliyev A. Ma'naviyat qadriyat badiyat. T.: Akademiya, 2000.
6. Jalalov A. Mustaqillik mas'uliyati. T.: «Fan», 1998.
7. Abilov U. Milliy g'oya. Ma'naviy omillar. T.: Ma'naviyat, 1999.
8. Yerkayev A. Ma'naviyat – millat nishonasi. T.: «Fan», 1994.
9. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. T.: Ma'naviyat, 1997.
10. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T.: O'zbekiston, 1996.
11. Sulaymonova F. Sharq va G'arb T.: Sharq, 1998.
12. Shayxova X, Nazarov K. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. T.: «Fan», 1992.
13. Qodirov A. Ma'naviyatning iqtisodiy tamoyillari. T.: O'qituvchi, 1999.
14. Soipnazarov I. Bozor iqtisodiyoti va shaxs kamoloti. T.: «Fan», 1996.
15. G'aybullohal Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzod. T.: «Fan», 1997.
16. Oripov M. Oila, ma'naviyat va ijtimoiy taraqqiyot. T.: «Fan», 1998.
17. Sh.Tulenov. Ma'naviy yuksalish siri, T.: Mehnat, 2000.
18. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'at. T.: G'ofur G'ulom, 2009.
19. Xusanov B, G'ulanov U. Muomala madaniyati. T.: «Fan», 2009.
20. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari. T.: Akademiya, 2007.
21. Milliy istiqlol g'oyasi: siyosiy tushuncha va tamoyillar. T.: Yangi asr avlodi, 2001.
22. Yuksak ma'naviyat yo'lida. T.: «Ma'naviyat», 2008.
23. Azizzoxjayev A. Davlatchilik va ma'naviyat. T.: Sharq, 1997.
24. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. T.: Cho'lpox, 1995.

25. B.Qosimov va boshqalar. Vatan va millat muqaddasdir. T.: O‘qituvchi, 1996.
26. I.Jumaboyev. Hayot mazmuni va komil inson muammosi. T.: «Fan», 1996.
27. Sh. Zunnun. Donishmandlar odob-axloq to‘g‘risida. T.: O‘qituvchi, 1996.
28. M. Imomnazarov. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T.: Sharq, 1998.

MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
----------------	---

I BO'LIM. MA'NAVIYAT VA UNING INSON KAMOLOTIDA TUTGAN O'RNI

1-mavzu. «Ma'naviyat asoslari» fanining predmeti, maqsad va vazifalari.....	7
1.1. Ma'naviyat tushunchasining ta'rifi va tarixi.....	7
1.2. «Ma'naviyat asoslari» fanining kategoriyalari, qonuniyatlar.....	16
1.3. Ma'naviyat asoslari fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari.....	21
2-mavzu. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiysi, uning milliy mustaqillikni mustahkamlashdagi ahamiyati.....	28
2.1. Milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning nazariy hamda amaliy ahamiyati.....	28
2.2. Islom Karimovning ma'naviyat tushunchasiga ta'rifi, uning nazariy va metodologik ahamiyati.....	39
2.3. Milliy ma'naviyatning tiklanishi va rivojlanishida Islom Karimovning xizmatlari.....	43
3-mavzu. Ma'naviyatning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro munosabatlari.....	50
3.1. Ma'naviyat va ma'rifat, ularning o'zaro bog'liqligi.....	50
3.2. Ma'naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati.....	55
3.3. Ma'naviyat va mafkura, ularning jamiyat va inson hayotida tutgan o'rni.....	61
3.4. Ta'lim-tarbiyaning shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi roli.....	70

4-mavzu. Ma’naviyat, iqtisod va ularning o‘zaro bog‘liqligi.....	77
4.1. Ma’naviylik va moddiylikning uyg‘unligi.....	77
4.2. Taraqqiyotning «o‘zbek modeli» tushunchasi.....	80
4.3. «O‘zbek modeli» tamoyillarining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jihatlari.....	89
4.4. Jamiyat taraqqiyotida rahbar ma’naviyatining o‘rni.....	103

5-mavzu. Ma’naviyatda milliylik va umuminsoniylik.....	111
5.1. Shaxs ma’naviyati va uning fazilatlari.....	111
5.2. Milliy ma’naviyat va uning xususiyatlari.....	115
5.3. Umuminsoniy ma’naviyat va uning zaminlari.....	122
5.4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida millatlararo madaniy- ma’naviy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi.....	128

II BO‘LIM. MA’NAVIYATNING TARIXIY, NAZARIY VA AMALIY ZAMINLARI

6-mavzu. Qadimgi va O‘rta asr Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari.....	131
6.1. Ma’naviyatning tarixiy ildizlari.....	131
6.2. Ma’naviyatning shakllanish jarayonlari, bosqichlari.....	142
6.3. O‘rta Osiyo – Sharqning yuksak ma’naviyat va tafakkur markazi.....	150

7-mavzu. Islom dinida ma’naviyat va shaxs ma’naviy qiyofasining talqini.....	161
7.1. Din – inson ma’naviyatining tarkibiy qismi.....	161
7.2. Tasavvuf va uning ma’naviy jihatlari.....	167
7.3. Diniy bag‘rikenglik, aqidaparastlik va ularning mohiyati.....	174

8-mavzu. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ma’naviyatning yuksalishi.....	186
8.1. Amir Temur – buyuk davlat arbobi, yuksak ma’naviyat sohibi.....	186
8.2. «Amir Temur tuzuklari» – ma’naviyat sarchashmasi.....	190

8.3. Amir Temur va temuriylar davrida ma'naviy-	
madaniy uyg'onish.....	196
8.4. Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan ma'naviy	
merosning ma'naviy tiklanishda tutgan o'rni.....	206

9-mavzu. Jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari	
va ularning xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi roli.....	210
9.1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ijtimoiy,	
siyosiy, ma'rifiy mohiyati.....	210
9.2. Jadidchilik harakati va ularning umumxalq ma'naviyatini	
yuksaltirishdagi roli.....	215
9.3. Mustamlakachilarning ma'naviy sohada olib borgan	
siyosati va uning salbiy oqibatlari.....	224

III BO'LIM. SHAXS MA'NAVIYATI TARAQQIYOTINING MEZONLARI

10-mavzu. Ma'naviy barkamol inson tushunchasi va	
uning sharqona ta'rifi.....	228
10.1. Ma'naviy barkamol inson tushunchasining mohiyati,	
ma'rifiy, axloqiy, ijtimoiy xususiyatlari.....	228
10.2. Komil inson va uning sharqona fazilatlari.....	232
10.3. Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga	
tahdid. Islom Karimov asarlarida barkamol inson	
konsepsiyasining asoslab berilishi va uning ahamiyati.....	236

11-mavzu. Vatanparvarlik, insonparvarlik va o'z	
millatiga sadoqat – shaxs ma'naviyati mezonlari.....	240
11.1. Vatanparvarlik tushunchasi. Vatanni ulug'lash har bir	
shaxsning insoniy burchi.....	240
11.2. Insonparvarlik – inson va jamiyat ma'naviy	
qiyofasining mezoni.....	245
11.3. Millatparvarlik va o'z millatiga sadoqat	
tushunchalarining mohiyati.....	248

12-mavzu. Ma'naviy fazilatlarni anglatuvchi tushunchalar...	252
12.1. Diniy va dunyoviy iymon-e'tiqod va ularning mohiyati....	252

12.2. O‘zbek xalqiga xos yuksak fazilatlar.....	257
12.3. Ma’naviy fazilatlarni anglatuvchi tushunchalar.....	261
<i>13-mavzu. Milliy o‘zlikni anglash – shaxs ma’naviy barkamolligi mezoni.....</i>	267
13.1. Ma’naviyatni shakllantiradigan mezonlar.....	267
13.2. Milliy o‘zlikni anglash va uning mohiyati.....	271
13.3. Huquqiy savodxonlik - ma’naviy yetuklik mezoni.....	275
13.4. Demokratiyaning ma’naviy-ma’rifiy jihatlari.....	278
<i>14-mavzu. Shaxs ma’naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari.....</i>	285
14.1. Islom Karimov shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari to‘g‘risida ilgari surgan g‘oyalar.....	285
14.2. Shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ota-onा va oila mas’uliyati.....	288
14.3. Adabiyot, san’at va boshqa omillar shaxs ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositasi.....	293
14.4. Eng buyuk jasorat – ma’naviy jasoratdir.....	298
Foydalanilgan adabiyotlar.....	309

B. Karimov, F. Ziyayev

MA'NAVIYAT ASOSLARI

O'quv qo'llanma

Muharrir: **N. Artikova**

Badiiy muharrir: **M. Adilov**

Kompyuterda sahifalovchi: **U. Raxmatov**

Nashr. lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 13.01.13 y.da berildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog'ozি №2. «Times» garniturasi.

Shartli b.t.20,0. Nashr hisob t. 20,0. Adadi 500 dona.

Buyurtma № ____.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi
100084. Toshkent. Kichik halqa yo'li, 7-uy

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida chop etildi.
100003. Toshkent. Olmazor, 171-uy

